

A.N.SHOPULATOV, F.M.YAQUBOV

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOTSIOLOGIYASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

A.N.SHOPULATOV, F.M.YAQUBOV

**JISMONIY TARBIYA VA
SPORT
SOTSIOLOGIYASI
(O‘quv qo‘llanma)**

5230200-Menejment (jismoniy tarbiya va sport menejmenti)

CHIRCHIQ – 2021

UO‘K 796(075)

КБК 75я73

T 63

Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi [Matn]: O‘quv qo‘llanma/A.N.Shopulatrov, F.M.Yaqubov.-Toshkent : " Elektron qo‘llanma", 2021.-242 b.

Mualliflar:

Shopulatrov A.N. O‘zDJTSU Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrası dotsenti

Yaqubov F.M. O‘zDJTSU Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Matkarimov R.M. pedagogika fanlari nomzodi, professor (O‘zDJTSU huzuridagi Ilmiy tadqiqotlar instituti direktori)

Nazarov N.N. falsafa fanlari nomzodi, dotsent (O‘zDJTSU)

Mazkur o‘quv qo‘llanma jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining konsepsiyasi, jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik xususiyatlari, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati, jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik muammolari, jismoniy tarbiya va sport tizimidagi harakatlar, sport faoliyatining sotsiologik muammolari, sport karyerasi, sportning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni, sport va shaxs ijtimoiylashuvi, jismoniy tarbiya va sportda sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish metodologiyasini o‘z ichiga olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2021-yil 30-avgustdagi 375-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat
berilgan.

(Qayd etish raqami 375-9)

© Shopulatrov A.N., Yaqubov F.M. 2021

© Elektron qo‘llanma, 2021

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
1-MODUL. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOTSIOLOGIYASI	
AMALIY FAN SIFATIDA	7
Mavzu: Sotsiologiyaning asosiy tushuncha va kategoriyalari	7
Mavzu: Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi fan sifatida	29
Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik konsepsiyasi	43
Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik xususiyatlari, ularning asosiy farqlari va uyg'unlashtirish yo'llari.....	68
2-MODUL. JISMONIY TARBIYA VA SPORT	
SOTSIOLOGIYASINING IJTIMOIIY-MADANIY XUSUSIYATLARI	92
Mavzu: Jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy institut sifatida. Sportning institutsional munosabatlari. Jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik muammolari. Jismoniy tarbiya va sport tizimidagi harakatlar.....	92
3-MODUL. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOTSIOLOGIYASIDA	
SHAXS MUAMMOSI	135
Mavzu: Sport faoliyatining sotsiologik muammolari	135
Mavzu: Sportchi karyerasi va sportchi kasbining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni.....	147
Mavzu: Sport va shaxs ijtimoiylashuvi	159
Mavzu: Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida va uning jamiyatdagi o'rni.....	181
Mavzu: Sport submadaniyati.	188
Mavzu: Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazish shakli sifatida. Sportda gumanizm muammosi. Sportda ijtimoiy nizo turlari.	197
Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportda aniq sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish metodologiyasi.....	205
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:	235

KIRISH

Dunyo taraqqiyoti o'z shiddatini shu tariqa davom ettirishi kundalik hayotimizga texnologiyalarning kirib kelishini kuchaytirib boradi. Bu esa o'z ortidan ma'lum bir qulayliklarni olib kelishi bilan birga insondagi harakatchanlik va faollik kabi ko'nikmalarning susayishiga olib keladi. Shuningdek, texnikaga bo'lgan qiziqishning ortishi insonlarning muloqotdan uzoqlashishga, begonalashuvning kuchayishiga, ijtimoiy hamkorlikning zaiflashuviga zamin yaratib beradi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarning tobora murakkablashib borishi, ular o'rtasidagi barqaror munosabatlarni shakllantirish zaruriyatining ortib borishi hamkorlikka asoslangan munosabatlarni yanada rivojlantirib borishini taqozo etmoqda. Mazkur munosabatlarning asosida sog'lom inson barqarorlikning kafolati bo'lib hisoblanadi. Hozirda jismoniy tarbiya va sportning vositalari va uslublaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoyev "jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish"ni davlat siyosati darajasiga ko'tarmoqda.

Jahon tajribasidan ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport rivojida bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Hozirda globallashtirish jarayonining tezlashishi, axborot oqimining kuchayib borishi barcha soha mutaxassislarning tafakkur tarzini rivojlantirib borish bilan bog'liq tadqiqotlarni talab qilmoqda. Bu holat bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur tarzini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Albatta, insonning hayoti davomida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanib borishida bir qancha omillarni o'rni va ahamiyat kattadir. Lekin, ma'lum bir omilni o'rganib boshqasini ahamiyatsizga chiqarish zamon taraqqiyotidan ortga qolishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham barcha omillarni, ayniqsa ijtimoiy-madaniy omillarni o'rganish hamda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga yetaklovchi omillarni kompleks tarzda ilmiy-tadqiqotlar asosida o'rganib borish muammoli hodisani anglash, uni yechimini topish imkoniyatlarini

kengaytiradi. Oldimizda turgan muammolar murakkablashgan sari, ularni yechishda shaxs va unda mavjud insonga oid bilimlarining roli ortib boraveradi. Shuningdek, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport tizimida mehnat qilib kelayotgan xodimlarning jamiyatdagi mavqei, o'ziga xos xususiyatlari, ularni sportdan keyingi hayoti kabi masalalarni qamrab oluvchi qarorlar qabul qilish, e'tibor qaratish zarur bo'lib bormoqda. Umuman jismoniy tarbiya va sportning barcha xususiyatlarini o'rganish orqali uning xalq orasida ommaviyligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Bunda dunyoda tobora rivojlanib borayotgan sport sotsiologiyasi fanini mamlakatimizda ham o'rganishni yo'lga qo'yish, uning tadqiqot metodlaridan foydalanish bo'yicha talabalarda malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, sohasidagi barcha muammolarini kompleks tarzda o'rganish imkoniyatini yaratadi.

1-MODUL. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOTSIOLOGIYASI AMALIY FAN SIFATIDA

Mavzu: Sotsiologiyaning asosiy tushuncha va kategoriyalari

REJA

- 1.Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar.**
- 2.Sotsiologiya fanining fan sifatida vujudga kelishi tarixi.**
- 3.Sotsiologiyaning obyekti va predmeti.**
- 4.Sotsiologiyaning kategoriyalari, metod va metodologiyalari, fanning funksiyalari.**

1.Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar. Inson yoki guruh oldida turgan vazifalar qanchalik murakkab va yuksak bo'lmagini, ularning barchasi insoniy munosabatlar harakteriga, odamlarning birgalikda yashashga bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlariga, ular o'rtasida umumiy qadriyatlarning mavjudligiga, axloq me'yorlariga, bugungi dunyoda ko'payib borayotgan nizoli vaziyatlarni hal qilishda murosali yechimlarni topa olishga borib taqaladi. Oldimizda turgan muammolar murakkablashgan sari, ularni yechishda shaxs va unda mavjud insonga oid bilimlarining roli ortib boraveradi. Mazkur bilimlar inson va u yashayotgan jamiyat hayoti farovonligida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bizga jamiyat va uning rivojida muhim xizmat qilgan mutafakkirlar ijodini, qarashlarini o'rganishga yetaklaydi.

Dunyodagi barcha mutafakkirlar farovon hayotni barpo etish haqidagi o'z g'oyalarini ilgari surishgan. Ularning barcha qarashlarida farovon hayotning negizi sifatida adolatli jamiyat tushunilgan. Insoniyat tarixining qaysi davrini olmaylik adolatli jamiyatni barpo etish uchun kechgan kurashlarning guvohi bo'lamiz. Barcha davrlarda jamiyat tuzumini o'zgartirish, inson manfaatlarini ulug'lash birinchi masalalar qatoriga ko'tarilgan. Mazkur jarayon va o'zgarishlar, jamiyat shakllarini o'rganish, undagi voqeliklarni ma'lum qonuniyatga solish, ularning manbalarini qidirish orqali maqbul yechimni topishga harakatlar bo'lib kelgan. Mazkur harakatlar jamiyat taraqqiyotini tahlil qiluvchi qarashlar, uning qonuniyatlarini bayon qiluvchi asarlarning yaratilishiga olib keldi. Har bir davrda o'zining yetuk mutaxassislarini kashf qildi. Buyuk mutafakkirlarning o'g'itlari, qarashlari, asarlari ham bugungi kunda yosh

avlodga jamiyat haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, ularning qarashlaridan yosh avlod kelajak hayotida vaqtdan boy bermaslikka, xato qilmaslikka, bilim va tajribalarini yanada boyitishda foydalanib kelmoqda. Shunday mutafakkirlardan biri Suqrotidir.

Suqrot (er.av 470–399). U haqda Aflotuning “Suqrotni alqab” asari mavjud, uni faqat shu asar orqali bilish mumkin. Sababi, Suqrot yozgan asarlar bizgacha yetib kelmagan. U omma orasida ijtimoiy fikrlari bilan dong’i ketgan, obro’ topgan mutafakkir hisoblanadi. Suqrot “Husndorlar o’z husnlariga dog’ tushirmaslik uchun, xunuklar esa o’z xunukligini aql-zakovatini tarbiyalash bilan bezamoq uchun tez-tez ko’zguga qarab tursinlar”, deydi. U xotiniga “Biz yashamoq uchun yeymiz, boylar esa ovqat yemoq uchun yashaydilar” degandi. Suqrotning ijtimoiy qarashlarini yana quyidagi fikrlardan bilsa bo’ladi: “Har qanday yomonlikning ildizi nodonlikda”, “Haqiqatni o’zingdan izla”. “Haqiqatga bahs orqali erishish mumkin”.

Aflotun (er.av427347). Uning falsafiy qarashlari “Bazm”, “Fedon” nomli dialoglarida, siyosiy qarashlari esa “Davlat”, “Qonunlar” nomli asarlarida bayon etilgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, alloma o’zidan keyin 35 dan ortiq dialog tarzda yozilgan asarlar qoldirgan. Dialogda “insoh farovonligi” sharti sifatida quyidagilar keltiriladi:

- 1) g’oyalarning abadiy tabiyatda ishtirok etishi;
- 2) g’oyalarni haqiqatga aylantirish;
- 3) ongning mavjudligi bilimga ega bo’shliq;
- 4) ba’zi sof hissiy lazzat turlaridan, masalan, kuyning sof ohanglari yoki rasmdagi gullarning lazzatidan bahramand bo’shliq.

Uning “g’oyalar” to’g’risidagi asosiy fikri shulardan iborat.

Aflotun fikricha, olamda “g’oyalar dunyosi” birlamchi bo’lib, moddiy dunyo esa uning mahsuli, soyasidir. “G’oyalar dunyosi” zamon va makonga bog’liq bo’lmay, u mangu harakatsiz va o’zgarmas, haqiqiy dunyodir. “G’oyalar dunyosi”da eng oliy g’oya–yaxshilik va baxt g’oyasi – Xudodir. Boshqa g’oyalarning hammasi u bilan bog’liq.

Arastu (er.av.384–322). Uning “Metafizika” (yoki “Birinchi falsafa”), “Fizika”, “Jon to’g’risida”, “Analitika”, “Kategoriyalar”, “Siyosat to’g’risida”, “Ritorika”, “Etika” kabi asarlari bilan sotsiologik an’analar rivojiga katta hissa qo’shdi. Uning ta’limoticha, jamiyatning qul va qul egalariga bo’linishi, quldorlarning hukmronligi va qullarning qulligi tabiiy holatdir. Axloqiy fazilatlar faqat erkin kishilarga, qul egalariga xosdir. U xalqni 2 yo’l bilan: qo’rquv urug’ini sohib hamda mehr-muhabbat qozonib boshqarish mumkin deydi.

Platon va Aristoteldan keyin T.Gobbs, J.Lokk, J.Mil, G.Leybnits, T.Kampanella, B.Paskal, Sh.Monteske, J.J.Russo, F.Gizo, B.Konstan, M.Veber va boshqalar jamiyat va davlatni boshqarishdagi muammolariga o'z munosabatlarini bildirganlar. Yangi davrning mashhur mutafakkiri J.Lokk o'z davridayoq fuqarolik jamiyatining xavfsizligi va uni muhofaza qilish institutlari genezisi haqida fikr yuritadi.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy (783-850) - Markaziy Osiyoning jahonga mashhur olimlaridan biri. U qomusiy olim sifatida dunyoga taniladi. Ko'proq Bog'dodda yashagan. Xalifa Ma'mun rahnamoligida Sharqning fanlar akademiyasi – "Baytul-hikma" ("Donishmandlar uyi")da ishladi. U bu yerda juda ko'plab matematik, astronomik kuzatishlar olib bordi. Xorazmiy "Ilmlar kalitlari" asarida ilmlarni 2 qismga: 1) an'anaviy arab ilmlari va 2) ajam (arab bo'lmagan) ilmlarga ajratgan. Xorazmiy algebra fanining asoschisidir. "Algebra" so'zi uning tomonidan kashf etilgan, tenglamalarni yechish metodi esa "aljabr" bilan bog'liqdir.

Abu Nasr Forobiy (873–950). U o'zining ko'plab ijtimoiy fikrlari bilan sotsiologik bilimlar rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning "Fozil shahar aholisi qarashlari haqida kitob", "Ijtimoiy axloqiy risolalar", "Falsafiy risolalar" kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqidagi fikr–mulohazalarda yoritilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tuzumini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan. Forobiy sotsiologiyaga doir quyidagi o'gitlarni yozib qoldirgan:

1) Turli masalalar xususida fikr yuritish, ularning tarkibi, farqi, ehtimoli va mutloq mulohazalarni tiniq, puxta tahlil etish.

2) Keskin va mutlaq (ya'ni e'tirozga o'rin qoldirmaydigan) mulohaza xususida fikr yuritish.

3) Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan va bo'lmagan farqli mulohazalar xususida fikrlash, ularning qanday holatlarda qarama-qarshi kuchga aylanib qolishini o'rganish.

4) Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikrlar, mulohazalarning qanday ko'rinishlarga ega ekanligini qayd etish.

5) Haqiqiy mezon asosida har bir mulohazaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirish va ularning qanday ahvoldaligini o'ylab ko'rish.

6) O'zgaruvchan, o'zgarmas va o'zgaruvchi mulohazalarning o'zgarish ma'no va sabablarini bilib olish.

7) Ma'lum bo'lgan umumiy fikrdan kelib chiqmaydigan mulohaza ko'rinishlari xususida fikrga ega bo'lish.

8) Fikr–qarashlar ta’rifi, ularning nimalar asosida turishi, tarkib topganligini, ehtimolli va mutlaq fikr–qarashlar haqida ilmiy tasavvurlarga ega bo‘lish lozim.

Demak, har qanday sotsiolog:

a) ijtimoiy fikr; b) har bir individ fikrini tahlil va sintezdan o‘tkazishi kerak.

Forobiy fikricha, davlat-ijtimoiy tuzumni boshqaruvchi tashkilot, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko‘p jihatdan davlat boshlig‘i, hokimning fazilatlariga bog‘liq. «Fozillar shahrining birinchi boshlig‘i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan 12 xislat, fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarur», deydi. Bular:

1) hokimning to‘rt muchchasi sog‘-salomat bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni oson bajarishi lozim;

2) nozik farosatli, xotirasi yaxshi, zehnli, fikrini ravshan tushuntira oladigan, bilim, ma’rifatga havasli bo‘lishi;

3) taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo‘lmasligi, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi va haqiqatni sevadigan, yolg‘on va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan, oliyhimmat bo‘lishi, oliy ishlarga intilishi zarur;

4) mol-dunyo ketidan quvmaydigan;

5) tabiatan adolatparvar, istibdod va jabr-zulmni yomon ko‘ruvchi, sabotli, jur‘atli, jasur bo‘lish, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymaslik kabi xislatlardir.

Forobiy o‘z zamonasining qomusiy olimlaridan biri bo‘lib, ilk bor to‘liq ilmlar tasnifini yaratdi. Uning «Kitob fixsoal-ulum va at-ta’rif» («Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi») yoki qisqacha nomi «Ixsoal-ulum» («Ilmlar tasnifi»).

Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Beruniy Markaziy Osiyodagina emas, balki umuman Sharqda, jahon fani va madaniyati tarixida ham eng ulug‘ va buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi. U o‘zining «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar», «Mineralogiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. «Mineralogiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, yerdagi burchi, olijanoblighi, jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat to‘g‘risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan. «Amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni “Beruniy asri” deb ta’riflaydi. Beruniy ilmiy masalalarda ham tarixiy voqea –hodisalarga, o‘z zamondoshlariga baho berishda ham o‘ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan”.

Beruniy tom ma'noda o'z davri etnosotsiologi ham edi. «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar» asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian-molikiylar va xristian-nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi, bu yerdagi xalqlarning urf-odatlarini, yil, oy va tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlar, marosimlar, nikoh masalalari to'g'risida ishonchli fikrlar keltirgan.

Beruniy tabiat, unda cheksiz ravishda ro'y berib turadigan tabiiy hodisalar, jarayonlar xususida muhim ilmiy – falsafiy g'oyalarni ilgari suradi va isbotlab berdi. Olamda bo'lib turadigan o'zgarishlar, ya'ni tuzilish va buzilishlarning, paydo bo'lish va yo'qolishlarning o'ziga xos sabablari borligi haqida tabiiy –ilmiy va sotsiologik mulohazalarini o'rta tashlaydi.

Ibn Sino o'zining bir nechta falsafiy risolalarida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy munosabatlarni atroflicha yoritib bergan. Mutafakkirning “Solomon va Ibsol”, “Yusuf qissasi” kabi asarlari bunga misol bo'la oladi.

Ibn Xoldun (Ibn Xoldun Abdurahmon Abu Zayd (1332-1406) – arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining asarlarida “Sotsiologiya” (arab.ilmal-ijtimo) faniga oid dadil fikrlarni o'rta tashlagan va Sharqda haqli ravishda shu fan asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning “Kitob-ul-Ibar” (1370) asarining muqaddima qismida tarixiy sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. U insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatlari va taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratdi. Sharqning yetuk sotsiologi bo'lgan Ibn Xoldun “Muqaddima” (1381) asarining “Kirish” qismidagi dastlabki bo'limni “Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida” deb nomlagan. Ibn Xaldun sotsiologik ta'limotining asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

1) “Insoniyat jamiyati vujudga kelishining mohiyati sabablari, mavjudligi va mazmunli hayot kechirishning asosiy shart-sharoitlari, avvalo ularning (insonlarning) o'zaro munosabatlaridan iborat bo'ladi.

2) Tabiiy fizik–jo'g'rofiy muhitning hayotga ta'siri jismoniy qiyofa va kishilarning ruhiyatida ko'rinib, bu jarayonda ikki-tabiiy jo'g'rofik va ijtimoiy muhit bir – biri bilan bevosita munosabat va ta'sirda bo'ladi.

3) Tabiiylikdan yuqori bo'lgan kuchning jamiyat hayotiga ta'siri va bu ta'sirdan qutilish imkoniyatlari.

4) Insoniyat jamiyat kishilarning ana shu birikmasi birlashmasining natijasidir.

5) Bunday insoniyat uyushmalarini boshliqlar boshqaradi va uning tanlanishi Alloh tomonidan emas, balki insonning hayot vositalariga bo‘lgan intilish va tabiiy ehtiyojlari tufayli sodir bo‘ladi.

Ibn Xaldundagi bu qarashning yunon faylasuflari Arastu va boshqalarning “inson siyosiy mavjudotdir” degan g‘oyasidan farqi ham shundadir.

6) Insonning ijtimoiy mavjudligini uning faqat ma’naviy tabiatidan emas, balki tabiiy ehtiyojlaridan keltirib chiqaradi.

Kishilar mavjud ekan, ularning ehtiyoj va intilishlari o‘rtasida farq bo‘lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlari hamda shaxslar o‘rtasida kelishmovchilik, qarama-qarashliklar sodir bo‘ladi. Bu esa tartib o‘rnatish va tashkil qilinishlarini o‘rtaga qo‘yadiki, buni «hokimiyat» amalga oshiradi. Bu g‘oya ham Ibn Xaldun qarashlarining muhim xulosalaridandir.

Ibn Xoldun mulkni va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi kuch esa davlatdir, deb yozadi.

2. Sotsiologiya fanining fan sifatida vujudga kelishi tarixi. Sotsiologiya (lotincha societas –jamiyat va yunoncha Logos – ta’limot) – so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, jamiyat haqidagi fan ma’nosini anglatadi. Aniqroq qilib aytganda, u yaxlit tizim sifatidagi jamiyat, alohida institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarni o‘rganuvchi fan. “Sotsiologiya” haqidagi tushuncha birinchi marotaba XIX asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan. Uning tushunishicha sotsiologiya jamiyatga talluqli bo‘lgan hamma narsalarni o‘z ichiga olgan jamiyatshunoslik bilan bir qatorda turgan. Sotsiologiya – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning tarkibiy qismidir. U XVIII asrda kishilik jamiyati va uning qonuniyatlarini o‘rganuvchi mustaqil fan sifatida tarix falsafasida shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo‘ydi.

Sotsiologiya XIX asr boshlaridan boshlab o‘ziga xos ilmiy metodlar asosida falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo‘ldi. Shunga ko‘ra sotsial sistemaning taraqqiyoti va faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlari haqidagi mustaqil fan sifatida XIX asr 30-yillarida ilmiy muomalaga «Sotsiologiya» atamasi kiritilgandan so‘ng shakllandi. Jamiyat haqidagi «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o‘rtalarida yuzaga keldi.

Sotsiologiyani asoschisi fransuz mutafakkiri O.Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. Uning vatandoshi E.Dyurkgeym sotsiologiyani predmetini sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi.

Marksizmda sotsiologiyani predmeti ijtimoiy tizim sifatida jamiyat va uning tuzimi va iyelementlarini tashkil etgan shaxslar, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlarni ilmiy asosda o'rganish hisoblanadi.

Kont kuchli davlat tarafdori, xususi mulk himoyachisi edi, sinfiy totuvlikni keng targ'ib etdi. XVII–XVIII asrlarda sotsiologiya fanining shakllanishida hal qiluvchi rolni o'ynagan “jamiyat”, “madaniyat”, “sivilizatsiya”, “sinflar”, “struktura”, “funksiya” va boshqa atamalar ilk bor paydo bo'ladi.

“Sotsiologiya” atamasi faqat XIX asr boshida – 1838 va 1840-yillar oralig'ida paydo bo'ldi. Uni fransuz olimi Ogyust Kont (1798–1857) yaratdi. Birinchidan, uni eng kuchli va samarali falsafiy yo'nalishlardan biri, ya'ni pozitivizmning asoschisi sanashadi. Ikkinchidan, u qudratli empirik fan – sotsiologiyani otasi hisoblanadi. O.Kont unga nom berdi, uning predmeti va metodlarini belgiladi. XIX asrda jamiyat to'g'risidagi tajribali, empirik fanning vujudga kelishi tasodif emas, balki muayyan gnoseologik va ijtimoiy – iqtisodiy shart-sharoitlarga ega edi. O.Kont yangi fanni yaratar ekan, taxminan quyidagicha fikr yuritgan: «jamiyatni uning turli – tuman namoyon bo'lish jihatlarida anglash uchun falsafaning o'zi yetarli emas. Jamiyatni boshqa masalalar bilan bir qatorda emas, balki maxsus tarzda faqatunga e'tibor bergan holda o'rganadigan maxsus fan kerak. Jamiyat to'g'risidagi yangi fan mustaqil bilim sifatida shakllanishi uchun u bilishning falsafiy metodini rad etishi va o'zining metodini o'ylab topishi kerak. Ammo hozircha uning o'z metodlari yo'q ekan, sotsiologiya tabiatshunoslikdan kuzatish, eksperiment va solishtirma tahlil kabi usullarni o'zlashtirishi lozim». Fanga sotsiologiya nomini bergan O.Kont o'z ijodida taraqqiyot, siyosiy va iqtisodiy erkinlik ideallariga tayangan holda, u fan va ma'rifat yordamida barcha ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligiga umid qiladi. Nosog'lom jamiyatni qanday davolash mumkin, degan savolga O.Kont shunday javob beradi: «tabiatshunoslik fani qanday bo'lsa, jamiyat haqida ham xuddi shunday aniq va obyektiv fanni yaratish kerak». Sotsiologik g'oya jadal rivojlanayotgan Yevropa jamiyatidagi inqirozga javob bo'ldi. Yangi tafakkurning maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ochiq-oydin qilishi mumkin bo'lgan intellektual vositalarni rivojlantirishdan iborat edi.

O.Kontning vatandoshi Emil Dyurkgeymni amaliy sotsiologiyaning kashfiyotchisi deyishadi. U hozirgacha qo'llanib kelinayotgan funksional tahlil metodologiyasini yaratgan, o'z joniga qasd qilish muammosini chuqur tahlil qilgan. Uning bu ishlari bugungi kunda ham sotsiologik tadqiqot qanday bo'lishi kerakligiga mukammal misol bo'lib xizmat qilmoqda. E.Dyurkgeym ayni paytda ham o'zining dolzarblik qiymatini yo'qotmagan anomiya nazariyasi asosini yaratgan. Uningi jtimoiy mehnat taqsimoti, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati, kollektiv ong va qadriyatlar, din evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti jahon sotsiologiyasining oltin fondiga kirgan.

Nafaqat Fransiya, balki Germaniya ham jahonni buyuk sotsiologlari – Maks Veber, Georg Zimmel, Ferdinand Tennis bilan lol qoldirgan. Masalan, bugungi kunda Veberning 30 dan ziyod jilddan iborat asarlar to'plami nashr etilgan. Karl Marks (1818–1881) ijtimoiy nizo nazariyasi, jamiyat tuzilmasi va rivoji haqidagi ta'limot, ijtimoiy sinflar konsepsiyasining asoschisi hisoblanadi. U umuman ijtimoiy faylasuflar orasidagi eng yirik shaxsdir. K.Marks bilan bir qatorda nemis mutafakkiri Maks Veberni (1864–1920) ham ko'rsatib o'tish zarur. Uni ikkilanmasdan sotsiologiyaning Leonardo da Vinchisi deyish mumkin. Uning asosiy nazariyalari bugun sotsiologiya fanining poydevorini tashkil etadi: ijtimoiy harakat va motivatsiya, mehnatning ijtimoiy taqsimoti, begonalashuv, kasbga moyillik haqidagi nazariyalar. U din sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya va mehnat sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi asoslarini, byurokratiya nazariyasini, ijtimoiy stratifikatsiya va statusli guruhlar konsepsiyasini, siyosatshunoslik va hokimiyat instituti asoslarini, jamiyatning ijtimoiy tarixi va ratsionalizatsiya haqidagi ta'limotni, kapitalizm evolyutsiyasi va mulkchilik instituti to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. M.Veberning yutuqlari shu qadar ulkanki, ularni sanab tugatib bo'lmaydi. Ideal tiplarning kiritilishi uning metodologiya sohasidagi eng asosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi.

M.Veber, F.Tennis (1855–1936) va G.Zimmelning (1858–1918) sharofati bilan nemis sotsiologiya maktabi Birinchi jahon urushiga qadar jahon sotsiologiyasida ustunlik qildi. Angliyada jahon sotsiologiyasi faniga ijtimoiy evolyutsiya haqidagi nazariyani yaratgan va kishilik jamiyatiga tirik organizm sifatida qaragan Gerbert Spenser (1820–1903) ulkan hissa qo'shgan. F.Tennis o'zining “Jamoat va jamiyat” (1887) deb nomlanuvchi bosh asarida keyinchalik klassik tipologiyaga aylangan ijtimoiylik tipologiyasini, ya'ni bevosita shaxsiy va qarindoshchilik munosabatlari

hukmron bo'lgan jamoa va formal institutlar ustuvor bo'lgan jamiyatni taklif qiladi.

Birinchi bosqichda (XIX asr oxiri – XX asr boshi) uchta mamlakat: Fransiya, Germaniya, Angliya jahon sotsiologiya fanining markazi hisoblangan. Albatta, boshqa mamlakatlarda ham milliy sotsiologiyaning rivoji uchun ko'p ish qilgan ajoyib mutafakkirlar bo'lgan. Rossiyada ular qatoriga N.Kareev, N.Mixaylovskiy, M.Kovalevskiy, V.Xvostovlarni qo'shish mumkin. Biroq ular jahon sotsiologiyasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadilar. Pitirim Sorokin (1889–1968) bundan mustasno. Uni sotsiologik muammoni qamrashida universalligi, jahon sotsiologiyasiga qo'shgan nazariy va metodologik ahamiyati jihatidan M.Veber bilan tenglashtirish mumkin. Rossiyada tug'ilib, AQShda vafot etgan aynan shu mutafakkir sotsiologiyaning dong'ini yoydi.

XX asrning 20-yillaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan keyingi bosqichda jahon sotsiologiyasi markazi AQShga ko'chadi va bu yerda sotsiologiya faniga davlatdan ancha ko'mak va ko'pchilik universitetlarning katta yordami tegadi. Doktorlik darajasini beruvchi dunyodagi birinchi sotsiologiya fakulteti 1892 yili Chikago universitetida paydo bo'ladi. 1910 yilga kelib, Amerika universitetlari va kollejarining aksariyati talabgorlarga sotsiologiya kurslarini taklif qila boshlaydi.

Emil Dyurkgeym (1858–1917) O.Kontning pozitivizm metodologiyasini chuqurlashtirdi, ko'p hollarda esa uni qayta yo'naltirdi. Dyurkgeym ijtimoiy faktlarga tayanishni va ularning statistik o'rganishni taklif qiladi: u bir ijtimoiy faktlarni (o'z joniga qasd qilish) boshqa ijtimoiy faktlar (integratsiya) yordamida tushuntiradi. Dyurkgeym zamonaviy sotsiologiyaning yangi metodologiyasini beradi. Uning metodologik pozitsiyasiga ikkita xususiyat xos: naturalizm – jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga o'xshashligi asosida tushunish hamda sotsiologizm–ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligi va avtonomligini, uning individlardan ustunligini tasdiqlash. Dyurkgeymning ilmiy ijodida, butun fransuz maktabidagidek singari, ijtimoiy hamjihatlik muammosi markazi hisoblanadi. Unga ko'ra insonlar jamiyatining rivoji ikki fazadan o'tadi: mexanik hamjihatlik (sanoatlashishdan ilgarigi yoki an'anaviy jamiyat) va organik hamjihatlik (sanoatlashishdan ilgarigi, so'ngra esa sanoatlashgan jamiyat).

Sotsiologiya tabiatiga aynan yangicha nazari tufayli Amerika tez orada ilmiy sotsiologiyani yaratish borasida Yevropadan o'zib ketadi. Ammo sotsiologlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, Amerika dunyoga faqat

bitta haqiqiy milliy oqimni–simvolik interaksioniz moqimini va faqat bitta buyuk sotsiologni - Tolkott Parsonsni (1902–1979) bera oldi. Albert Eynshteyn fizikada amalga oshirishga intilgan nazariyasini T.Parsons sotsiologiyada ham xuddi shunday amalga oshirishga, ya'ni jamiyatning barcha darajalarini va ijtimoiy materiya harakatining barcha shakllarini tushuntirib bera oladigan keng qamrovli sotsiologik nazariyani yaratishga urindi. U kishilik voqeligining xilma-xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi mavhum tushunchalarning ulkan deduktivtizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. AQSh mana shu xususiy sotsiologik nazariyalar borasida ancha muvaffaqiyat qozondi. Amerika dunyoga buyuk olimlarning eng ko'p sonli guruhini taqdim etdi: E.Shilz, P.Lazarsfeld, R.Merton, Ch.Kuli, J.Mid, I.Gofman, J.Aleksander, D.Bell, T.Veblen, A.Gouldner, R.Mills, D.Rismen, U.Samner, A.Smoll, A.Toffler, J.Xomans. Ular zamonaviy sotsiologiyaning ilmiy mazmunini belgilab berishdi. Agar Y evropada sotsiologik g'oya falsafa bilan chambarchas bog'liq xolda rivojlangan bo'lsa, Amerika sotsiologlari orasida sotsiol psixologiya keng tarqaldi. Ikkala madaniyat vakillari ham jamiyat evolyutsiyasi va faoliyatini tushuntirishga harakat qilishdi va buni turlicha usulda bajarishdi: Yevropaliklar ko'proq global tarixiy sxemalarga suyanishsa, amerikaliklar konkret modellar va amaliy ishlanmalarga tayanishdi.

Amerikaliklar falsafiy substantsiya o'rniga xulq-atvor va harakatga urg'u berishdi. Ularni idrok ichida yashiringan va aniq o'lchab bo'lmaydigan narsa qiziqtirmasdi, aksincha sirtida, ya'ni ochiq xulq-atvorda namoyon bo'ladigan narsa o'ziga tortardi. Shu tarzda XX asrning birinchi yarmida barcha ijtimoiy fanlarni (iqtisodiyot, ruhshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik) o'ziga bo'ysundirgan bixeviorizm (ingliz tilidan behavior–xulq-atvor) vujudga keladi. Endi ularga xulq-atvorga asoslangan, yoki bixevioral fanlar yorlig'i biriktiriladi. Shu nom bilan, to'g'rirog'i xulq-atvorga asoslangan (XX asr boshida Yevropada bo'lganidek falsafaga asoslanmagan) sotsiologiya hozirgi kunlarga yetib keldi.

3. Sotsiologiyaning obyekti va predmeti. Zamonaviy sotsiologiyaning predmeti va obyekti. Fan predmeti–fundamental tushunchalarning mantiqiy o'zaro bog'langan va qarama-qarshi bo'lmagan tizimi xisoblanib, mazkur fanning tadqiqot usullariga yo'naltirilgan obyektiv reallik qismini ifodalaydi. Fan predmeti deb ataladigan tushunchalari faqlarni muntazam, takrorlanadigan hodisalar bo'yicha tartibga soladi va tashkil etadi. Sotsiologni tanxoligi yoki noyobligi emas, qonuniyligi yoki tipikligi qiziqtiradi.

Sotsiologiya bu ijtimoiy tizimlar, ularning vazifalari, ijtimoiy tizim va jamoalarning (dunyo, jamiyat, institut, guruh, tashkilot, oila, shaxs) harakatlanish va rivojlanish (faoliyati va o'zaro ta'siri) qonuniyatlari (qonuniyatlar, tendensiyalar) haqidagi fandir. Sotsiologiya tabiiy va texnik fanlar bilan ko'pgina umumiylikka ega. Mazkur o'zaro munosabatlarning sababi shundaki, sotsiologik bilishning obyekti jamiyat hisoblanadi. Biroq «jamiyat» tushunchasini sotsiologiyani predmeti sifatida dastlabki aniqlash uchun belgilash yetarli emas. Jamiyat barcha gumanitar fanlar tadqiqotining obyekti hisoblanadi. Tadqiq etuvchining faoliyati yo'naltirilgan barcha narsalar bilish obyekti hisoblanadi. Bunga muvofiq ravishda sotsiologiya obyekti deganda jamiyatning yaxlit sotsial voqeligi tushuniladi, unda obyektiv ijtimoiy hodisalarni ajratishimiz mumkin (ya'ni ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy subyektlar).

Sotsiologiya predmetlariga shaxs, ijtimoiy guruhlar, jamoa va butun jamiyat faoliyati va rivojlanishi qonun va qonuniyatlari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayoti (sotsial subyektlarning ijtimoiy mavqelar, rollar, ijtimoiylashuv muammolari bo'yicha o'zaro ta'siri) kiradi. Zamonaviy sotsiologiya predmeti –uzoq vaqt davom etgan tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, ko'plab olimlar avlodlarining mehnatlari mahsulidir, ulardan har biri yangi bilim tamoyillarini qo'shib borgan, yuzaga kelgan vaziyatni ko'rib chiqqan, tanqid qilgan, bahs-munozara olib borgan, yangilik kiritgan, tekshirgan va shu yo'l bilan bugun sotsiologiya predmeti sohasiga kiritilganlarni barchasini elakdan o'tkazgan. Sotsiologiya predmetining bosh sababchisi ikkita tushuncha hisoblanadi - «status» va «rol». Birinchisi jamiyatning statistik, ikkinchisi esa dinamik tasvirini ochib beradi. Insonning guruhdagi yoki jamiyatdagi o'rni, holati status (mavqe) deb ataladi. To'ldirilmagan mavqelarning majmui bizga jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini beradi. Ijtimoiy mavqelar ijtimoiy munosabatlar bilan, shaxsiy mavqelar esa shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq. Sotsiologiya uchun insonlar qanday shaxsiy munosabatlarga kirishishlari emas, balki ular orasidan qandaydir asosiyroq bo'lgan qarashlar, ya'ni sotsial munosabatlar muhimdir.

Jamiyat haqidagi fanlar umumiy tizimida sotsiologiya fani xususiyatini yuqorida zikr etilgandek tushuntirish, hozirgi zamon sotsiologiyasining predmetini shunday ta'riflashning imkonini beradi: Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Sotsiologiya jamiyatni mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati, ularning harakat tendentsiyalari va taraqqiyot qonuniyatlarini sotsial tashkil etilgan

tizimda tadqiq etadi. Shuningdek, sotsiologiya asosiy e'tiborni jamiyatni har-xil ijtimoiy va hududiy tuzum bosqichlarida vujudga keladigan keng ma'nodagi insonlararo munosabatlari va jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratuvchi fandır. Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy–axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o'tkazadi. Mamlakatimizda sotsiologiyani roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. Buni tushunish mumkin, chunki O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy– siyosiy va ma'naviy iqlim shakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, sotsial tarkibda o'zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Vatanimizda sotsiologiya hech qanday to'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi. Sotsiologik fikrlashning eng muhim jihati jamiyat hayotida inson shaxsini tushunishdan iboratdir. Shaxsga bo'lgan sotsiologik nuqtai nazarining o'ziga hosligi shundan iboratki, bu fan unga ijtimoiy voqelikni o'zgartiruvchi faol mavjudot sifatida qaraydi. Ijtimoiy institutlar ko'p jihatdan inson axloqini ifodalaydi, ammo ayni shu vaqtning o'zida ular inson faoliyatining ifodasi va indvidlarning o'zaro ijtimoiy ta'siri xosilasidir. Jamiyat to'g'risidagi hozirgi bilimlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular sotsiologik fikrlashning kuchli ta'siri ostidadir. Jamiyatimizda kuzatilayotgan murakkab jarayonlarni sotsiologik tahlilsiz to'g'ri tushunish mumkin emas. Mamlakatimizda sotsiologiyani keyingi rivojlanishi va takomillashtirilishi jamiyatni chuqur o'rganish va anglash, jamiyat oldida turgan o'tish davrining murakkab muammolarini ancha samaraliroq yechishga imkon beradi. Sotsiologiyani turli yo'nalishlarida fanning obyekti va predmeti muammosini yechish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar.

Sotsiologiya - yaxlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shaxslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishini o'rganuvchi fandır. Sotsiologiya obyekti jamiyat hisoblansada, lekin sotsiologiya predmetining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat tushunchasini ajratib ko'rsatish yetarli emas.

Sotsiologiyani ilmiy maqomini asoslashning mohiyati uning obyekti va predmeti o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

Obyektni bilish – tadqiqot obyekti nimaga yo'naltirilganligi va obyektiv voqelik sifatida unga nima qarama-qarshi turganligini anglatadi.

Har qanday hodisa, jarayon yoki obyektiv voqelikning o'zaro munosabati turli fanlarning (fizika, ximiya, biologiya, psixologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya va hokazolar) obykti bo'lishi mumkin.

Predmet obyekt kabi obyektiv voqelikning bir qismi yoki uning elementlari yig'indisi bo'lib, umumiy yoki o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir fan o'z navbatida predmeti nuqtai nazaridan farq qiladi.

Ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilararo aloqalar, o'zaro bog'liqliklar majmuasi - sotsiologiya fanining obykti vazifasini o'taydi.

Obyekt va predmet hamma vaqt bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki, obyekt mohiyatni to'g'ri tushunish, ilmiy tadqiqot yo'nalishini xolis belgilay olish imkonini beradi.

Demak, sotsiologiyaning obykti jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalaridir.

Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo'libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'z obyektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi sotsiol reallik bo'lib, u inson va jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar va ularning o'zaro tashkil etilish usullari sotsiologiyaning obykti bo'ladi. Insonlar o'zaro aloqalarga, hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Sotsiologiya ijtimoiy muhitni tadqiq etganda umummilliy tushuncha va kategoriyalardan kelib chiqadi. Xususan, obyektiv va subyektiv, erkinlik va zaruriyat, borliq va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib sotsiologik obyekt mohiyatni talqin etadi.

Sotsiologiya sotsial obyektini sotsial subyektlar orqali (shaxs, guruh, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyati va tafakkur tarzi) tahlil qiladi.

Sotsiologiya turli sotsial sohalarini tadqiq etish asosida ularning o'ziga xos ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlaydi. Muayyan sotsial guruhlar tahlili va tasnifi orqali u jamiyat va inson to'g'risidagi umumiy qarashlar, qonunlar va tendensiyalarni yaratadi, rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologiya o'z obykti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shug'ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya kabilar. Sotsiologiya bu sohalarida inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa

sohalardagi o'rni, rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus obyekti asosida yakka shaxs faoliyatining, konkret namoyon bo'lishining empirik darajasini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

O.Kont fikricha, obyekt va predmet qarama-qarshiliklardan iborat. Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini 3 bosqichda o'rganadi:

1. Aniq- empirik.
2. Xususiy (maxsus).
3. Umumiy.

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umumsotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Sotsial degan tushuncha sotsial aloqalar hamda munosabatlar va ularni tashkil etish usullari, sotsiologiya bilish obyektining o'ziga xosligini ochib bersa, sotsial qonuniyatlar esa sotsiologiya fani predmetini aniqlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitiga moslab, zamonaviy sotsiologiyada biz quyidagi o'rganish obyektlarini ajratamiz:

1. Ijtimoiy bosqich: (jamiyat, ijtimoiy qatlam, ijtimoiy guruh, mahalla, oila, shaxs)
2. Milliy bosqich: (millat, elat, etnik guruh, avlod, milliy oila, individ)
3. Tarmoqlar bosqichi (iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, fan, ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat, ekologiya va boshqalar)
4. Xududiy bosqich: (mintaqa, mamlakat, viloyat, shahar, tuman, qishloq, mahalla).

Sotsiologiyaning predmeti:

Inson hayot tarizining konkret jihatlarini, odamlarning fe'l-atvori jamiyatdagi o'rni va intilishlaridan, turli hayotiy vaziyatlardagi takroriy harakatlaridan iborat. Vaholangki, oilada, ko'chada, transportda, do'konda, ishxonada, o'quv auditoriyasida, xullas barcha vaziyatlarda inson xulqining takrorlanuvchan ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin. (Masalan, odam do'konga kirganida, sotuvchidan qanday muomala kutishni biladi).

Sotsiologiyaning predmeti:

Agar fanning obyekti uning nimani o'rganish kerak degan savolga javob bersa, predmet esa o'sha obyektning qaysi jihatlarini o'rganadi? degan savolga javob beradi. Quyida sotsiologiyaga doir bir qancha ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Sotsiologiya – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o'rni, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fandır.

Sotsiologiya – ayni vaqtda jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini o'rganadigan fan hamdir.

Sotsiologiya – jamiyat tuzilishi, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini va shu tuzumda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni o'rganadigan fandır.

Sotsiologiya – shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko'nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko'maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishda jismoniy, emotsional-psixologik va ma'naviy imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradigan fandır. O'z navbatida sotsiologiya va uning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng qulay variantlarni, ijtimoiy-madaniy modellarni topishdan iboratdir. Bular jamiyat va insonning o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir.

Sotsiologiya va uning vazifasi murakkab sotsial dunyoni tashkil etuvchi o'zaro birikuvchi va harakat qiluvchi tuzilma va mexanizmlar mohiyatini aniqlashdan hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdan ham iboratdir.

Shunday qilib, sotsiologiya aniq ijtimoiy tizimlar amal qilishining sotsial qonun va qonuniyatlari haqidagi, ushbu qonun va qonuniyatlarning shaxslar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida namoyon bo'lishi va ta'sir ko'rsatishi mexanizmi haqidagi fandır.

Sotsiologiya va uning mavqei, roli va o'rnining nazariy va amaliy asoslanishida sotsial degan tushuncha asosiy hisoblanadi. «Sotsial» tushunchasi birinchi marta Karl Marks tomonidan qo'llanilgan. U odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, hayot tarzi, sharoitlari va dalillarini hamda insonning jamiyatda tutgan roli, holatini tahlil etganida «Sotsial» munosabatlar tushunchasini qo'llagan.

Ma'lumki, sotsial u yoki bu xususiyatning va sotsial munosabatlarning o'ziga xos yig'indisidir. Har qanday sotsial munosabatlar tizimi (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) odamlarning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatiga talluqli hisoblanadi. Sotsial degan tushunchaning o'ziga xosligini harakterlovchi quyidagi asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi, bu xususiyat turli guruh, individlar uchun ta'alluqli va ular tomonidan sotsial munosabatlarning u yoki bu xususiyatini integratsiyalash natijasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi sotsial munosabatlar (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) bilan bog'langan individlarning va ularning guruhlarini o'rtasidagi turli munosabatlarning mazmuni va harakterini anglatadi.

Uchinchidan, sotsial jihat turli individ va guruhlarining bir-biriga, jamiyatda tutgan o'rniga, ijtimoiy hayot,voqelik va jarayonlarga munosabatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, individlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning namoyon bo'lishi birgalikdagi faoliyat natijasi demakdir.

Sotsiologiya ijtimoiy hayotni u yoki bu formada va sohada o'rganar ekan, u avvalo sotsial voqelik haqidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tasvirlash, tushuntirish, sotsiologiyani asosiy metodologiyasini va sotsiologik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi ilmiy muammolarni hal etadi.

4. Sotsiologiyani kategoriyalari, metod va metodologiyalari, fanning funksiyalari.

Sotsiologiyani funksiyalari

Gnoseologik - (nazariy bilish) jamiyat to'g'risidagi yangi konsepsiyalar, sotsiologik bilimlarni olish imkonini beradi.

Boshqarish - bevosita boshqarmaydi balki boshqaruvning yangi usullarini taklif etadi. Muammolarni hal etish yo'llarini ko'rsatib beradi

Axborot yetkazish -mutaxasislargagina emas balki jamiyat uchun ham

Tashviqot qilish - hamma sohada

Tashkillashtirish - birlashtirish, yo'naltirish siyosatda, ishlab chiqarishda, dam olishda

Bashorat - asosan siyosatda OAVlarda va boshqa sohalarda

Dunyoqarashlik funksiyasini

Metodologik funksiyasi

Ijtimoiy funksiyasi

Aksiologik(qadriyat) funksiyasi

Mafkuraviy funksiyani

Insonparvarlik funksiyasi

Sotsiologiyani jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy vazifasi birinchi navbatda u bajarayotgan funksiyalar bilan aniqlanadi. Har qanday fanlar kabi sotsiologiyani eng asosiy funksiyalaridan biri nazariya va amaliyotning birligidir.

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Sotsiologiyani amaliy yo'naltirilganligi shunda namoyon bo'ladi, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi haqidagi ilmiy

asoslangan ma'lumotni ishlab chiqishga qodir. Shu holatda sotsiologiyaning oldindan aytib berish funksiyasi namoyon bo'ladi.

Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizim qanday bo'lishidan qat'iy nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

Sotsiologiya mafkuraviy funksiyani ham bajaradi.

U birinchidan, tabiiy-tarixiy jarayonlarni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaqin oradagi maqsadlarini va istiqbollarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ikkinchidan, ilmiy va mafkuraviy munozarani boshqa qarashlar tizimi orqali olib borish.

Uchinchidan, aholi o'rtasida ilmiy va milliy mafkurani tarqatish.

To'rtinchidan, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ular tomonidan ilmiy mafkurani har tomonlama o'zlashtirish. Sotsiologiya odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishga, uyg'un hissiyotlarni ijtimoiy munosabatlarga xizmat qildirib yaxshilashga ham yordam berishi mumkin.

Shu tufayli sotsiologiya insonparvarlik funksiyasini ham bajaradi.

Metod deganda keng ma'noda u yoki bu masalani yechishda qo'llaniladigan usullar, qoidalar tushuniladi. Metodlar har qanday ilmiy bilishning muhim tashkiliy qismi hisoblanadi. Har qanday olim, xoh u huquqshunos, xoh sotsiolog yoki iqtisodchi bo'lsin, o'z oldiga ma'lum bir ilmiy muammoni qo'ya turib, uni u yoki bu metodlar yordamida hal qiladi.

U yoki bu fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi shu fanning metodologiyasini tashkil etadi. Metodologiya qo'yilgan muammolarni yechish usullarini tanlash, ilmiy yechimning yo'nalishini va etaplarini aniqlab beradi.

Sotsiologik metodlar deganda sotsiologik bilimni asoslab berish va ko'rish usuli, sotsial sistemalarni empirik va nazariy o'rganishning usul va amallari tushuniladi.

Darajasiga ko'ra sotsiologiya metodlari ikkiga bo'linadi: nazariy va amaliy (empirik)

Sotsiologiya fanining murakkab vazifalarini nazariy hal etishga xizmat qiladigan o'ziga xos metodlari ham mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

-Qiyoslash va taqqoslash

-Nazariy metod (fikrlash, abstraktlashdan konkretlik sari o'tish)

-Induktiv va deduktiv metod

-Izohlash metod

-Prognozlash metod (ijtimoiy to'qnashuvlar oldi olinadi)

-Integratsiya, umumlashtirish metod

Sotsiologiyaning empirik-amaliy metodlarini quyidagicha tasniflash mumkin.

- Eksperiment metodi

- Kuzatish metodi

- Xujjatlarni o'rganish metoi

- So'rov metodi

- Empirik-sotsiologik metodi

- Statistik metod

- Integratsiya, umumlashtirish metod

- Umum mantiqiy metod (analiz, sintiz)

Sotsiologiyaning metodologiyalari:

1. Funksional metodologiya (jamiyatdagi hodisalarning ahamiyatini aniqlashga intiladi).

2. Fenomenologik metodologiya (jamiyat a'zolarining mavqeini aniqlashga harakat).

3. Tasniflash metodologiyasi (bu qo'llanishiga ko'ra klassifikatsiya, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirishlarni o'z ichiga oladi). Shuningdek, sotsiologiya fani muayyan ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etish asnosida umumiy, maxsus hamda empirik metodologiya tamoyillariga tayanib ish tutadi.

Sotsiologiya obyektini turlicha tushunish natijasida metodologiyaning 3 asosiy turi shakllangan:

1. Tushuntiruvchi (umumiy qonuniyatlarni, obyekt xususiyatini xislatini belgilaydi, aloqa, munosabat o'rnatishni nazarda tutadi) metodologiya.

2. Ta'riflovchi (ya'ni tavsiflash, klassifikatsiyalash, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirish) metodologiya.

3. Tushunuvchi (ya'ni, inson faoliyatini o'rganishda tabiiy hamda ijtimoiy fanlar qonuniyatlaridan uyg'unlashtirib foydalanishni taqozo etuvchi) metodologiya.

Sotsial qonunlar va odamlarning sotsial faoliyati

Qonun deganda, odatda aniq vaziyatda umumiy, zaruriy va takrorlanishga xos bo'lgan jiddiy aloqa yoki munosabatlar tushuniladi.

Sotsial qonuniyat – sotsial voqelik va jarayonlarning jiddiy zaruriy aloqasini aks ettiradi.

Sotsiologik qonunlar ikkiga bo'linadi: umumiy vaxususiy qonunlar.

1. Umumiy sotsiologik qonunlar:

a) barcha sotsial sistemalarning rivojlanishi davomida amal qiladi.

b) sotsial tizimlarning sotsial muhitda amal qiluvchi boshqa qonunlarining mohiyatini aniqlab berib, fundamental asoslarini aks ettiradi.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish usullariga tobeligini ifodalovchisi umumsotsiologik qonunlar.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlarga nisbatan faol roli ham muhim sotsial qonuniyatdir. Masalan, sotsial birliklarda odamlar munosabatlarining yaxlitlanishi, jamoada shunga mos muhitning yaratilishi ishlab chiqarish rivojiga, umumiy holda jamiyatga ham bevosita ta'sir qiladi.

Ehtiyoj va qiziqishlarning sotsial shartlanganligi ham umumsotsiologik qonuniyatga kiradi.

Shaxs shakllanishi sotsial mohiyatini ham umumsotsiologik qonunlar orqali o'rganiladi.

Umumiy qonunlar hamma ijtimoiy tizimlarda amal qiladi. Masalan, qiymat qonuni va tovar pul munosabatlari qonuni o'ziga xos qonunlarning amal qilishi bitta yoki bir nechta sotsial tizimlar bilan cheklangan (masalan, bir jamiyat turidan ikkinchisiga o'tish. Xususiy (maxsus) qonunlar. Sotsial tizimning alohida tuzilish sohalarida amal qiladi. Masalan, sotsial birliklar o'ziga xos hayot va faoliyat tarziga ega: sinfiy, milliy, oilaviy-kundalik va boshqalar.

Sotsial rivojlanish qonunlari obyektiv bo'lib inson ongi, irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amal qiladi. Lekin ijtimoiy hayotda hech narsa insonsiz amal qilmaydi.

Sotsiologiya fanining kategoriyalari, ilmiy atamalari.

Bular: ijtimoiy munosabatlar; stratalar; jamoalar; madaniyat; tendensiya; jamoatchilik fikri; shaxs va boshqalar.

Bu ilmiy atamalardan tashqari sotsiologiya fanining o'ziga xos fan mohiyatini ochib beruvchi kategoriyalaridan ham keng foydalaniladi.

Bular: Anketa; Intervyu; Kuzatish; Eksperiment; Xujjat; Test; Sotsiologik tadqiqot va boshqalar.

Sotsiologiya fanlar tizimida o'ziga xos o'rnga ega. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi. Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi:

1. U jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi.

2.U o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoki hamma ijtimoiy- gumanitar fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini oladi.

3.U jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga oladi. Ya'ni, sotsiologiya - hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlardir.

4.Inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan zaruriy jihatdan o'rganiladi va hisobga olinadi.

Falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosatshunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisod fanlari bilan bog'liqligi: Iqtisod fanlari bilan sotsiologiyaning dialektik aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab shiqarish, taqsimot, ayriboshlash iste'mol jarayonlarini o'rganishda ko'rinadi. Ayniqsa hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabat shakllanishi jarayonida uning ahamiyati juda katta. Iqtisodiyot sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, kabi sotsiologiyaning maxsus sohalari iqtisodiyotga bog'liq masalalarni o'rganadi va muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sotsiologiya iqtisod fanlari bilan, ularni o'rganish obyekti bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g'oyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiya sohalari metodologik asos bo'lib xizmat qilsa , o'z navbatida shu sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari iqtisod fanlarining rivojlanishiga, iqtisodiyot muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Sotsiologiya fani rivojlanishi umumiy va ijtimoiy psixologiya fanlari bilan ham yaqin hamkorlikda bo'lishni taqozo etadi. Zero,u yoki bu jamoadagi mehnat unumdorligini o'rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda shu jamoa tarkibidagi individlarning xatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularning temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil etish va ijtimoiy xulqni boshqarishda, albatta, ijtimoiy psixologiya qonuniyatlarini chetlab o'tish mumkin emas.

Sotsiologiya fanining huquqshunoslik va iqtisod ilmi qonuniyatlarini chetlab, ilmiy faoliyat yoritishi ham maqsadga muvofiq emas. XIX asrda faoliyat yuritgan sotsiologiya ilmi asoschilarining deyarli barchasi ijtimoiy fanlarni chuqur o'zlashtirish va qator falsafiy-gumanitar asarlar yaratish asosida yangi tug'lajak sotsiologiya fani sarhadlarini belgilab berganlar.

Sotsiologiya va huquqshunoslik: Huquqiy fanlar sotsial va siyosiy qarorlarning huquqiy mexanizmini ishlab chiqish va uni amalga osirishni

o'rganadi. Sotsial jamiyatdagi siyosiy hokimiyat, shaxslar ijtimoiy norma va munosabatlar hech qachon umummajburiy harakter kasb eta olmaydi. Sotsiologiya fani ayniqsa statistika fani bilan mustahkam, ham yaqin aloqada rivojlanadi. Bu ikki fanning o'zaro aloqalari shu qadar yaqinki, sotsiologiyaning rivojlanishini statistik yondashuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta, shu sohadagi predmetning konkret holati va ahvolini, real voqelik manzarasini statistika manbalaridangina topa oladi. Keng ko'lamdagi konkret sotsiologik tadqiqotlarning statistik idoralar xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar beradi. Keyingi yillarda sotsiologiya fanida konkret sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko'proq tadbiiq etila borishi uning axloq, estetika, meditsina va pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv singari fanlar bilan aloqasini yanada mustahkamlamoqda.

Sotsiologiya va tarix: Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda buyuk tarixchi mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar. Chunonchi, tarixiy ma'lumotlarni, manbalarni to'plash, ularning haqqoniyligini aniqlash, tarixiy voqealar guvohlarining xotiralaridan keng foydalanilgan. Masalan at-Termiziy, Imom al-Buxoriy kabi xadisshunoslar, Abu Rayhon Beruniy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Xondamir kabi buyuk mutafakkirlar, o'zlarining tarixiga oid qimmatli asarlarini yaratishda sotsiologiya usullaridan unumli foydalanganlar.

Sotsiologiya fani falsafadan ajralib, mustaqil fan sifatida taraqqiy etayotgan bo'lsada, ularning aloqasi uzviydir. Falsafa sotsiologiyaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Sotsiologiyaning falsafa bilan uzviy aloqasi shunda ko'rinadiki, umumsotsiologik nazariyalar va amaliy sotsiologik tadqiqotlar ma'lum metodologik asosga tayanadilar. Shunday asosni esa falsafa fani yaratadi. Sotsiologiya falsafaga nisbatan mustaqillikni shunga asosanib e'lon qiladiki, u o'z oldiga ijtimoiy muammolarni, voqelikni ilmiy anglash usuli asosida hal etish vazifasini qo'yadi.

Tibiiy fanlar bilan bog'liqligi: Asrimizning keying bosqichida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi – sotsiologiyaning tabiatshunoslik fanlari bilan aloqadorligini kuchaytirdi. Insonning tabiatga, tabiiy muhitga ta'siri ortib bormoqda. Ekologik, demografik vaziyatning keskinlashuvi sotsiologiya fanini bevosita ushbu muammolarni hal etishga jalb qiladi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasini matematikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematika usullarisiz sotsiologiya mavhum qarash bo'lib qoladi. Ayniqsa uning empirik darajadagi konkret sotsiologik tadqiqot o'tkazishdagi o'rni katta.

Umuman sotsiologiya tabiiy fanlar bilan ham uzviy bog'lanib ketgan. Sotsiologiyada raqamlar yordamida turli ijtimoiy munosabatlar tadqiq qilinadi, o'lchanadi va uning natijalari ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinadi. Sotsiologiya faning rivojlanishi uchun antropologik yo'nalish juda muhim ahamiyatga ega, chunki u turli tuman ijtimoiy hayotning kaledoskopini ko'rish imkonini beradi. Ularni o'z hayotimiz bilan solishtirar ekanmiz, xulqimizning o'ziga xos noyob xususiyatlari to'g'risida ko'proq narsa bilib olamiz.

Sotsiologiya milliy mafkurani shakllantirish, yaratish jarayonida alohida o'rin tutadi. Eskirib qolgan dunyoqarash, eskicha moddiy va ma'naviy munosabatlar o'z o'rnini yangisiga osonlikcha bo'shatib bermaydi. Buning uchun ma'lum vaqt kerak. Sotsiologiya shu vaqt davomida ma'naviyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni aniqlashga va ilmiy asosga ega bo'lgan tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ba'zi mutaxassislar jamiyatshunoslik va sotsiologiya fanlarini aynanlashtirishadi. Lekin, bu ikkala fan atamasida farq bo'lganidek, ularning vazifalari va imkoniyatlari o'rtasida ham farq juda kattadir. Jamiyatshunoslik fan sifatida ko'proq sobiq SSSR davrida rivojlandi. Bu fan jamiyatning tarixi, tizimi va boshqa xususiyatlarini o'rgansa, sotsiologiya undan farqli ravishda o'z taqiqot metodlariga ega bo'lib, jamiyatlarning rivojlanish jarayonlarini bashorat qilish, tadqiqot natijalari asosida jamiyat rivojiga xizmat qiluvchi nazariyalar, qarashlarni yaratadi hamda kelgusi hayotimiz farovonligiga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Nazorat savollari:

1. Sotsiologiya faning obyekti va predmetiga tavsif bering.
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlarini tahlil qiling.
3. Sotsiologiya fanining vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
4. Sotsiologiya fanining funksiyalari.
5. Sotsiologiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi va farqi.

Mavzu: Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi fan sifatida

Reja:

- 1. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi fanining vujudga kelish tarixi.**
- 2. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining obyekti va predmeti.**
- 3. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining maqsadi, vazifalari va funksiyalari.**
- 4. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.**

1. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi fanining vujudga kelish tarixi. Bugungi kunda mamlakatimizda keng qamrovli islohotlar o'tkazilmoqda. Ushbu islohotlardan maqsad mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bunday islohotlar va maqsadlarni amalga oshirishda asosan barkamol avlodga tayaniladi. Shuning uchun ham keng qamrovli islohotlar negizida barkamol avlodni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Barkamol avlodni shakllantirishda asosiy vositalardan biri jismoniy tarbiya va sport hisoblanadi. Chunki, jismoniy tarbiya va sport yoshlarning voyaga etishida, sog'lom bo'lib o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom insonda o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyatlilik, boshlagan ishini oxiriga yetkaza olish ko'nikmalari hamda fazilatlarini shakllanib boradi.

Xalqning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishini o'rganish, unga ta'sir qiluvchi milliy-ma'naviy va madaniy qadriyatlarini o'rganib borish ham zarur hisoblanadi. Ushbu omillar jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi doirasida o'rganiladi. Jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotida bunday omillarning dolzarbligi hamda ularni o'rganib borishning zarurligi sport sotsiologiyasining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Umuman mamlakatimizda sotsiologiya fani mustaqillikka erishganimizdan so'nggina keng miqyosda rivojlana boshladi. Sobiq ittifoq davrida sotsiologiya faniga burjua fani yorlig'ining yopishtirilishi ushbu tizim talablari doirasidagina rivojlanishini belgilab berdi. Bunday holat sotsiologiyaga yuzaki munosabatni hamda sotsiologik tadqiqotlarning kommunistik tizimga xizmat qilishiga olib keldi. Yevropa va AQShda esa sotsiologiya faqatgina fan sifatida shakllanmasdan, jamiyatda demokratik tamoyillar mavjudligi, ularni o'rganuvchi fan sifatida rivojlana boshlandi.

Uning ijtimoiy-iqtisodiy hayot jabhalarini o'rganuvchi tarmoqlari ham keng miqyosda taraqqiy etishi bugungi kunlarda ham kuzatilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining muammolari 1920 yillarga kelib iqtisod, mehnat hamda bo'sh vaqt sotsiologiyasi negizida tadqiq etila boshlaydi. Ayniqsa, bu holat Angliya, Fransiya va Germaniya davlatlarida kuzatiladi. Bunday harakatlarning rivojlanishi 1960 yillarga kelib sport sotsiologiyasini mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keldi. Shuningdek, bu vaqt mobaynida jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi doirasida xalqaro ilmiy tashkilotlar shakllana boshlaydi, muntazam asarlar hamda ilmiy jurnallar ham chop etiladi. Bunday jarayon Xalqaro sport sotsiologiyasi assotsiatsiyasini tashkil topishiga olib keldi. Dastlab 1964 yilda Jenevada Xalqaro sport sotsiologiyasi qo'mitasi (International Committee for the Sociology of Sport) tashkil topdi. Ushbu tashkilotni tashkil etish jarayonida Fransiya, Germaniya, Britaniya, Finlandiya, AQSh, Vengriya, Sobiq ittifoq, Polsha davlatlarining vakillari ishtirok etishadi. 1993 yilga kelib Germaniyada bo'lib o'tgan Xalqaro sotsiologiya kongressida Xalqaro sport sotsiologiyasi qo'mitasi Xalqaro sport sotsiologiyasi assotsiatsiyasiga (International Sociology of Sport Association) o'zgartirildi¹. Bugungi kunda ushbu tashkilot Xalqaro sotsiologiya assotsiatsiyasidan tashqari YUNESKOning Xalqaro jismoniy tarbiya va sport Kengashi, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ularning hamkorligi asosida xalqaro anumanlar, simpoziumlar, kongresslarni tashkil qilish hamda "Sport sotsiologiyasida xalqaro tahlil" (International Review for the Sociology of Sport (IRSS) jurnalini va maxsus Byulleten GISSA nashr etish yotadi. Hozirda ushbu tashkilotning a'zolari 250 dan ortiq bo'lib, ular 37 mamlakatning fuqarolaridir².

Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi XX asr boshlarida ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutgan va yuz yillikning dastlabki yillaridan jadal rivojlanib kelayotgan sport, jismoniy madaniyat kabi ijtimoiy fenomenlarni tushunishga bo'lgan jamiyatdagi ehtiyoj natijasida vujudga kelgan. Jismoniy tarbiya va sport 1920 yillar oxirlariga kelib ijtimoiy institut chizgilariga ega bo'la boshladi va asta-sekin ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi sifatida shakllana bordi. Bugungi kunga kelib u alohida ijtimoiy institut sifatida shakllanib ulgurdi hamda institutlarni yaratishning barcha talablariga javob beradi:

¹ Кириленко О.Н. Международная ассоциация социологии спорта (International sociology of sport association — ISSA): история и направления деятельности на современном этапе.-2009.-С.57.

² <http://www.issa.otago.ac.nz/about.html>.

- aniq ijtimoiy vazifalarni bajaradi (sog'lomlashtirish, tarbiyaviy, ta'limiy va b.);
- rivojlangan infrastruktura va moddiy bazaga ega (stadionlar, sport zallari, sog'lamlashtirish markazlari va h.k.z);
- professional kadrlarni faol tayyorlashni amalga oshirib boradi (olimpiya zahiralari kollejlari, institutlar).

Jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy institutining qaror topishi va rivojlanishi jarayonlarini, shuningdek uning boshqa ijtimoiy tuzilmalarga ta'sirini o'rganish uchun sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilishini talab qiladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa bilimlar bilan bir qatorda sotsiologiya fani ham shakllanib kelmoqda. U aniq sotsiologik tadqiqotlar hamda jismoniy tarbiya va sportni ilmiy bilish obyekti sifatida nazariya, psixologiya, pedagogika nuqtai nazaridan tadqiq qiluvchi boshqa sohalardagi ilmiy natijalarni umumlashtirish metodiga asoslangan mustaqil ilmiy bilimlar tizimi sifatida rivojlanmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining obyekti, predmeti va ilmiy bilish metodiga ega bo'lgan ilmiy va o'quv fani sifatida tan olinadi. Sotsiologik tadqiqotlar turli ijtimoiy omillarning jismoniy tarbiya va sport rivojlanishiga, shuningdek ushbu sohaning jamiyat hayotiga ta'sirini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi. Ko'p sonli aniq sotsiologik tadqiqotlar jamiyatning jismoniy tarbiya va sportga nisbatan ehtiyoji va motivatsion holatini tahlil qilishga, insonlarning jismoniy tarbiya va sportga real munosabati, ularning manfaatlari, qadriyat sifatida qarash darajasini baholashga yordam beradi.

Olingan ma'lumotlar to'g'ri boshqaruv yechimlarini topish, turli holatlarni bashorat qilish va jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish jarayonlarini yanada takomillashtirish, ularning insonlar ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'siri bo'yicha samarali choralarni qo'llashga imkoniyat beradi.

Har qanday ilmiy fan kabi, jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi ham o'ziga xos muammolarni yechadi hamda boshqa ijtimoiy fanlardan farqli bo'lgan predmetiga ega. Uning obyekti – bu ijtimoiy hodisa sifatidagi jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy tabiatini, paydo bo'lish qonunlarini, faoliyati va rivojlanishini, zamonaviy jamiyatda shakllanib amal qilayotgan qonuniyatlari tizimini tadqiq qiladi. Bunday muammolarni hal qilish jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining fan sifatidagi mohiyatini ifodalaydi. Uning vazifalariga shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning boshqa ijtimoiy hodisalar va madaniy hayot o'ziga xos jihatlari bilan o'zaro aloqalarini o'rganish ham kiradi: masalan, ishlab

chiqarish bilan, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalari, uning tabiatiga oid asoslar bilan. Jismoniy tarbiya sotsiologiyasiga o'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ta'limiga oid muammolarni yechishda muhim o'rin beriladi. Unda insonlarning jismoniy tarbiya va sport sohasiga bo'lgan qadriyat-iste'molchilik munosabatlari muammolari ko'rib chiqiladi.

“Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi” fanining maqsadi jismoniy tarbiya va sportni ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq qilib, tadqiqot natijalaridan jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini shakllantirishda foydalanish, mazkur sohadagi ishlarni takomillashtirish bo'yicha bashorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shuningdek mamlakat aholisining hayot tarziga jismoniy tarbiya va sport faoliyatining integratsiyasini ta'minlashdan iborat.

Umuman olganda jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotdagi o'rnini va ahamiyatini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin: birinchidan, jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi millatning salomatligi va unga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish bilan birga aholi yosh darajalariga ko'ra jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabatini o'rganib boradi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida shaxsning xususiyatlari uyg'unlashtiriladi. Biologik, ijtimoiy va madaniy omillar shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy institut sifatida shaxs va jamiyat hayotida jismoniy tarbiya va sportning metodologik va nazariy muammolarining o'rganilishi – jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi predmeti shakllanishining zaruriy sharti hisoblanadi; ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining obyekti sifatida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi aholi, yoshlar, sportchilar jamoasi, sportchilar harakatini ko'rsatish mumkin. Sportchilar jamoasining har biri - jamiyat strukturasi yoshi, jinsi, sinfi, ma'lumoti va boshqa belgilariga ko'ra o'z o'rniga egadir. Ular faoliyatini sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganib borish, mavjud ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi; uchinchidan, sportchilarning o'ziga xos qiziqishlari va dunyoqarashlariga ega bo'lishi ularga alohida yondashishni, harakatlarini o'rganib borish talab qilinadi. Bunday holat va zaruriyatlarning mavjudligi o'z navbatida sport sotsiologiyasini mustaqil fan sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining tadqiqot metodlari joylarda sport turlarida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, o'rganish imkonini beradi hamda shu asosda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining obyekti va predmeti. Bizga ma'lumki har bir fan o'zining obyekti va predmetiga egadir. Obyekt va predmet fanning o'rganish miqyosini aniqlab beradi. Sotsiologiyaning obyekti jamiyat, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy tizimlar, guruhlar bo'lsa, uning predmeti status va rollar, ya'ni insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlar hisoblanadi. Obrazli qilib aytganda, masalan fanning obyekti devor bo'lsa, uning predmeti devorni tashkil qilgan g'ishtlarni birlashtirib, jipslapshtirib turuvchi suvoqdir. Suvoq qanchalik pishiq bo'lsa devor ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ham sotsiologiyada insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish orqali jamiyatdagi butun jarayonlarni tahlil qilish mumkin. Insonlar har doim jamiyatdagi tutgan mavqelari hamda vazifalaridan kelib chiqqan holda o'zaro munosabatga kirishadi. Bu esa munosabatlarning xilma-xilligini keltirib chiqaradi. Shuningdek, ushbu munosabatlarni ma'lum bir tartibga soluvchi me'yorlarning jamiyatda mavjudligi mavjud o'zaro munosabatlarni ma'lum bir tartibda ro'y berishini belgilab beradi. Ushbu munosabatlarning rivojlanishi jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydi. Shu nuqtai nazardan jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining obyekti sport tashkilotlari, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan maktablar, sport bilan shug'ullanuvchi guruhlar, millatlar, xalqlar bo'lsa, uning predmeti esa sportning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, munosabatlar, yoshlarning qiziqishini oshiruvchi an'analar, milliy qadriyatlar yoki aksincha, salbiy ta'sir qiluvchi omillar ham bo'lishi mumkin.

3. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining maqsadi, vazifalari va funksiyalari. Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi fanining maqsadi – sport turlari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillarni o'rganish, jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy manbalarni yaratish va shakllantirish, yoshlarni sport turlariga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish orqali mavjud sport turlari istiqbolini ilmiy bashorat qilishga ko'maklashishdan iborat.

Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining vazifalari:

- yoshlarning sport turlariga bo'lgan qiziqishi, milliy qadriyatlari bilan uyg'unligini o'rganish, tadqiq etib borish,

- yoshlarning yoshi, qiziqishi va oilaviy sharoiti asosida sport mashg'ulotlarning texnologiyasini ishlab chiqish;

- yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshishiga olib keluvchi ilmiy qarashlarning yaratib borish hamda yoshlarning yosh o'zgarishlari bo'yicha dunyoqarashi, tafakkur darajalari o'zgarish jarayonlarini ilmiy asosda tadqiq etib borish va h.k.

Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasining zamonaviy muammolariga quyidagi omillarni kiritish mumkin:

- ommaviy sport va yuqori natijalar sporti (olimpiya, professional) o'rtasidagi qarama qarshilik;

- zamonaviy sportning kriminallasuvi, byurokratlashuvi, kommersializatsiyalashuvi;

- yuqori malakali sportchilarni sog'ligi muammosi – doping qabul qilish, me'yordan ortiq sport yuklamalari, jarohat olish, nogironlik;

- sportchilar, ishqibozlar, fan-sport klublari vakillari tomonidan tajovuzkorlikning namoyon bo'lishi;

- sport miqyosida tahqirlashning irqiy, milliy, jinsiy va boshqa ko'rinishlarining namoyon bo'lishi;

- jismoniy madaniyat va salomatlik madaniyatining past darajasi, zamonaviy insonlar, ayniqsa bolalar va yoshlarda yetarli darajada sport va harakatchanlikning bo'lmasligi (kam harakatchanlik turmush tarzining ommaviylashishi);

- zamonaviy sport harkatlari va tashkilotlari, umuman barcha jismoniy tarbiya va sport tizimlari bshqaruvi ijtimoiy samaradorligini oshirish muammolari.

Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi doirasida zamonaviy dunyoda kelib chiqayotgan zamonaviy ijtimoiy muammolarni o'rganib borish, ularni vujudga kelish mexanizmlarini aniqlash kabi birday ularga qarshi itimoiy omillarni shakllantirib borish jismoniy tarbiya va sportning jamiyat va xalq salomatligidagi o'rni va rolini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi ravnaqini yuksaltirishda uning nazariyasini aniqlash, ushbu sohani aniq tahlil qilishga yordam beradi. Shuningdek ushbu mavzuni bir qancha nazariyalar bilan yoritish ham sportning ijtimoiy hodisa sifatidagi rolini oshiradi. Sport avvalo, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynaydi. Sport va jismoniy madaniyatning karakter xususiyati ularning mafkura, siyosat, madaniyat, san'at, ta'lim-tarbiya, ishlab-chiqarish, fan texnika sohalari bilan chambarchas bog'liqlikda ifodalanadi. Jismoniy tarbiya va sportning insonlar orasidagi mehnat faoliyatini, salomatlikni jismoniy yetukligini ta'minlashda o'rni beqiyosdir. Guruhlardan tortib shaxslarda ilmiy qobiliyat, faollik mehnatsevarlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Darhaqiqat, hayotda bunday ko'rinishdagi faoliyat nazariyalari talaygina ammo bular ishida strukturaviy funksionalizm, konfliktlar nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ko'pgina tadqiqotchilar fikriga ko'ra strukturaviy funksionalizm ijtimoiy munosabatlar tizimini butkul o'rganishga

qaratilgan va shuningdek strukturaviy elementlar formasining turg'un holatidir. Funktsionalistlar fikricha sotsial tizim barqaror bo'lishi lozim. Shuningdek taxminlarga ko'ra sotsial struktura yurituvchilar bilan bir maromdagi tizimdir. Shuning bilan birga sotsial institutlar tizimida komponentlari sifatida rollarni shakllantirishda va alohida shaxslarning funksional ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sport institutlari tadqiqot yo'nalishlari 4 yo'nalish bo'yicha ish olib boradi;

- sport jamiyatdagi boshqa bir qancha institutlar bilan bog'liq holda faoliyat yuritadi: masalan, oila, tarbiya muassasalari va boshqa tashkilotlar misol bo'la oladi.

- boshqa institutlarda ko'p uchramaydigan diskriminatsiya yoki aksincha sublimatsiya holatlari. Bunga masalan: millatchilik jamoa tizimlarining ta'siri, sportning tijoratlanishi, sportning ommalashuvi va boshqalar kiradi.

- aniq mexanizmlarni tadqiq qilish rollarining vujudga kelishi, qarshilik muammolari nohush kayfiyatlar faoliyatdan chetlanishiga olib keladi.

Jismoniy tarbiya va sportning funksiyalari jamiyatdagi mavud qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni oldini olishi bilan belgilanadi. Bu yerda ziddiyat ijobiy ma'noda kurash, chiniqish kabi tushunchalarni beradi. Ziddiyat bu – ikki qarama-qarshi maqsadlarning to'qnashuvidagi muxolif va subyektlar hamkorligining fikrlari holatlari, qarashlaridir. Ingliz sotsiologi E.Giddens ziddiyat shunday ta'rif beradi: «Men sportdagi ziddiyatni shunday tushunamanki, bunda har qanday inson va guruhlarini aniq kurashishini anglatadi», shuningdek bu kurash har qanday usul va sharoitlardan holi bo'lmog'i darkor. Sport jamiyatdagi qarama qarshiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning mazkur vazifasidan turli kuchlarning boshqa maqsadlarda foydalanishga bo'lgan intilishi sportga bo'lgan salbiy munosabatni, ishonchsizlikni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mazkur muammoli masalalarni sport sotsiologiyasi doirasida o'rganishni taqozo etmoqda.

Jismoniy tarbiya – bashariyat madaniyatining uzviy bog'langan bir qismi bo'lib, uning alohida mustaqil sohasidir. Shuningdek, jismoniy tarbiya maxsus jarayon va inson faoliyatining mahsuli, shaxs jismoniy mukammalligining vosita va usulidir. Jismoniy madaniyat individning hayotiy muhim tomonlariga, ya'ni genetik ravishda o'tadigan, istedod ko'rinishlarida olingan va hayot jarayonida tarbiya, faoliyat va atrof-muhit ta'sirida rivojlanishiga ta'sir qiladi. Jismoniy tarbiya muloqot jarayonida,

o'yinlarda, xordiq chiqarishda, shaxsni o'zini namoyon qilishining ba'zi ko'rinishlarida, ijtimoiy foydali faol faoliyat orqali ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib boradi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiyani madaniy faoliyatning asosiy bo'g'inlaridan biri hamda natijalari jamiyat va shaxs uchun foydali deb qarash zarur. Ijtimoiy hayotda, ta'lim-tarbiya tizimida, mehnat tashkillashtirish sohasida, kundalik hayotda, sog'lom turmush-tarzida jismoniy madaniyat o'zining tarbiyalovchi, ta'lim beruvchi, sog'lomlashtiruvchi, iqtisodiy va umummadaniy ahamiyatini namoyon qiladi, jismoniy salomatlikni targ'ib qiluvchi harakatlarning yuzaga kelishini ta'minlashi orqali jismoniy tarbiyaning qadriyatlarni targ'ib qilishda va yanada boyitib borishda insonlarni bir maqsad yo'lida birlashtiradi.

Hozirda jismoniy tarbiyani rivojlantirish, aholining unga bo'lgan munosabatini o'rganish, ularning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish darajasini belgilash kabi omillar muhim bo'lib qolmoqda. Xalqning jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini o'rganish, ularning qiziqishiga olib keluvchi omillarni, chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyat bo'lib qolmoqda.

Sport – jismoniy tarbiyaning bir qismidir. Unda inson o'zining imkoniyati chegaralarini kengaytirishga intiladi, bu omad va omadsizliklarni yuzaga keltiruvchi hissiyotlarning ulkan dunyosi, mashhur tomoshalar, tarbiya va insonni o'zini tarbiyalovchi voqelikdagi harakat vositasidir. Unda insonlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab jarayoni mavjud bo'ladi. Sport bu – xususan musobaqalar faoliyati va unga maxsus tayyorlanishdir. U ma'lum bir qoidalar va xulq-atvor me'yorlari asosida o'z mavjudligini ta'minlab boradi. Sportda insondan talab qiluvchi jismoniy, psixik va axloqiy sifatlarni harakatlantiruvchi omillardan g'alabaga intilish, yuqori natijalarga erishish kabi hissiyotlar namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlarini musobaqalarda yaxshi namoyon qiladigan insonlarda sport harakteri mavjudligi haqida tez-tez gapirishidi. Sport insonning bir qancha ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida tobora jismoniy va ma'naviy zaruriyat bo'lib bormoqda.

Sport va milliy birlik. Sport o'z mohiyatiga ko'ra siyosiydir. Har bir sportchi jahon musobaqalarida o'z ona Vatani shonu-shuhratini oshirishga, butun dunyoga yoyishga harakat qiladi. O'zbekiston mustaqillika erishganidan keyin, xalq xo'jaligining boshqa sohalari bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport sohasida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

1992 yil “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun ishlab chiqildi va bu qonun 2015 yilda Oliy Majlis tomonidan yangi tahrirda qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishda asosiy dasturulamal bo‘lib, uning ijrosini ta‘minlashda davlat va jamiyat organlarining vazifalarini qonuniy belgilab beradi.

Ko‘pgina tadqiqotchi sportchilarning fikricha, sport jamiyatning madaniy amaliy faoliyatida ikki asosiy vazifani bajaradi.

1. Sport orqali sportchilar o‘z millatini jahonga tanitadilar. Bu esa milliy birlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

2. Sport ma‘lum millat vakillarining o‘z millatiga bo‘lgan his-tuyg‘usini mehr- muhabbatini orttiradi.

3. Sport xalq salomatligini ta‘minlaydi.

Mamlakatimiz tarixiy taraqqiyotning burilish davrlarida muhim mintaq, qolaversa muhim millat bo‘lganligi yurtimizdagi har bir yosh avlodga ma‘lum bo‘lib bormoqda. Yurtimizda tarixiy obidalarining “obodonlashtirilishi” va ta‘mirlanishi natijasida amalga oshirilayotgan ishlarning ulkanligi tariximizga e‘tiborning beqiyosligidan dalolatdir. Chetdan qaraganda bunday ishlarning mazmuni insonga erish tuyuladi. Endi dunyoga tanilayotgan, oyoqqa turayotgan davlatga bunday daromad manbai yo‘q ishlarga katta mablag‘lar ajratish samarasiz ko‘rinadi. Lekin shunday bo‘lsada, mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan milliy tariximizni tiklash uchun ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xalqimizning o‘z tarixi yaratilib, o‘tmishda buyuk xalq bo‘lganligi, buyuk avlodlari ulkan davlatlar barpo etib, dunyo taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi yoshlarga sindirilmoqda. Yoshlar ota-bobolari o‘tmishidan, ular qoldirib ketgan obidalarining buyukligidan faxrlanmoqda. Mana shunday buyuk tarix ularda o‘z millatidan, ota-bobolar merosidan g‘urur, iftixor kabi tuyg‘ularning shakllanishiga olib kelmoqda. Albatta, bugungi yoshlarning barkamol bo‘lib shakllanishida faqatgina o‘tmishdagi buyuk yodgorliklar, jasoratlarni qayta tiklash orqali erishib bo‘lmaydi. Ularga o‘tmishda ota-bobolarimiz qilgan xatolar, oqibatlarini ochiq ko‘rsatish, o‘rgatish orqali ham ularni bunday xatolarni qilmaslikka, har doim xalqning og‘ir va yengil kunlarida bir millat bo‘lib birlashishini, singdirmoq ham kerakdir. Bunday holatlarni O‘rxun toshbitiklari muallifi, o‘z zamonasidan kelib chiqadigan asosli izoh bera olgan. “U xonlarni “nodonlik va qo‘rqoqlikda”, beklar va xalqni xonlarga bevafoqlikda, tabg‘achlarni yolg‘on hamda inini og‘aga gij-gijlashida ayblaydi. Eng muhimi esa, turk xalqini noziklashtiradigan xitoy dabdabasini qoralaydi.

Yo'llig' tegin mag'lubiyat muqarrar edi, deb hisoblamaydi. Aksincha, bitiklar kelajakda bunday holatlardan ehtiyot bo'lishga chaqiradi".¹ Yana buyuk alloma, XX asr imom Buxoriysi deb nom olgan Alixonto'ra Sog'unliy ham millatni tarqoqligidan qayg'urib, shunday fikrlarni keltiradi. "Forobiylar, Ibn Sinolar chiqqan bu ulug' Vatanning va millatning kelgusi istiqboli uchun hech kim qayg'urmas edi. O'qish-o'qitish ishlari o'rta asrdagidan farqi yo'q edi. Yetarli iqtisodiy boylik mavjud bo'la turib, davlatning mudofaa ishlariga hech qanday ahamiyat bermadilar. Askariy tartib shu eski usulda bo'lib, nizomiy tartib kirgizilmagan va zamonaviy qurollar yo'q edi. Bunday ongsiz hukumatning inqiroz bo'lishi tabiiydir. Bular Vatan va millat oldida eng kechirilmas jinoyatchi odamlar, chunki davlatlarini inqirozga, millatlarini qullikka, Vatanlarini xorlikka olib keldilar. Qani, Qur'on hukmiga ularning amal qilganliklari?"²

1990 yillar oxiriga kelib komunistik tuzim, xalqaro moydondagi "sovuq urush" barham topdi. "Sovuq urush"dan keyin dunyoda insonlar o'rtasidagi farqlar, ajratishlar g'oyaviy, siyosiy yoki iqtisodiy asosga ega bo'lmay qoldi. "Endi ajratishlar, farqlar madaniyatlar orqali amalga oshirila boshlandi. Xalqlar va millatlar har bir inson duch kelishi mumkin bo'lgan, Biz kimmiz? degan savolga javob berishga urinmoqdalar. Ular o'zlari uchun muhim bo'lgan tushunchalarga murojaat qilib, an'naviy tarzda javob bermoqdalar. Insonlar kelib chiqish, din, til, tarix, qadriyat, urf-odat va ijtimoiy institutlarga tayanib o'zlarini belgilamoqdalar. Ular o'zlarini madaniy guruhlar: qabila, etnik guruh, diniy jamoa, millat va keng miqiyosda sivilizatsiyalar sifatida aynanlashtirmoqdalar. O'zining birgina kimligini aniqlashtirmay, insonlar siyosatdan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalana olmaydilar. Biz o'zimiz kimligimizni, o'zimizga kim emasligimiz ma'lum bo'lganidan keyin bilamiz va faqat shundan keyingina kimga qarshi ekanligimiz bilamiz."³ Bugun biz o'zimizni kimligimizni, ota-bobolarimiz kim ekanligini, bugungi kunda qanday imkoniyatlarga ega ekanligimizni, hamda boshqalardan qaysi tomonlarimiz orqali ojizligimizni bilmas ekanmiz, yanada o'zligimizni bilish qiyinlashaveradi. Qachonlardir, "ba'zi masalalarda Osiyo Ovrupadan 300 yilga o'tib ketgan"⁴ ligi, hamda "Ovrupa madaniyatining rivojlanishi – islom madaniyati harobalanishining natijasi bo'lishida hech shubha yo'q"⁵ligida ham barchasida biz o'zligimizni unutganligimizda,

¹ Гумилёв Л.Н. Қадимги Турклар. Т.: Фан. 2007, -225 бет.

² Соғуний А. Туркистон қайғуси. Т.: Шарқ, 2003.-Б.46.

³ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. М.: Издательство АСТ, Стр – 10.

⁴ Гумилёв Л.Н. Қадимги Турклар. Т.: Фан, 2007.-Б.435.

⁵ Соғуний А. Туркистон қайғуси. Т.: Шарқ, 2003,-Б.156.

bizni o'zligimizni saqlab, rivojlantirib boruvchi milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga yetarlicha e'tibor bermaganligimizdadir.

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayoni yangi-yangi hudud va mintaqalarni, barcha faoliyat sohalari qamrab olmoqda. Bugungi axborot oqimlarining tezligi oldida bu jarayonlar oddiygina bo'lib ko'rinsada, bunday xatti-harakatlar ostida boshqa bir manfaatlar va maqsadlar borligi namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam albatta kuzatishi muqarrar.

Hozirgi paytga kelib, "globallashuv" jarayonini o'rganish keng tus olib, uning mohiyati va mazmunini belgilovchi turlicha ta'riflar yuzaga kelmoqda, lekin shunday bo'lsada bu jarayon mohiyatini aks ettiruvchi tushunchaning ma'nosiga ta'rif beradigan bo'lsak, "Globallashuv" bo'laklarning yiriklashuvi bir butun holatiga kelayotganligidir. Yana ham aniqrog'i, yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlarning kuchli bosimi ostida millatlar, mamlakatlar va mintaqalarning barcha sohalari bo'yicha bir butunligi vujudga kelishining ko'rinishi, namoyon bo'lishining ifodasidir"¹, deb aytsak bo'ladi. Albatta, bunday xatti-harakat va tajovuzlarni insoniyat azaldan boshidan o'tkazib kelayotgan bo'lsada, xalqlar hech qachon o'zligini unutishga, boshqa mamlakatga tobe bo'lishga rozi bo'lgani yo'q. Chunki bugungi kunga kelib aytish mumkinki, hatto eng "qashshoq" millat ham qandaydir moddiy manfaatdorlik evaziga o'zining o'zgalarga qaram bo'lishiga rozi bo'lmasligi aksiomaga aylandi. Bunday jarayonlardan millat birligini har doim millatning o'zligi saqlab kelgan bo'lsa, o'zlikni esa saqlab va boyitib keluvchi omil ma'naviyatdir. Chunki ma'naviyatning inson, oila, millat va jamiyat hayotidagi o'rni nihoyatda kattadir. U o'zining ahamiyati va salohiyati jihatidan jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omillarning asosini tashkil qiladi. Insonni och qolgan qornini to'ydirish bilan, unda o'zlik, matonat, iymon, vatanparvarlik kabi to'yg'ularni shakllantirib bo'lmaydi, unga faqatgina ma'naviyat uning xatti-harakatlarini, maqsadlarini belgilab beradi hamda unga kuch va qudrat bag'ishlaydi. Har bir tarixiy bosqichlarda millatning madaniyati takomillashib, rivojlanib boraveradi. Mana shunday jarayonlarning bosqichlarida faqatgina millat ma'naviyatidagi qadriyat darajasiga ko'tarilgan qismi abadiylashib boradi.

¹ Отамуратов С. Глобализация в миллат.Т.:Янги аср авлоди, 2008.-Б.19.

Millat ma'naviyatining abadiylashgan qismini hech kim, hech qachon yo'q qila olmaydi va yo'qata olmaydi.

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, uning eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Shu tariqa tajovuzkor kuchlar o'z maqsadlariga erishib uzoq yillar davomida bosib olgan mamlakat va xalqdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga intiladilar. Ular birinchi navbatda millatning birligini, o'zligini namoyon qiladigan har qanday g'oya va tushunchalarni, urf – odat va an'analarini yo'q qilishga intiladilar.

Shuning uchun ham davlatimiz oldidagi muhim masalalardan biri bu xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish hamda mamlakat va millat birligining uzviyligi va davomiyligini mustahkamlovchi yangi qadriyatlarni shakllantirishdan iboratdir. "Odam bolasining qaysi yo'ldan borishi, avvalo, har bir kishining o'ziga, tarbiyasiga, qanday qadriyatlarga tayanishiga bog'liq. Ammo ayrim hollarda insonning tuban yo'llarga kirishi, jaholat botqog'iga yetaklaydigan maxsus usul va texnologiyalar yaratilishi, jamiyat va millat hayotiga befarq bo'lishidan manfaatdor kuchlar tomonidan aholining ba'zi qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ataylab buzg'unchi g'oyalar ta'siriga ham tushirilishi ham mumkin"¹. Ayniqsa, demokratiya sharoitida fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi bu kuchlar uchun qo'l kelmoqda. Bugungi ong va tafakkur rivojlangan dunyoda ular mamlakat hududiga to'g'ridan – to'g'ri bostirib kirish mumkin emasligini yaxshi anglaydilar. Shuning uchun bunday tajovuzkor kuchlar o'z maqsadlarini har – xil yo'llar bilan, ya'ni yoshlarni ongini buzadigan video kliplar, kinolar, modalar orqali buzishga harakat qiladilar. "Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Albatta, yoshlarimizni bunday illatlardan asrash uchun ularni

¹ Назаров Қ., Эргашев И. ва бошқалар. Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти.-Т:Ғофур Ғулом, 2007.-Б.610.

har doim orqasidan kuzatib yurish mantiqqa to'g'ri kelmaydigan harakatlardan biridir. Ularni asrashning birdan – bir yo'li, bu ularda milliy ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdir. O'zining buyuk o'tmishi, ota – bobolarining o'gitlari, milliy ma'naviy qadriyatlari bilan qurollangan insonni hech qanday g'oya yoki oqimlar uning ishonchi, imoni va e'tiqodini o'zgartira olmaydi. Qolaversa, ezgu fazilatlarni o'zida jo qilgan insonda g'urur, jur'at, matonat kabi tuyg'ular ham shakllanishi shubhasiz. Bunday insonlar har doim vatani va millatining osoyishtalagi uchun har qanday vazifani o'ziga sharaf deb biladilar.

Shuningdek, millat birligini ta'minlovchi omillardan bir sportning o'rnini ham bu borada beqiyosdir. Sport – har bir xalq va millatning g'ururi faxri hamda birdamlik hamjihatlilikning mexanizmi sifatida har bir jamiyat siyosiy elitasining samarali faoliyatini belgilaydi. Har bir jamiyatda sportning ravnaqi, taraqqiyoti, vujudga kelishi turli sabab va oqibatlar asosida tahlil qilinadi. Masalan: Afrika davlatlarida sport millatchilik sifatida qo'llaniladi. 1956 yilda Janubiy Afrikaning millatparvar partiyasi oq va qora tanlilarni alohida faoliyat yuritishlari borasida qarorlar qabul qilgan shiorlar ostida namoyishlarni o'tkazishgan. Ularning maqsadi boshqa millat vakillaridan bo'lgan o'yinchilar ular urf-odatlariga rioya etishlari zarur edi.

Ammo, bunday qarorga Janubiy Afrikaliklar norozilik bildirishgandan so'ng Janubiy Afrika hukumati o'z siyosatida sport sohasiga o'zgartirish kiritib, G'arb sport sohasidagi hamkorlik hamdo'stlik munosabatlarini tiklash yaxshilash borasida qaror qabul qildi. Umuman olganda sportning insonparvarlik mohiyati shundaki, unda inson yuqoriga yuksalish o'zini ijobiy hislatlarda namoyon etish va oldiga qo'ygan maqsadiga erishishiga asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi. Bu soha o'zida tarbiyaning yangi turlarini, usullarini to'la namoyon qila oladi. Chunki, bu usullar keyinchalik jamiyatda, amaliyotda keng qo'llaniladi. Buning yorqin misoli sifatida XX asrning 80 yillarini keltirish mumkin. Olimpiya o'yinlarida faqatgina Rossiya yoki boshqa mamlakatlarning faxri bo'lgan sportchilar qatorida o'zbek sportchilarining ham o'rnini borligini alohida ta'kidlash joiz. Shuningdek, Germaniya, Gretsiyadagi umumjahon olimpiya o'yinlaridagi mamlakatlar faxriga aylangan sportchilar yutuqlarini keltirish mumkin. Sport sohasi mustaqil keng qamrovli unumli faoliyat tizimidir. Bu tizimning har qanday faoliyatini to'sish, qisqartirish mumkin emas. Bu soha erkin to'siqsiz muvaffaqqiyatlarga erishadigan sohalardir. Aks holda uning istiqboliga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bugungi kunda sportning ommaviyligini, jismoniy samaradorligini oshirish har bir shaxs

uchun muhim bo'lib qolmoqda shuningdek, yakka faoliyat tizimi sifatida va turli xil fondlar asosidagi taraqqiyoti ham yuksalib bormoqda. Ushbu sohada o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlarning bari quyidagi qiziqish va istaklar asosida amalga oshirilishi kutilmoqda.

1. Ushbu sohaning ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi rejalarini tuzish;
2. Soha uchun dastur kurslarini yaratilishi.
3. Turli xil mintaqa va sotsial guruhlarning taraqqiyotini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, yana eng unumli tadqiqot yo'nalishlaridan quyidagilarni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir:

1. Aholining turli xil sotsial guruhlarni reabilitatsiya qilish, ijtimoiy taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqarish.
2. Jismoniy tarbiya hamda sportning tarixiy madaniy aspektlarini milliy va jahon madaniyati urf-odatlar bilan uyg'unligini tahlil qilish.
3. Sportning falsafiy – insonparvarlik tomonlarini taraqqiy ettirish hamda rivoji, tuzulishini, yangi yo'nalishlarini, bashorat qilish.

Birinchisi – professional musobaqalar va olimpiya o'yinlaridan kuch olsa, ikkinchisi – bugungi kunda o'zida yangicha ko'rinish va yo'nalishlarni barpo etmoqda. Endilikda, sportni eng yuqori yutuqlari aksiologik – etnik rejadagi falsafiy sotsiologik tadqiqotlarda namoyon bo'ladi. Chunki, endi uning ko'p tomonlari o'z eskiligini yo'qotib o'zida yangicha kasbiy faoliyatni mujassamlashtiradi.

Bunga misol sifatida olimpiada o'yinlarini keltirishimiz mumkin. Chunki, olimpiada o'yinlari o'z davrida ham jismoniy, ham siyosiy ruhga ega edi. Insonshunos olim Per de Kuberten fikriga ko'ra yangi olimpiya musobaqalari millatlar, davlatlar o'rtasidagi o'zaro totuvlikni, hamjihatlikni, birdamlikni yuzaga keltiruvshi muhim omil hisoblanadi. Chunki, Per de Kuberten o'z davrida Yevropadagi davlatlar muammolarini ushbu soha yutuqlari bilan bartaraf etishni nazarda tutgan. Darhaqiqat, olimpiya o'yinlari azaldan davlatlar o'rtasidagi bo'lib o'tayotgan teng huquqli musobaqalarning timsoli edi. Bugungi kunda esa bu sohaning yangi qirralari ochilmoqda. Bu qirralar insonlarni har tomonlama yetuk, sog'lom, barkamol bo'lishlariga samimiy yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Sport sotsiologiyasining vujudga kelishidagi tarixiy zaruriyat haqida so'zlab bering.
2. Sport sotsiologiyasining obyekti va predmetini aytib bering.

3. Jamiyat taraqqiyotida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini soʻzlab bering.
4. Sport sotsiologiyasining funksiyalari.
5. Milliy birlikni taʼminlashdagi sportning ahamiyati.
6. Sport sotsiologiyasining maqsad va vazifalari.
7. Xalqaro sport sotsiologiyasi assotsiatsiyasining vujudga kelishi tarixini bayon qilib bering.

Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik konsepsiyasi

Reja:

- 1. Jamiyat taraqqiyotida jismoniy tarbiya va sportning oʻrni.**
- 2. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-madaniy mazmuni hamda ularni jamiyat va shaxs tomonidan oʻzlashtirish yoʻllari.**
- 3. Jismoniy tarbiya va sportga ilmiy yondoshuv.**

1. Jamiyat taraqqiyotida jismoniy tarbiya va sportning oʻrni. Konsepsiya atamasi lotincha “conceptio” soʻzidan olingan boʻlib bir-biri bilan bogʻlangan, biri biridan kelib chiquvchi qarashlar tizimi, dunyoda, tabiatda, jamiyatda roʻy bergan hodisalarga boʻlgan qarashlar tizimi, masalalarni hal qilish yoʻllari tizimi kabi maʼnolarni anglatadi. Konsepsiya harakatlar strategiyasini belgilab beradi. Jismoniy tarbiya va sport konsepsiyasi deyilganda, mazkur tizimni rivojlantirishdagi barcha qarashlarni kompleks tarzda qamrob olingani hamda ularni bir maqsad yoʻlida safarbar qilishni anglatadi. Yaʼni, jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga xizmat qiluvchi barcha harakatlar, qarashlar, omillarni oʻz ichiga qamrab olgan bir butun tizim nazarda tutiladi.

Dunyo taraqqiyoti XXI asrga kelib butunlay boshqa koʻrinish oldi. Bu taraqqiyotning shiddati inson tafakkuri, характери, harakatlarini oʻzgartirish bilan birga uning shaxsiga xos boʻlgan sifatlarni ham keskin oʻzgartirib yubormoqda.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining xilma xilligiga qaramay, anʼanaviy jamiyat uchun anʼanalarning, yangiliklarning oʻzgarmasligi, turmush tarzining, odamlarning, ijtimoiy tuzilmalarning qatʼiy tartiblangani, oʻzgaruvchanlikning sustligi, qadriyatlar va qoidalarning muqaddasligi kabi umumiy xususiyatlar xos boʻlib, oʻzgarishlar roʻy berishiga yoʻl qoʻymasada, bugungi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar taraqqiyot sari ilqam qadam tashlamoqda. Chunki

o'zining buyuk o'tmishi, o'ziga xos xususiyatlari bilan bir biridan keskin farq qilib kelgan Sharq va G'arb taraqqiyot orqali birlashib bormoqda. Ana shu birlashish o'zi bilan har bir millat o'zligini anglatuvchi milliy-ma'naviy qadriyatlarini millat taraqqiyotidagi rolini kamaytirib, ta'sirini kuchsizlantirmoqda.

Bizga ma'lumki har bir millat insoniyatning alohida qadrli qismidir, bir millatning yo'q bo'lishi umuminsoniyatning boyligiga salbiy ta'sir qiladi. Umuman nafaqat insoniyatni bardavomiyligini uning tarkibidagi har-xil millatlarning mavjudligi, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotning ham mazmunini har-xillik, turli tumanlik tashkil qiladi. Ijtimoiy hayotda har-xillik bo'lmasa qiziqish, siyosiy va iqtisodiy hayotda esa raqobat bo'lmaydi, qiziqish va raqobat insoniyatni harkatlantiruvchi kuchdir. Ana shu insoniyatdagi turli tumanlikni barhayotligini saqlashda milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rni beqiyosligi seziladi.

Inson tug'ilibdiki butun umr ijtimoiylashib boradi. Shunga ko'ra har davrning shaxsida shu davrning talablariga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanib boradi. Xususan, yetuk sanoatlashgan jamiyatda shaxs boshqa ijtimoiy sifatlariga ega bo'ladi, ya'ni: o'zining barcha asosiy o'lchovlariga ko'ra u an'anaviy jamiyatdagi shaxsning teskarisi ekanini namoyon etadi va sanoatlashgan jamiyatning ilk bosqichidagi shaxsdan farq qiladi. Uning o'ziga xosligi innovatsiyalarga, yangiliklarga intiluvchan shaxs ekanida ko'rinadi. Innovatsion shaxs dunyoni boshqarishga va uning ishlariga faol aralashishga intilishi bilan ajralib turadi. U hayotning yomon tomonlarini o'zgartirish borasida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, shunga ko'ra uning ijtimoiy faoliyati belgilarini ijodkorlik, yangilikka intiluvchanlik, qiziquvchanlik tashkil qiladi.

Aynan bugungi jamiyatda texnologiyalarning rivojlanishi jamiyat va tabiatning o'zaro munosabatlarida global ekologik muvozanatning buzilishi yuzaga keldi. Bu hol insonning biologik tur sifatida mavjud bo'lishini xavf ostida qoldiradi. Insonning atrof-muhit, olam bilan munosabatlarining murakkablashib borishi jismoniy vazifalarning kamayib, ruhiy yukning ortishiga olib keladi. Ming yillar davomida insonga ijobiy ta'sir etib kelgan tabiiy omillar bugunga kelib birdaniga noodatiy, kutilmagan tarzda ta'sir ko'rsatmoqda.

Inson va tabiat bir biri bilan nafaqat bir butunlik sifatida, balki obyekt va subyekt sifatida ham o'zaro bog'langandir. Insonning tabiatga, ayniqsa, sanoatlashuv davridan boshlab, faol aralashuvi, uning isrofgarchilik va iste'molga asoslangan harakteri tabiatga sezilarli zarar

yetkazmoqda. O'z navbatida tabiat ham insondan o'ch olishni boshlamoqda.

Davrning ana shunday holati aksida yangicha ijtimoiy jarayonlarga mos keladigan shaxsni shakllantirishga hamda ushbu davr madaniyatiga ham boshqacha nazar bilan qarash zarurati yuzaga kelmoqda. Mana shunday o'zgarishlar kechayotgan bugungi kunda milliy o'zlik, harakter, qadriyatlariga tayangan, ular asosida shakllangan shaxsni saqlagan holda davr bilan hamohang, unga bas keladigan shaxsni shakllantirish lozim. Albatta, davr ruhiga mos shaxsni shakllantirish bugungi islohotlarda namoyon bo'lmoqda, lekin shaxsda milliylik xususiyatlarini ayniqsa, sharqona xususiyatlarni saqlab qolish qiyin kechishi aniqdir. Agarda, xalqimizdagi qadriyatlardan biri bo'lgan qiz boladagi bokiralikni saqlashda yigitlar va ijtimoiy muhit e'tiborsizlik yoki zamonaviylikka yo'llasalar bizning jamiyatimizda ham fohishalik, ibosizlik, hayosizlik avj olib ketishi mumkin. Shuning uchun ham shaxsda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirib borish zarur. Ayniqsa, bu tuyg'ularni shaxsga singdirish uchun yoshligidanoq amalga oshirib borish kerak. Shuning bilan birga shaxsda jasurlik, o'ziga ishonch kabi tuyg'ularni shakllantirishda sportga alohida e'tibor berish kerak. Aynan yoshlik chog'idan sport bilan do'st bo'lish bolaning o'z ustida ishlashi, harakterining toblanishi, musobaqalarda qatnashish orqali qatiyatlik va mardlik xususiyatlarining shakllanishi, g'alabaga intilishi, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo o'z ustidan g'alaba qozonishi, bir so'z bilan aytganda, mustahkam irodagi ega bo'lishi uchun puxta zamin yaratadi. O'ziga ishongan insonni esa hech kim o'zining millatidan, ma'naviy qadriyatlaridan vos kechtira olmaydi.

Shunday qilib, eng yangi davrda murakkab sharoitlarda axborotlashgan jamiyat yetilib kelmoqda. Insonparvarlik uning mavjud bo'lishining asosiy omili bo'lishi kerak. Chunki bunday jamiyatda umumiy jihatdan insonparvar, har tomonlama rivojlangan shaxsga talab bo'ladi. Har bir tirik inson organizmi ijtimoiylashuv yo'lini bosib o'tish orqaligina shaxsga, ijtimoiy mavjudotga aylanadi. Inson jamiyat va uning tarixidagi bosh mezon hisoblanadi. O'zining buyuk o'tmishi davrida inson o'zi ardoqlab, tayanib kelgan qadriyatlarga suyanadi, ular orqali o'zligini, hayotda yashash, undan zavq olish, bahramand bo'lish kabi maqsadlarini anglab yetadi.

Falsafiy tushunchalarga mos ravishda inson – yerdagi moddiy va ma'naviy madaniyatlari tarixiy jarayonlari rivojining subyekt, genetik jihatdan hayotning boshqa shakllari bilan bog'liq bo'lgan bioijtimoiy

mavjudot bo'lib, o'zining mehnat qurollarini ishlab chiqish qobiliyati, fikrlashi va ongliligi bilan ulardan ajralib turadi.

Ijtimoiylashuv – ushbu jarayonda inson yordamga muxtoj merosxor boshqa odamlar bilan o'zaro aloqalarga kirishishi orqali doimiy o'z-o'zini anglab boruvchi, o'zi tug'ilib voyaga etgan joy madaniyatini tushunib boruvchi mavjudotga aylanadi.

Ijtimoiy insonlar o'zaro faoliyatning muhim ko'rinishi bu – sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) to'la huquqli va to'la qadrli a'zosi sifatida shakllanib borishi sodir bo'ladi. U yoki bu odamning ijtimoiy rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiylashuv ham individual rivojlanishda shuncha ahamiyatga ega.

Shaxs - bu insonning aqliy, ijtimoiy-madaniy va ruhiy-irodaviy sifatlarining dinamik, barqaror butun tizimi bo'lib, bu sifatlar uning individual tafakkuri ostida va faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shaxs deb ongli faoliyat subyekti bo'lgan, o'zida ijtimoiy muhim jihatlarni, xususiyat va sifatlarini jamlagan va ularni jamiyat hayotida qo'llab turadigan inson individiga aytiladi. Jamiyatdagi odamlarning o'rni turli hayot faoliyatlari va munosabatlari shakllari bilan tavsiflanadi.

Jamiyatda nimaiki yaratilgan bo'lmasin, ular barcha odamlar avlodining birgalikdagi faoliyatlari jamlanmasining natijasini o'zida namoyon etadi.

Ijtimoiy muhim vazifalardan biri – bu shaxsning, bolalarning, yoshlarning va barcha xalqning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashdan iboratdir. Asosiy jihatlarda har bir insonning sog'lig'i, uning garmonik rivojlanishi, sharoitlari, hayotiy muvaffaqiyatlari nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. O'z navbatida bu faol mehnat faoliyatining kafilidir. Inson hayotida sog'lom turmush tarzi, ayniqsa ushbu darajalarning eng munosib o'ringa egaligi va yagonaligi bilan tavsiflanadi. Sog'lom turmush tarzi uchun odamning jamiyatdagi mehnati va faoliyatining boshqa shakllaridagi ijtimoiy va ruhiy, jismoniy faolligi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari garmonik yuzaga chiqib turishi kerak.

Jismoniy madaniyat va sport odamlar o'rtasidagi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy asosga taqaluvchi ijtimoiy munosabatlarning asosiy qismi sanaladi. Jismoniy madaniyat va sport odamlar turmush tarzining subyektiv va obyektiv jihatlarini o'zida namoyon etadi, inson hayotining va mehnat shart-sharoitlarining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Sport odamlarning sog'ligini va ishchanlik qobiliyatini saqlashga va mustahkamlashga yordam beradi, ularga jismoniy ma'naviy va madaniy jihatdan yuqori pog'onalariga ko'tarilishga imkoniyatlar beradi. Shu bilan

birga sport odamlarning ijodiy qobiliyatini, madaniyatni, ta'limni, tarbiyani oshiradi (boyitadi) ularda hayotga qiziqishni ko'taradi, mehnat faoliyatini oshiradi, har bir insonning alohida va butun umumjamiyatdagi hayot tarzi shakllanishining haqiqiy omili sanaladi.

Inson organizmining rivojlanishida harakat, muskul faoliyati, jismoniy ish muhim o'rin tutadi, chunki uning hayot kechirishi, turmush tarzi bevosita faol harakatni taqozo qiladi. Bunday bog'lanish inson paydo bo'lganidan beri hayot kechirishning ajralmas qismi bo'lib, evolyutsion yo'l bilan mustahkamlangan.

Shu sababli harakat faqat yashash uchun kerak bo'lib qolmasdan (ovqat topib yeyish, dushmandan o'zini himoya qilish, noqulay omillardan muhofazalanish va boshqalar), barcha tashqi va ichki a'zolarining me'yoriy ishlashi uchun zaruratga aylangan. Hozirgi sharoitda esa texnikaning tezlik bilan rivojlanishi, turmushda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning tobora keng ko'lamda qo'llanilishi insonning bevosita harakat qilishini ancha-muncha cheklab qo'ydi.

Faol harakatning cheklanishi bilan organizmdagi barcha a'zolarining me'yoriy ishlashi buziladi, chunki ular asosan serharakat sharoitda o'z funksiyalarini to'liq bajaradilar. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanishi taqozo qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday turmush tarzi jarayonida inson tanasidagi barcha a'zolar va tizimlarning harakatga nisbatan bo'lgan tabiiy talabi qo'shimcha ravishda yuzaga keltiriladigan serharakatchanlik bilan yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish orqali qoplanishi kerak.

Faol harakat qilib yashash inson organizmining kasalliklarga kam chalinishini, xastalangandan keyin esa oson va tez tuzalib ketishini tegishli ravishda ta'minlaydi. Hayotda bunga ko'pgina jonli misollar keltirish mumkin. Ma'lumki, ota-bobolarimizning turmush tarzi doimiy jismoniy ish qilib turish bilan bog'liq bo'lgan. Ko'pgina manbalarda ko'rsatilishicha, bunday serharakatli bo'lish kishi sihat-salomatligi uchun juda foydali hisoblanadi. Shu boisdan ham ular hozirgi paytda tez-tez uchrab turadigan ayrim surunkali kasalliklar bilan (qonda xolesterin moddasining ko'payib ketishi va bu bilan bog'liq xastaliklar, semizlik, qandli diabet, yurakning ishemik kasalligi va boshqalar) og'riganlar. Hozirgi paytda shu narsa ilmiy ravishda asoslanganki, arterial qon bosimining yuqori bo'lishi (gipertoniya), miokard infarkti, asab tizimining qator xastaliklari (nevroz, nevrasteniya, depressiya va boshqalar), o't va siydik yo'llarida tosh paydo bo'lishi kabi «zamon kasalliklari» ko'pincha

jismimizning harakatga «to‘ymasligi»dan kelib shiqadi. Aytib o‘tilgan kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarning aksariyat qismi o‘tirib bajariladigan ish bilan (idora xodimlari, ilmiy xodimlar, pult boshqaruv tizimida navbatshilik qiluvshilar, rahbarlar va boshqalar) shug‘ullanishi aniqlangan. Yuqorida qayd qilingan kasb egalarining doimiy ravishda ish joyida badantarbiya, ishlab chiqarish gimnastikasi bilan yoki maxsus sport seksiyalarida shug‘ullanishi eslatib o‘tilgan xastaliklarning cheklanishiga, salomatliklarining mustahkamlanishiga olib kelgan.

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari bilan muntazam ravishda shug‘ullanish ish qobiliyatining oshishiga, mehnat unumdorligining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Jismoniy tarbiyada jismoniy taraqqiyot qonunlari ham aslini olganda jismoniy madaniyatning ijtimoiy qonunlari ham aks etadi. Jismoniy madaniyatning ijtimoiy qonunlaridan foydalanish harakteri va usuli aslida jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzumidan kelib chiqadi. Bu jismoniy tarbiyaga ijtimoiy harakter beradi. Jismoniy tarbiya va sportning institutlashishini yanada tezlashtiradi hamda jamiyatning fundamental ehtiyojlarini qondiruvchi tizimga aylanadi.

Har qanday hodisaning institutlatsiya jarayoni bir qator majburiy tashkiliy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Insonlarning mazkur hodisaning rivojlanishiga oid ehtiyoji tug‘iladi.

2. Har bir institut qat’iy belgilangan faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ijtimoiy funksiyani bajaradi.

3. O‘z moddiy bazasiga ega bo‘ladi va uni rivojlantiradi.

4. O‘z tizimini professional kadrlar bilan ta’minlaydi, bunday kadrlarni tayyorlashni amalga oshiradi.

Umumiylik belgilariga ko‘ra ularni quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin:

1. Yoshi, jinsi, sog‘ligining holati, jismoniy rivojlanganlik darajasidan qat’iy nazar barcha insonlarning organizmlarini umumiy rivojlantirish va mustahkamlash (jismoniy sifat va qobiliyatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish, harakatlanish ko‘nikmalarini takomillashtirish, sog‘likni mustahkamlash, involyusion jarayonlarni pasaytirish va h.k.).

2. Insonlarni mehnat faoliyatiga, vatan himoyasiga jismoniy tayyorlash (jismoniy tarbiyaning safarbarlik funksiyasi, kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik).

3. Insonlarning faol dam olish, mazmunli hordiq, bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish (zararli odatlardan chalg‘itish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish).

4. Insonning irodaviy jismoniy qobiliyatlari va harakatlanish imkoniyatlarini optimal darajadan eng yuqori darajagacha rivojlantirish.

Jismoniy tarbiyaning iqtisodiy ahamiyati mehnatkashlar kasallanishi hamda jarohat olish darajasining pasayishi, ulardagi mehnat unumdorligining oshishi, uzoq umr ko'rish, shu jumladan mehnat qilish umrining uzayishi bilan belgilanadi.

Ko'plab olimlar tomonidan olingan sotsiologik tadqiqot natijalari, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish insonlarning ijtimoiy faolligiga, mehnat unumdorligiga, sog'lik va uzoq umr ko'rishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, inson jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga qanchalik faol kirishgan bo'lsa, u omadga, kimningdir yordamiga, kerakli odamlar bilan aloqalarga egaligiga, moslashuvchanlik qobiliyatiga shunchalik kam umid qiladi.

Inson o'z kuchiga ishonish ko'nikmasiga ega bo'ladi va yaxshi hayot kechirishga erishish uchun ma'lum bir maqsadlarga, o'z qobiliyatlariga, iqtidoriga, mehnatkashligi va insofliligiga asosiy o'rin beradi. Aynan mana shunda jismoniy tarbiya va sportning eng muhim ijtimoiy funksiyalari ko'rinadi.

Umuman olganda sport shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy integratsiyasining kuchli omili bo'lib hisoblanadi.

Sportchilar, sportchi va murabbiylar, tashkilotchilar, sport hakamlari o'rtasidagi shaxslararo raqobat va hamkorlik munosabatlari sportning shaxsga nisbatan shakllantiruvchi ta'siri, u tomonidan sportga oid tajribani o'zlashtirish asosini tashkil etadi.

Mehnat faoliyatini tashkil etish usullari va ko'nikmalarining o'ziga xos jihatlari, muloqot doirasi va shaklini tanlash, o'z o'zini namoyon etishning o'ziga xos usullari, tovar va xizmatlarni iste'mol qilishning strukturasi va mazmunining o'ziga xosligi, shuningdek bevosita ijtimoiy-madaniy muhitni hamda bo'sh vaqtni tashkil etish yashash uslubining ko'rsatkichlari hisoblanadi.

2. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-madaniy mazmuni hamda ularni jamiyat va shaxs tomonidan o'zlashtirish yo'llari. Inson har tomonlama rivojlanishi uchun jismoniy tarbiyaning muhimligi, ushbu fenomenning qadriyat salohiyatini anglash orqali isbotlanadi. Ammo, uning tavsifiga to'xtalishdan oldin, qadriyat tushunchasini uning sotsiologik va falsafiy qiymatida ko'rib chiqamiz.

Qadriyat – bu sotsiologiyada shaxs va ijtimoiy xulq atvorni o'rganish jarayonida keng tarqalgan tushuncha bo'lib hisoblanadi. Qadriyatlarda ijtimoiy muhit predmet va hodisalarining inson va jamiyat uchun

muhimligi gavdalanadi. Qadriyatlar shaxs strukturasiining ijtimoiy orttirib olingan elementlari bo'lib, istalgan narsalar to'g'risidagi sobit, barqaror tasavvurlar sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlar aniq bir shaxsga bog'liq bo'lmagan holda madaniyat elementi sifatida mavjud bo'ladi va shaxsning ma'naviy madaniyati elementiga, xulq-atvorning ushbu qadriyatlar o'zlashtirilgan me'yorlaridagi muhim regulyatorlari (tartibga soluvchilari)ga aylanadi. Madaniyatning har bir tipi, har bir davr, millat, etnos, guruh o'ziga xos qadriyatlar tizimiga ega bo'ladi.

Shuning uchun, zamonaviy jamiyat jismoniy tarbiya va sportining qadriyat salohiyati haqida so'z yuritganda, qadriyatlarning ikki darajasini (ijtimoiy va shaxsga xos darajalarini) nazarda tutish hamda ijtimoiy qadriyatlarining har bir shaxs boyligiga aylanishi mexanizmini tasavvur qila olish lozim.

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy qadriyatlariga quyidagilarni kiritamiz: intellektual qadriyatlar, harakatlantiruvchi harakterdagi qadriyatlar, pedagogik texnologiya qadriyatlari, safarbar qiluvchi qadriyatlar.

Intellektual qadriyatlarning mazmuni o'zida inson jismoniy faolligi, sport tayyorgarligi, chiniqish va sog'lom turmush tarzining asosi sifatida, uning jismoniy salohiyatini rivojlantirish usul va vositalari to'g'risidagi bilimlarni namoyon etadi.

Harakatlantiruvchi harakterdagi qadriyatlarga, bizning fikrimizcha jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligi jarayonida erishiladigan motor (harakat) faoliyatining eng yaxshi namunalarini, insonning harakatchanlik tayyorgarligining shaxsiy yutuqlarini, uning real salohiyatini kiritish lozim.

Jismoniy tarbiyani shakllantirish texnologiyasi qadriyatlari deganda sport va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining uslubiy yo'riqnomalari, amaliy tavsiyalariga oid turli majmualarni, ya'ni mutaxassislar tomonidan jismoniy va sport tayyorgarligi jarayonini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan barcha narsalarni tushunamiz.

Yashovchan va ijtimoiy faol yosh avlodni tayyorlashda bolalar va yoshlar tomonidan jismoniy tarbiyaning safarbar qiluvchi qadriyatlarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular qatoriga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan tarbiyalanadigan o'z vaqt byudjetini to'g'ri taqsimlash qobiliyati, ichki intizom, shaylik, vaziyatni baholash va qaror qabul qilish tezligi, qo'yilgan maqsadga erishishdagi qat'iyatlilik, muvaffaqiyatsizlik va hatto mag'lubiyatni xotirjam boshdan kechira olish, murakkab vaziyatlardan oson chiqa olish kabilar kiradi. Jismoniy tarbiyaning safarbar qiluvchi qadriyatlari insonga zamonaviy jamiyat

hayotida uncha ham kam uchramaydigan ekstrimal vaziyatlardan sog' chiqishga yordam beradi: kasalliklar, jarohatlar, ekologik inqirozlar, avariylar – bu insonga yuqori darajada rivojlangan harakat sifatlari va qobiliyatlari ayniqsa zarur bo'ladigan vaziyatlarning to'liq bo'lmagan ro'yxati. Jismoniy tarbiya va sport faoliyati organizmning funksional, psixologik va jismoniy imkoniyatlarini safarbar qilishga yordam beradi. Bunda, insonning funksional kuchlarini tezlik bilan safarbar qilishni talab qiladigan noodatiy tashqi ta'sirlarga javob qaytarish uchun o'ziga xos zahirani yaratishga bilvosita ta'sir ko'rsatiladi.

Valeologik qadriyatlarining integrativligi ularning mazmuniga harakat harakteridagi qadriyatlarining qo'shilishi bilan asoslanadi: ko'nikmalar, jismoniy tayyorgarlik, mehnat layoqati – bu sifatlarning barchasi inson sog'ligi holatini sezilarli darajada belgilab beradi.

Jismoniy tarbiyaning safarbar qiluvchi qadriyatlari ham valeologik yo'nalganlik xususiyatiga ega deyish mumkin: sog'lom turmush tarzining o'z-o'zini tashkil etishi, tashqi muhitning zararli ta'sirlariga qarshi turish qobiliyati – jismoniy tarbiyaning valeologik qadriyatlarini o'zlashtirilishi natijasidir va so'nggi o'rinda aytish joyizki, jismoniy tarbiyaning valeologik qadriyatlari – bu insonning o'z sog'lig'iga nisbatan ehtiyotkorona munosabatta bo'lishida mativatsiyani, qiziqishni, ehtiyojni shakllantirish uchun imkoniyatdir.

Jismoniy tarbiya qadriyatlarini o'zlashtirishning shaxsga xos darajasi insonning jismoniy barkamollik sohasidagi bilimlari, harakat ko'nikmalari, o'z sog'lom turmush tarzini tashkil etishga bo'lgan qobiliyati, ijtimoiy-psixologik ko'rsatmalar, jismoniy tarbiya va sport faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan yo'nalganlik bilan ifodalanadi.

Jismoniy tarbiya va sport qadriyatlari ko'p jihatlari bilan o'xshashdir. Shunga qaramasdan, ularning funksional farqlarini ham inobatga olish lozim. Jismoniy tarbiya ijtimoiylashuvning dastlabki va eng muhim usullaridan biri, sport esa, insonning yuksak qobiliyatlarini ijtimoiy tan olishning usul va shakli sifatida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Sportning o'ziga xos qadriyatlari yuqori integrativlik va variativlik xususiyatiga ega. Birinchi o'rinda bu sportning tarbiyaviy qadriyatiga taalluqlidir. Biz ko'pincha, sportning emotsional, axloqiy, estetik qadriyatlarini mustahkamlagan holda uni "harakter maktabi", "hissiyotlar maktabi", "iroda maktabi", "halol o'yin maktabi" deb ataymiz. Olimpiya harakatida sportning ijtimoiy integratsiyalashuv va xalqaro aloqalarni mustahkamlash omili sifatidagi qiymati yanada oshib bormoqda. Sport o'zining kommunikativ xususiyatlari tufayli xalqaro muloqotda allaqachon

eng muhim joylardan birini egallagan. Sport tili tarjima qilishga muhtoj emas, u umuminsoniy mantiqqa asoslanganligi uchun tushunarli va yengil.

Sportning qadriyatlari bo'yicha salohiyati haqida gapirganda, unda jamg'arilgan insonning zaxira kuchlarini anglash bo'yicha tajribani tilga olmaslikning iloji yo'q. Yangi, oldin ma'lum bo'lmagan marralarni o'zlashtirib, inson imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirgan holda sportchilar amalda ana shu imkoniyatlar ro'yobini namoyish etmoqdalar va o'zlarining bo'lajak rekordlarga bo'lgan mo'ljallarini belgilamoqdalar. Shunday qilib, inson imkoniyatlarining zaxiralarini anglashdan iborat bo'lgan "pionerlar vazifasini" bajarib, sport o'zida eng muhim va tengi yo'q ijtimoiy qadriyatlardan birini ifodalaydi.

Sportni ijtimoiy qadriyat sifatida tavsiflashda, uning kichik bo'lmagan iqtisodiy qiymatini ham nazarda tutish lozim. Bugungi kunda Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari va kuboklari, boshqa nufuzli musobaqalarni tashkillashtirish va o'tkazish huquqini qo'lga kiritish uchun kechadigan murosasiz bahslarning avj olib ketgani bejiz emas. Sportning iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi allaqachon isbotlangan. Jamiyatning sport rivojiga sarflayotgan moliyaviy mablag'lari millatni sog'lomlashtirishdan boshlab, uning tijoriy tomonidan keladigan moliyaviy foydasigacha bo'lgan jihatlarida o'zini ko'p karra oqlamoqda.

Jismoniy tarbiya va sportning qadriyatlarga xos salohiyati yuqorida tilga olingan tavsiflar bilangina cheklanmaydi. Jamiyatning riojlanishi sari jismoniy tarbiya va sport ham boshqa ijtimoiy hodisalar singari insonlar hayotiga bo'lgan ta'siri chegarasini doimiy ravishda kengaytirib kelmoqda. Ammo, zamonaviy qadriyatlarga xos salohiyat strukturasi nisbatan barqaror bo'lib kelmoqda. Bu jihat, uni tasniflash va tahlil qilishga bo'lgan dastlabki urinishimizga zamin yaratdi.

Jismoniy tarbiya va sport qadriyatlarini o'zlashtirishning zamonaviy tizimi asosiga so'nggi o'n yilliklarda jismoniy tarbiya nazariyasida shakllangan innovatsion yondashuvlar va yangi pedagogik texnologiyalarni belgilab beruvchi nazariy konsepsiyalarni qo'yish zarur.

Ammo, jismoniy tarbiyaning an'anaviy jarayoni jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlikka, jismoniy sifatlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'nalgan bo'ladi, ya'ni biologik, harakat omiliga urg'u beriladi.

Jismoniy tarbiyaning mazmuni uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: ijtimoiy-psixologik, intellektual va harakat (jismoniy) tarbiyasi.

Ijtimoiy-psixologik tarbiyaning mohiyati jismoniy tarbiya qadriyatlarini o'zlashtirishga bo'lgan hayot falsafasini, e'tiqodni, unga

nisbatan ehtiyoj sifatida yondashish munosabatini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ijtimoiy-psixologik idrok etishning ijobiy samarasiga jismoniy tarbiyaning shaxsga xos qadriyatlari inson tomonidan hayotiy muhim va zarur deb his qilingan, tushunilgan va anglangan, qadriyatlarga munosabat esa jismoniy tarbiya va sport faoliyati bilan mustahkamlangan taqdirdagina erishiladi.

Olimpiya madaniyatining kommunikativ qadriyatlari esa sportni ko'p jihatdan muloqot, xalqlarning o'zaro tushunish vositasi sifatida tavsiflaydi. Bu qadriyatlar sport faoliyatining baynalmilalligini yaqqol namoyon etadi. Sport tili tarjima qilishni talab etmaydi, u sport bilan shug'ullanayotgan, uning chiroyi, hissiyotlarga boyligini taniyotgan barchaga birday tushunarli va yengil. Shunday qilib, olimpiya madaniyati insoniyat tomonidan to'plangan jamiyatning gumanistik hayot tarzi va shaxsning yashash uslubi asosida shakllanadigan Olimpiya hartiyesi mafkurasiga, olimpizm falsafasiga muvofiq keluvchi bilimlar, me'yorlar, qadriyatlar, ma'nolar, xulq-atvor namunalari yig'indisidan iborat.

Olimpiya tarbiyasi jarayonining innovatsionligi, jismoniy tarbiyadan farqli ravishda uning bir butunligi hamda sport faoliyatining madaniy salohiyatini o'zlashtirishga yo'naltirilganligida ifodalanadi. Sport malaka va ko'nikmalarining shakllanishi shaxsning insonparvar sifatlarini maqsadli shakllantirish bilan birga olib boriladi.

Bizning mamlakatimizda jismoniy madaniyatning yagona tizimi vujudga keltirilgan. Bu tizim davlat va xalqning bu sohada olib borilgan katta bunyodkorlik ishining natijasi bo'lib kelmoqda.

Jismoniy madaniyatning milliy tizimi O'zbekiston fuqarolarining jismoniy madaniyatini amalga oshiradigan va nazorat qiladigan tashkilotlar hamda muassasalarning birligidan iborat.

Mustaqillik tarbiyaning yangi, chinakam ilmiy va ilg'or tizimini yaratilishini ta'minlab beradi. Bu tizim xalqni tarbiyalash borasida olib borilgan bir necha ming yillik an'analari negizida qaror topdi. Jismoniy madaniyat milliy tizimining g'oyaviy negizi mustaqillik mafkurasidir. Bizning istiqloлга erishgan yurtimizda jismoniy madaniyat davlatimizning xalqning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini har taraflama rivojlantirish zarurligi to'g'risidagi aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviy birligi to'g'risidagi, jismoniy madaniyatni mustaqillik va Vatan mudofasi manfaatlariga bo'ysundirish to'g'risidagi ta'limotlari asosida amalga oshirilmoqda. Jismoniy madaniyat tizimining mohiyati O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentlarining ta'lim — tarbiya va kadrlash tizimini isloh qilish bilan bogliq farmonlari, farmoyishlari va asarlarida, shuningdek, jismoniy tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, vazifalarida, tamoyillarida va usullarida, jismoniy madaniyatning tashkiliy negizlarida aniq ifodalaydi.

Jismoniy madaniyat tizimining xalqchilligi, birinchidan, uning maqsadlari xalqning hayotiy manfaatlariga, milliy mafkuraga, mehnatga va Vatan mudofasiga tayyorgarlik manfaatlarga mos kelishdan, ikkinchidan, bolalarning yoshligidan boshlab xalq milliy o'yinlariga, gimnastika mashg'ulotlariga, sportga, turizmga, (sayohatga) muntazam ravishda izchillik bilan ommaviy jalb etishdan, jismoniy madaniyat va sportning har bir kishi turmushiga singib borishidan, uchinchidan, jismoniy mashqlarning ko'pchilik orasida keng tarqalgan xalq milliy o'yinlari bilan bir qatorda jismoniy madaniyat vositalaridan keng foydalanishdan iboratdir.

Jismoniy tarbiya O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunida oliy ta'lim muassasalarida o'quv fani sifatida ko'rsatilgan hamda shaxsni yaxlit rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralgan. Umumiy madaniyatning va talabaning ta'lim olish jarayoni davomida kasbiy tayyorgarligi tarkibiy qismi bo'lish bilan birga jismoniy madaniyat ta'limning gumanitar bo'limining majburiy fanlaridan biri hisoblanadi, uning ahamiyatliligi ma'naviy va jismoniy kuchlarning uyg'unlashuvida, umuminsoniy qadriyatlardan salomatlik, jismoniy va ruhiy xotirjamlik, jismoniy mukammallik kabi qadriyatlarnig shakllanishi orqali namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarining talabalarini jismoniy tarbiyalashning maqsadi bo'lib shaxs jismoniy madaniyati va jismoniy madaniyat vositalarini yo'naltirilgan holatdagi qo'llay olish layoqatini shakllantirish, salomatlikni tiklash va mustahkamlash uchun sport va turizmni rivojlantirish, bo'lajak mutaxassis faoliyati uchun ruhiy-jismoniy tayyorgarlik va o'z-o'zini tayyorlash layoqatlarini shakllantirish hisoblanadi.

Talabalarning jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayoni o'quv rejalari va dsturlari bilan qattiq tartibga solinadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi. Jismoniy tarbiyaning davlat dasturi barcha oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun jismoniy tarbiya bo'yicha bilimlari, harakatchanlik ko'nikmalari, mahoratlari va jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi hamda jismoniy tarbiyaning majburiyligini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, insoning yoshi uning psixologiyasiga, xulq-atvor motivlariga va qiziqishlariga ta'sir qiladi, ya'ni ma'lum bir izni qoldiradi. Sotsiologik tadqiqotlar umuman olganda talaba-yoshlar jismoniy madaniyat mashg'ulotlariga, sportga ijobiy munosabatda ekanliklarini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga o'smirlarning ko'pgina qismida, ayniqsa qizlarda jismoniy madaniyat va sportga bo'lgan qiziqishlari va faol harakatchanlik faoliyatiga bo'lgan tabiiy ehtiyoj shakllangan bo'ladi. Bunday holatga yondoshgan holda fanning o'quv dasturini to'liq va yaxshi o'zlashtirish uchun zarur psixologik zaminlar yaratilmaydi. O'z navbatida bunday holat talabalarning jismoniy tayyorgarligiga va salomatligiga yomon ta'sir qiladi. Aynan shuning uchun ham faoliyatga kerakli motivatsiyani shakllantirishni asosiy pedagogik masalalardan biri sifatida qarash kerak. Talabalarda jismoniy madaniy va sportga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirib borish quyidagi omillar asosida amalga oshirilishi lozim:

- qiziqishlarni ijtimoiy ahamiyatli motivatsiyasini kuchaytirish;
- o'quv jarayoni sifatini oshirish;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan uzoqqa yo'naltirilgan sharoitlarni rivojlantirib borish;
- talabalarga katta hajmdagi maxsus bilimlarni berish va ushbu asosda jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlariga anglangan ehtiyojni shakllantirib borish;
- talabalarning boshqa qiziqishlari (kasbga, san'atga va boshqalarga) bilan jismoniy madaniyat va sportga bo'lgan qiziqishlari o'rtasida o'zaro aloqani shakllantirish;
- talabalarni o'quv bo'limlari va sport turlariga taqsimlashda ularning xohishi va moyilligini diqqat bilan o'rganish, inobatga olish.

Jismoniy tarbiya shunday umminsoniy qadriyatlarni shakllantrishiga qaratilganki, ulardan biri jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik, insonning hayotiy resurslarini oshirishga qaratilgan omillar qatoriga kiritilgan salomatlikdir.

Talabalarni jismoniy tarbiyalash faol harakatchanlik faoliyati turlarini mukammallashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular talabalarni tashkillashtirilgan jismoniy madaniyat-sport faoliyatiga motivatsiyasi va qiziqishlarini belgilab beradi.

Bunday faoliyat turlaridan biri bu-mashhurlikka sazovor bo'lgan va talabalar orasida katta qiziqish uyg'otgan kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlar hisoblanadi.

Ushbu mashg'ulot turi insonlar diqqatini tortishining sabablaridan biri yoshlarning muskullarini mustahkamlashga bo'lgan qiziqishlari, uning asosida chiroyli qomatga ega bo'lishga intilish, umuman olganda organizmning hayotiy faolligini (organizmning yoki biror a'zoning hayotiy faollik darajasi) oshirishdir. Talabalar uchun mashg'ulotlarning asosiy motivi bo'lib kuchning rivojlanishi va atletik tana-tuzulishini shakllantirish hisoblanadi. Bundan tashqari, kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlar asosida tayyorlanish faqatgina kuchni rivojlanishiga va ishchanlikni oshishiga xizmat qilmaydi.

Kuch – insoning asosiy jismoniy sifatidir. Barcha boshqa harakatchanlik layoqatlari kuch bilan hamkorlikda namoyon bo'ladi. Kuch – har qanday harakatning birlamchi sababi va mexanik xususiyatidir. U har qanday harakat faoliyatida namoyon bo'ladi, ulardan esa mehnat, maishiy, harbiy, sport va barcha boshqa inson faoliyati tashkil topadi. Muskel kuchi ma'lum bir darajada inson salomatligini, uning ishchanligini belgilaydi. Yetarli bo'lmagan kuchga yo'naltirilgan tayyorgarlik - talabalarning jismoniy tayyorgarligidagi jiddiy muammosidir. Hozirgi jismoniy tarbiya tizimida kuchga yo'naltirilgan tayyorgarlik va zo'riqtiradigan mashqlar optimal qo'llanilmaydi hamda yetarli darajada moddiy va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlanmaganidir.

Talabalar jismoniy tarbiyasi bo'yicha ko'p yillik kuzatishlar va davlat dasturlari hujjatlarining tahlili oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida kuchga yo'naltirilgan (og'ir) mashqlar ko'rinishidagi majburiy baholash testlari mavjud emasligi ko'rsatmoqda. Jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida kuchga yo'naltirilgan (og'ir) mashqlarning mavjud emasligi gavda orqa tomonining muskullari rivojlanishiga imkoniyat bermaydi. Mustahkam bo'lmagan gavdaning orqa tomoni – zamonaviy insonning muammosi, kuchsizlikning va og'ir kasalliklarning manbai, yomon qad-qomatning, umurtqa qiyshayishi va jarohat olishining asosiy sabablaridan biri, faqatgina jismoniy-madaniy erkinlikning chegaralanishi emas, balki mehnat va maishiy harakatlarni ham chegaralanishidir. Talabalarni ko'pgina tibbiy va pedagogik tekshirishlarining natijalari ularning past darajadagi kuch rivojlanishini isbotlamoqda. Kuchning yetarli emasligi jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturini o'zlashtirish va barcha baholash me'yorlarini bajarish imkonini bermaydi. Zarur darajadagi kuchni oshirish imkoniyatini akademik va mustaqil mashg'ulotlarda muntazam amalga oshiriladigan kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlar beradi. Kuchga yo'naltirilgan mashg'ulot – bu zo'riqish qo'llanilishi asosida sog'lom jismoniy formani rivojlantiradigan

mashg'ulotlar usulidir. Zo'riqishga asoslangan mashqlar (gantellar, shtangalar, ko'pfunksiyali trenajyorlar va boshqlar) kuchni rivojlantirish, kam vaqt va vosita ishlatish orqali sog'lomlashtiruvchi samara olish imkoniyatini beradi. Ular oddiy va hamma uchun qulaydir. Talabalik yoshida kuchga yo'naltirilgan mashqlar bilan shug'ullanish juda muhimdir. Chunki 16-20 yosh, jismoniy kamolotga yetish davrida kuchga yo'naltirilgan mashqlar maksimal natija beradi. Kuchga yo'naltirilgan mashqlar ushbu davrda faqatgina muskullarni shakllantirmaydi, balki skeletni ham shakllantirib boradi. Ko'krak qafasi va yelkalar kengayib boradi, suyaklar yo'g'onlashadi, bo'g'imlar va paylar mustahkamlanadi. Natijada kuchli moddalar almashinuvi va umurtqalar orasidagi diskning yo'g'onlashuvi o'sish ko'rsakichlariga sezilarli darajada ijobiy ta'sir qiladi. Kuch va salomatlik talabalarning aqliy mehnat ishlab chiqarishlari va oliy ta'lim muassasasida yaxshi ta'lim olishlari uchun imkoniyatlarini kengaytiradi. Oliy ta'lim muassasasida kuchga yo'naltirilgan tayyorgarlik talabalarning kuchga yo'naltirilgan tayyorgarligining yuqori darajasini, ular tomonidan zarur bo'lgan mehnatni to'liq bajarish va kelgusi mehnat faoliyati davomida tegishli talabalarni hamda organizmning mukammal har tomonlama rivojlanishi ta'minlaydi.

Har qanday sport mashg'ulotlari organizmning strukturasi va funksiyalari jiddiy o'zgartiradi. Kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda organizmning yuklamalarga moslashish reaksiyasi skelet muskullari o'sishida, kuchning ko'payishida ifodalanadi.

Mamlakatimizdagi ko'pgina oliy ta'lim muassasalari kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni, sport seksiyalari ishlarini tashkil etish va akademik mashg'ulotlarni olib borish bo'yicha ko'p yillik malakaga ega. Ko'pgina talabalar mustaqil ravishda, o'z tashabbuslariga ko'ra kuchga yo'naltirilgan tayyorgarlik bilan qomat, gavidani tuzilishini yaxshilash, kuchni rivojlantirish, salomatlikni musahkamlash maqsadida ham o'yda, talabalar uylarida shug'ullanadilar.

Natijada oliy ta'lim muassasasida o'zlashtirilgan bunday kuchga yo'naltirilgan mashqlar shunday jismoniy-sog'lomlashtiruvchi va sport mashg'ulotlari bo'ladilarki ular insonni butun umri davomida ishchanligini oshirib boradi va ijodiy hayotiy dovomiyligini uzaytiradilar.

Jamiyat va shaxs fanlari doirasida – ijtimoiy hayot, ijtimoiy o'zaro munosabatlar va shaxslararo munosabatlarni o'rganadigan sotsiologiya fani muhim o'rin egallaydi. Inson va guruh o'rtasida qanday qiyin va murakkab masalalar oldinda turmasin, ularning barchasi turli darajalarda insoniy munosabatlar harakteridan kelib chiqadi. Bizning oldimizdagi

muammolar qanchalik murakkab bo'lsa, shunchalik ularning hal etilishida shaxs, uning inson va jamiyat to'g'risidagi bilimlari muhim rol o'ynaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tizimida ishlovchi har bir kishi nafaqat sport mashg'ulotlarining va boshqa muhim kasbiy faoliyatlarning yo'l yo'riqlari metodlari va usullarini yaxshi bilishlari kerak, balki, o'z navbatida odamlarning hayotiy qiziqishlari va ijtimoiy munosabatlari asosida quriladigan guruhlar, jamoalar, jamiyat va dunyo hamjamiyati bilan ham ishlay olishi kerak.

Jismoniy madaniyat va sportning rivojlanish jarayonlarini va uning ijtimoiy institutga aylanib borishini, uning boshqa jamiyat tizimlariga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish uchun ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazishni talab etiladi. Boshqa bilimlar bilan bir qatorda jismoniy madaniyat va sport ko'lamida ham sport sotsiologiya fani shakllanib bormoqda. U aniq ijtimoiy tadqiqotlar va boshqa ko'lamlardagi jismoniy madaniyat va sportning muvaffaqiyatlarini ilmiy obyekt sifatida nazariy, psixologik va pedagogik ko'rinishda tadqiq qiladigan mustaqil ilmiy fan sifatida rivojlanmoqda. Hozirgi vaqtda jismoniy madaniyat va sport sotsiologiyasi ilmiy va o'quv maqomiga ega bo'lgan bo'lib, o'zining obyekti, predmeti va ilmiy metodlariga ega bo'lgan fan bo'lib qoldi. Ijtimoiy tadqiqotlar jismoniy madaniyat va sportning rivojiga turli ijtimoiy faktorlarning ta'sirini ko'rsatib berishga, hamda mavjud ko'lamning jamiyat hayotiga ta'sirini aniqlashtirib berishga yordam beradi.

Ko'p qirrali aniq ijtimoiy tadqiqotlar, jismoniy madaniyat va sport ko'lamida jamiyatdagi ehtiyoj – motivatsiyalar holatini tahlil qilishga odamlarning jismoniy madaniyat va sportga nisbatan bo'lgan real munosabatini, ularning qiziqishlarini, qadriyatli yo'nalishlarini munosabat darajalarini baholashga imkoniyat beradi.

Sport sotsiologiyasining maqsadi jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi mavjud holatini tadqiq qilish, uning natijalaridan ularning rivojlanishi bog'liqliliklari va qonuniyatlarini loyihalashda foydalanish, mavjud tarmoqdagi ishlar bo'yicha bashoratlar qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda, mamlakat aholisining turmush tarzida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishdan iborat. Shuningdek, jismoniy madaniyat sohasidagi mutaxassislarni ularning faoliyatidagi sotsial jihatlaridagi bilimlar bilan qurollantiradi, ularga zamonaviy mutaxassislar oldida turgan ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal etish maqsadida aniq ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazishga o'rgatadi.

3. Jismoniy tarbiya va sportga ilmiy yondoshuv. O'zbekiston mustaqillikka erishib, yangi demokratik davlat sifatida butun dunyoda

tanilgach, mamlakatimizda keng miqyosda iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu bilan birga Respublika aholisini sog'lomlashtirish, xalq sog'ligini mustahkamlash uchun jismoniy madaniyatga va sportga katta e'tibor berilmoqda.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida Vatanimizning kelajagi – farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Sog'lom turmush tarzi inson madaniy, jismoniy rivojlanishi, mehnat unumdorligi va ijodiy faoliyatini oshirishni o'z ishiga oladi. Sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari – samarali ish faoliyati, shaxsiy gigiena, zararli odatlardan voz keshish, belgilangan bir vaqtda to'g'ri ovqatlanish, jismonan chiniqish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanib turishdan iborat. Yoshlar, o'quvshilar sog'lom turmush tarzining shakllanishi har tomonlama gormonik yetuk, faol shaxsni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Har kim o'zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy madaniyat va sportning zarurligini tushunib yetishi va qunt bilan o'ziga yoqqan ma'lum bir jismoniy mashg'ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak.

Xalqimiz farzandlarining jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy madaniyat jarayonida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish xalq salomatligi tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo'lidagi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan etib belgilandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yosh avlodni yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va tafakkurga ega, ayni paytda sog'lom turmush tarziga rioya qiladigan, jismonan sog'lom, ruhan tetik insonlar qilib voyaga yetkazishning samarali tizimi hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda o'g'il-qizlarimizni jismonan sog'lom, kuchli iroda va yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar qilib tarbiyalashning bosh omili, o'zbek sportining kelajagi, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning asosi bo'lgan bolalar sportini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. "Bolalarni 3-5 yoshdan sportga jalb etish katta ahamiyatga ega. Chunki ayni shu davrda har bir bolaning характери shakllana boshlaydi, hayotga teran ko'z bilan qarashga o'rganadi. Sportga mehr qo'ygan bola bir umr sportga oshno bo'lib qoladi. Sport bolaning

nafaqat salomatligini mustahkamlaydi, balki zararli illatlardan uni himoyalaydi, harakterini toblaydi. Sportni ta'lim-tarbiya bilan mutanosib ravishda izchil rivojlantirish - bu biz tanlagan yo'lning ajralmas qismidir. Tarbiyaning birinchi vazifasi – sog'lomlikni o'rgatish, mustahkamlash, ikkinchisi sog'lom tanga puxta bilim berishdir. Shu maqsadda, kadrlar tayyorlash milliy dasturimiz yaxlit va tizimlilik asosida shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qilib kelmoqda. Uzluksiz ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish bu yaxlit jarayonning uzviy tarkibiy qismlaridir. Mazkur dastur mamlakatimiz iqtisodiyoti va hayotining barcha jabhalari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash vazifasini muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilmoqda.

Bolalar va yoshlarni sport bilan faol va muntazam shug'ullanishga ommaviy jalb qilish tarbiya jarayonining yana bir uzviy qismidir. Negaki, sport salomatlikni mustahkamlash bilan birga, insonda fe'l-atvor, iroda, qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini shakllantiradi. Mamlakatimizda maktab o'quvchilarining "Umid nihollari", kollej va litsey o'quvchilarining "Barkamol avlod" hamda talabalarning Universiada bellashuvlarini o'z ichiga olgan noyob uch bosqichli sport musobaqalari tizimi tashkil qilinganligi sog'lom avlodni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barcha o'quv yurtlari, shu jumladan qishloqlarda bugun xalqaro standartlarga mos jihozlangan sport zallari, komplekslari faoliyat yuritmoqda. Sport obyektlarini murabbiy kadrlar, ayniqsa murabbiyalar bilan to'ldirishga qaratilgan ushbu amaliy sa'y-harakatlar natijasida ayol sport ustozlari o'tgan yilning o'zida 1,6 barobardan ko'proq oshdi. Qizlarining sport bilan shug'ullanishi ularning nafaqat salomatligida, ayni paytda qaddi-qomati to'g'ri shakllanishida, yurish-turishida naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganini bugun ota-onalarning o'zlari quvonch bilan ta'kidlashmoqda. Qizlarimizning mana shunday sog'lom bo'lib ulg'ayishi ertangi kunimizning, dunyoga keladigan barkamol avlodning muhim omillaridandir.

Sport yoshlarimiz hayotiga tobora chuqur kirib borayotgani, minglab yigit-qizlar sport bilan shug'ullanishni kundalik vazifasiga aylantirgani ularning jismoniy holatiga, salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoriga iqtisodiy omillarning tanho o'zi bilan o'tib bo'lmaydi. Bu borada barcha omillarning ahamiyati behad katta. Jamiyatda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishda kishilarning ruhiyatini o'zgartirish, ularda islohotlarning

talabiga mos keladigan yangi tafakkur tarzini shakllantirish nihoyatda muhim. Agar kishilarning ongida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatlariga ishonch ruhi paydo bo'lmas ekan, unda yangicha tafakkurni shakllantirishning iloji yo'q.

Bu borada Vataniga sodiq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, yetuk tafakkurga ega bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash barcha davrlarda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonni shaxs sifatida shakllanib borishida ta'lim-tarbiya hamda ilmiy-tadqiqotlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir.

Zamonaviy talablarga javob beruvchi kadrlarni tayyorlash borasidagi barcha huquqiy qoidalar va talablari qabul qilingan bo'lsada amaliyot bu sohada bir qancha muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatning kamayib borishi, ilmiy-tadqiqot ishlarida professor-o'qituvchilarning o'quvsizligi bunday muammolarni bartaraf etib borish bo'yicha tizimli dasturlarni ishlab chiqib, ularning izchilligini ta'minlashni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Davlatimiz o'zining dasturlari doirasida ilmiy-tadqiqot loyihalar tanlovini tashkil qilib kelayotgani, undan tashqari nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyatini rag'batlantirish, ushbu tashkilotlardagi muammolarning ilmiy yechimlarini topish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha loyihalar e'lon qilib kelayotgan bo'lsada, ushbu tanlovlarda ma'lum bir soha vakillarining faol ishtiroki sezilmayapti hamda professor-o'qituvchilarning bunday tanlovlarga bo'lgan qiziqishi tobora kamayib bormoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha kadrlarda ilmiy layoqatning rivojlanmayotganligining asosiy sabablaridan biri ulardagi bilim, ko'nikma va malakalarning talab doirasida shakllanmayotganligidir. Hozirda zamonaviy talablar doirasida bajarilayotgan dissertatsiyalar loyihalar asosida bajarilayotganligi mamlakatimizda ta'lim tizimini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'lashni yanada chuqur izchillik bilan rivojlantirib borishni taqoza etmoqda. Bu borada yoshlardagi intilish va qiziqish layoqatlarini inobatga olish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishlarini ta'minlash, loyihalarni to'g'ri rasmiylashtirishni o'rganish, ma'lumotlarni elektron tarmoqlarda to'g'ri joylashtirish ko'nikmalarini shakllantirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, loyihalarni tayyorlashdan ko'ra ularni to'g'ri rasmiylashtirishni o'rganish va bilish bugungi kunda muammoli vaziyatlardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, katta avlod loyihalarni ishlab chiqishni bilsada, elektron tarmoqlarda

ishlay olmasligi, kichik avlod elektron tarmoqda ishlay olsada, loyihalarni ishlab chiqish malakasiga ega emasligi ikki avlod o'rtasida ilmiy hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirib borishini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport tizimida ham ilmiy yondoshuvni kuchaytirish tizimida vujudga kelayotgan ilmiy tadqiqotlarga bo'layotgan talablar doirasidagi tendensiyalar bilan izohlash mumkin. Bugungi zamonaviy taraqqiyotning sur'atlari tobora tezlashib bormoqda, bu esa jismoniy tarbiya va sport tizimida turli sohalarning kirib kelishini kuchaytirishi bilan birgalikda, jismoniy tarbiya va sportni hamkorlikda rivojlanishini belgilab bermoqda. Xususan, jismoniy tarbiya va sportdagi ijtimoiy-madaniy muammolar ahamiyatining ortib borishi hamda kirib kelayotgan texnika va texnologiyalarning turli darajadagi ta'sirlari sportchilarning sotsial qiyofasini o'rganish, milliy-ma'naviy qadriyatlar, din, madaniyat prizmasi ostida olib qarash orqali muammolarning xususiyatlarini tasniflash asosida tadqiq etish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Bir qator fanlarning o'zaro hamkorligining zaruriyati jismoniy tarbiya va sportda o'tazilayotgan tadqiqotlarning o'z samarasini ko'rsatmoqda. Jumladan, sotsiologiya fani metodlari asosida jismoniy tarbiya va sportdagi ijtimoiy jarayonlarni o'ranish sport sotsiologiyasi fanining taraqqiyotini belgilab berdi. Shuningdek, sport sotsiologiyasini alohida fan sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Sotsiologik tadqiqotlarning jismoniy tarbiya va sport sohasida keng miqyosda qo'llanilishi tizimdagi ijtimoiy muamolarni o'rganish imkoniyatini berish bilan birga, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda hamda ularning yechimini ko'rsatib berishda o'z samarasini bermoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasida yetishib chiqayotgan mutaxassislarni bunday bilimlar bilan qurollantirish, o'z sohasining yuksak bilimdoni qilib tarbiyalash orqali sohasini keng miqyosda anglash, unda ro'y berayotgan jarayonlarni to'liq idrok etish kabi sifatlarga ega bo'lishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mamlakatimizda ushbu soha doirasidagi kadrlarni tayyorlayotgan yagona tayanch Oliy ta'lim muassasasi hisoblangan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalariga sotsiologik tadqiqotlar haqida bilim berish hamda ularda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish zamon talabi asosidagi yetuk mutaxassislarni tayyorlashning garovi hisoblanadi.

Umuman, ushbu yo'nalishi doirasida olib borilayotgan islohotlar va ko'zga tashlayonayotgan muammolarning mohiyatlaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni berish mumkin: birinchidan, jismoniy tarbiya va sport

tizimidagi mutaxassislar, professor-o'qituvchi va olimlarning kasbiy jihatdan jamiyatda tutgan o'rnini, nufuzini oshirish zarur. Chunki yoshlar orasida bugungi kunda ko'p daromad keltiradigan sohalarga intilish, ushbu sohalarning jamiyatdagi nufuzi tobora oshib borayotganligi o'qituvchi va olim kasbiga bo'lgan qiziqish va intilishning susayib borayotganligini ko'rsatmoqda. Hatto, o'qituvchi va olim kasblari qadrining yo'qolishi bu tizimga yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lmagan kadrlarning kelib qolishini kuchaytirmoqda; ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda ulardagi ilmiy-tadqiqotlarda ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirib borish zarur. uchinchidan, institutda ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish hamda yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlashda ularning ilmiy izlanishlari natijalari yoritib borishga yordam ko'rsatib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari jurnallari sahifasida yosh olimlar uchun alohida bo'lim tashkil qilish hamda ushbu bo'limda yosh olimlarning ilmiy izlanishlarini nashr etish, shaxsiy ish rejalarida ko'rsatilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari mavzulari (doktorlik dissertatsiyalari) bilan muvofiqlashtirish o'z samarasini beradi; to'rtinchidan, professor-o'qituvchilarda sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ilmiy-ijodiylik ko'nikma va malakalarini shakllantirish, rivojlantirishda ilmiy anjumanlar, seminar hamda davra suhbatlarini tashkil etib borish muhim hisoblanadi. Chunki, ma'lum bir soha miqyosidagi mutaxassislarni bir davrada yig'ib, ularni qiziqtirgan muammolar bo'yicha o'z fikrlarini o'rtoqlashishi ularning o'zaro hamkorligini kuchaytirish bilan birga, fikrlar almashish imkoniyatini ham yaratib beradi; beshinchidan, ushbu jarayonlarni va hamkorlik aloqalarining samaradoriligini o'rganishda ham sotsiologik tadqiqotlardan foydalanish mumkin. Bu esa, sotsiologik tadqiqotlarning jismoniy tarbiya va sportdagi jarayonlarni o'rganish imkoniyatining mavjudligi – sotsiologik tadqiqotlarni o'rganish, tashkil etish va o'tkazish qonuniyatlarini o'zlashtirishni zarur qilib qo'yimoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida har bir sohada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bolalar sportiga katta e'tibor qaratilib, qator tadbir va o'zgarishlar amalga oshirilib, mamlakatimizning barcha hududlarida sport inshootlari zamonaviy talablar doirasida qurilib, ular zamonaviy sport uskunalari bilan jihozlanmoqda. Bunday yaratilayotgan

sharoitlar bolalarda sportga bo'lgan munosabat o'zgarishiga olib kelish bilan birga faqat bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanishga emas, balki sport salomatlik va ko'rkamlikning asosi ekanligini anglab muntazam shug'ullanib borishga odatlanmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yosh avlodni yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va tafakkurga ega, ayni paytda sog'lom turmush tarziga rioya qiladigan, jismonan sog'lom, ruhan tetik insonlar etib voyaga yetkazishning samarali tizimi hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda o'g'il-qizlarimizni jismonan sog'lom, kuchli iroda va yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar qilib tarbiyalashning bosh omili, o'zbek sportining kelajagi, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning asosi bo'lgan bolalar sportini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. Ushbu kutilgan nitajalarni berishda albatta avvalambor ayollar sporti masalasini ko'rib chiqish, ularni sportga keng miqyosda jalb qilish ishlarini rivojlantirish tizimdagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda Oliy ta'lim dargohlarida ayol sport murabbiylarini tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu islohotlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida jismoniy tarbiya darslarini qaytadan ko'rib chiqish, zamonaviy talabalar doirasida yangi texnologiyalarni yaratish muhim hisoblanadi. Chunki, o'quvchi-yoshlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, ularning jismoniy kamolatga erishishda jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish o'quv muassasalari va mutaxassislarning ulug'vor vazifalaridandir.

Bu borada ayollar sportini rivojlantirish ishlari ham tahsinga sazovordir. Bizga ma'lumki, jismoniy tarbiya jarayonida yechimi topiladigan asosiy masalalardan biri insonga xos xususiyatlar – jismoniy sifatlarni optimal rivojlanishini ta'minlashdir. Jismoniy sifatlarni deb insonning jismoniy faolligini ta'minlash imkonini beruvchi tug'ma (genetik orttirilgan) morfofunktsional sifatlarni bo'lib, inson ular orqali o'zining maqsadli harakatli faoliyatini to'liq namoyon qiladi. Asosiy jismoniy sifatlarga muskul kuchi, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik kiradi. Jismoniy sifatlarni ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishlariga muvofiq "rivojlanish" va "tarbiyalash" tushunchalari qo'llaniladi.

Rivojlanish tushunchasi jismoniy sifatlarning tabiiy o'zgarishini karakterlaydi, tarbiyalash tushunchasi esa jismoniy sifatlarni ko'rsatkichlarining o'sishiga faol va yo'naltirilgan ta'sirni ifodalaydi. Zamonaviy adabiyotlarda "jismoniy sifatlarni" va "jismoniy (harakatli) layoqatlar" tushunchalari ishlatiladi. Biroq, ular bir-biriga mos

tushunchalar emas. Umumiy tarzda harakat layoqatlarini individual xususiyatlar sifatida tushunish mumkin, ular insonning harakatlanish imkoniyatlarining darajasini aniqlab beradi.

Insonning harakatlanish layoqatlarining asosini jismoniy sifatlar, namoyon qilish shaklini esa harakatlantiruvchi malaka va mahorat tashkil qiladi. Harakatlantiruvchi layoqatlarga kuch, tezlik, tezlik-kuch, harakatli-koordinatsion layoqatlar, umumiy va muxsus chidamlilik kabilar kiradi. Muskullar kuchini yoki tezlikni rivojlantirish haqida gap ketganda tegishli kuch yoki tezlik layoqatlarini rivojlantiruvchi jarayonni tushunish lozim ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Har-bir insoning harakatlanish layoqatlari o'z holicha rivojlangan. Layoqatlarning turli darajada rivojlanishi asosida ierarxik tug'ma anatomik-fiziologik (irsiy) iste'dod nishonalari yotadi: miya va asab tizimining anatomik-morfologik xususiyatlari (asabli jarayonlarning xususiyatlari); kuch, harakatchanlik, vazminlik, tana qatlami tuzulishining individual variantlari, alohida qismlarning funksional yetuklik darajasi va boshqalar; fiziologik (yurak-tomir va nafas olish tizimlarining xususiyatlari); kislorodni maksimal iste'mol qilish, sirtqi qon aylanish ko'rsatkichlari va boshqalar; biologik (biologik oksidlanish, endokrinli nazorat, moddalar almashinuvi, muskullar qisqarishi va boshqalar); tana tuzulishi (tana va qismlarining uzunligi, tana og'irligi, muskul va yog' to'qimalarining vazni va boshqalar); xromosomal (irsiy)¹.

Harakatlanish layoqatlarining rivojlanishiga ruhiy-dinamik qobiliyatlar ham ta'sir qiladi (ruhiy-dinamik jarayonlarning xususiyatlari, temperament, harakter, ruhiy holatni nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilishning xususiyatlari va boshqalar). Inson layoqatlarini baholashda faqatgina uning o'rganish jarayonida erishgan yutuqlariga qarab emas, balki ushbu sifatlarni qanchalik tez darajada o'zlashtirishiga ham e'tibor beriladi. Layoqatlar ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanib boradi, lekin ushbu holat irsiy va o'rta omillarning o'zaro hamkorligi natijasi hisoblanadi. Inson layoqatlarini rivojlantirishning amaliy chegaralari inson umrining davomiyligi, tarbiyalash va o'rgatish usullari va boshqa omillar orqali aniqlanadi, biroq layoqatlarga to'liq asoslanmaydi. Layoqatlarni rivojlantirish chegaralari kengayishi uchun tarbiyalash va o'rgatish usullarini takomillashtirishning o'zi yetarlidir. Harakatlanish layoqatlarini rivojlantirish uchun tezlik, kuch va boshqalarga tegishli jismoniy mashqlarni qo'llash orqali aniq

¹ Кошбахтиев И.А. Валеология студенческой молодежи. Ташкент, 2000.-С.147.

harakatlanish imkoniyatlarini yaratish zarur. Ammo, bundan tashqari ushbu layoqatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqalarning samaradorligi tashqi yuklamalarga individual me'yorlarning reaksiyasi ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ayollar salomatligini tiklashda ushbu omillarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Bu borada rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan usullar o'z samarasini berayotganligi, ushbu usullarni mamlakatimizda ham tezlik bilan qo'llash xalqimizning salomatligi, ayniqsa ayollar va qizlar salomatligini saqlash va tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz o'tkazgan tadqiqotlarimizda bugungi o'quvchi-qizlarning sportga bo'lgan munosabatini hamda qiziqishlarini, ularga to'squinlik qiluvchi omillarni o'rganishni maqsad qilib oldik. Umuman sport mashg'ulotlari asosida o'quvchi-qizlar salomatligini tiklashda quyidagi uslublarga tayanish lozim: a) Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish tahlil qilish va umumlashtirish; b) pedagogik kuzatishlar va nazorat testlari; v) maktab o'quvchilari bilan suhbat o'tkazish; g) savol-javob varaqalar natijasini tahlil qilish; d) pedagogik tajriba; e) matematik-statistik usullar. Shuningdek, o'quvchi-qizlarni sport mashg'ulotlari asosida salomatligini ko'tarishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor berish lozim:

1. Qiz-o'quvchi-yoshlarning qiziqishlari tadqiq etish
2. Ularning yoshiga oid psixologik va fiziologik omillarni o'rganish
3. Hududlarning o'ziga xos xussiyatlari, turmush-tarzi, an'analari, qadriyatlari inobatga olish
4. Bo'sh vaqtga egaligi va undan oqilona foydalish darajasi belgilash
5. Ota-onalarning bolalar tarbiyasiga e'tiborini o'rganish
6. Hududlarda sport turlariga yaratilgan sharoit va sport turlari bo'yicha ayol malakali mutaxassilarning mavjudligiga e'tibor qaratish zarur.

Sport mashg'ulotlari orqali o'quvchi-qizlar salomatligini tiklashning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan omillarni asoslash maqsadida Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini "Sport-salomatlik asosi" haqidagi nazariy bilimni aniqlash uchun 50 ta qiz-o'quvchilardan savol-javob (anketa) o'tkazdik. Olingan natijalar 1 jadvalda qayd etdik.

1 jadval

№	Savollar	Ha	Yo‘q
1	Sportga qiziqasizmi?	76%	24%
2	Sport bilan shug‘ullanishga vaqtingiz bormi?	51%	49%
3	Yashayotgan hududingizda sport bilan shug‘ullanishga sharoitlar yetarlimi?	52%	48%
4	Ota-onangiz sport bilan shug‘ullanishga ruxsat beradimi?	63%	37%
5	Sport inson salomatligini mustahkamlovchi eng asosiy omil ekanligini bilasizmi?	65%	25%
6	Sizga ayol murabbiy-o‘qituvchilarning dars olib borish uslubi yoqadimi?	66%	34%
7	Maktabingizda sport bilan shug‘ullanishga sharoitlar yetarli deb, hisoblaysizmi?	61%	39%
8	Maktabingizda darsdan keyin sport bilan shug‘ullanish uchun sport tugaraklari tashkil qilinganmi?	47%	53%

Tadqiqotimizda bildirilgan ilmiy-nazariy fikrlar va o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida xulosa qilib quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

birinchidan, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha pedagog turli harakatlanish layoqatlarini rivojlantrishning asosiy vosita va metodlarini, shuningdek, mashg‘ulotlarni tashkillashtirish usullarini ham yaxshi bilish kerak. Shundagina mutaxassis optimal uyg‘unlashtirilgan vositalarni, aniq sharoitlarga yo‘naltirilgan takomillashtirilgan forma va metodlarni aniqroq tanlay oladi;

ikkinchidan, joylarda yoshlarning sport turiga bo‘lgan qiziqishi, milliy qadriyatlari bilan uyg‘unligini o‘rganish, tadqiq etib borish sport turining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi;

uchinchidan, Oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya yo‘nalishlarida hamda O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida bolalar ruhiyati va dunyoqarishini o‘rganishga qaratilgan dasturlar, fan sohalarini joriy qilish bo‘lajak mutaxassislarning xalqning sportga bo‘lgan fikrlarini o‘rganib, o‘z faoliyatlarini boshlashlarida asosiy ko‘makchi vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi;

to'rtinchidan, o'quvchi-qizlarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabati va qiziqishini o'rganib borish, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga tadbiq etib borish, mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning keng miqyosda rivojlanishiga olib keladi;

beshinchidan, o'quvchi-qizlarning yoshi, qiziqishi va oilaviy sharoiti asosida sport mashg'ulotlarning texnologiyasini ishlab chiqish yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshishiga olib keladi;

oltinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida sportga bo'lgan munosabatini shakllantirish jarayonida ularga nisbatan individual yondoshuvga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, sportga bo'lgan munosabat o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashi negizida shakllanadi.

Nazorat savollari:

1. Jamiyat rivojida jismoniy tarbiya va sportning rolini bayon qiling.
2. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-madaniy mazmunini aytib bering.
3. Jismoniy tarbiya va sportga ilmiy yondoshuvning zaruriyati haqida so'zlab bering.
4. Sog'lom avlod tarbiyasida ayollar sportining ahamiyatini asoslab bering.

Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik xususiyatlari, ularning asosiy farqlari va uyg'unlashtirish yo'llari

Reja:

1. Jismoniy tarbiya va sportni yuzaga kelishining tarixiy-madaniy shart-sharoitlari.
2. Sport va jismoniy madaniyat – mustaqil sotsial fenomenlar: funksional farqlar va uslubiy mos kelmaslik.
3. Sportning ijtimoiy-madaniy evolyutsiya bosqichlari.

Sport deganda tor ma'noda shaxsiy musobaqa faoliyati tushunilsa, keng ma'noda shaxsiy musobaqa faoliyati asosida kelib chiqadigan maxsus tayyorgarlik hamda uning norma va yutuqlari tushuniladi.

Sport inson o'z-o'zini tarbiyalashi uchun etakchi omillardan biri sifatida talqin etiladi. Sportdagi ko'rsatkichlarning o'sish me'yoriga qarab

sportchi nafaqat jismoniy, balki ruhiy, aqliy, axloqiy, ma'naviy va vatanparvarlik nuqtai nazaridan tarbiya jarayoniga kirib boradi. Bu borada sportning ahamiyati nihoyatda kattadir. Sport bilan shug'ullanish yoki sport o'yinlarini tomosha qilish jarayonida jamiyat qadriyatlari shaxs qadriyatlariga aylanib boradi. Sport bilan doimiy shug'ullanish orqali insonda shaxs belgilari, tashabbuskorlik, kurashchanlik, chidamlilik sifatlari rivojlanadi. Jismoniy mashqlar vositalari orqali shaxs ijtimoiylashuvining ijobiy tomonlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham vujudga kelishi mumkin. Medallar, shon-shuhrat ketidan quvish uchun har qanday vositalardan foydalanish sportchida shafqatsizlik, zo'rlik kabi salbiy jihatlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Inson jismoniy mashqlarni doimiy ravishda rejali asosda bajarib borishni odatga aylantirsa va shunga amal qilsa, katta boyligi hisoblangan sog'lig'ini yo'qotmaydi, aksincha, uni tiklaydi. Bu haqda A.Shopengauer o'zining "Hayotiy donishmandlik aforizmlari" nomli kitobida shunday yozadi: "Bizning baxtimizning 10 dan 9 qismi sog'ligimiz bilan bog'liq. Sog'liq bo'lsa, hamma narsa bo'ladi. Usiz hech qanday katta farovonlik ham rohat bag'ishlamaydi. Hatto aql sifati ham kasallik holati natijasida kamayadi." Faylasuf ta'kidlagan baxtga - sog'liqqa erishish uchun albatta jismoniy mashqlarni bajarib yurish maqsadga muvofiqdir. O'z tabiatiga ko'ra sport insonparvardir. U shaxsning organizmi va ruhiyatining o'rganilmagan imkoniyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Sportchi sport bilan shug'ulanishni boshlashi bilanoq g'alaba nashidasi va mag'lubiyat azobini tatib ko'rishni boshlaydi. Barcha birdek bu jarayondan ijobiy o'ta olmasligini sport sohasida yaxshi o'rganib chiqishgan. Sportning mashaqqatlariga chidab, keyingi bosqichga qolgan yoshlar mahoratlarini oshirib, yangi ijtimoiy munosabatlar darajasiga o'tadilar. Sport to'garaklari yoki sport maktablariga kelgan yoshlar yangi ijtimoiy muhitga tushib qoladi. Yangi murabbiylar, yangi jamoa, hakamlar, yangicha mashg'ulotlar uchun hamkorlar bularning hammasi shaxs ijtimoiylashuvining yangi jihatlari hisoblanadi. Sport orqali dastlabki ijtimoiylashuvda shaxsning psixofizik va axloqiy sifatlari tarbiyalanadi. Bunda oila, maktab bilan birga jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy institutlari aktiv ishtirok etadi. Ijtimoiylashuv jarayonida oilada ota-ona, aka-uka va qarindoshlar, maktabda o'qituvchilar, sport to'garaklari hamda sport maktablarida ustozlar, murabbiylar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning shaxsiy sifatlarini bola o'ziga singdirishga, ularga o'xshashga, ulardan o'rnak olishga harakat qilishi tabiiy holdir. Shaxs sport bilan shug'ullana turib ijtimoiy ma'suliyatni esdan chiqarmasligi kerak.

Sport (ing. sport – o‘yin) jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarning turli majmualari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish tizimidir.

“O‘zining rivojlanish jarayonida sport shunday yuqori cho‘qqilarga ko‘tarildiki, ko‘rsatilgan natijani yoki bir sportchining boshqasidan ustunligini ob‘ektiv baholash va aniq belgilash borgan sari murakkablashib bormoqda. Sportning har bir turida muayyan qoidalar mavjud bo‘lib, ularga mos ravishda sportchilar harakatlanadilar, sport kurashi olib boriladi, harakatga baho beriladi, natija va g‘olib aniqlanadi”¹. Sport bu hech bir odamni befarq qoldirmaydigan ijtimoiy hodisadir. Shu bilan birga sport bu imkoniyatlarning eng yuqori chegarasida natijalarni namoyon qilishga sport kurashida g‘oliblikka halol va pok yo‘l bilan intilishdir. “Har bir odam oxirgi bo‘lishni xohlamaydi va hech bo‘lmaganda uchinchi o‘rinni egallashga intiladi. Bu barcha kishilarning tabiatiga xosdir. Shuning uchun ham Yapon xalqining madaniyati musobaqada bir kishining ikkinchisining ustidan musobaqadagi ustunligi bilan haqorat qilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu tufayli ular mashqlar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni afzal ko‘radilar”².

Qadimgi yunon olimi Platon o‘zining “Davlat” asarida odam ruh kiritilgan tanadir, ruh va tanadan iborat bo‘lgan odamzod ikki olamga mansubdir, deb yozgan. Ko‘hna yunonliklar tasavvurida, har taraflama mukammallik, faqatgina ma‘budlar va afsonaviy qahramonlargagina xos bo‘lgan. Buning timsoli sifatida afsonaviy Geraklning o‘n ikki qahramonligini keltirish mumkin. Gerakl mo‘jizaviy, ammo vayronkor kuchga ega turli mahluqlarni engadi. O‘zi yugurishda ohudan ham o‘zib keta oladi, kamondan bexato o‘q uzadi, har qanday pahlavonning kurashda elkasini erga tekkizadi. Shu bilan birga u san‘at ixlosmandi hamdir. U kifora (yun. olg‘usi) chalishni o‘rgangan, haykaltaroshlikka qiziqqan. Bu o‘sha davr kishilarning ham beqiyos jismoniy kuchning o‘zigina inson mukammalligi mezoni bo‘la olmasligi to‘g‘risidagi tasavvurlariga yorqin misoldir. Shuning uchun afsonaviy yunon qahramonlari Gerakl, Appolon, Odisseylarning mukammal tana tuzilishlari, kuchga to‘la mushaklari, ya‘ni jism go‘zalligi bilan zavqlanishgan. Ularning ma‘naviy qiyofalarini yanada jozibaliroq ifodalashgan.

Aleksandr Makedonskiy o‘z askarlarini tanlab olish jarayonida ularning aqliy qobiliyatlari bilan birga qo‘rqmaslik, jasoratlik, epchillik

¹ Исроилов Ш. Волейбол бўйича спорт ҳакамларини танлаш ва тайёрлашнинг мазмуни ва услубияти пед.ф. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2008й.

² Алламуродов Ш. Спортда танлаш фалсафаси. // Фан спортга 3-сон 2010 й.

va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlariga ham katta e'tibor bergan. Bu jarayonni lashkarlarning har birini yovvoyi hayvonlar bilan yuzlashtirish orqali tekshirib ko'rganligi haqida Alisher Navoiyning Saddi Iskandariy asarida ma'lumotlar uchratish mumkin. Shu sababdan inson komilligi namoyishi olimpiya sport o'yinlarining asosiy g'oyasi bo'lganligi tasodifiy emas. Ilk umum ellin oliy bayramlarida sport maydonlaridagi kuchlilik, chaqqonlik, epchillik bo'yicha musobaqalar tomoshagohlarida musiqa, she'riyat tanlovlariga ulanib ketgan. Olimpiya o'yinlari stadiondagi yugurish yo'lakchalariga, kurash gilamlariga chiqadigan, otchoparda aravalar poygasida qatnashadigan bevosita sportchilar bilan birga faylasuflar, musiqachilar, shoirlar, haykaltaroshlar, rassomlar ham ishtirok etishgan. Mashhur tarixchi Geradot bu erga Afinadan yayov kelganligi haqida ma'lumotlar bor. Matematik Pifagor umumellin sport musobaqalarida musht jangida g'oliblikni qo'lga kiritgan. "Tibbiyotning otasi" Gippokrat ko'zga ko'ringan ellin kurashchisi va mashhur chavondoz edi. Faylasuf Aflotun o'z davrining eng kuchli gimnastikachilaridan biri ekanligi bilan ham tanilgan, Olimpiadalar o'rtasida har ikki yilda bir marta dengiz ilohi Poseydon sharafiga o'tkaziladigan mashhur Istma o'yinlarida kurash bo'yicha musobaqalarda g'olib chiqqan.

Aflotun tomonidan falsafada birinchi marta inson komilligi masalasining qo'yilishiga ham olimpia sport o'yinlari turtki bo'lgan. Chunki, uning o'zi bu musobaqalarning insonni kamol toptirishdagi ahamiyatining bevosita shohidi edi.

Ko'hna Yunonistonda umumiy ta'lim otasi hisoblangan Sokrat (mil. avv. 436-338 yillar) yoshlarni tarbiyalashda sport mashqlarini bajarish va musobaqalashish tizimi va falsafani uzviy bog'lash zarurligini ta'kidlaydi. "Bizdan ancha ilgari yashagan odamlarning ba'zilar hayotning barcha jabhalari bilan bog'liq bo'lgan san'at turlari ko'pligini, ammo ular orasida jism va ruh tarbiyasi bilan shug'ullanadiganlari yo'qligini anglagan holda bizga bu ikki fanni ob'ekti inson jismi bo'lgan petodribika (uning bir qismi gimnastikadir), ikkinchisi inson ruhi bilan shug'ullanadigan falsafani vasiyat qilib qoldiradilar. Bu ikki fan bir-biriga muvofiq, o'zaro bog'liq va mutanosibdir. Ustozlar ular yordamida inson qalbini oliyjanobroq, jismini esa mukammalroq qiladilar". Bu tarixiy ma'lumotlar sport va falsafaning bir-biriga chambarchas bog'liqligi hamda ularning mohiyat va mazmun jihatdan yaqinligini anglatadi. Ular doim bir-birini boyitib, to'ldirib kelgan va kelmoqda. Manbalardan ma'lumki, mashhur faylasuflarimizdan biri Aflotun ham o'z asarlarini yozayotganda sport va jismoniy tarbiya masalalariga alohida to'xtalib o'tadi. Ya'ni, komil insonni tarbiyalashda va

uni shakllantirishda ruh va jism tushunchalari muhim omil ekanligini ta'kidlaydi va buni dalillar asosida isbotlab beradi. Falsafa o'zining ilmiy mazmunini ma'rifat, ma'naviyat ayniqsa, sportsiz boyita olmaydi va ma'lum ma'noda ularsiz shakllana olmaydi ham.

O'zbekiston tarixida sportning rivojiga e'tibor bersak, ming yillar osha shakllanib kelgan qadimiy madaniyatning bir ko'rinishidir. Jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos xususiyatlaridan biri aniq ifodalangan milliy xarakterdagi ag'darish, ko'pkari, poyga, kurash kabi xalq o'yinlarining borligidir. Bu sport turlarining hammasi qadim zamonlarda paydo bo'lgan, taraqqiyotning har bir tarixiy bosqichida turli ijtimoiy vazifani bajargan. Turli tumanlarda yashovchi ayrim urug'larning alohida jismoniy mashq va o'yinlari mavjud bo'lib, mazkur turlari muntazam rivojlanish tarixiga ega.

O'zbekiston zaminidan topilgan arxeologik ashyolar va bizgacha etib kelgan qadimgi qo'lyozmalar bu erda yashagan xalqlar turmush tarzida jismoniy mashqlar muhim o'rin egallaganidan dalolat beradi. Qadim zamonlardan jismoniy tarbiya sohasi jamoa zimmasiga ma'lum majburiyatlar yuklagan. Yosh qiz va yigitlar hayotida kerak bo'ladigan epchillik, chidamlilik, chaqqonlik, jasurlik va qat'iylik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari lozim bo'lgan. Ajdodlarimiz yigitlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligiga katta e'tibor berganlar, shuning natijasida qurollangan otliq askarlar jangda yaxshi harakat qila olganlar. Ular tezlik bilan chopib kelayotgan ot ustida mohirona yoy otganlar, qilich va uzun nayzalarni mohirlik bilan ishlatganlar, epchilik bilan egardan sakrab tushganlar va unga sakrab chiqa olganlar. Bundan tashqari otliq askarlar qilichbozlik va suzishni yaxshi bilishlari shart bo'lgan. O'rta Osiyoda feodalizm kuchayib ketganligi sababli o'smir bolalar qadimiy spartakliklarday soqchilik xizmatiga o'rgatilgan. Mil. av IV-V asrlarga mansub Qoratog' (Navoiy viloyati)dagi Sarmishsoy rasmlarida musobaqalashayotgan kishilar tasvirlari, qadimgi Baqtriya (O'zbekiston jan.)da yasalgan sopol idish parchasidagi ikki kurashchining aks ettirilgani ana shunday arxeologik ashyolardandir. Yillar o'tgan sayin qadim Turonda hayot tarzidan kelib chiqqan holda jismoniy mashqlar ham rivojlanib borgan. Masalan, ovchilarda merganlik, chorvadorlarda chavandozlik, baliqchilarda suzish, harbiylarda qilichbozlik kabi sport turlari rivojlangan. Uch ming yillik tarixga ega "Avesto"da bizga shunday kamyoblik baxsh aylagilki, navqiron va kuchli yorlar topaylik. Toki ulardan hushyor va sog'lom farzandlar dunyoga kelsin" deya ta'kidlangani shu davrlardanoq insoniyatning jismoniy mashqlar yordamida sog'lom avlodni

tarbiyalashiga katta e'tibor qaratganidan dalolat beradi. "Avesto" kitobida yoshlarning jismoniy chiniqishlari uchun hayotda kerak bo'ladigan mashqlar bajarganliklarini, ya'ni yoshlikdan otda yurish, ovchilikda kerak bo'ladigan mashqlarni bajarish va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullantirilganligini ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek xalqining qahramonlik eposi «Alpomish» dostonida kurash, merganlik va chavandozlik musobaqalariga katta o'rin berilgan. Dostonda yozilishicha, qizlar Alpomishdek oldilariga qo'yilgan shartni bajargan yigitlarnigina kuyovlikka loyiq ko'rishgan. Sug'diyona va Baqtriya davlatlari mavjud bo'lgan davrlarda miloddan oldingi IV- I asrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar orasida epchil dorbozlar juda mashhur bo'lgan. Epchil, jismoniy jihatdan juda chiniqqan dorbozlar, chig'irliq simbozlar Yunoniston, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlarga borib, o'zlarining ajoyib va xatarli o'yinlarini qiziqchi va masxarabozlarning o'tkir satira va kulgi bilan sug'orilgan turli sahnalarni va kishi aqli bovar qilmaydigan pahlavonlarining o'yinlarini ko'z-ko'z qilganlar.

VIII-X asrlarda yashab ijod etgan faylasuflarimiz ham jismoniy tarbiya haqida yozib qoldirishgan. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari"¹ asarlarida o'rta asrlarga xos jismoniy mashqlar haqida ma'lumotlar berilgan. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobida jismoniy mashg'ulotni kishining yoshiga, sog'-salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va usullarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. Ibn Sino jismoniy tarbiya to'g'risida fikr yuritarkan, uni tashkil etishda kishilarning turli yoshi va jinsini ham hisobga olish kerakligiga alohida e'tibor qaratadi. Ibn Sino har qaysi yosh davrning o'z individual xususiyati bo'lishligini gapirib, bu davrni doimo o'zgarishda, rivojlanishda deb biladi. Bu o'rinda u bola hamisha to'xtovsiz va sekin-asta o'sib boradi, degan fikrni ta'kidlaydi, shuning uchun, deydi u, - bolaning o'sishdan to'xtashi va o'z kamolotida orqaga qarab ketishi mumkin emas. Bu fikri bilan Ibn Sino bolalarni doimo o'stirib borish g'oyasini qattiq himoya qiladi. Ayniqsa, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik chog'larida kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatda bo'lishi kerakligi masalasini ko'tarib chig'ishi Ibn Sinoning odam anatomiyasi va fiziologiyasini mukammal bilganligidan, kishi organizmining doimo taraqqiy etib borishini ilmiy asosda tushunganligidan dalolat beradi.

¹ Форобий. "Фозил одамлар шаҳри". -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1998й. Абу Али ибн Сино. "Тиб қонунлари". -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993й.

IX-X asrlar Somoniylar davlati davrida askarlarning urushga jismoniy tayyorlash nazariyasi ishlab chiqilgan. Saroy ahli uchun yozilgan “Oynoma”da berilgan ma’lumotlarga ko’ra, somoniylar davrida zodagonlarning bolalari 6 yoshgacha ota-onalarining uyida yashar, 7 yoshga etgandan keyin davlat tarbiyasiga o’tkazilib, hukmdor ixtiyorida bo’lgan maxsus maktabga joylashtiriladi va 19 yoshga etgunga qadar ana shu maktabda ilmiy va jismoniy jihatdan tahsil ko’rganlar. O’z bilimi va bahodirligi bo’lgan kishilar maktabda murabbiylik vazifasini o’taganlar. Somoniylar maktabida bolalarni jismoniy tarbiyalashga alohida ahamiyat berilar edi. Ular sovuqqa, ochlikka, chanqoqlikka, og’riqqa chidamli bo’lish, tez yugurish, uzoqqa sakrash, otga chaqqon minish, kamon va o’q-yoy otish, qilichbozlik, mo’ljallash, sezgir bo’lish, kurashish, jang usullarini yaxshi bilishi talab qilinadi.

IX-X asrda yashab o’tgan buyuk shoir va kuragi erga tegmagan polvon xorazmlik Pahlavon Mahmuddir. O’z davrida Hindiston, Eron, Turon zaminida kurashning keng ko’lamda tarqalishiga katta hissa qo’shgan. O’rta asrlarda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida barkamollikdagi jismoniy etuklikning o’rniga alohida ahamiyat berilgan. Asarda voyaga etayotgan hukmdorga ma’naviy etuklik bilan bir qatorda jismoniy etuklik ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatib o’tish bilan bir qatorda jismoniy mashqlarning nomlarini, o’tkazish joylarini, o’tkazish vositalari bayon etilgan. Jismoniy mashqlar insonning yoshiga qarab belgilanishi bilan bir qatorda ot bilan bajariladigan mashqlardan kamon, qilich bilan bajariladigan mashqlar ko’rsatilgan XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning barcha sohalarida bo’lgani kabi jismoniy tarbiya va harbiy mahoratni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu davrda kurash, qilichbozlik, shatranj (shaxmat) kabi turlar bo’yicha muntazam ravishda musobaqalar o’tkazilib turilgan. Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlarida o’sha davrdagi musobaqalar va ularning qatnashchilari qalamga olingan. E’tiborlisi, musobaqa g’oliblari kurashchilar – pahlavon, qilichbozlar – bahodir, shatranjchilar – oliya kabi unvonlar va katta mukofotlar bilan sharaflanganlar.

O’rta asrning oxirlarida bahodirlarning qurol ishlatish san’ati bo’yicha musobaqalari keng tarqalgan. Bu o’yinlarga voqiflar rahbarlik qilar edi. Ular bahodirlar orasida o’yinlar boshlanishidan bir oy ilgari sport salafлари tomonidan saylanar edi. Voqiflarning vazifalari musobaqa joyini tanlashdan, musobaqalarda g’olib chiqqanlarga mukofotlar berishdan

iborat bo'lgan. Asosiy mukofot sifatida tulpor otlar, qimmatbaho sarpolar, pul mukofotlari berilar edi. Ko'pincha navbatdagi o'yinlargacha bo'lgan davr ana shu g'olibning nomi bilan atalar edi.

XVIII-XIX asrlarda milliylik xususiyati yorqin ifodalangan jismoniy tarbiya tizimlari yuzaga kela boshladi. Ulardan nemis jismoniy tarbiya tizimi – Guni-Muts (1759-1838), Vits (1763-1836) va Yan (1778-1852); shved jismoniy tarbiya tizimi – Ling (1776-1839); chex jismoniy tarbiya tizimi – Tirsh (1832-1884); daniya jismoniy tarbiya tizimi – Naxtegall (1777-1847); fransuz jismoniy tarbiya tizimi – F.Amoros (1770-1847) va boshqalar tomonidan yaratilgan jismoniy tarbiya tizimlaridir¹.

Turkiston podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng evropa xalqlari o'rtasida ommalashgan sport turlari o'lkaga kirib kela boshladi. 1882 va 1894-yillarda Toshkent va Samarqandda chavandozlar jamiyatlari tashkil topdi. 1895-yil Toshkentda havaskor velosipedchilar jamiyati tuzildi. 1900-yil velosiped sporti havaskorlari va professional velosipedchilar musobaqalarini o'tkazish uchun Toshkentda qurilgan maydonda velopoygalar tashkil qilindi. 1903-yil Toshkentda birinchi tennis korti ishga tushdi. 1904-yil esa gimnastika va jismoniy mashqlar havaskorlari jamiyati tuzilib, 1905-yildan bolalar o'rtasida yugurish, sakrash, koptok irqitish kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bu Toshkentda sportning yengil atletika turi rivojlanishiga zamin yaratdi. 1908-yil Toshkent tsirkida taniqli kurashchi va mahalliy polvonlar ishtirokida frantsuzcha kurash (oz. yunon-rum kurashi) bo'yicha chempionat o'tkazildi (bu musobaqa o'zbek kurashiga birmuncha o'xshash sportning shu turi rivojlanishida alohida rol o'ynadi). 1910-yil Toshkentdagi harbiylar markaziy binosida gimnastika, qilichbozlik maktabi ochilib, unda (asosan, rus zobitlari o'rtasida) shu sport turlari bo'yicha mashqlar, musobaqalar o'tkazilib turildi. Ishchilarning dastlabki sport to'garaklari 1910-yil Toshkentda harbiy okrug shtabi bosmaxonasi matbaachilari tomonidan tashkil etildi. Ularda gimnastika, engil atletika va boshqa sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar olib borilgan. 1912-yil Qo'qonda, keyinchalik Farg'ona, Toshkent va Andijonda futbol jamoalari tuzildi. Turkistonda eng yirik hisoblangan sport havaskorlari jamiyati (1913-yil tashkil topgan)ning futbol, engil atletika va laun-tennis bo'limlari bor edi. 1915-yil Toshkentda gimnastika o'qituvchilari kursi ochildi. Suv sporti bilan shug'ullanuvchilar uchun dastlabki sun'iy havzalar barpo qilindi. Umuman olganda, XX asr boshlarida sport

¹ Керимов Ф.А. “Спорт кураши назарияси ва услубияти”. Т., ЎзДЖТИ, 2009. 12 б.

jamiyatlari va to'garaklari Turkistonga ko'chib kelgan rus va evropalik fuqarolarga xizmat qilgan. Keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan sport inshootlari amalda yo'q edi¹.

Sport musobaqalarida asosan rus va evropalik fuqarolar ishtirok etganlar. Sobiq Ittifoq davrida ham bu an'ana davom etib, xalq an'analari, milliy o'yinlariga bo'lgan e'tibor juda susayib ketdi.

Shuning uchun ham ko'p musobaqalar, ko'rik tanlovlar ommaviy tus olmas, tomoshabinlar kam yig'ilar edi. Keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan sport inshootlari amalda yo'q edi. Jismoniy tarbiya va sport mashqlari hamda musobaqalari harbiy o'quv yurtlari, gimnaziya, sport klublari bazasidagi sport zallari va maydonchalarida o'tkazilardi.

Odamlar jismoniy kamolotida bolalikdagi o'yinlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbeklar yurti xilma-xil xalq o'yinlariga boy o'lka hisoblanadi. Arg'imchoq, bekinmachoq, oq terakmi-ko'k terak, tortishmachoq, chillak, podachi, bo'ri keldi, xo'roz va tovuq, oqsoq bo'ri va qo'ylar, olomon poyga, bo'ron, qirq tosh, cho'nqa shuvoq, otib qochar, soqqa, bir tayoq, elkada kurash, mindi va boshqa o'yinlar shular jumlasidandir. Bu o'yinlar odamlar salomatligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga sport turlari paydo bo'lishiga zamin yaratgan, masalan, podachi o'yinidan chavgon, keyin xokkey; qabaq o'yinidan merganlik, keyin kamondan otish kabi sport turlari paydo bo'lgan. Lekin XX asrning 2-yarmida zamonaviy sport turlarini rivojlantirish bahonasida o'zbek xalq o'yinlariga nopisandlik bilan qaraldi, katta to'ylarda o'tkazib kelingan kurash, uloq-ko'pkari musobaqalari ta'qiqlandi.¹⁶

Sobiq Ittifoq davrida jismoniy tarbiyaning mazmuni katta yo'qotishlarga uchradi. Kuch, tezkorlik, chiniqish tarbiyasida ma'naviyatni tarbiyalash, iymon-insofga asoslangan axloq, odobni kamolga etkazish qashshoqlashdi. Bu mahalliy aholini jismoniy tarbiyadan uzoqlashtirishga olib keldi. 1952-yilda Xelsinkida o'tgan XV Olimpiada o'yinlarida sport gimnastikachisi Galina Shamray oltin va kumush medallarga sazovor bo'ldi. Voleybolchi Vera Duyunova esa ikki karra Olimpiada o'yinlari chempionidir (1968, Mexiko; 1972, Myunxen). 1972-yilda chavandoz Mamajon Ismoilov o'zbek sportchilari orasida ilk marta Olimpiada o'yinlarida ishtirok etdi. Keyingi Olimpiada o'yinlarida boksda Rufat Risqiev (1976, Monreal) va qilichbozlikda Sobirjon Ro'ziev (1980, Moskva) kumush medallarni qo'lga kiritishdi.

¹ “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 12 том. – 2006 й. 361 б.

O'zbekistonda 1980 yillar oxirlarida jismoniy tarbiya va sportga mamlakat sport komiteti, bir qator vazirlik va idoralar, 14 hududiy jismoniy tarbiya tashkilotlari, 10 ko'ngillilar jamiyatlari, 218 shahar va tuman sport komitetlari, 76 viloyat, 80 shahar va 314 tuman ko'ngilli sport jamiyati sovetlari, 1443 jismoniy tarbiya boshlang'ich kengashlari rahbarlik qilar edi.

O'zbekiston sportchilari 1952-1988-yillarda o'tgan Olimpiada o'yinlarida 11 ta oltin, 10 ta kumush va 9 ta bronza medali bilan taqdirlanishdi. Shu yillarda o'tgan nufuzli musobaqalarda ulardan tashqari Venera Zaripova (badiiy gimnastika), Ravila Salimova, Aljan Jarmuhamedov (basketbol), Vladimir Shin, Nikolay Anfimov (boks), Aleksandr Panfilov, Mixail Kolyushev (velosport), Larisa Pavlova (voleybol), boksda Rufat Risqiev (1976, Monreal) va qilichbozlikda o'tgan nufuzli musobaqalarda ulardan tashqari Venera Zaripova (badiiy gimnastika), Ravila Salimova, Aljan Jarmuhamedov (basketbol), Vladimir Shin, Nikolay Anfimov (boks), Aleksandr Panfilov, Mixail Kolyushev (velosport), Larisa Pavlova (voleybol), Olga Zubareva (gandbol), Rodion Gataulin, Svetlana O'lmasova (engil atletika), Natalya Butuzova, Olga Rogova (kamondan otish), Yuriy Kovshov, Anatoliy Tankov (ot sporti), Noil Muhamadyorov, erkin Karimov (og'ir atletika), Elvira Saadi, Sergey Diomidov (sport gimnastikasi), Erkin Shagaev (suv polosi), Svetlana Babanina, Natalya Ustinova, Sergey Zabolotnov (suzish), Gennadiy Krasnitskiy, Birodar Abduraimov, Vasilis Xadzipanakis (futbol), Laylo Axmerova, Valentina Zazdravnix (chim xokkey), Arsen Fadzaev, Maharbek Xadarsev (erkin kurash), Rustam Kazakov, Komil Fatxullin (yunon-rum kurashi), Rustam Yambo'latov (o'q otish), Vitaliy Logvin (qilichbozlik), Sayfiddin Hodiev, Sobir Qurbonov (sambo), Georgiy A'zamov, Flyura Hasanova (shaxmat), Ozoda Ahmedova (shashka) kabi sportchilar g'olib va sovrindor bo'lishdi¹.

Shunga qaramasdan, qanchadan-qancha iste'dodlar, yillab tayyorgarlik ko'rgan, ne-ne sinovlardan o'tgan sportchilar nazarga olinmadi. Ularning ko'pchiligi uchun Olimpiada o'yinlari, jahon chempionatlarida qatnashish armon bo'lib qoldi. "O'zbekistonda fizkultura tarixi" kitobida R.Ismoilov va Yu.Sholomitskiylar sport inshootlari etishmasligi fizkultura va sportning ommaviyligi hamda sportchilarning mahorati yuksalishiga to'sqinlik qilmoqda. Sport ashyolari va tovarlarining ishlab chiqarilmasligi, chetdan olib kelinishi va sotilishi sport tashkilotlari

¹ "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". 12 том. – 2006 й. 362 б.

hamda aholining talabini qondirmayotir. Fizkultura va sportni targ'ib etish bir tomonlama olib borilmoqda. Bu ish asosan sport musobaqalari va ularni yoritishga qaratilgan. Fizkultura va sportning ijtimoiy ahamiyati ularni kishilarning tarbiyalash va salomatligini yaxshilashdagi roli yaxshi ko'rinmayotir deb kuyinib yozishgan edilar"¹. Sobiq ittifoq davrida sport pedagogikasi, meditsinasi, sport gegienasi haqida ko'plab ilmiy adabiyotlar, risolalar, tadqiqotlar natijalari nashr qilindi.²⁰ Ammo, sport sotsiologiyasi haqida ilmiy izlanishlar amalga oshirilmadi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda jismoniy tarbiyaga davlat ahamiyatiga molik darajada e'tibor qaratilmoqda. Islom Karimov 1996-yildayoq "Biz uchun Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ustivor vazifa – nafaqat ma'naviy etuk, zukko va bilimdon, shu bilan birga sport va kurash maydonlarida toblangan, qiyinchiliklarni engishga qodir, iroda va e'tiqodi baquvvat, bellashuvlarda chiniqqan mard farzandlarni tarbiyalash – bu bir-birini to'ldiradigan, bir-biridan ajralmas yagona maqsad bo'lishi darkor deya ta'kidlagan edi.

Chunki, mehnatkashlarning salomatligi, jismoniy tayyorgarligi ijtimoiy mehnat unumdorligiga va mamlakatning mudofaa qobiliyatiga jiddiy va bevosita ta'sir etadi. Jismoniy tarbiya va sport yosh avlodni axloqiy etuk hamda g'oyaviy yuksak kadrlar etib tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga ega. Davlat hujjatlarining hammasida yoshlarning garmonik rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilish fikri ochiq ko'zga tashlanadi. Yoshlarning ma'naviy rivojlanishi ma'naviy boylik axloqiy soflik va jismoniy kamolot bilan xarakterlanadi.

Bizning yoshlarimiz har tomonlama ma'lumotli va ma'naviy go'zalgina emas, balki sog'lom, chiniqqan, jismoniy baquvvat bo'lishi ham kerak. Bunday bo'lish uchun sport harakatining ommaviyligiga e'tibor berish, jismoniy tarbiyani rivojlantirish yoshlarning, ularning irodaviy sifatlarini chiniqtirish, yigit va qizlarning jismoniy jihatdan mehnat va mudofaaga tayyorlash zarur bo'ladi. So'ngi yillarda o'zbek sporti o'zining yuksak natijalari bilan mamlakatimiz shuhratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelayotganligi, minglab xalqaro standartlarga mos sport majmualari qad ko'tarayotganligi yurtimizning turli hududlarida eng nufuzli musobaqalarning o'tkazib kelinayotganligi amalga oshirayotgan ishlarimizning mahsulidir.

¹ Исмоилов Р., Шоломский Ю. "Ўзбекистонда физкультура тарихи". Т., Ўқитувчи нашриёти. 1979-йил 112-бет.

Sotsiologiyaga oid zamonaviy adabiyotlarda jamiyatning rivojlanishida ikkita asosiy tsivilizatsiya bosqichi: an'anaviy yoki zamonaviygacha bo'lgan jamiyat hamda zamonaviy tipdagi jamiyat ajratib ko'rsatilgan nuqtai nazar uchraydi.

M.S.Komarovning yozishicha, jamiyatni o'rganishga bunday yondoshuvning asoslari sotsiologiya klassiklari bo'lgan quyidagi olimlarning asarlarida poydevor qo'yilgan edi. Frantsiyalik sotsiolog Emil Dyurkgeym (1858-1917) inson haqidagi fanlar qatorida sotsiologiyaning o'rni va rolini asoslab bergan. Nemis sotsiologi Ferdinand Tennis (1855-1936) umumiylik va jamiyat sotsiologik tushunchalari o'rtasidagi farqni ularning birinchisi oila va xalq ichida birgalikda yashashning davomiy va asl shakli bo'lsa, ikkinchisi mexanik maqsadga muvofiq tuzilma ekanini ko'rsatib bergan. Yana bir nemis sotsiologi Alfred Veber (1868-1958), kapitalistik ruhiyatning milliyliги haqidagi koptsepsiya muallifidir. Ingliz faylasufi va sotsiologi Gerbert Spenser (1820-1903). "harbiylashgan va sanoatlashgan jamiyat" kopsepsiyasi asoschi bo'lgan.

Mazkur sotsiologlarning g'oyalari "sanoatlashgan jamiyat" konsepsiyasi tarafdorlari bo'lgan olimlar – frantsiyalik Raymon Aron (1905-1958), sotsiolog va iqtisodchi Uolt Rostou (1916), nemis sotsiologi Ralf Darendorf, sotsiolog Den Tsellon Velt va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Ular jamiyat qurilishini "an'anaviy" va "zamonaviy" bo'linishini yanada aniqroq asoslab berishgan.

Zamonaviy akademik va nazariy sotsiologiya vakillari T. Parsons, N.Smelzer, M. Levi, S. Ayzenketadt va boshqalar yuqoridagi nazariyalar asosida dastlabki jamiyatdan zamonaviy bosqichgacha rivojlanishning nisbatan chuqur va har tomonlama tasvirini tavsiya etishdi, bunda ular oraliq bo'g'inlar mavjud bo'lishi mumkinligini ham nazarda tutishgan. Nazariy sotsiologiya bilan bir vaqtda mavjud bo'lgan empirik sotsiologiya zamonaviy jamiyatni batafsil tahlil qilib chiqdi va uning keng ko'lamli tahlilini taqdim etdi, hamda turlicha ijtimoiy soha va tizimlar rivojlanishining qonuniyatlarini ko'rsatib berishdi.

Shu bois sotsiologlar zamonaviy jamiyat haqida so'z yuritishganda yuqorida bayon etilgan uchta manbaga asoslanishadi, chunki ular o'rtasida g'oyaviy-nazariy vorislik aloqasi mavjud. Aksariyat ko'pchilik mutaxassislarning fikriga mos ravishda, biz mazkur tadqiqot ishida qabul qilingan jamiyatni ikkita katta asosiy tipga bo'lish printsiپiga amal qilamiz. Ular esa o'z navbatida kichik mustaqil tarixiy davrlarga bo'linadi, ya'ni: an'anaviy jamiyat (unga ibtidoiy jamoa, qadimgi dunyo, o'rta asrlar

kiradi) va zamonaviy jamiyat (XVII asrdan boshlangan yangi davr va XX-XXI asrlarni o'z ichiga oluvchi eng yangi davr).

Mazkur davriylashtirish printsipiga tayangan holda biz jismoniy tarbiyaning ijtimoiylashtiruvchi roli haqidagi o'z tadqiqotimizni ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlaymiz. Zero, aniqki, ijtimoiy hayotning har qanday masalasini o'rganib chiqishda tarixiy aloqani unutmaslik, har bir masalaga u yoki bu tarixiy hodisa qanday yuzaga kelganligi, o'z rivojida qanday shakllanish bosqichlaridan o'tganligi, tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan qaraganda, u hozir nimaga aylangani jihatidan yondashish zarur bo'ladi. Bizning misolimizda hodisa deganda jismoniy tarbiya nazarda tutiladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida jismoniy tarbiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hamda urug'doshlik jamoasining rivojlanishi davriga kelib jismoniy tarbiya bevosita insonning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, unga chatishib ketgan va shu orqali insonni jamoaning hayotiga aralashtirib, ijtimoiylashtiruvchi vazifani bajargan.

Mehnat, birinchi galda ov jarayonida inson yugurish, sakrash, uloqtirish bo'yicha zarur ko'nikma va mahoratga ega bo'lib, o'zining jismoniy kuchini, irodasini, chaqqonligini, fikrlash qobiliyatini oshirib borgan. Jismoniy tarbiya vositasida mehnatga o'rgatish bolalikdan boshlangan. Avstraliya aborijenlarining hayoti bilan bevosita tanishgan ingliz etnografi Frederik Rouzning yozishicha, "Kichkina o'g'il bolalar o'yinchoq nayzani uloqtirish mashqlarini bajarishgan". Qizlar esa o'smir bolalar singari o'zlarining bo'lg'usi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalariga uzoq muddat o'rgatib borilgan. Yoshlarni bunday tarbiyalash an'anaviy jamiyatning zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, Rouzning fikricha, aborijenlar ular bilan har qancha faxrlanishsa arziydi. "Zero, ularning insonparvarlik aqidasi jamiyat turmushini mavjud tabiiy sharoitlarga eng maqbul tarzda moslashgan shakllarda davom ettirish uchun inson va tabiatning takror ishlab chiqarishini ta'minlashdan iborat bo'lgan".

O'sha davrga xos jismoniy tarbiyani zamonaviy ilmiy mazmunga mos tarzda tushunmaslik kerak. Bu davrda jamiyatda nafaqat kuchli, chaqqon, chidamli odamlarga, balki topqir, irodali, jamoaga birlashgan, mehnatga moslashgan insonlarga ham extiyoj kuchli bo'lgan. Chunki endi o'z o'zidan paydo bo'ladigan tabiiy qobiliyatlarning o'zi etarli bo'lmay qolayotgandi. Insonning sezgisi va aqli, to'plagan tajribasi va qaror topgan ijtimoiy uyushma tabiiy yo'l bilan urug'doshlarining jismoniy tarbiyasi zarurligini anglab etishiga zamin yaratadi.

Hamma gap shundaki, jismoniy tarbiya insonning biologik tuzilishiga ta'sir ko'rsatib, shubhasiz, aqliy, hissiy, ma'naviy imkoniyatlariga, botirlik va qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, topqirlik, iroda, uyushqoqlik, intizom, jamoaviylik va boshqa ijobiy sifatlarga ham ta'sir etadi.

L.Morganning yozishicha, urug'doshlik jamoasining o'smir o'g'il va qizlari odatlarga ko'ra o'rnatilgan dasturlar asosida jismoniy tarbiya maktabini o'tashgan, keyin esa, balog'atga etib, jamoaning to'laqonli a'zosiga aylanish arafasida jiddiy, xattoki juda og'ir sinovdan o'tishgan, ya'ni: o'g'il bolalar jangchi va ovchilik botirligida; qizlar esa yaralanganlarga yordam ko'rsatish, dorivor giyohlarni topish va ulardan shifobaxsh damlamalar tayyorlash kabilarda imtihon topshirganlar. Umuman olganda matriarxat davrida ayollarning jangari bo'lishganligi va jang san'atini yuqori darajada egallashgani haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Shunday qilib, insonni hayotning jiddiy sinovlariga tayyorlash – jismoniy tarbiyaning genetik jihatdan ilk vazifasi ana shundan iborat bo'lgan. Ammo yana bir boshqa, ya'ni dam olish, tanani engillashtirish kabi vazifasi ham bo'lgan, ammo u kengroq tarzda namoyon bo'ladi. Lekin, o'sha davrlarda ham xuddi hozirda bo'lganidek, hayot faqat yutuq va muvaffaqiyatlardan iborat bo'lgan emas. Hayotda omadsizliklar, o'yinda mag'lubiyatlar bo'lgan, shu bois ana shunday holatlardan munosib tarzda chiqib keta olishni, sovuqqon bo'lish va aql bilan ish ko'rishni o'rganish muhim ahamiyat kasb etgan. Urug'doshlik jamoasi davrida jismoniy tarbiya zimmasidagi vazifalardan biri ana shu edi.

Yozuvchi Aleksandr Kiknadze aqlni lol qoldiruvchi qasr va ibodatxonalar, butun dunyoga mashhur piramidalarni qurgan hindu qabilasi – atsteklar qanchalik o'z obro'larini saqlagan holda, umidsizlikka tushmasdan muvaffaqiyatsizlik va mag'lubiyatlarni qabul qilishganini tasvirlaydi. Yangilanish bayrami kunlari mazkur ibodatxonalar oldidagi maydonda turli o'yin va musobaqalar, jumladan to'p bilan o'ynaladigan o'yinlar tashkil etilgan. Ularda ikki jamoa bir biriga qarshi bahslashgan.

Musobaqadan keyin g'olib chiqqanlar maxsus uyushtiriladigan tantanaga taklif etilgan, mag'lublar esa mavjud udumga ko'ra o'z jonlariga qasd qilishga tayyorlanishgan. Ularning soyalar olamiga ketishiga bag'ishlab maxsus marosim o'tkazilgan. Atsteklarning e'tiqodiga ko'ra, g'oliblar qudratli ilohlarga aylanishgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davri madaniyati tadqiqotchisi M.O.Kosven odamlarning harakatga intilishganini qayd etadi: “kechqurun, kun

davomidagi toliqtiruvchi mehnatdan so'ng dam olgach, ibtidoiy odamga tana a'zolarining chigalini yozish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ertalab ovga yoki yurishga jo'nab ketish oldidan ijro etilgan ov va jang sahnalariga asoslangan raqslar jismoniy-chigalyozdi yoki o'ziga xos hissiy qo'zg'atuvchi vazifasini o'tagan". Yuqorida nomlari sanab o'tilgan mualliflarning ta'kidlashlaricha, urug'doshlik jamoasi davriga kelib, o'g'il va qiz bolalarga jismoniy tarbiya berishda farq yuzaga kela boshlagan. O'g'il bolalar ov va jang sahnalariga asoslangan o'yinlarni; qizlar esa ayollarning turmushi va kundalik hayotini aks ettiruvchi o'yin, raqs va mashqlarni bajarishgan.

Shu bilan birga yangi paydo bo'lgan urug'doshlik jamoasi turmush tarzida jismoniy mashqlar katta o'rin tuta borgan hamda o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va ijtimoiy hayotga jalb etishning eng muhim vositalaridan biriga aylana boshlagan. Shunday qilib, jamiyat rivojlanishining mazkur ilk bosqichlaridayoq jismoniy tarbiya nisbatan yaqqol namoyon bo'la boshlagan ijtimoiylashtiruvchi vazifani bajara, qadimgi odamning turmush tarzi va umumiy madaniyatining asosiy qismlaridan biriga aylana boshlagan edi. U mehnat faoliyatida, dam olishda, axloqiy va ekzotik qoidalarining shakllanishida muhim elementlardan biri, nihoyat, u odamlar sog'lig'i va umumiy jismoniy holatini mustahkamlash vositasi edi.

Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga bog'liq tarzda rivojlanib boradi. Tabiiy usulda yuz bergan dehqonchilik va chorvachilikning ajralishi urug'doshlik tuzumining parchalanishiga olib keldi. Insoniyat tarixidagi mazkur ulkan rivojlanish natijasida ajralib chiqqan harbiy sardorlar va urug' zodagonlari o'z atrofida gilarning harbiy va jismoniy tayyorgarligini oshirishga e'tibor qaratishgan. Urushlar xalq turmushining ajralmas qismiga aylanib qoladi va, tabiiyki, jismoniy tarbiyada harbiy yo'nalish borgan sari ustun bo'la boradi. V.V.Stolbovning qayd etishicha, bu jarayon bosqichma bosqich kechgan, ammo harbiy va urug' zodagonlari turmush tarzining o'z urug'dosh, qabiladoshlarining asosiy qismi turmush tarzidan uzoqlashishi yo'lidan borgan. Zodagonlarning ajralib chiqqan tabaqasi o'z mavqei va obro'sini ko'pincha "yaxshi harbiy-jismoniy tayyorgarlikka egaligi va harbiy musobaqalardagi g'alabalari" bilan mustahkamlar edi. Jamiyatning oddiy a'zolari ijtimoiy hayotda, jismoniy mashqlar va o'yinlarda ishtirokdan borgan sari chetga chiqib borishardi. Ularning zimmasida faqatgina jismoniy mehnat va zodagonlarga xizmat qilish vazifasi bor edi.

Bunday sharoitda jismoniy tarbiyaning mehnat bilan aloqasi yo‘qola boradi. Jismoniy tarbiya harbiylashadi va ijtimoiy-sinfiy belgisiga ko‘ra ikki yo‘nalishga ajraladi, ya’ni: siyosiy va ijtimoiy hayot uchun mo‘ljallangan jismoniy tarbiya hamda xalq ommasi uchun mo‘ljallangan jismoniy tarbiya. Shu asosda u turlicha ijtimoiylashtiruvchi vazifalarni bajaradi. Ushbu davr bo‘yicha fikrlarga xulosa yasar ekanmiz, ijtimoiy tarixning ibtidoiy jamoa tuzumi deb atalgan juda katta davrini o‘z ichiga oluvchi bo‘lagi oxirida jismoniy tarbiya san‘at, din va boshqalar bilan bir qatorda turmush tarzining alohida mustaqil elementiga aylana boshlaganini qayd etib o‘tishimiz zarur.

Sharq va G‘arbdagi ibtidoiy jamoalar o‘rnida fuqarolarning ijtimoiy tengsizligiga asoslangan yangi ijtimoiy tuzum, quldorlik tuzumi davlatlari paydo bo‘la boshladi. Bizning zamonimizgacha o‘sha uzoq o‘tmishda yuz bergan voqea-hodisalarga shohid bo‘lgan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va shaxsan ishtirok etgan mualliflar asarlarining ayrim namunalarigina etib kelgan.

Shu bois ham Igor Kon biz o‘tmishga qanchalik chuqurroq kirib borsak, uning manbalari shu qadar kamayib, borlarining ham talqini, sharhi murakkablashib boraveradi, deb ta’kidlaydi. Fikrini davom ettirar ekan u S.S.Lverpitsevning quyidagi ramziy so‘zlarini keltirib o‘tadi: “Sharhlovchi qadimgi muallif va o‘z zamondoshi o‘rtasidagi insoniy muloqot jarayonida tilmoch yoki tarjimonga o‘xshaydi. U asrlar osha qadimgi muallifning yuziga boqadi. U o‘z zamondoshining ham yuziga boqib turib, qadimgi muallifning o‘tmishdan aks sado berib turgan so‘zlari nima maqsadda aytilgani va qanday ma’no anglatishi haqidagi savolga asosli va gapni aylantirmasdan javob berish mas’uliyatini zimmasiga oladi”.

Shunga qaramay, bizgacha etib kelgan ma’lumotlar qadimgi tarixning umumiy tasvirini tasavvurimizda qayta jonlantirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda o‘sha davrlarda yozilgan, jumladan tadqiqot davomida o‘rganib chiqilgan manbalar qo‘l keladi. Tadqiq etilayotgan davrda ijtimoiy munosabatlar borasida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi, bu narsa jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotining barcha jabhalarida, xususan jismoniy tarbiyada ham o‘z aksini topdi. Uning ijtimoiylashtiruvchi yo‘nalishi ham o‘zgardi.

Eramizdan oldingi IV-IX ming yilliklarda mehnatning dehqonchilik va sanoat o‘rtasida bo‘linishi so‘nggi urug‘doshlik tuzumi davrlariga nisbatan kengroq miqyosda kechdi. Bu esa bir tomonda ijtimoiy tabaqalanishning yanada kuchayishiga, ikkinchi tomondan esa, Qadimgi

Sharq hamda qadimgi Yunoniston va Rimdagi davlatlarda madaniyatning, shu jumladan, jismoniy tarbiyaning keng tarqalishi va taraqqiy etishi uchun qulay sharoitlarni yuzaga keltirdi. Qadimgi Hindiston, Xitoy, Misr, Fors, Vavilon, Assiriya davlatlarida jismoniy mashqlar va o'yinlarning ko'plab turlari ommalashgan edi. Xususan, qadimgi Misrda fir'avnlarning maqbaralarida olib borilgan qazish ishlari paytida devorga ishlangan suratlarda ularning 400 dan ortiq turi topilgan.

Shu bilan birga, o'sha davrda jismoniy tarbiyaning tabaqalashuvi ko'zga tashlanib qolganini ham ta'kidlab o'tish zarur. Birinchidan, jismoniy tarbiya u yoki bu ijtimoiy tabaqa vakillarining ijtimoiy mavqeini aks ettirib, ijtimoiy burtma vazifasini bajara boshlagan. Xususan, eramizdan oldingi I asrlarda xalq ommasini jismoniy jihatdan tarbiyalashning asosiy vositalari kurash, akrobatika mashqlari, kamondan otish, tosh ko'tarish bo'lgan. Zodagonlar orasida esa ko'proq jismoniy mashqlar va o'yinlarning maxsus arava yoki otda ov qilish, ot hamda arava poygasi kabi "kiborlarga xos" turlari ommalashgan edi.

Ikkinchidan, jismoniy madaniyat va tarbiya harbiy-jismoniy tayyorgarlikda, musobaqalardagi g'alabalari bilan o'zlarini shon-sharafga burkagan fir'avnlarning istilochilik siyosatining yukini tashigan.

Shaxsning ijtimoiylashuvi uchun muhim bo'lgan yana bir jihat mavjud, u tsivilizatsiya davriga xos bo'lib, sharq va g'arb davlatlarining jismoniy madaniyatida o'z aksini topgan. Bu mazkur davlatlar madaniyatlariga xos bo'lgan o'zlikni anglash tiplaridir. I.Konning qayd etishicha, shaxsning faollik, mustaqillik, mas'uliyatlilik, yutuqlarga erishish ehtiyoji kabi umumiy psixologik o'lchov va xususiyatlari ham madaniy-o'ziga xosdir. Bu o'rinda gar ma'lum bir madaniyatlar va individlar boshqalariga nisbatan faolroq ekanida ham emas, balki ularning faolligi qay tomonga yo'naltirilganligidadir. Shaxsning jamiyat uchun istalgan sifatleri ham o'xshash bo'lgan. Mardlik va mehnatsevarlik barcha madaniyatlarda ham ijobiy baholansa, qo'rqoqlikka munosabat salbiydir. Ammo, turli madaniyatlarda shunday vaziyatlar mavjudki, masalan, dunyoni o'zgartirish uchun kurashish o'rniga uni boricha qabul qilish va o'z imkoniyatlari cheklanganini tan olish; mavjud dunyo tuzilishini yagona mumkin bo'lgan tuzilma sifatida tan olish; chunki shunday yashash qulay va oson. Ana shunday moslashuvning shakllari ham turlicha bo'ladi, jumladan, bu kuchlilar tomonga ochiqdan ochiq o'tish va shu orqali individ o'zini kuchliroq his etishi; xudoga e'tiqod orqali his etiladigan erkinlik tuyg'usi, yoxud o'zni anglash va o'zni kamolga etkazishga qaratilgan ichki kuchli faollik bo'lishi mumkin. Sharqdagi ko'plab diniy-

falsafiy ta'limotlar ana shunday dunyoga kuzatuvchi bo'lib qo'shilishib ketish, absolyutga singib ketish g'oyasini ilgari surgan.

Xitoy va Yapon falsafiy tafakkurining konfutsiylik, buddaviylik va daosizm singari ta'limotlari insonning o'zini kamolotga ettishtirishi masalasida yakdil qarashga ega. Ammo mazkur sifatlar jamiyat tomonidan qabul qilingan rasmiy mafkuraga mos kelgandagina qadrli bo'ladi. Aynan ana shu ruhda ijtimoiylashgan inson mazkur sotsiumning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga erishadi. Jumladan, konfutsiylik tartib bo'lishi, odob-axloq doirasidan chiqmasdan hukmdorlarga itoat etish va boshqa axloqiy qoidalarga asoslangandir. Odob saqlash – jamiyatdagi o'z o'rnini bilish va ana shu mavqeiga mos tarzda harakat qilish deganidir.

V.Ovchinnikov Yaponiyadagi jamiyat va shaxs munosabatini ham taxminan shunday ta'riflaydi. An'anaviy yapon madaniyati individning o'zi mansub bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy guruhga bog'liq bo'lishini nazarda tutadi. U shaxsni umumiy qoida va me'yorlardan kelib chiqadigan ko'plik, bir qancha turlicha majburiyatlar yig'indisi sifatida tushunadi. "Yaponlar, - deydi V.Ovchinnikov, - insonning xarakteri va xatti-harakatlari haqida umumiy fikr yuritishdan qochishadi, hamda uning xatti-harakatlarini har birining o'z qonun-qoidalari, o'z axloqiy kodeksi bo'lgan ayrim sohalarga bo'lishadi".

Insonning hayotiy faoliyati kechadigan hayot falsafasi, turmush tarzi, ijtimoiy sharoitlar ana shunday. Ular birga olib qaralganda ham hech qachon qandaydir begona bo'lmaydi, faqatgina inson faoliyatiga nisbatan tashqi bo'lishi mumkin xolos. Bu fikr to'la ma'noda sharq mamlakatlari jismoniy madaniyatiga, xususan, harbiy-sport san'atiga ham taalluqli. Ularning barcha turlarni batafsil tasvirlar ekan, I.D.Ladanov shunday xulosaga keladi: "Yaponiyaning boshqa harbiy-sport san'atlari singari karateda ham Yaponiyaning ichkaridan his etish mumkin. Karate, aykido, taekvandoda insonlar nafaqat kurashga, balki turmush tarziga ham o'rganishadi. Harbiy-sport san'atlari ustalari yoshlarni an'anaga aylanib qolgan kattalarni va o'rnatilgan tartiblarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashadi. Yuqorida sanab o'tilgan sport turlarining barchasi uzoq vaqt va sabr-bardosh bilan mashq qilishni talab etgani bois ular iroda mustahkamligi, sabr, maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat kabi xislatlarni tarbiyalaydi, deb hisoblanadi".

Qadimgi zamonlarda paydo bo'lgan karate o'sha davrda yashagan yaponlarning asosiy hayotiy falsafasiga to'la mos kelgan. Yaxshi bilmagan odamga, deb yozadi yuqorida qayd etib o'tilgan muallif, karate jangchisining harakatlari passiv bo'lib ko'rinib, uning himoya uchun

etarlicha harbiy tayyorgarlikka ega emasligi borasida noto'g'ri tasavvur uyg'otishi mumkin. Bu tasavvurning uyg'onishiga sabab karate ustasi o'z faoliyatini "harakatsizlik" printsipligiga bo'ysundiradi. Unga ko'ra, harakatsizlik o'zni bo'sh qo'yish, zo'riqishdan qochish, kuchni boshqarishni nazarda tutadi.

Uzoq o'tmishda Yaponiyada qilichbozlik san'ati (kendo) ham paydo bo'lgan. Uni yapon turmush tarzi bilimdonlari asl yaponcha narsa deb atashadi. Garchi zamonaviy sharoitlarda kendo jangovar sport san'ati sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa-da, u irodaviy sifat va xarakterni tarbiyalashda marosimiy tizim sifatida saqlanib qolgan. Kendo o'zni kamolga etkazish yo'lidir. Yaponiyaning boshqa jangovar sport san'atlarida bo'lgani kabi kendo ham nafas mashqlariga, marosimiy harakat va usullarga boy bo'lib, ular uzoq va jiddiy mashqlar natijasida shaxsning shakllanishiga, o'ziga xos psixologik timsol yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, sharq mamlakatlarining jangovar sport san'atlari o'zlarining sharq davlatlaridagi turlicha yo'nalish, usul va uslublarda kechadigan shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoniga aloqadorligini yaqqol namoyon etadi.

Birinchidan, ular milliy birlikning qaror topishiga ma'lum bir hissa qo'shishgan. Jumladan, karate o'ziga Okinava orolida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan yapon umummilliy kurashining – butun Yaponiya bo'ylab tarqalgan qurolsiz jang usuli okinava-gening bir qancha turlarini singdirib yuborgan edi.

Ikkinchidan, ular qo'shni bo'lib yashayotgan sharq xalqlari o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Masalan, okinava-ge orolning Xitoy va Koreya bilan qadimiy aloqalari bois Xitoyning kempo va Koreyaning taekvando jangovar sport san'atlari rivojiga turtki bergan.

Uchinchidan, sport san'atlari shaxsning talab qilingan umumiy irodasini tarbiyalovchi vazifasini ham bajargan. Ya'ni ular shaxsda zarur jismoniy sifatlar bilan birga iroda mustahkamligi, sabr, maqsadga intilish, qat'iyat kabi turmush tarziga va dunyoqarashga mos keladigan ichki sifatlarni kamol toptirishga ham xizmat qilgan.

To'rtinchidan, jangovar sport san'atlari murabbiylari o'zlarining yosh shogirdlarini shunchaki kurash usullariga o'rgatishmagan, balki axloqiy tarbiyani ham uyg'un tarzda olib borishgan. Ular shogirdlarga tana va ruhni birlashtirishni maslahat berishgan. Buning uchun ular xatti-harakatlarning ideal modelini yaratishga o'rgatishgan. Unga ko'ra, ong tanani, tana esa ongni o'ziga bo'ysundiradi.

Shu bilan birga, modelning eng muhim tarkibiy qismini xatti-harakatlarning axloqiy kodeksi tashkil etib, u tizimli ravishdagi murakkab mashqlar jarayonida o'zlashtiriladi va butun umr davom etadi. Ko'rib turganimizdek, gap tsivilizatsiyaning ilk davrlarida sharq mamlakatlarida mavjud bo'lgan jangovar sport san'atlarining ijtimoiylashtiruvchi roli haqida bormoqda. Bundan ayon bo'ladiki, xalq ommasining o'yin va jismoniy mashqlar, boshqacha aytganda jismoniy tarbiyaga qo'shilishi cheklangan edi. Bu o'rinda ham ijtimoiylashuvning yo'nalishi jamiyatga bog'liq bo'ladi va shunga mos tarzda tarbiyaning, jumladan, jismoniy tarbiyaning maqsadlari ham o'zgarib borgan. Zodagonlar o'z farzandlarini chidamli, qattiqqo'l va qahri qattiq jangchilar qilib voyaga etkazish uchun ularga qattiq tarbiya berishgan, jismoniy jihatdan chiniqtirishgan, ulardan boshqa biror yumushni bilmaydigan harbiy ishning ustalarini yaratishgan. Ularning ongiga bolaligidan dunyo lazzatlaridan, ijodiy mehnatdan xazar qilishni, har qanday ajnabiyga nafrat ko'zi bilan qarashni singdirishgan. Hatto ularning ko'ngilxushliklari ham shafqatsizligi bilan ajralib turgan. Gladiator-qullar janglari keng yoyilgan edi.

Qadimgi yunon-afinalikning tarbiyasining maqsadi uni hayotdan to'laroq lazzat olishga o'rgatishdan iborat bo'lgan. Gimnastika, musiqa va boshqa san'at turlari uning hayotiga lazzat bag'ishlashi zarur bo'lgan. Ammo jismoniy va ma'naviy tarbiya axloqiy ko'rlikni shakllantirgan. Shu bois quldorlik odatiy hodisa sifatida qabul qilingan. Bu jamiyatdagi tarbiya va ta'lim tizimi Afinaning to'la huquqli va o'ziga to'q fuqarolariga tadbiiq etilgan. Bu tizim sportda bo'lgani kabi yoshlarni faqat harbiy-jismoniy tayyorgarligi bilan cheklanib qolmagan, u har tomonlama tarbiya bergan. Afinaliklarning fikricha, uaqliy, ma'naviy va jismoniy tarbiyadan iborat bo'lishi kerak edi. Bu bejiz emas albatta. Klassik davrdagi qadimgi yunon mutafakkirlarining diqqat markazida inson turgan. Insonning uyg'un kamol topishi masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini ularni o'ziga jalb etgan. Adabiyot, fan, san'at va jismoniy tarbiyaning birligi Afinadagi maktab ta'limining asosini tashkil qilgan. Afinalik faylasuflar Sokrat, Platon va Aristotellar ana shunday tizimni juda zarur deb hisoblashgan.

Shunga mos tarzda qadimgi yunonlarning qadriyatli mo'ljallari ham rivojlanib borgan. G'alaba ortidan kelgan shon-sharaf bir umr sportchiga hamroh bo'lgan: u o'ziga haykal qo'yilishi, hurmatli lavozimlarni egallash, davlat hisobidan umrining oxirigacha ovqat ta'minoti olish huquqlariga ega bo'lgan. Teatr va boshqa bayram tantanalarida unga maxsus joy ajratilgan. Inson tanasining go'zalligi Fidiy, Miron va boshqalarning haykallarida o'zini manguqlikka muhrlagan yunon plastik san'atining

asosiy mavzusi bo'lgan. O'zining ideal inson tanasi haqidagi tasavvurlarini Polikrit "Qoida" nomli asarida aks ettirgan va inson tanasining mutanosibliklari haqidagi traktatni yaratdi.

Qadimgi yunon Afinasida madaniyatning gullab-yashnashi ko'plab ijtimoiy sabablarga ham bog'liq bo'lib, ularning eng asosiylari quyidagi ikki sababdir: yunon shaharlari hayotining siyosiy voqealarga boyligi hamda fanning turli yo'nalishlarida chuqur bilimlar to'plangan Sharq xalqlari bilan madaniy aloqalar o'rnatilganligi. Xatto ilk marotaba eramizdan oldingi 776 yilda o'tkazilgan Olimpiada o'yinlari ham juda muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan kunlarda Yunonistonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi masalalar ham hal etilgan. Shu erda savdo bitimlari tuzilgan, boshqa mamlakatlarning arboblari bilan tanishishgan, faylasuflar, notiqalar, musiqachilar va shiorlarning chiqishlari bo'lib o'tgan.

Ammo o'yinlarda ishtirok etish ijtimoiy va mulkiy ahvol bilan belgilangan. Unga faqatgina erkin tug'ilgan yunonlar kiritilgan. Qullar va ayollar to eramizdan oldingi XI asrgacha musobaqalarga qo'yilmagan. Ammo bu ham cheklovlarning barchasi emas. Har bir ishtirokchi Olimpiada o'yinlariga bir yil davomida tayyorgarlik ko'rishi shart bo'lgan. Buning uddasidan faqat moddiy ta'minlangan va bo'sh vaqti ko'p bo'lgan odamlargina chiqa olishgan. Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin, jismoniy tarbiya va sport turli davlatlarda, xususan sharq mamlakatlarida qat'iy belgilangan ijtimoyilashtiruvchi vazifani bajargan. Uning nazariyasi va amaliyoti o'zida tegishli mafkuraviy ko'rsatmani tashigan; huquqiy me'yorlar bilan bir qatorda odamlarning u yoki bu ijtimoiy tabaqaga mansubligini aniqlashga xizmat qilgan; shundan kelib chiqib, kerakli tarzda axloqiy dunyoqarashni shakllantirgan. Bekorga xalq "Non va Vaqt" berilishini talab qilgan Rim imperiyasining inqirozi davrida jismoniy tarbiya o'ziga xos ko'ngilochar vazifani bajarmagan. Tsirk va amfiteatrlarda, deb yozadi V.V.Bichkov, doimiy ravishda chavandozlik va ot arava poygalari, gladiatorlar janglari, hayvonlarni urushtirish musobaqalari o'tkazib turilgan. Klassik davrdagi, qadimgi yunon davlatchiligi yillaridagi jismoniy madaniyat ta'sirida dunyoni go'zallik timsoli sifatida qabul qilish shakllari o'rnini inqiroz davrida shafqatsiz va qonli tomoshalar egalladi.

Ma'lumki, sport va jismoniy tarbiya deyarli doimo yonma-yon tilga olinsa-da, ular bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jismoniy tarbiya asosan inson salomatligini ta'minlashga qaratilgan jamiyatning turli yoshdagi barcha tabaqalari ixtiyoriy tarzda "o'zi uchun" shug'ullanadigan, ommaviylik

tabiatiga ega mashqlar yoki mashq majmularidan iborat. Sport esa, uning qaysi sohasida bo'lsin, mutaxassis ustozlar nazorati ostida maxsus tayyorgarlik ko'rgan odamlarning, asosan yoshlarning yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda bellashuvini o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya qay ko'rinishda bo'lsin, (individualmi, jamoaviymi), bellashuvni rad etadi va insonga turli mashq shakllaridan xohlaganini tashlash imkonini beradi. Sportda esa musobaqa birinchi o'rinda turadi va unda muayyan mashqlar majburiy tarzda bajariladi. Lekin bu majburiylik sportning ma'lum bir turi doirasida sportchiga erkin harakat qilish imkonini beradi, ya'ni sportda ijodiy yondashuv taqiqlanmaydi, balki qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, badiiy gimnastika musobaqalarida har bir sportchi o'zi tanlagan mashqni, o'zi tanlagan kuy jo'rligida bajaradi, lekin sportning ushbu turiga doir qonun-qoidalaridan chetga chiqolmaydi. Shunday qilib, jismoniy tarbiyani sportga qo'shib yuborish yoki ularni aynanlashtirish mumkin emas. Sportning boshqa ko'pchilik turlarida esa barcha sportchilar bir xil mashqni bajaradilar, lekin ularni bir-biridan farqlantirib turadigan, musobaqa ruhini saqlab, uni so'ndirmaydigan narsa, bu – har bir sportchining bir xildagi mashq ijrosiga ijodiy, o'ziga xos yondashuvdir.

Sport – jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarning turlari majmualari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish tizimi. Sportning maqsadi kishilarning sog'lig'ini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va g'alabalarga erishishdir. Dastlabki sport musobaqalari Yunonistonda milloddan avvalgi 1580 yilda bo'lib o'tgan. 19-asrning 2-yarmida, ayniqsa, 1894 yilda Xalqaro olimpiada qo'mitasi (XOQ) tashkil qilingandan keyin sport juda tez rivojlana boshladi. 1896 yilda 1-zamonaviy Olimpiada o'yinlari o'tkazildi.

Sportning asosiy 3 ta o'zaro bog'liq tashkiliy shakllari mavjud: ommaviy havaskorlik sporti; o'quv fani sifatidagi sport; yuqori natijalar sporti. Ommaviy havaskorlik sporti – insonning jismoniy takomillashuvi sharti; u kishilarning yoshi; salomatligining holati, jismoniy rivojlanish darajasiga ko'ra chegaralanadi. O'quv fani sifatidagi sport – barcha turdagi ta'lim muassasalari va qurolli kuchlarda harbiy-jismoniy tayyorgarlik dasturlariga kiradi.

Yuqori natijalar sporti – eng yaxshi sport ko'rsatkichlari (rekordlar)ga erishish uchun sharoit yaratadi, insonning jismoniy tayyorgarligini namoyish etadi, jismoniy tayyorgarliklarning samarali vosita va usularini ommaviy amaliyotga tadbiq etishga yordam beradi.

Taraqqiyot jarayonida sport jismoniy tarbiya doirasidan chiqib, mustaqil umummadaniy, siyosiy, estetik, iqtisodiy ahamiyat kasb etdi. Sport do'stona xalqaro aloqalarni kengaytirishga, xalqlarning o'zaro bir-birini tushunishi va do'stligi rivojlanishiga xizmat qilmoqda. 19-asr o'rtalaridan bir necha G'arb mamlakatlarida professional sport rivojlana boshladi. U tomoshabopligi, biznesga aylanib, katta daromad manbai bo'lib borayotganligi bilan ajralib turadi. Sport turalarining 2 asosiy guruhi mavjud: milliy sport turlari va xalqaro sport turlari. Milliy sport turlari har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati va dam olish sharoiti asosida rivojlanagan. Xalqaro sport turlari muayyan sharoitlarda musobaqalar o'tkazishning umumlashtirilgan tizimlaridan iborat bo'lib, bunda musobaqa ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini, natijalarni hisobga olish va baholashni xalqaro miqiyosda bir xil tartibga keltirish, yagona qoidalardan foydalanishga asoslangan maxsus cheklashlar nazarda tutiladi. Sport bilan shug'ullanishda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish davlat organlari, xalqaro sport tashkilotlari tomonidan man etilgan vositalarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Yuqori sport ko'rsatkichlariga erishish maqsadida stimulyatorlardan, doping moddalaridan, Xalqaro olimpiada qo'mitasi man etgan boshqa vositalardan foydalangan sportchi musobaqalardan chetlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida sport umumdavlat ishi hisoblanib, jismoniy madaniyat bilan birga aholining barcha qatlamlarini va yosh guruhlarini qamrab olgan. Mamlakatda 50 dan ziyod sport turi ommalashgan, ulardan 30 turi Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" (2002 y. 31okt.), "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" (2003 y. 3 iyun), "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2003 yil 4 noyabr.) qarorlari O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishdagi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qarorlar asosida yangi bolalar sport inshootlarini barpo etish dasturi, sport anjomlari va jihozlari, kiyim-kechaklar va charm poyabzal mahsulotlarini respublikada ishlab chiqarish, maktablarda, ayniqsa, qishloq maktablarida jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirish, aholi o'rtasida sport madaniyatini yuksaltirish, ommaviy sport targ'ibotini rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqilib, ularni hayotga tatbiq etishga kirishildi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasini kadrlar bilan ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassalarida bolalar sporti uchun pedagog murabbiylar tayyorlash, sport jurnalistikasi va psixologiyasi mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim tizimini takomillashtirish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilgan. Sportchilar ijtimoiy himoyalash masalalari qonun bilan mustahkamlandi. Chunonchi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (2000 y. 26 may)da davlat boshqaruv organlari, jismoniy tarbiya va sport jamoat birlashmalari, sport klublari va markazlari, boshqa ixtisoslashtirilgan sport tashkilotlari va muassasalari sportchilarga zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratishlari hamda ularning sihat-salomatligi muhofaza qilinishini ta'minlashlari shart qilib qo'yildi. Sportchilarning ayrim toifalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozli pensiya olish huquqidan foydalanadilar. Sport musobaqalarida qatnashuvchi shaxslar sug'urta polislariga ega bo'lishlari shart. Sport sohasida juda katta yutuqlarga erishgan fuqarolar, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari, sportchilarni taqdirlash maqsadida "O'zbekiston iftixori", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonlari va "Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Mamlakatda Sport matbuoti shakllandi: "Sport" gazetasi, "O'zbekiston futboli", "Tennis Q", "Boks plus futbol" (Toshkent), "Futbol ekspress" (Andijon), "Asr futboli" (Namangan), "Inter futbol" (Kosonsoy) kabi gazetalar nashr etilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirishda biologik va sotsial omillarning uyg'unligining mohiyati nimadalgini tushuntirib bering.
2. Jismoniy madaniyatga jamiyat va shaxs madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ta'riflang.
3. Jamiyatning asosiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qiling va bu jarayonlarning jismoniy madaniyat bilan qanday aloqasi borligini izohlang.
4. Yoshlarning jismoniy madaniyatga munosabatini tahlil qiling.

2-MODUL. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOTSIOLOGIYASINING IJTIMOIIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Mavzu: Jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy institut sifatida. Sportning institutsional munosabatlari. Jismoniy tarbiya va sportning sotsiologik muammolari. Jismoniy tarbiya va sport tizimidagi harakatlar

Reja:

- 1. Jismoniy tarbiya va sportda sotsiologik yondashuvlar.**
- 2. Sport va ommaviy axborot vositalari.**
- 3. Yoshlarda tarbiyasida sportning ahamiyati va yosh sportchilar sotsial qiyofasi.**
- 4. Sportchining shaxs sifatida jamiyatda tutgan o‘rni.**
- 5. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida tafakkur tarzi va uning xususiyatlari.**
- 6. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini rivojlantirish zaruriyati.**

1. Jismoniy tarbiya va sportda sotsiologik yondashuvlar. Insonparvarlik ideallari asosiga qurilgan olimpiya tarbiyasi, murabbiy va pedagoglar qo‘liga yosh sportchilarning ijtimoiy-psixologik sifatlariga, sport faoliyatining axloq va qadriyatlardagi yo‘nalishlariga, ko‘rsatmalariga, motivlariga ta’sir ko‘rsatishning samarali vositalarini tutqazadi.

Ammo, pedagoglar ham, murabbiylar ham rahbarlikning avtoritar usulidan voz kechishlari kerak bo‘ladi. Rossiya sotsiologik ma’lumotlari ko‘rsatishicha, murabbiylarning 60-80% mazkur usulni o‘z faoliyatida qo‘llaydilar. Ma’lumki, shaxs faoliyatda shakllanadi va o‘zini namoyon etadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuvning qo‘llanilishi “o‘qituvchi-sportchi” tizimidagi pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishini nazarda tutadi. Avtoritar sport pedagogikasi o‘rnini hamkorlik pedagogikasi egallashi kerak.

Sportning paydo bo‘lish sabablarini tahlil qila turib, uning rivojlanish manbaini tushuntirib bera oladigan bir nechta asosli mulohazalarni ajratib

ko'rsatish mumkin. Olimlarning ilmiy tadqiqotlarida sportning paydo bo'lishi mehnat faoliyatining rivojlanishi hamda o'sib kelayotgan avlodda zarur jismoniy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishning samarali vosita va usullariga bo'lgan ehtiyoj bilan tushuntiriladi. Masalaning bunday qo'yilishi jismoniy tarbiya va sportning yagona tabiatga ega ekanligi to'g'risidagi fikrlarga asos bo'lib xizmat qildi.

Ammo, N.R.Ermak va R.A.Piloyanning tarixiy-sotsiologik tadqiqoti sportning ibtidoiy jamoa tuzumida birinchi navbatda kuch, chaqqonlik va chidamlilikda bellashish orqali shaxsiy ziddiyatlarni hal qilish usullaridan biri sifatida paydo bo'lganligini isbotlaydi. Shunga qaramasdan, ko'p hollarda bunday bellashuvlar (yugurish, kamondan o'q otish) etakchi mehnat faoliyati – ov bilan birga amalga oshirilgan. Tarixchilarning guvohlik berishicha, ibtidoiy jamoa tuzumida yashovchi qabilalar madaniyatida jismoniy tarbiya izlari topilmagan. Qadimgi ajdodlarimiz o'yin va bellashuvlarni qarama-qarshiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish usullaridan biri sifatida qon to'kishdan ko'ra ustun qo'yishgan. Qabila sardorini tanlash marosimlari, kelinni qo'lga kiritish uchun bellashuvlar tinchlik asosidagi qarama-qarshi kurashlar sifatida musobaqalarga tayyorgarlik uchun mashq qilishdan ko'ra ancha oldin paydo bo'lgan.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat tarbiya va ijtimoiylashuvning dastlabki eng ahamiyatli usullaridan biri sifatida, sport esa individ yoki jamoa tegishli oliy jismoniy, ruhiy va ma'naviy qobiliyatlarining tan olinishi sifatida paydo bo'lgan va rivojlangan.

Jismoniy tarbiya va sport rivojlanishi hamda genezisining o'ziga xos xususiyatlari ularning spetsifik funksional mazmunini belgilab berdi. Ko'p jihatdan ularning funksiyalari o'xshash, ammo maqsadli yo'naltirilganlik farqlanadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bir funktsiya, masalan iqtisodiy funktsiyaning, jismoniy tarbiya va sportda har hil mazmunga ega bo'lishi tushunarli bo'ladi. Jismoniy tarbiyada, u eng avvalo, mehnat layoqati va inson organizmi bardoshlilikining o'sishi, sog'ligini mustahkamlash orqali namoyon bo'ladi. Jismoniy tarbiyaning iqtisodiy funktsiyasi quyidagilarda yana ham aniqroq ko'rinadi:

- mehnat unumdorligini oshirish va yuqori unumdorlikni barqaror saqlab qolish, ishlab chiqarish nuqsonlarini kamaytirishda;
- kasallanish va jarohatlanishning pasayishida;
- ijodiy uzoq umr ko'rishni uzaytirishda.

Sportning iqtisodiy funktsiyasiga oid zamonaviy qarashlar ko'p jihatdan uning tijoratlashuvi va daromad olish bilan bog'liq bo'ladi:

- homiylilik faoliyatidan;

- turli musobaqalarning televizion translyatsiyasi huquqini sotishdan;
- reklama kompaniyalaridan;
- chipta, ramzlar, anjomlar va boshqalarni sotishdan;
- sportchi va murabbiylar bilan shartnomalar tuzishdan.

Sport tarbiyasida shaxsni musobaqaviy faoliyatga tayyorlashga ustivorlik beriladi. Sport faoliyati uchun xos bo'lgan yuqori natijaga yo'nalganlik sportchidagi jismoniy va ruhiy qobiliyatlarining rivojlanishiga alohida talablar qo'yadi. Sport tarbiyasi insonni noodatiy jismoniy va psixik yuklamalarga tayyorlash imkonini yaratadi. O'z o'zini tarbiyalash tizimida sport alohida o'rin egallaydi. Sport maktabini o'tagan inson, qoidaga ko'ra tartibli, ijtimoiy faol bo'ladi. Sportchilarning atoqli insonlar va mamlakat iftihorlariga aylanganligi to'g'risida ko'plab misollarni keltirish mumkin. Sport tarbiyasi o'zining vazifa va shakllari bo'yicha ko'p jihatdan jismoniy tarbiya bilan o'xshash, ammo uning natijasi insoniyat madaniyatining yangi komponentini, ya'ni sport madaniyatini xosil qiladi.

Sportning o'ziga xos spetsifik qadriyatlari yuqori integratsiyalashuv va variativlik xususiyatiga ega. Birinchi o'rinda bu sportning tarbiyaviy qadriyatiga tegishli. Sportchi harakterini tarbiyalash, irodasini chiniqtirish, estetik his-tuyg'ularni tarbiyalash, halol o'yin qoidalarini mustahkamlash orqali biz sportning emotsional, hissiyot, estetik qadriyatlaridan foydalanamiz.

Sport madaniyatining eng yuksak natijalaridan biri sifatida e'tirof etiladigan va sport tayyorgarligida sportchi shaxsiy sport madaniyatini shakllantirib boradigan omillarni tushunib olish zaruratini alohida qayd etish lozim. Bularga jangchi harakterini, sport mardligi va olijanobligini, mashg'ulotlarga qatnashish, o'z-o'zini nazorat qilishning yuksak madaniyatini tarbiyalash, shuningdek qo'yilgan maqsadlarga erishishdagi qat'iyatlilik, batartiblikni, o'z kamoloti ustida uzoq yillar davomida tizimli ishlash qobiliyatini, g'olib bo'la olish va o'z qadr-qimmatini va ishonchini yo'qotmagan holda mag'lubiyatni tan ola bilish ko'nikmasini shakllantirish kabilarni kiritish mumkin.

Tabiiylik va ijtimoiylik haqidagi masalalning u yoki bu tarzda hal qilinishi ko'p jihatdan ijtimoiy hayot rivojlanishini qaynday tushunish kerakligini, uning manbalarini, madaniyatni (shu jumladan jismoniy tarbiyani ham) fenomen sifatida talqin qilish tendensiyalarini, shaxs va individuallik muammolarini belgilab beradi.

Bizning fikrimizcha, uni yechishning ikki jihati mavjud: birinchidan, inson biologiyasining o'ziga xosligi va ijtimoiy sharoitlarga tobeligini

ochib berish, ikkinchidan inson ijtimoiy yo‘nalgan biologiyasining, undagi jamoatchilik, moddiy va ma‘naviy faoliyatiga, ijtimoiy munosabatlari va funksiyalariga teskari tasirini o‘rganish.

Mazkur munosabatlar bolalarni sportga jalb qilishda muammoli holatlarni yuzaga keltirmoqda. Bolalar va o‘smirlar sporti muammosini bola uchun sport turi emas, balki sport turi uchun bola tanlab olinishiga asoslangan iqtidorli bolalarni saralab olish tizimi yana ham yomonlashtirmoqda. Seleksiya asosida saralash tizimi ko‘pchilik bolalar va ularning ota-onalarida ham jiddiy ruhiy stress hisoblanadi. Bu holat bolani sport mashg‘ulotlaridan bir umrga bezdirishi mumkin. Kattalarda qo‘llanilgan maxsus texnologiyalardan bolalar va o‘smirlar sporti uslubiyatiga moslashtirmasdan foydalanish yosh sportchining muddatidan oldin katta sportchilarga xos jismoniy holatga olib keladi va sportdagi uzoq umr haqida unutish kerak bo‘ladi. Bolalar va o‘smirlar sportidagi qarama-qarshiliklarning ildizlari oxir oqibat sportning tub mohiyatini parchalaydi, sportchilarning chuqur axloqiy buzilishlariga sabab bo‘ladi.

Doping muammosi jamiyatda turli xil qabul qilinadi. Albatta, sport tomoshaboblikda yutadi, ammo insonparvarlik jihatidan ancha yutqazadi. Chunki, dopingni qo‘llash haqida gap ketganda, bu jarayonda kuchli sportchini aniqlash uchun emas, balki sportchida dopingni muvaffaqiyatliroq qo‘llagan tibbiyot hodimlar va farmakologlar o‘rtasida kurash ketishini ta‘kidlash lozim. Mazkur qarama-qarshilikni hal qilish bugungi kunda muammoli hisoblanadi, chunki zamonaviy sportda g‘alabaga har qanday yo‘l bilan erishish tendensiyalari kuchaymoqda va rivojlanmoqda.

2. Jismoniy tarbiya va sport qadriyatlarini ommalashtirishda OAV faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. “Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda televidenie ommaviy axborot vositasigina bo‘lib qolmay, ijtimoiy ong, estetik didni shakllantiradigan kuchga aylanmoqda va ijtimoiy muammolarni echishga yordam bermoqda”¹. Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida asosiy targ‘ibot vositasi bo‘lib kelmoqda. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 — 2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzining foydasi va ustunligini keng targ‘ib qilish, mamlakatda yaratilgan

¹ Тафаккур. Ижтимоий фалсафий, маънавий – маърифий журнал. 1/2012. 108-бет.

jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to'laqonli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie, butunjahon Internet axborot tarmog'i, bosma mahsulotlar, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchi odamlarning imkoniyatlari va yutuqlarini namoyish qiluvchi tadbirlarni yoritish, shu jumladan, ko'rgazmali materiallar va ma'ruza shakllaridan faol foydalanish, jismoniy tarbiya va sport masalalari bo'yicha yagona axborot muhitini shakllantirishdan keng foydalanish yo'li bilan turli yosh guruhlari orasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni, sog'lom turmush tarzini, salbiy hodisalar profilaktikasini targ'ib qilish bo'yicha ishlarni tizimli asosda kompleks tashkil etish va amalga oshirishga yo'naltirilgan doimiy ishlaydigan axborot-targ'ibot tizimini shakllantirish tizimi yaratilmoqda.

- Aholining barcha qatlamlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishdan manfaatdorlikni shakllantirish sohasida axborot va ta'lim vositalari samaradorligini oshirish choralari ko'rilmogda.

- Ommalashtirish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, ommaviy dam olish joylarida va yashash joyida shaxsga (oila, maktabgacha, maktab, o'rta kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish jamoalari) tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning uzviyligiga rioya qilish ta'minlanadigan bo'ldi.

- Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishishda fuqarolarning jismoniy faolligini rag'batlantirish, sog'lom turmush tarzining muhim elementi sifatida sport faolligini mustahkamlash amalga oshiriladi.

- Sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi bosma va ko'rgazmali mahsulotlarni tarqatish, teleradio dasturlarini namoyish qilish va Internet resurslarini shakllantirish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni ommalashtirishga etakchi sport mutaxassislarini, sportchilar, siyosatchilar, jamoat arboblarni jalb etish, ijtimoiy reklamadan foydalanish ishlari kuchaytiriladi.

- Davlat, jamoat tashkilotlari, biznes-tuzilmalar va xususiy shaxslarning mavzuli nominatsiyalari bo'yicha sovrinlari uchun «Sport bayrami» milliy festivali, marafonlar, sport musobaqalari va birinchiliklarini muntazamlilik asosida tashkil etish va o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Sport karerasining eng yuqori cho'qqisidan finishiga o'tish inqirozi yuqori natijalar sporti yoki professional sportda bir necha yillik faoliyatdan

so'ng qonuniyatlarga mos ravishda sport natijalarining barqarorlashuvi yoki pasayishi natijasida yuzaga keladi. Bu yerda odatda sportchini sport karerasini tugatish haqida o'ylashga majbur qiladigan sabablar majmui mavjud bo'ladi. Ammo, ko'pchilik sportchilar finish bosqichini iloji boricha uzoqlashtirishga va sportdan ketish fursatini keyinroqqa surishga istashadi. Buning uchun ular eng kamida ikki muammoni hal qilishlari zarur:

- yuqori sport natijalarini yanada oshirish yoki saqlab qolish uchun yangi zahiralarni, qoidaga ko'ra tayyorgarlikning barcha tomonlarini individuallashtirish va o'zining kuchli tomonlaridan maksimum darajada foydalanish asosida izlash;

- sportdan ketishga tayyorgarlik, yangi professional karera tanlovi sportchiga kelajagi bo'yicha xavotirlarini kamaytirishga va aynan sport vazifalarini hal qilishga ko'proq e'tibor qaratishga imkoniyat yaratadi.

Sport karerasini tugatish inqirozi va boshqa kasbga o'tish inson hayotida sportning o'rni tubdan o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, orqasidan o'z "Meni"ni qayta qurish hamda shaxs sifatidagi qiymatini sportdan tashqarida bo'lgan ijtimoiy rolda anglash zaruratini yetaklab keladi. Sport karerasini tugatgandan so'ng adaptatsiya davrida sportchi oldida quyidagi muammolar paydo bo'ladi:

- kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish va yangi professional karerani boshlash zarurati;

- nafaqat yangi kasbga ega bo'lish, balki yangi qiziqishlar, manfaatlar, muloqot doirasiga ega bo'lish bilan birga yangi turmush tarzini shakllantirish;

- o'z oliasini qurish yoki sport karerasi davrida oila qurgan bo'lsa, oiladagi munosabatlarni qayta qurish.

Afsuski hamma sportchilar ham sport karerasini tugatish inqirozini muvvafoqiyatli yengib o'ta olishmaydi. Mazkur inqirozning o'tish keskinligi odatda quyidagi shart-sharoitlarda yanada kuchayadi: sportdan to'satdan ketish, ketishga oldindan tayyorgarlik ko'rmaslik, sportchining passiv pozitsiyasi, moddiy va psixologik qo'llab-quvvatlashning yo'qligi. Sportchining sportdagi statusi va sport karerasini tugatgandan keyingi statuslari o'rtasidagi farq ham muhim omil hisoblanadi. Ushbu farq qancha katta bo'lsa, boshqa teng sharoitlarda inqiroz psixologik jihatdan shuncha og'ir kechadi.

Zamonaviy sportni ayollarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada sportchi ayollar faoliyatida ham sotsiologik tadqiqotlar asosida o'rganish lozim bo'lgan muammolar ham yuzga kelmoqda. Sport mahorati oshgan

sari sportchi qizlarda erkaklarga xos harakter xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi: yetakchilik, g'alabaga bo'lgan iroda, tajovuzkorlik va b. Fiziologlar qizlardagi jinsga xos xulq-atvor o'zgarishlarini miyadagi differentsiatsiya jarayonlaridagi buzilish bilan izohlaydilar. Bunday buzilishlar jinsiy markazning maskulinizatsiyasi (erkaklashishi)ni chaqirishi, oqibatda esa jinsiy rolning, o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Ekstrimal yuklamalarning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni tartibga solish usullarini topish, tibbiy nazoratni ta'minlash, sport rejimi va ayolning alohida bioijtimoiy rolini optimal ravishda birga olib borish imkoniyatini ta'minlash – bu olimlar, murabbiylar, sport sohasi rahbarlari oldida turgan vazifalar hisoblanadi.

Mazkur muammolarni yechishdagi ishtiroklarining ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish va to'g'ri pozitsiyani tanlash uchun sotsiologlar bir qator savollarga javob berishlari kerak:

-ayollarning sportdagi manfaatlari, ularning jamiyatda bajarayotgan ijtimoiy rollariga mos keladimi?

-ayollarning sport faoliyati bilan shug'ullanishi ularning ruhiyatiga, mazkur jamiyatda qabul qilingan ayollik tushunchasiga muvofiq keladimi?

-sport faoliyati bilan shug'ullanishdan keyin ayol sog'lom, oila qurish va farzand ko'rishga qodir bo'lib qoladimi?

-sport karerasini tugatgandan keyin ham baxtli bo'lib qoladimi?

Mazkur savollarning javoblari sotsiologlar tomonidan hali topilmagan. Yaqin vaqtlar ichida ayollarning imkoniyatlarini hamda ular tomonidan erkaklarga xos sport turlarini o'zlashtirishda davom etishlari zaruratini baholash bo'yicha bir qator sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Mazkur masalalarni hal qilishga e'tibor qaratmaslik – ayollar sporti rivoji muammolarini og'irlashtirish, uni hech kim g'olib bo'lib chiqmaydigan inqiroz holatiga keltirishni anglatadi.

Aholi, ayniqsa sport bilan shug'ullanayotgan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar sport hayot va olam haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishini ko'rsatmoqda. Aynan sportda muvaffaqiyatga erishish uchun imkoniyatlarning tengligi, muvaffaqiyatga erishish, birinchi bo'lishga intilish, nafaqat raqibni balki o'z-o'zini ham yenga olish kabi zamonaviy jamiyat uchun muhim bo'lgan qadriyatlar yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

“Sport maktabini” o'tagan insonlar sport ularga o'z kuchlari va imkoniyatlariga ishonchni tarbiyalashga, shuningdek ulardan mohirona foydalanishga yordam berganligiga ishonchlari komil. Sport maqsadga erishish yo'lida qurbonliklar qilishga o'rgatadi. Sport maydonida yosh

sportchilar tomonidan o'zlashtirilgan darslar qoidaga ko'ra keyinchalik hayotda ham yordam beradi. Ko'pchilik sportchilar aynan sport ulardan shaxs bo'la olishi mumkin bo'lgan insonni shakllantirganini e'tirof etishadi. Sport vositasida "o'z o'ziga suyanmoq" zamonaviy hayot tamoyili amalga oshadi. Bu muvaffaqiyatga erishish eng avvalo izzattalablik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, sabrlilik, irodaviy ko'nikmalar kabi shaxsiy, individual sifatlariga bog'liq ekanligini bildiradi.

Tarixchi Djon Betts sport va kapitalistik ruh o'zaro ko'p umumiyliklarga ega deb hisoblaydi: tashabbuskorlik, qarama-qarshi kurash va musobaqa ruhi. Boshqa mashhur amerikalik professor R.Fors haqli ravishda sportni qadriyatlarning ijobiy tizimini yaratish mumkin bo'lgan laboratoriya sifatida baholaydi.

Yosh avlodning ijtimoiylashuvdagi sportning roli va muhimligiga xulosa qila turib, so'zsiz haqiqatni qayd etish zarur: sport insonlarning tafakkur tarziga, ongiga, ishlari va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda sportga millatni uning gullab yashnashi va rivoji yo'lida birlashtiruvchi milliy g'oya sifatida qarash mumkin.

Sportning qadriyat salohiyati bir qator tarbiyaviy vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Sport mardlik, harakter, irodani tarbiyalash maktabi ekanligi biz tomonimizdan bundan oldin ham ta'kidlangan edi. Sport faoliyati yosh sportchiga maktabda, oilada, boshqa hayotiy vaziyatlarda yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni matonat bilan yengmoq imkonini beradi.

Murabbiylar nafaqat yosh sportchilarning jismoniy sport formasi haqida qayg'urishlari, balki ularda o'zlarining bo'lajak hayotlari uchun ijtimoiy javobgarlik hissini tarbiyalashlari ham kerak. Mashhur sportchi faqat mashg'ulotlardagina shakllanmaydi: maktabda ta'lim olish, kitob o'qish, muzey va teatrlarga tashrif buyurish, ota-ona va kichiklarga ko'maklashish – sportchi shaxsining shakllanishi uchun zarur shart-sharoit hisoblanadi.

2.Sportning inson hayotidagi ahamiyati. Dunyo taraqqiyoti XXI asrga kelib butunlay boshqa ko'rinish oldi. Bu taraqqiyotning shiddati inson tafakkuri, harakteri, harakatlarini o'zgartirish bilan birga uning shaxsiga xos bo'lgan sifatlarini ham keskin o'zgartirib yubormoqda.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining xilma xilligiga qaramay, an'anaviy jamiyat uchun an'analarning, yangiliklarning o'zgarmasligi, turmush tarzining, odamlarning, ijtimoiy tuzilmalarning qat'iy tartiblangani, o'zgaruvchanlikning sustligi, qadriyatlar va qoidalarning muqaddasligi kabi umumiy xususiyatlar xos bo'lib, o'zgarishlar ro'y berishiga yo'l qo'ymasada, bugungi ijtimoiy-siyosiy va

iqtisodiy jarayonlar taraqqiyot sari ilqam qadam tashlamoqda. Chunki o'zining buyuk o'tmishi, o'ziga xos xususiyatlari bilan bir biridan keskin farq qilib kelgan Sharq va G'arb taraqqiyot orqali birlashib bormoqda. Ana shu birlashish o'zi bilan har bir millat o'zligini anglatuvchi milliy-ma'naviy qadriyatlarini millat taraqqiyotidagi rolini kamaytirib, ta'sirini kuchsizlantirmoqda.

Aynan bugungi jamiyatda texnologiyalarning rivojlanishi jamiyat va tabiatning o'zaro munosabatlarida global ekologik muvozanatning buzlishi yuzaga keldi. Bu hol insonning biologik tur sifatida mavjud bo'lishini xavf ostida qoldiradi. Insonning atrof-muhit, olam bilan munosabatlarining murakkablashib borishi jismoniy vazifalarning kamayib, ruhiy yukning ortishiga olib keladi. Ming yillar davomida insonga ijobiy ta'sir etib kelgan tabiiy omillar bugunga kelib birdaniga noodatiy, kutilmagan tarzda ta'sir ko'rsatmoqda.

Inson va tabiat bir biri bilan nafaqat bir butunlik sifatida, balki obyekt va subyekt sifatida ham o'zaro bog'langandir. Insonning tabiatga, ayniqsa, sanoatlashuv davridan boshlab, faol aralashuvi, uning isrofgarchilik va iste'molga asoslangan характери tabiatga sezilarli zarar yetkazmoqda. O'z navbatida tabiat ham insondan o'ch olishni boshlamoqda.

Davrning ana shunday holati aksida yangicha ijtimoiy jarayonlarga mos keladigan shaxsni shakllantirishga hamda ushbu davr madaniyatiga ham boshqacha nazar bilan qarash zarurati yuzaga kelmoqda. Mana shunday o'zgarishlar kechayotgan bugungi kunda milliy o'zlik, karakter, qadriyatlariga tayangan, ular asosida shakllangan shaxsni saqlagan holda davr bilan hamohang, unga bas keladigan shaxsni shakllantirish lozim. Albatta, davr ruhiga mos shaxsni shakllantirish bugungi islohotlarda namoyon bo'lmoqda, lekin shaxsda milliylik xususiyatlarini ayniqsa, sharqona xususiyatlarni saqlab qolish qiyin kechishi aniqdir. Agarda, xalqimizdagi qadriyatlardan biri bo'lgan qiz boladagi bokiralikni saqlashda yigitlar va ijtimoiy muhit e'tiborsizlikka yoki zamonaviylikka yo'llasalar bizning jamiyatimizda ham fohishalik, ibosizlik, hayosizlik avj olib ketishi mumkin. Shuning uchun ham shaxsda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirib borish zarur. Ayniqsa, bu tuyg'ularni shaxsga singdirish uchun yoshligidanoq amalga oshirib borish kerak. Shuning bilan birga shaxsda jasurlik, o'ziga ishonch kabi tuyg'ularni shakllantirishda sportga alohida e'tibor berish kerak. "Aynan yoshlik chog'idan sport bilan do'st bo'lish bolaning o'z ustida ishlashi, karakterining toblanishi, musobaqalarda qatnashish orqali qat'iyatlik va mardlik xususiyatlarining

shakllanishi, g'alabaga intilishi, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo o'z ustidan g'alaba qozonishi, bir so'z bilan aytganda, mustahkam irodagi ega bo'lishi uchun puxta zamin yaratadi". O'ziga ishongan insonni esa hech kim o'zining millatidan, ma'naviy qadriyatlaridan voz kechtira olmaydi.

Jismoniy madaniyat va sport odamlar o'rtasidagi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy asosga taqaluvchi ijtimoiy munosabatlarning asosiy qismi sanaladi. Jismoniy madaniyat va sport odamlar turmush tarzining subyektiv va obyektiv jihatlarini o'zida namoyon etadi, inson hayotining va mehnat shart-sharoitlarining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Sport odamlarning sog'ligini va ishchanlik qobiliyatini saqlashga va mustahkamlashga yordam beradi, ularga jismoniy ma'naviy va madaniy jihatdan yuqori pog'onalarga ko'tarilishga imkoniyatlar beradi. Shu bilan birga sport odamlarning ijodiy qobiliyatini, madaniyatni, ta'limni, tarbiyani oshiradi (boyitadi) ularda hayotga qiziqishni ko'taradi, mehnat faoliyatini oshiradi, har bir insonning alohida va butun umumjamiyatdagi hayot tarzi shakllanishining haqiqiy omili sanaladi.

Faol harakatning cheklanishi bilan organizmdagi barcha a'zolarining me'yoriy ishlashi buziladi, chunki ular asosan serharakat sharoitda o'z funksiyalarini to'liq bajaradilar. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanishi taqozo qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday turmush tarzi jarayonida inson tanasidagi barcha a'zolar va tizimlarning harakatga nisbatan bo'lgan tabiiy talabi qo'shimcha ravishda yuzaga keltiriladigan serharakatchanlik bilan yoki jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish orqali qoplanishi kerak.

Faol harakat qilib yashash inson organizmining kasalliklarga kam chalinishini, xastalangandan keyin esa oson va tez tuzalib ketishini tegishli ravishda ta'minlaydi. Hayotda bunga ko'pgina jonli misollar keltirish mumkin. Ma'lumki, ota-bobolarimizning turmush tarzi doimiy jismoniy ish qilib turish bilan bog'liq bo'lgan. Ko'pgina manbalarda ko'rsatilishicha, bunday serharakatli bo'lish kishi sihat-salomatligi uchun juda foydali hisoblanadi. Shu boisdan ham ular hozirgi paytda tez-tez uchrab turadigan ayrim surunkali kasalliklar bilan (qonda xolesterin moddasining ko'payib ketishi va bu bilan bog'liq xastaliklar, semizlik, qandli diabet, yurakning ishemik kasalligi va boshqalar) kam og'riganlar. Hozirgi paytda shu narsa ilmiy ravishda asoslanganki, arterial qon bosimining yuqori bo'lishi (gipertoniya), miokard infarkti, asab tizimining qator xastaliklari (nevroz, nevrasteniya, depressiya va boshqalar), o't va siydik yo'llarida tosh paydo bo'lishi kabi «zamon kasalliklari» ko'pinsha

jismimizning harakatga «to‘ymasligi»dan kelib chiqadi. Aytib o‘tilgan kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarning aksariyat qismi o‘tirib bajariladigan ish bilan (idora xodimlari, ilmiy xodimlar, pult boshqaruv tizimida navbatchilik qiluvshilar, rahbarlar va boshqalar) shug‘ullanishi aniqlangan. Yuqorida qayd qilingan kasb egalarining doimiy ravishda ish joyida badantarbiya, ishlab chiqarish gimnastikasi bilan yoki maxsus sport seksiyalarida shug‘ullanishi eslatib o‘tilgan xastaliklarning cheklanishiga, salomatliklarining mustahkamlanishiga olib kelgan.

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari bilan muntazam ravishda shug‘ullanish ish qobiliyatining oshishiga, mehnat unumdorligining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Jismoniy tarbiyada jismoniy taraqqiyot qonunlari ham aslini olganda jismoniy madaniyatning ijtimoiy qonunlari ham aks etadi. Jismoniy madaniyatning ijtimoiy qonunlaridan foydalanish harakteri va usuli aslida jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tuzumidan kelib chiqadi. Bu jismoniy tarbiyaga ijtimoiy harakter beradi.

Xalqning turmush tarzi, hayot faoliyatining o‘zgarishida jismoniy tarbiya va sportning o‘rni va roli ulkan bo‘lib, davlatimiz tomonidan joylarda olib borilayotgan sportni rivojlantirishga doir islohotlar xalqimizning ruhiyatiga monand olib borilishiga e‘tibor qaratilmoqda. Chunki joylarda xalqimizning yangi sport turiga munosabati, uni qabul qilishi aynan shu sport turining rivojlanishini belgilab beradi. Sport nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy-mafkuraviy barkamollikka erishishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hozirda zamonaviy yuqori natijalar sportida yuklamalar biologik imkoniyatlar chegarisida bajariladi. Yuklamalarning oshib borishi sportchi organizmi funksional holatiga mos yuklamalarni tanlashni talab etadi. Yuqori malakali sportchilar zo‘riqish va har qanday kasalliklarga chalinishlardan yiroqda bo‘lib, yuqori natijalarga erishishda har bir sportchi uchun, aynan har bir mashg‘ulotda individual funksional holatlariga mos keladigan vositalarni, ularning bajarilish uslublari va dam olish harakterini to‘g‘ri tanlay olinishi keyingi ishlarining muvaffaqiyatida zamin bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy sport yutuqlaridan foydalanish, ular asosida yoshlarimizni tarbiyalash, o‘rgatish hamda organizmning o‘zgarishlarini tadqiq etib borish bugungi kunning talabi hisoblanadi. O‘quvchilarda jismoniy tarbiya jarayoni orqali axloqiy xulq-odoblari, irodani rivojlantiruvchi sifatlar: matonatlik, qatiyatlilik, jasurlik, og‘ir-vazminlik, o‘zini tuta bilish ko‘nikmalari shakllanib boradi. Qoidagi ko‘ra jismoniy mashqlar jamoada amalga oshiriladi, shuning uchun ham hamkorlikdagi harakat faoliyatining mazmuni va uning pedagogik

boshqarilishi o'quvchilarning o'zlarini jamoada qanday tutishlarini bilishlariga, uning maqsadlariga bo'ysunishiga, uni himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'yinlarda, musobaqalarda raqibga, jamoadagi o'rtog'iga, hakamlarga maxsus munosabatlar shakllanib boradi. Sport etikasi sport faoliyati jarayonida belgilangan qoida va xulq-atvor qoidalariga amal qilish bilan bog'langan bo'lib, unda ushbu qoidalar mustahkamlanadi va kundalik hayot voqeligiga tadbiiq etilib boriladi. Og'ir-vazminlik, kamtarlik, insonlarga, raqiblariga ham xurmatda bo'lish, adolatsizlikka hamda sport kurashidagi g'irrom vaziyatlarga, holatlarga chiday olmaslik, mehnatsevarlik, intizomlilik – bunday sifatlarni tarbiyalash barcha jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida hamisha alohida ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiya jarayonida intizomlilikni, hamjihatlilikni tarbiyalash belgilangan qoidalarga amal qilishni o'rgatish, ba'zi bir holatlarda an'anaviy bo'lib borilishi (axborot (raport) berish tartibi, mashqlarni bajarishni to'xtatish, o'qituvchi, hakamning ishorasiga ko'ra o'yinni to'xtatish) nazarda tutiladi. Safda turish mashqlari, qayta saflanish, safni yoymoq ko'rsatmalarni aniq bajarilishini talab qilinishi ham intizomga o'rgatadi. Saflanishni nazorat qilish – tashkillashtirilgan va tartiblanganlikni tekshirishning yaqqol misolidir. Ozodalik, tejamkorlik, jamoa mulkiga va insonlar mehnatiga xurmatda bo'lish kabi sifatlarni jismoniy-madaniy va sport tadbirlarini o'tkazishda an'anaviy talablar asosida tarbiyalanadi (ishtirokchilarning ozoda kiyimlari, jihozlarni astoydil tayyorlash va tozalash, ozodalikka rioya qilish va boshqalar). Jamoaviylikni tarbiyalash o'z ichiga xushmuomalalilik, odoblilik, o'rtoqlariga izzat-hurmatda bo'lishni qamrab oladi. Bunday me'yorlarning bajarilishini talab qilish bir qator qoidalar bilan mustahkamlanadi. Xususan, har bir musobaqaning tugashi bilan uning ishtirokchilari yuzaga kelgan his-tuyg'ularga qaramasdan bir-birini qutlashi kerak; bexosdan qoidani buzgan o'yinchi qo'lini ko'tarish orqali xabar berishi kerak va boshqalar. Ayniqsa, o'yin eng qizg'in nuqtasiga chiqqanda, o'zining manfatlari yo'lida harakat qilganda o'rtog'iga yordam berish maqsadida o'zini tiyishi judayam qadrlanadi. Sayohatli safarlar ishtirokchilariga ularda o'rtog'ining xavfsizligiga javobgarligini tarbiyalovchi maxsus ehtiyot qilish va yordam berish ko'nikmalarini o'rgatishadi. Jamoaviylik burchini, jamoa oldida javobgarlikni tarbiyalash jamoaviy topshiriqlarni bajarish jarayonida, o'yinlar vaqtida har bir ishtirokchi umumiy maqsadlar ostida harakat qilganda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya

jarayonida o'quvchi-yoshlarda fuqarolik javobgarligini shakllantirish judayam zarurdir. Jismoniy tarbiya va sportda bunday xususiyat va omillarning mavjudligi jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy omillarning ahamiyatini ko'rsatadi. Mazkur omil va xususiyatlarni o'rganishda sotsiologik tadqiqotlarning roli va ahamiyati beqiyosdir.

Har bir odam turli kasb va soha doirasida faoliyat olib borsada, kundalik turmush tarzida, hayotda inson bo'lib qoladi. Bu esa har bir insonda itimoiy munosabatlar, muammolar namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bunday munosabatlar asosida inson shaxs bo'lib shakllanib boradi.

3.Yoshlarda tarbiyasida sportning ahamiyati va yosh sportchilar sotsial qiyofasi. Yoshlar muayyan qiziqish va qadriyatlarga, jamiyat ijtimoiy tuzilmalaridagi o'ziga xos o'rni va vazifalariga ega ma'lum bir yosh doirasidagi guruh vakillaridir. Yoshlar turli jihatdan: yosh nuqtai nazaridan (o'smirlar va o'spirinlar), jins bo'yicha (yigitlar va qizlar), asosiy faoliyat turi yuzasidan (talabalar yoki ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotganlar), yashash joyiga ko'ra (qishloq yoki shahar yoshlari) tasnif qilinishi mumkin. Mos ravishda yoshlarning guruhiy o'zini o'zi anglashi va qiziqishlari doirasi ham farqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan yuqoridagi kabi ijtimoiy-demografik guruh xususidagi qarashlarni umumlashtirilib, uch yo'nalishga ajratish mumkin: Birinchidan, yoshlik – inson hayotiy davrining ma'lum bir davrini bildiruvchi tushuncha. Demografiya, psixologiya va pedagogikada «yosh avlod», «yoshlik davri», «o'smirlik davri», «maktab, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davri» atamaları ishlatiladi. Bolalikdan yetuklikka o'tish bosqichi o'smirlik hamda yoshlik (ilk va kechki) davrlariga bo'linadi. Biologik jihatdan har ikki davr bir-biriga o'xshash bo'lsada, biroq ularning xronologik chegaralarini aniqlashtirishda muayyan jamiyat tarixiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun xos bo'lgan ijtimoiylashuv shakl va usullari, madaniyat, ta'lim harakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, turli tarixiy davrlarda yoshlikning davriy bosqichlarini aniqlashtirish mezonlari mos ravishda o'zgarib turadi. Ular an'anaviy-tarixiy va zamonaviy jamiyatlarda ham akseleratsiya (o'sish, rivojlanish jarayonini tezlashtirish) jarayonlariga bog'liq holda tatbiq etiladi. Hozirgi zamon sotsiologiyasi va statistikasida mazkur davrning yosh chegaralari 15-29 yosh etib belgilangan. Ikkinchidan, «yoshlar» atamasi zamirida yosh bilan bog'liq holdagi ijtimoiy mavqe nazarda tutiladi. Yoshlarning ijtimoiy mavqei bir xil bo'lmasdan, bu ularning asosiy faoliyat turlari (ish, o'qish, qo'shimcha faoliyat), rolli tuzilmalari, shuningdek, jamiyatda yoshlar vakillariga

nisbatan shakllangan tasavvur va stereotiplar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Uchinchidan, «yoshlar» tushunchasi hukmron madaniyat tarkibidagi alohida, mustaqil madaniy tuzilma, submadaniyat sifatida qo'llaniladi. Bunda o'ziga xos qadriyatlar, me'yorlar, hayot va tafakkur tarziga ega insonlar uyushmasining muayyan shakli nazarda tutiladi. Yoshlar submadaniyati odatda, yoshi nisbatan katta avlodlar dunyoqarashiga zid keluvchi muxoliflik harakteridagi (dushmanona bo'lishi shart emas) xulq-atvor va tashqi ko'rinish, bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olishning o'ziga xos shaklini namoyon qilishga intilishda ifodalanadi. Umuman olganda «yoshlar» tushunchasining davriy chegaralarini aniqlashtirishda ushbu tushunchaga ilmiy va norasmiy yondashuvlar nuqtai nazaridan baho berish ham mumkin. Adabiyotlarda ilmiy nuqtai nazardan yoshlik 14-16 dan 28-30 yoshgacha bo'lgan davr ekanligini belgilansa-da, norasmiy jihatdan bunga turli mezonlar asosida ham yondashiladi. Chunonchi, yoshlarga xos hayot tarzi bir necha holatlarda namoyon bo'lishi ehtimoli bor: moddiy jihatdan to'liq ta'minlanmaganlik (uy-joyga ega bo'lmaslik), professional faoliyatning boshlang'ich bosqichida bo'lishi yoki oliy ta'lim muassasasida o'qishni davom ettirayotganlik va shunga mos ravishda qiziqishlar hamda faoliyatning turli-tumanligi va h.k. Bu holatlar shaxs yoshi rasmiy jihatdan belgilangan yoshlik davridan o'tgan bo'lsa ham, uning yoshlarga xos hayot tarziga amal qilishi, yoshlar singari faoliyat olib borishini anglatadi. Umuman olganda, yoshlar muayyan ijtimoiy qatlam bo'lib, mazkur qatlam vakillariga jo'shqinlik, romantika, o'ziga xos hayot tarzi, hali maqsadlar va ularga erishish yo'llarining to'liq aniqlashtirib olinmaganligi, ba'zan o'z oldilariga qo'ygan maqsadlaridan chalg'ish, beqarorlik singari xususiyatlar xosdir. Ota-onalar, pedagoglar, nisbatan yoshi katta avlod vakillarining yoshlarga xos mustaqillikka intilish, hech bo'lmaganda tashqi ko'rinishi (kiyinishi, soch turmagi, yurish-turishi va h.k.) bilan ajralib turishga, zamonaviy ko'rinishga harakat qilish kabi xatti-harakatlarni inobatga olmasliklari, butunlay qoralashlari noo'rindir. Bu jihatni tarbiyaning eng muhim vositalaridan birini bee'tibor qoldirish sifatida baholash mumkin. Chunki doim ham har bir avlodga xos muayyan qadriyatlar katta avlod vakillari tomonidan to'liq qabul qilinmagan. Ayni hollarda taqiq, ma'muriy jazolash tizimlari faoliyati samarasiz bo'lib, yoshlarga tegishli darajada maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishda ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va qadriyatlari yo'nalishiga mos holda ish olib borish afzaldir. Ushbu fikrlarni tasdiqlash uchun juda ko'plab misollarni keltirish mumkin. Turli jamiyatlarda yoshlar majburan

singdirilmoqchi bo'lgan xulq-atvor ko'rinishlariga nisbatan ko'pincha namoyishkorona rad javobini berib, o'z noroziliklarini turli yo'llar bilan bildirganliklari ma'lum. Bu albatta, mazkur yosh guruhi vakillarida isyonkorlik xususiyatlarining mavjudligidan darak beradi. Shuning uchun murabbiy, pedagog va faoliyati yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq mutasaddi, rahbarlar yoshlar bilan muloqot qilish yo'llarini, ularga zarur bo'lganda kerakli darajada psixologik ta'sir o'tkaza olish malaka va ko'nikmalarini puxta darajada egallagan bo'lishlari lozim. Ayni paytda ijtimoiy-madaniy omillarning shaxs shakllanishi va rivojiga, qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini inobatga olgan holda yoshlarni destruktiv guruhlar va g'oyalar ta'siridan himoyalash masalasini hech qachon nazardan qochirmaslik zarur.

Yosh davri xususiyatlarining tarkib topishi ko'plab individual-psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Adabiyotlarda mazkur davrga bolalikdan yetuklikka o'tish bosqichi sifatida ta'rif beriladi. Turli madaniyatlarda inson yoshining o'ziga xos bosqichlari farqlanadi. Yoshlik shaxs shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etadigan mas'uliyatli davrdir. Inson yakka holda rivojlanmaydi, bunda ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta'siri kuchli bo'ladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yakunlanib, mustaqil hayotga qadam qo'yilgach, jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatidagi faoliyat boshlanadi. Ilk yoshlik davri organizm jinsiy jihatdan etilishi va fiziologik rivojlanishining yakunlanishi davridir. Ko'plab fiziologik funksiyalar (qon bosimi, ichki sekretiya bezlari faoliyati) bir me'yorga tushadi. Ilk yoshlik davri oxiriga borib tana rivojlanishidagi nomutanosibliklar barham topadi, yuz ko'rinishi katta yoshdagi kishilarga xos tarzda shakllanadi. Bu omillarning barchasi yigit yoki qiz uchun jismoniy yoxud aqliy mehnatning nisbatan murakkabroq turlari bilan shug'ullanishlariga imkon yaratadi. Bu yoshda biologik sabablar asosida insonning tevarak-atrofdagi kishilar bilan munosabati o'zgaradi.

Shaxsga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar bilan nosog'lom ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro moslik va ularning bir-birini to'ldirishi yoshlarning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga imkon yaratadi. Yoshlarda barqaror xulq shakllanmaganligi, mafkuraviy immunitet tarkib topmaganligi, axborot iste'moli madaniyati lozim darajada rivojlanmaganligi ularning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushishida asosiy sabablar sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlar, yigit va qizlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik,

yosh, jinsiy, hududiy, demografik, etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olish lozim. Ta'lim va tarbiya jarayonida nafaqat insonning bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirishga, balki undagi fikrlash xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ham e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda tanqidiy tafakkur va refleksiyaning rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, psixologik manipulyatsiya va uning ta'sirini bartaraf etish vosita va usullarini tadqiq etish, yoshlarda zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish hozirgi davrda ahamiyat berilishi zarur bo'lgan muhim vazifalardandir. Shu nuqtai nazardan, mamlakat, shaxs xavfsizligiga tahdidlarning mavjudligi sharoitida ularga munosib va o'z vaqtida javob bera olishga qodir xulq shaklini tarkib toptirish va mazkur masalaning metodologik ahamiyatini yoritish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ko'pchilik jinoyatlar yoshlar tomonidan destruktiv guruhlar tarkibida sodir qilinadi. Shaxs guruh tarkibida bo'lganda jazolanishdan qo'rqish hissi kamayadi, vaziyatni va o'zini o'zi tanqidiy baholash susayadi, tajovuzkorlik va rahmsizlik kuchayadi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, jinoyat olamidagi «ko'tarilish» dastavval yomon o'qish va maktabdan bezish, ta'lim muassasasiga nisbatan dushmanona munosabatdan boshlanadi. Undan so'ng oilaviy muammolar va nopedagogik tarbiya usullar negizida oiladan chetlashish ko'zga tashlanadi. Keyingi qadam jinoyatchi guruh tarkibiga qo'shilish va jinoyat sodir qilish bilan ifodalanadi. Bu yo'lni bosib o'tishga taxminan ikki yil ketadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 60% ashaddiy jinoyatchilar o'z professional faoliyatlarini 16 yoshdan boshlaganlar¹. Ushbu mavzuni tadqiq etishning ahamiyati butun dunyoda yoshlar orasida jinoyatchilikning o'sib borayotganligida namoyon bo'ladi. Yoshlar orasida turli xulq og'ishlari, har xil destruktiv g'oyalar ta'siriga tushishning yangidan yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Yoshlarning diniy-radikal oqimlar, terroristik guruhlar tarkibiga kirishlari, jamiyat uchun xavf tug'diradigan xatti-harakatlarning amalga oshirilishiga olib keladi. Ijobiy ijtimoiy qadriyatlar, oilaga, umume'tirof etilgan qonun va qoidalarga hurmat hissida tarbiyalangan yoshlarda bunday jihatlar kuzatilmagan holda, ijtimoiy mavqeini har qanday yo'l bilan bo'lsada mustahkamlash, o'z egotsentrik, manfaatlarini, xudbin maqsadlarini qondirish ustuvor ahamiyat kasb etgan yoshlar shaxs deformatsiyalashuvini har tomonlama namoyon qiladilar. So'nggi yillarda ko'pchilik tadqiqotchilar ijtimoiy

¹ Смирнова С.В. Социально-психологическая профилактика молодёжной криминальной агрессивности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. Москва, 2007.

himoya shaxs xulqi va faoliyatining anglanmagan muhim regulyativ mexanizmi ekanligiga e'tiborni qaratmoqdalar.

Shuning uchun yoshlar xulqining anglanmagan regulyativ mexanizmlarini o'rganish, shaxs xususiyatlari bilan bog'liq yoshlik davriga xos himoya mexanizmlarini tadqiq etish, jins xususiyatlari bilan bog'liq ravishda yoshlik davridagi psixologik himoya ko'rinishlarining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish, shaxsning yoshlik davrini tavsiflovchi hissiy-irodaviy, kommunikativ, intellektual xususiyatlarini o'rganish, shaxsning individual-psixologik tavsifi va turli himoya mexanizmlari xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik, bog'liqlikni tadqiq qilish hozirgi kunda barcha ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Milliy qiyofa deganda biz keng ma'noda muayyan tabiiy ijtimoiy munosabatlar sharoitida yashovchi kishilar tabiatdagi voqealarni, ijtimoiy hayot hodisalarini o'ziga xos talqin qilishi va ularni urf-odat va an'analar, harakter tarzida gavdalanishini tushunamiz. Milliy qiyofa millatning real mavjud va idrok etish mumkin bo'lgan belgilaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi xalqning butun tarixi bilan uzviy bog'langandir. Qiyofaning ilk namunalari millat vujudga kelmasdan oldinroq vujudga kela boshlagan. Milliy qiyofaning ayrim belgilari etnosning hamma tarixiy birliklari - urug', qabila va elatlarga xos. Milliy qiyofa qandaydir bir omil ta'sirida vujudga kelmaydi, balki bunda ikki omil o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omilni ijtimoiy - tarixiy taraqqiyot, ikkinchisini esa muayyan xalq yashab turgan tabiiy sharoitning xususiyatlari tashkil etadi. Bu yerda kishilar ruhiy qiyofasining tashqi ifodalari ikkinchi omil bilan uzviy bog'langandir. Negaki, ikkinchi omil o'zining konkretligi, tabiiy yakkaligi bilan yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy hayot mazmunini idrok etishda jamiyat va kishilar ongiga ijtimoiy turmushning muhim ta'siri namoyon bo'ladi. Xalq hayotida ro'y bergan muhim tarixiy jarayonlar va voqealar ayni paytda uning qiyofasida o'chmas iz qoldiradi. Buni biz har bir xalqning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan g'oyalar va tasavvurlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, rus xalqi ijtimoiy ongining tabiatiga krepostnoylik munosabatlarining ta'siri kuchli bo'lgan edi. Natijada ongda loqaydlik, boqimandalik, hafsalasizlik kayfiyati yuzaga kelgan. Bu esa dehqonlarning qiyofasini belgilab bergan. Tadqiqotchilarning e'tiroficha, shakllangan milliy qiyofa ma'lum darajada xalq ruhiyatini muhofaza qiluvchi mexanizm rolini o'ynaydi. U yot narsalarni xuddi elakdek ajratadi, uni yo qabul qiladi, yoki shu xalqda mavjud amaliy me'yorlar asosida qayta ishlab beradi, yohud uni inkor

etadi. Atrofdagi voqelikni, hodisalarni o'ziga xos idrok, tafakkur, tasavvur qilish va tuyg'u, urf - odat, an'ana, harakter tarzida namoyon bo'lishi milliy qiyofaning qaytarilmas xususiyatlarini tashkil qiladi. Ma'lum bir millat vakillarining voqelikni o'ziga xos idrok etishi, fikrlashi, orzu - istaklari, oliy xususiyatlarini tushunish va tushuntirish uchun, uning namoyon bo'lish sabablarini organizm yoki miya tuzilishidan emas, balki yuqorida aytganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, tabiiy muhitning shart - sharoitlaridan qidirish kerak. Ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, geografik muhit, avvalo, inson faoliyatini va bu faoliyat, o'z navbatida, ruhiy jarayonlar va ongning tuzilishini belgilaydi. Har bir xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos. Agar biz xalq tarixi va qiyofasini bir - biriga solishtirsak, milliy qiyofada, milliy harakterda uning tarixi chuqur aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Geografik muhit ishlab chiqarishning tabiiy asosi bo'lganligi uchun ham uning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. U yoki bu mamlakatda ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik yuritish xususiyatlari va turmush tarzi ma'lum jihatdan geografik shart - sharoitlar bilan bog'langandir.

Milliy qiyofaning asoslari bolaning ontogenetik (organizmning individual taraqqiyoti) davrida shakllana boshlaydi. Bola ko'rgan narsalarni idrok etish va mazmunini tushunib yetish qobiliyati faqat miyaning tug'ma xususiyati bo'lmay, shu bilan birga turmush tajribasi asosida shakllanadi. Shuning uchun turli tabiiy sharoit va turli ijtimoiy muhitda yashab voyaga yetgan kishilar voqeliklarni idrok etishda o'ziga xos ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Afrika qit'asining ijtimoiy taraqqiyotda orqada qolgan ba'zi qabilalarining bolalari tajriba bilan bog'liq, amaliy ahamiyatga ega narsalarni, hodisalarni esda olib qolishda ajoyib xotira namunalarini ko'rsatishgan. Ular ov qilinadigan suqmoqlarni topish, yovvoyi hayvonlar izini farqlash, o'rmon ichida yo'l topa bilishda Yevropalik tengdoshlariga qaraganda birmuncha ustunlik qilgan holda, geometrik shakllarni deyarli farqlay olmaganlar. Odam ijtimoiy zot sifatida shakllanib borar ekan, shu ijtimoiy muhitdagi munosabatlarni, milliy xususiyatlarni o'z-o'zidan stixiyali ravishda o'zlashtirmaydi, balki asta-sekin shu jamiyatda qabul qilingan ma'lum ta'lim-tarbiya tizimi orqali ularni o'zlashtirib boradi. Har bir avlod vakillari ajdodlarning turmush tajribalarini, til va madaniy xususiyatlarini o'zlashtirib, millat uchun umumiy bo'lgan shart - sharoitlar ta'sirida o'sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularda shu millatga xos umumiy hislatlar shakllanadi. Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmaydi, balki doimiy

taraqqiy etuvchi ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib turadi. Ijtimoiy - iqtisodiy sharoit, yashash sharoitlarining o'zgarishi va yangi amaliy faoliyat shakllarining vujudga kelishi bilan insonning bilish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunday ruhiy jarayonda qayta o'zgarishlar sodir bo'ladi, avval mavjud bo'lmagan yangicha ruhiy faoliyat turlari vujudga kelishi mumkin. Milliy qiyofa, avvalo, milliy harakter, milliy urf - odat va an'analar, milliy tuyg'u kabi elementlar orqali namoyon bo'ladi.

Milliy harakter haqida so'z yuritishdan oldin harakter tushunchasining mohiyat-mazmunini, umumiy jihatlarini belgilab olish lozim. O'zbek tilining izohli lug'atida harakter quyidagicha ta'riflanadi. Harakter (grek) inson xulqi yoki axloqida namoyon bo'ladigan va unda odat tusiga kirib qolgan eng muhim ruhiy holatlar majmui, fe'l-atvor. Psixologik jihatdan harakter shaxsning faoliyati va muloqotida namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlar yig'indisidir. Harakter shaxsning ijtimoiy borlig'i bilan belgilanadi, sotsiol tajribani o'zlashtirishga asoslanadi va shu asosda uning tipik belgilari yuzaga keladi. Harakterning ijtimoiy-tipik birligida uning individual o'ziga xosligi namoyon bo'ladi, oqibatda subyektning sotsiallashuvi yuzaga keladi, ayni paytda uning individualligini tabiiy zaminlari - qobiliyati, temperament, oliy nerv sistemasi aks etadi. Indivud harakteriga xos belgilar orasida ba'zilar yetakchi, boshqalari ikkinchi darajali o'rin tutadi. Harakter faoliyatda namoyon bo'ladi, individ uchun shaxsiylik ma'nosiga ega bo'ladi. Harakter insonning atrof-muhitga munosabati tizimida ko'zga tashlanib turadi: boshqa kishilarga munosabat samimiylik yoki nosamimiylik, haqqoniylik yoki soxtalik; ishga munosabati – mas'uliyatlilik yoki mas'uliyatsizlik, mehnatsevarlik yoki dangasalik; o'ziga munosabat – kamtarlik yoki hudbinlik; mulkka munosabat – saxiylk yoki ochko'zlik, tejamkorlik yoki isrofgarchilik va x.k. Harakter shaxsning duyoqarashi, uning e'tiqodi va axloqiy tamoyillariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Masalan, halollik, prinsipiiallik, insonparvarlik axloqiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, ikkiyuzlamachilik, notayinlik, bemehrlik bilan mutlaqo kelisha olmaydi. Harakterning shakllanishi uchun ijtimoiy tarbiya muhim rol uynaydi. Biz yuqorida inson harakteriga xos bo'lgan eng umumiy jihatlar to'g'risida fikr bildirdik. Har bir inson ijtimoiy jihatdan olib qaraganda, muayyan xalq, millatning vakili hisoblanadi. Shunday ekan, inson harakteri obyektiv jihatdan milliy xususiyatlarga ega bo'ladi. Milliy harakter milliy qiyofaning ajralmas bir qismi. Jahonda birorta sof etnik birlik bo'lmaganidek, harakteri bir xil

bo'lgan ikki millat ham yo'q. Yer yuzidagi har bir xalqning o'ziga xos xulq - atvori, milliy xususiyati, tuyg'usi, didi, ta'bi mavjud bo'lib, boshqa millatlardan ajralib turadi. Xalqlar o'zidagi ehtiyojning mavjudligi, qiziqishlarning turli xilligi, tafakkurining sifati, turmush tarzi, shaxslararo munosabati, muloqot maromi, an'analari, urf-odat va marosimlari bilan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Bu farqlar o'z-o'zidan psixologik qiyofaning tarkibiy qismlarini: milliy harakter, milliy ta'b va milliy madaniyatni keltirib chiqaradi. Milliy harakter har bir xalqning o'ziga xos fe'l - atvori bo'lib, tabiatni, jamiyatni, yashashdan maqsadni anglab yetish, atrofidagilarni tushunish, ularga munosabat bildirishda namoyon bo'ladigan psixologik xususiyatdir. Masalan, xalqimiz himmat ko'rsatish fazilatini ardoqlab kelgan. Xalqning boshiga qanday tashvish tushmasin, ne balolarni boshdan kechirmasin asl saxovati bilan ajralib turadi. Himmat bu xalqimiz harakteridagi bir xislat. Uning mazmunida saxovat, pokizalik o'rin egallagan. Himmatli kishilar har qanday vaziyatda ham el fayzi va rohati uchun qayg'uradi. Ular odamlarga doimo saxovat ko'rsatib, nochor, xayru ehsonga muhtoj bo'lganlarga yordam berganlar. Milliy harakter avvalo oilada shakllanib, keyinchalik ibrat namunalari orqali mustahkamlanib, takomillashib boradi. Oila o'zining urf - odatlari, an'ana va qadriyatlari bilan o'z a'zolariga ta'sir eta boradi. Bola dunyoga kelib, ilk bor ko'rgan kishilari ota-onasi, yaqinlari bo'ladi. Ularning mehr-muhabbatlarini bola chaqaloqligidan xis qila boshlaydi. Bola uchun ota - ona mehribon, g'amxo'r siymo hisoblanadi. Bola ota - onaga ishonch bilan qaraydi. Ularning har bir so'zi va ayniqsa, xatti-harakatlariga alohida e'tibor beradi hamda ularga taqlid qiladi. Shu ma'noda ota - onaning o'zlaridagi barcha yaxshi fazilatlarni imkon qadar namoyon qila olishlari, bir - birlariga insoniy muomalada bo'lishlari katta ahamiyat kasb etadi. Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy xususiyatlariga asoslanadigan ijtimoiy birlikdir. Mutaxassislar fikricha, oiladagi tabiiy munosabat er-xotinlik; iqtisodiy munosabatlar uy-ruzg'or, hovli-joy, boshpana, oila mulkiga egalik qilishlik; huquqiy munosabatlar nikohni davlat yo'li bilan qayd etish; ma'naviy munosabatlar er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat, mehr-oqibat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya kabi insoniy to'yg'u va ehtiyojlarni anglatadi. Oilaviy munosabatlar o'zgaruvchan jarayon bo'lganligi uchun milliy harakterni shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Har bir oilada bola tarbiyasining o'ziga xos qonun - qoidalari mavjud. Har bir oilaning bola tarbiyalashda tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy me'yorlari mavjud. Ishontirish, tushuntirish, nasihat, ibrat, namuna

ko'rsatish, rag'batlantirish, tanbeh, yaxshi fazilatlarni mashq qilish, ogohlantirish, jazolash usullari ana shularni tashkil etadi. Bu usullarni nechog'li o'rinli qo'llash bola shaxsida ijobiy fazilatlarni shakllanishiga imkon yaratadi. Milliy harakterni shakllantirishda ibrat namunasi eng yuqori samarali omil hisoblanadi. Xalq udumlari, undan kelib chiqadigan odobnomada har bir bolaning yoshligidanoq el - yurt manfaati yo'lida kurashuvchi, nafaqat o'zini, balki kishilar baxt - saodatini o'ylovchi, ajdodlarning ushalmay qolgan orzu - armonlarini amalga oshiruvchi kishilar bo'lib kamolga yetishi lozimligi alohida ta'kidlanadi.

O'z-o'zidan ravshanki milliylik nafaqat madaniyat muammosi shu bilan birga ijtimoiy - iqtisodiy ziddiyatlarni ham aks ettiradi. Masalan, noto'g'ri tushunish bir millatning ustidan ikkinchi millatning ijtimoiy ustunligi, urf-odatlarining ulug'vorligi kabi g'ayriilmiy muammolarni keltirib chiqaradi. Rivojlangan mamlakatlarda bu borada muhim nazariy qarashlar ilgari suriladi. Milliy harakterni o'rganuvchi manbalarda ikki qutb, ikkita uzviy nuqta mavjud. Bir toifadagilar aytadiki, milliy karakter hech qanday aniq narsaga tayanmaydi, hech bir millat bir - biridan psixologik jihatdan tubdan farq qilmaydi. Ikkinchi toifadagilar aksincha, millatlar o'rtasida o'tib bo'lmas devor borligini uni uddalash milliy urf - odat omborining to'laligiga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Ya'ni, har bir millat a'zosi o'z millatiga bog'liq va uning o'ramidan chiqa olmaydi. Milliy harakterni aniqlash alohida shaxslarda unchalik yaxshi natija bermaydi. Ammo har bir millat alohida shaxslardan tashkil topishini hisobga olsak, milliy sanoat va adabiyotning umumiyliigi kelib chiqadi. Lekin bu narsa har bir shaxsga teng taqsimlanmasligini e'tiborga olish kerak. Milliy harakterni tushunish uchun avvalo shu millat tarixi, jamiyatning tuzilishini o'rganish kerak. Milliy asosga ko'ra, har bir odam biror-bir millatga tegishli bo'ladi, o'zaro bir - biridan temperamenti, madaniyati, odobi bilan farq qilib turadi. Germaniya, Gollandiyada yashovchi millatlarning o'ziga xosligini tartib-intizom tashkil etsa, ispanlar uchun bu unchalik karakterli emas. Bu fazilatlar Lotin Amerikasida yashovchi millatlar o'rtasida unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Milliy karakterga xos bo'lgan belgilar ularning o'zaro muomala madaniyatida, xususan, bir-birlariga bo'lgan munosabatida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, shimoliy amerikaliklar katta - kichikligidan qat'iy nazar, bir-birlariga ismini aytib murojaat qilishadi. Bu ularning bir - biriga do'stligi yoki nihoyatda yaqinligini bildirmaydi. Milliy xususiyatlarni erkin ifodalaydigan omil xalqning badiiy madaniyati hisoblanadi. Masalan; rus musiqasini italyan yoki o'zbek musiqasidan yoki ukrain bezaklarini hind

milliy bezaklaridan, ingliz hajviyasini esa fransuzlarnikidan osongina farqlash mumkin. Bir millatga tegishli bo'lgan yaxshi harakterlar boshqalarga ham xosligi o'z-o'zidan ravshan. Biz xohlaymizmi, yo'qmi boshqa millatning urf - odati madaniyatining ta'sirini madaniy hodisalarimizda ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan millatning yaxshi va yomon tomonlarini aniqlab bo'lmaydi. Masalan, o'zbek millatiga xos insoflilik, bag'rikenglik, oqko'ngillik, to'g'risuzlik kabi sifatlar muayyan darajada boshqa millatlarga ham xos bo'lishi mumkin. Hech bir millat yuqorida sanab o'tilgan sifatlar bo'yicha boshqa xalqdan ustunroqmiz, deya olmaydi. Xohlaymizmi-yo'qmi, biz har bir xalqning hayot tarzi xulqi odatlari va an'analariga etnik jihatdan to'g'ri baho berishimiz kerak. Har kim o'zga millatdan o'z odatlarini yuqori qo'ymasligi kerak.

Tabiiy sharoitlar-o'rmon, cho'l, dashtlik, tog', suv bo'ylari, vodiy va vohalar xalqlarning idrok etish qobiliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Masalan, cho'l qozoq xalqi turmush tarzi kechadigan o'ziga xos makon. Shu boisdan ular cho'lga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Aksincha, vodiy, dengiz sohillari, o'rmonlarda umrguzaronlik qiladigan odamlar uchun cho'l manzarasi hech qanday ijobiy munosabat tug'dirmasligi, yoki uning uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Xalqning yashash tarzi, uning kundalik ehtiyojlari (tarixan) go'zallik to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni vujudga keltiradi. Shaxs va jamoa hamda shaxslararo munosabatlar to'g'risida ham shu asosda me'yorlar shakllanadi. Shuning uchun ham muayyan xalq vakillari boshqa xalqlarning munosabatlari, xatti - harakatlari, urf - odatlarini ko'rib taajjublanishi, bu narsalar unga qandaydir g'ayri tabiiy bo'lib ko'rinishi mumkin. Masalan, Quddusni bosib olgan fransuzlar arablarning ko'p xotinlik odatiga nafrat bilan qarashgan, arablar esa fransuz ayollarining ochiq yurishlarini hayosizlik deb hisoblashgan. Qirg'iz va qozoqlarda qiz olib qochish odati ham bunga misol bo'la oladi. Albatta, bunday an'analarga ega bo'lmagan xalqlar uchun bu xatti - harakatlar g'ayri tabiiy ko'rinishni vujudga keltiradi. Lekin har qanday urf - odatning vujudga kelishida ijtimoiy - iqtisodiy omillarning ta'siri belgilovchi rol o'ynaydi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda uylanish marosimlarida «qalin» to'langan. Hozirgi ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar natijasida xalqimizda mavjud bo'lgan milliy nafs keskin o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Ayniqsa, moddiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq nafs ancha murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda.

Hissiyot tushunchasi avvalo tashqi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatimiz va uning ta'sirida hosil bo'ladigan ichki kechinmalarimizni

anglatadi. Hissiyot inson hayotida juda katta rol o'ynaydi. Masalan, insonning kayfiyati chog', ruhi tetik bo'lganda ishi ham barakali bo'ladi. Hissiyot shaklan turlicha bo'lib, uning mazmuni inson munosabati obyektining rang-barangligi bilan belgilanadi. Ayni shunday hissiyotlarning bir ko'rinishi axloqiy hodisalar ta'sirida tug'iladi. Jamiyat tomonidan qabul qilinadigan axloq me'yorlariga amal qilish yoki buzish odamda turlicha axloqiy hissiyotlar paydo qiladi. Shu nuqtai nazardan axloqiy hissiyotlar jumlasiga burch hissi, do'stlik va soflik hamda to'g'rilik hissi kabilarni kiritish mumkin. Milliy hissiyot esa har bir millat, xalq, elatning emotsional birligi bilan bog'liq holda shakllanadi. Bu hissiyot inson hayratga tushganda yoki biror narsadan shubhalanganda vujudga keladi. Aqlga asoslanadigan hissiyot odamni yomonlikdan asraydi, haqiqatni bilishga undaydi. Estetik hissiyot go'zallikni idrok qilish, undan zavqlanish va go'zallikni yaratishga intilishni anglatadi. Vatanparvarlik hissiyoti insonni o'z vataniga mehr-muhabbati, sadoqati ta'sirida paydo bo'ladi, uning birinchi manbai insonni o'zi to'g'ilib o'sgan joyiga nisbatan munosabatining ifodasidir. Bu yerda uning butun avlod - ajdodlari yashab o'tgan, yor - birodarlari yashagan va yashayotgan bo'ladi. O'zbekistonimizning hozirgi kunda erishayotgan yutuqlari, fan, madaniyat va sport sohalaridagi muvaffaqiyatlar vatanparvarlik to'yg'usini shakllantirishning zamini hisoblanadi. Umuman, yuksak axloqiy hissiyotlarning birortasi shaxsning tug'ma fazilati emas, balki uning faol turmush tarzi madaniyati ta'lim tarbiya natijasida tarkib topadi.

Kishi shaxs sifatida nafaqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar, balki tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan va to'plangan madaniy meroslar ta'siri ostida ham shakllanadi. Bunda har bir xalqning milliy urf - odat va an'analari muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, milliy psixologik qiyofaning asosiy elementlaridan bo'lgan urf - odat, an'ana, udum va turli marosimlarni chuqur o'rganish, ularning vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini ochib berish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Zero, ularda faqat ayrim individning emas, balki butun bir xalq, millatning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq me'yorlari, xohish-istaklari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash shart-sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlashgan bo'ladi. Urf - odat va an'analari yangi insonni tarbiyalash bilan bog'liq sohalar bilan uzviy bog'lanib ketganligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Odamzod ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf - odatlar va marosimlar, udum va an'analarni hisoblab chiqish juda murakkab. Har bir davr, har bir xalqning ijtimoiy -

iqtisodiy taraqqiyoti, tabiiy - geografik sharoitga mos tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf - odat, an'analar mavjud bo'ladi. Urf - odat va an'analar xalqning hayot kechirishi, ijtimoiy va ma'naviy faoliyati jarayonida to'g'iladi. Har bir xalq o'z tarixi davomida yashash sharoitining karakter va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amaliy ehtiyojlari natijasida kishilar xatti-harakatining ma'lum me'yorlarini ishlab chiqadi. Kishilar xatti-harakatining bu yo'l - yo'riqlari avloddan - avlodga o'tish bilan urf - odat va an'analarga aylanib ketadi. Qaysi bir urf - odat yoki an'ana, udum yoki marosimning kelib chiqish to'g'risida chuqurroq o'ylamasdan fikr yuritiladigan bo'lsa, ular bir qarashda qandaydir bema'ni, behuda bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning hammasi o'z vaqtida xalqning ijtimoiy - iqtisodiy va amaliy ehtiyojlari natijasida vujudga kelgan. O'rta Osiyo va Kavkazda yashovchi ayrim xalqlarda «qalin» odatini o'rgangan ba'zi olimlar, hozirgi davrda ham ularning qoldiqlari mavjudligi, lekin borgan sari simbolik qimmatga ega bo'lib qolganini ta'kidlashadi. Ma'lumki, ekzogam nikohi hukm surgan davrlarda qiz olish va qiz berish bir qabila yoki urug' doirasida bo'lmasdan, balki qabila va urug'lararo ham bo'lib turgan. Bir qabila boshqa qabilaga qiz bergandan keyin, qiz mansub bo'lgan qabila yoki oila zaiflashib qolmasligi uchun, ular ham, albatta, qushnidan qiz olishlari va shu bilan aholining o'sish nisbatini saqlab turishlari kerak bo'lgan. Lekin aynan shu paytda qushni qabilada bo'yi etgan qizning bo'lmasligi yoki birinchi qabilada voyaga yetgan yigitning bo'lmasligi natijasida qiz almashtirishlar sistematik tarzda amalga oshmas edi. Bunday holda yigit tomon qiz berish imkoniyati kelgunga qadar qiz tomonga turli - tuman mol - dunyo hisobida «zakolat» yoki hozirgi tushunchamizcha «qalin» berib turgan. Bu fikrning ma'lum darajada to'g'ri ekanligini shundan ham bilsa bo'ladiki, ekzogam nikohni qo'llash majburiy bo'lmagan O'rta Osiyoning o'troq xalqlarida qalin berish hodisasi deyarli uchramaydi. Uchrasa ham, ekzogam nikohi qo'llaniladigan xalqlar darajasidagi ko'rinish va mazmunda emas. Kuzatishlar yana shuni ko'rsatadiki, u yoki bu narsaga nisbatan turli xalqlarda mavjud bo'lgan ta'qiqlar, man etishlarning hammasi ham bema'ni va zararli emas ekan. Aksincha, ko'pgina ta'qiqlar odat yoki diniy aqida bo'lganligi uchungina emas, balki turmush zaruriyati va kishilarning ehtiyojlariga mos kelganligi uchun ham asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan omillar inson ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, ushbu omillar turli kasb va soha vakillarida turli daraja va ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu esa har bir soha va kasb

vakilining o'ziga xos sotsiol qiyofasini o'rganishni taqozo qiladi. Xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarning o'ziga xos jamiyatda tutgan o'rni bo'lib, ularning o'zro munosabatlari va boshqa kasbdagilar bilan bo'lgan munosabatlarda alohidalik namoyon bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasi vakillarining ko'proq mashg'ulotlarda bo'lishi, boshqalarga nisbatan kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi natijasida qattiqqo'llik, dag'allik, kabi sifatlar shakllanib boradi. Ba'zida bunday sifatlar ularda zo'rovonlik, zo'rlik qilishiga ham olib keladi. Shuning uchun ham ularning sotsiologik qiyofasini yaratishda bunday sifatlarni inobatga olish va ular asosida sportchilarga hos bo'lgan sifatlar tizimini shakllantirish asosida ularning o'zro munosabatlarni, jamiyatda tutgan o'rinini sotsiologik tadqiqotlar asosida o'rganib borish zarur. Shuningdek, sportchilardagi bunday sifatlarning ijobiy tomonlari ham mavjuddir. Insonning qattiqqo'lligi, kuchliligi jamiyatdagi zaif, nochor insonlarni kuchlilardan himoya qilishda, qolaversa, jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ta'minlanishida katta yordam bo'lib xizmat qiladi. Chunki kuchli inson nohaqsizlikka qarshi tura oladi. Uning kuchliligi o'ziga bo'lgan ishonchni shakllanishiga olib keladi. Natijada, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan inson o'zidagi, kasbi doirasidagi shakllangan sifatlari asosida insonlar bilan o'zaro munosabatga kirashadi. Bu esa ularning, ya'ni sportchilarning o'ziga yarasha sotsial qiyofasini belgilab beradi.

4. Spotchining shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rni. Bugungi kunda kundalik hayotimizda "odam", "inson", "indivd", "indivduallik" va "shaxs" tushunchalari tez-tez uchrab turadi. Mazkur tushunchalarda unchalik ham farq sezilmasada, ularning mazmunida katta farq mavjudligini tan olishimiz kerak. "Odam" tushunchasi insoniyatga biologik tur sifatida yondashilganda qo'llanilib, barcha jonzotlarning bir turini anglatadi. "Inson" tushunchasi o'zini boshqa jonzotlardan axloqiy sifatlari bilan ajratib, uning ezgulik qiyofasini shakllantiradi. "Individ" tushunchasi esa konkret bir kishi, insoniyatning yagona vakili sifatida tushuniladi. "Indivduallik" insonlarni bir-birindan ajratib turuvchi xususiyatlarni, ya'ni iqtidor, layoqat, qiziqishlarini ifodalovchi tushuncha sifatida tavsiflanadi. "Shaxs" tushunchasi inson yoki individning notabiiy xususiyatlari mohiyatini ifodalab, uning ijtimoiy xususiyatiga asosiy urg'uni beradi. Umuman sotsiologiyada shaxs bu – jamoviy munosabatlarga, hamkorlikdagi faoliyatga va muloqotga qo'shilishini ta'riflovchi individning tizimli mazmuni bo'lib, ongli va ijtimoiy

faoliyatning subyekti bo'lib hisoblaandi¹. Inson tug'ilgan davrida, ya'ni chaqaloqligi davrida shaxs bo'lmaydi. U individ hisoblanadi. Shaxs bo'lishi uchun inson ma'lum bir rivojlanish bosqichini bosib o'tishi kerak bo'ladi. Mazkur rivojlanish davrining zarur shartlari bo'lib, genetik va biologik tomondan berilgan dastlabki sharoit, chaqaloqning o'zaro harakatga kirishishi uchun ijtimoiy muhitning, inson madaniy dunyosining mavjudligi hisoblanadi.

Har bir shaxs o'zining strukturasini tashkil qiluvchi umumiy ichki sifatlarga ega bo'ladi. Shaxs tasnifnomasi masalasiga ikki xil yo'l bilan yondoshish mumkin. Uning strukturasidan kelib chiqqan holda hamda uning atrofdagilari bilan munosabatga kirishiga ko'ra, ya'ni boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishi orqali uning ijtimoiy muhitga moslashganlik, ijtimoiylashganligini belgilash mumkin bo'ladi.

“Shaxs” tushunchasi har bir insonda individual tarzda ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarni aks ettiradi va barcha ijtimoiy munosabatlarning mazmuni sifatida namoyon bo'ladi. Sotsiologiya shaxs shakllanishining sotsial asoslarini, sotsial mazmunni va jamiyatdagi mavjud shaxs tipining sotsiol funksiyalarini jamoaviy hayot manbai va uning real namoyondasi sifatida aniqlashga harakat qiladi. Albatta, sotsiologiya nuqtai nazariga ko'ra shaxs boshqa insonlar bilan o'zaro harakatlanishi orqali individual turmush tarzining ahamiyatli tomonlarini namoyon etuvchi ma'lum bir yakka insonni anglatadi va ushbu xususiyati bilan ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'rganish predmeti sifatida shaxs sotsiologiyasi ma'lum bir bilimlar tarmog'ini tashkil qilib, shaxs sotsial munosabatlarning obyekt va subyekt sifatida sotsial-tarixiy jarayonlar va jamiyat ijtimoiy qadriyatlari tizimi doirasida harakat qiladi. Shaxs sotsiologiyasidan farqli ravishda jismoniy tarbiya va sport sotsiologiyasi: sportchi shaxsini sotsial tizimning elementi sifatida o'rganadi; sportchi shaxsini sotsial munosabatlar obyekt sifatida (sportchiga jamiyatning ta'siri, ya'ni uning ijtimoiylashuviga hamda tarbiyasiga); sportchi shaxsini jamoaviy munosabatlarning subyekt hamda uning sotsial faoliyati va faolligini ko'rib chiqadi.


Shuning uchun ham sport sotsiologiyasi shaxsni shakllanishga xizmat qiluvchi omillarni, mezonlarni, qadriyatlarning ta'sirini o'rganishi bilan birga sportchini shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rnini ham ko'rib chiqadi. Sportchi shaxs sifatida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim

¹ Лубышева Л.И. Социология физической культуры и спорта. – М: Академия, 2001. – 240 с.


ahamiyat kasb etadi. Chunki sportchiga qarab boshqa insonlar o'z xulq-atvorini shakllantirishga, undan ibrat olishga intiladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-sonli "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorida "Mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turganligi" ta'kidlanadi.

Qolaversa, jamiyatda ilm-ma'rifatning rivojlanishida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi, ya'ni sog'lom insonning faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Bizga ma'lumki insonlarni shaxs bo'lib shakllanib borishida ilm-ma'rifatning o'rni beqiyosdir. Bunda yoshlarning ilmga bo'lgan munosabatini shakllantirishda ularning salomatligi muhim ahamiyat kasb etishini "Sog'lom tanda, sog'lom fikr" naqlining ahamiyatidan ham bilish mumkin.

Bugungi kunda ushbu masalaga jismoniy tarbiya va sport orqali erishishga harakat qilinmoqda. Biroq, jismoniy tarbiya va sport bilan aholining muntazam shug'ullanishida ma'lum bir omillar o'z ta'sirini saqlab qolmoqda. Masalan, oilalarimizdagi ba'zi bir masalalarni hal qilish yoki ularga bo'lgan munosabat va yondoshuvni o'zgartirish zarur masalalardan biri hisoblanadi. Masalan, oilalarimizda erkaklarning muayyan yoshga etishi natijasini "semirish" orqali namoyon etish holatini sotsiologik tadqiqot asosida o'rganganimizda natijalar quyidagicha bo'ldi. 35-45 yoshlar o'rtasida erkaklarning semirishi "qorin qo'yish" holati bo'yicha 35% erkaklar ma'lum bir yoshga etganlik belgisi, ya'ni "avtoritet" deb bilishsa, 45% "avlodda bu holat borligi", ya'ni "paroda" shundayligini sabab qilib ko'satishgan, 20 % "qarshi kurashib kelayotganliini", lekin uddasidan chiqa olmayotgani orqali izohlashgan. Ushbu holatda 35% erkaklarning "qorin qo'yishni" "tabiiy holat" yoki "avtoritet" sifatida yondoshishi ularning salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Qolaversa, yoshlarning ulardan ibrat va o'rnak olishini inobatga oladigan bo'lsak, mamlakat bo'yicha aholi salomatligida asosiy salbiy omillardan biri bo'lib qoladi.



Yana bir omilni tadqiq etganimizda natijalar quyidagicha bo'ldi. Biz yoshlarni salomatligini tiklash masalasiga bo'lgan munosabatini tadqiq etishga harakat qildik. Ya'ni, yoshlarni "salomatlikni qanday tiklash mumkin?" savoli orqali ularning munosabatini tahlil qilib chiqdik. Tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarning 46% "dori-darmon, muntazam tibbiy muolajalarni olish orqali" deyishgan bo'lsa, 27 % "doimiy parhez qilish orqali", 14 % "muntazam sayr qilish, tog' sayirlariga chiqib turish orqali", 13 % "muntazam jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish orqali" deb javob berishgan.



Ushbu tadqiqot natijalari ham jismoniy tarbiya va sportga yoshlarning kam e'tibor berayotganligini ko'rsatmoqda. Yoki aholi, xususan yoshlarning salomatlikni tiklashga bo'lgan munosabati, taffakuri,

dunyoqarashini o'zgartirib borish zaruriyat darajasiga ko'tarilmoqda. Tadqiqot natijalari salomatlikni dori-darmon, tibbiy vositalar orqali tiklash mumkin deb o'ylashi, fikr qilishi boshqa vositalarni izlashi, ya'ni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga salbiy ta'sir qiladi.

Umuman olganda mazkur omillarni o'rganib borish hamda ularga qarshi bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish jamiyat salomatligini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, faqatgina islohotlar va yaratilayotgan keng sharoitlar bilan jamiyat farovonligini ta'minlab bo'lmaydi. Birinchi navbatda xalqning ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, saviyasi olib borilayotgan islohotlar va yaratilayotgan sharoitlarga mos kelishi lozim. Shundagina, yaratilayotgan sharoit va olib borilayotgan islohotlarning samarasi jamiyat salomatligi orqali jamiyat ijtimoiy hayotining boshqa sohalarida ham sezila boshlaydi. Aks holda barcha harakatlar o'z mohiyatini yo'qotib, ularning samarasiz natijalaridan boshqa kuchlar o'z manfaati yo'lida foydalanishga harakat qila boshlaydilar.

Xulosa qilib quyidagi mulohazalarni keltirish mumkin. Birinchidan, inson shaxs bo'lib ijtimoiylashuv jarayonida jismoniy tarbiya va sportdan oqilona va samarali foydalanishi jamiyat farovonligida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, jismoniy tarbiya va sportning inson salomatligini ta'minlashdagi o'rni jamiyatda sog'lom insonni shakllantirishi bilan belgilanadi. Sog'lom inson esa jamiyat taraqqiyoti va farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish bilan birga xalq manfaati yo'lida o'z imkoniyatlarini safarbar etib boradi. Ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi insonning jismoniy imkoniyatlarining ortib borishi yoshlarning unga taqlid qilishini ham shakllanishiga olib keladi. Bu esa sportchi shaxsining xatti-harakatlari yoshlarga ta'sirini, ularning sportchiga taqlidini ko'rsatadi. Shuning uchun ham sportchining shaxs sifatidagi faoliyati jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, jamiyatda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi sog'lom insonni shakllanishiga olib kelishi orqali sog'lom oilalarning vujudga kelishiga zamin yaratib beradi.

5. Ijtimoiy hayotimizdagi munosabatlarning vaqt nuqtai nazaridan o'zgarib borishi jamiyat a'zolarining tafakkur tarziga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu jarayon uzluksiz davom etib, o'zining rivojlanish yo'lida yangi qirralarini namoyon qilayotgani ayni paytdagi insonlar tafakkur tarzida aks etmoqda. Ushbu o'zgarishlar XXI asrda insoniyatning yangicha qarash va e'tiqodga asoslanib faoliyatini tashkil qilishini yuzaga chiqardi.

Tafakkur tarzi – ma'lum ijtimoiy muhitda shakllangan, turli tafakkur uslublaridan kelib chiqadigan, qadriyatli mo'ljallarni o'zida jamlagan

insonning faoliyat yuritish tarzidir. Unda o'ziga xos bo'lgan anglash, tushunish, tushuntirish, taxlil qilish kabi amaliy jarayonlar natijasidagi faoliyat namoyon bo'ladi.

Zamonaviy adabiyotlarda tafakkur tarzi ilmiy bilish tarzi, qarashlar majmui, dunyoqarash turi kabi talqinlar bilan ifodalanmoqda. Bu kabi talqin va ifodalar tafakkur tarzining tub mohiyatiga etishimiz uchun kamlik qiladi. Tafakkur tarzi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni ilmiy jihatdan etimologik va gnoseologik, sotsiologik jihatdan ijtimoiy va empirik yondashuvlar bilan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Tafakkur tarzi ilmiy yondashuvga ko'ra insonlarning voqelikni idrok etishi va unga bo'lgan ratsional hamda irratsional munosabatidir. Ratsional munosabat aql bilan faoliyatni tashkil qilish bo'lsa, irratsional munosabat his-tuyg'uga tayangan holda ish yuritish hisoblanadi. Tafakkur tarzi insonning kundalik tajribalari orqali shakllanib, takomillashib boradi. Lekin, uni zamon qo'ygan talablarga moslash uchun albatta rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Tafakkur tarzini anglashda tafakkurning mohiyatini bilish kerak. Manbalarda tafakkur tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: "tafakkur - (arab. — fikrlash, aqliy bilish) — inson ma'naviy olamining tarkibiy qismi, olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi"dir. Demak, tafakkur insonning inson ekanligini tasdiqlovchi eng asosiy mezondir. Bugungi kunning eng muhim vazifasi ham - ongu tafakkurimizni zamonning o'zi talab qilayotgan demokratik taraqqiyot tamoyillari va qadriyatlari bilan boyitib, uni yangi bosqichga ko'tarishdir [22; 29-b.]. Zero, bugun har bir soha mutaxassisi zamon talabalariga mos tafakkur tarzi bilan faoliyatini tashkil etishi, yashashi shartdir.

Inson o'z tafakkurini o'stirib, boyitib borishi orqali ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilaydi. Bu esa tafakkurning qadrini yuksakligidan dalolat. Tafakkurning qadri, muhimligi hayotiy masalalarni hal qilishda amaliy natijalarining samaradorligi bilan belgilanadi. Barcha fanlar uchun asosiy tadqiqot manbai bo'lgan tafakkur eng qadimiy mavzudir. Bu fanlar negizida tafakkur, uning inson faoliyatini belgilab beruvchi asosiy omil sifatida olimlar o'zlarining izlanishlarini olib borishganligi barchamizga ma'lum.

Tafakkur orqali inson borliqni, undagi yuz berayotgan voqea-hodisalarni hamda bu jarayonlardagi o'zining o'rnini anglab etadi. Birinchi Prezidentimizning "kuch-bilim va tafakkurda"degan so'zlarida ham

tafakkurda naqadar buyuk kuch bor ekanligini ko'ramiz. Bizningcha ham tafakkurning qadri va qimmatini shundaki, u insonning yashash shartlaridan biridir. "Tafakkur tarzi va uni shakllantiradigan ijtimoiy-madaniy muhitning sotsiologik tadqiqoti o'ta muhim ma'no kasb etadi". Darhaqiqat, tafakkurning mohiyatini anglab, tafakkur tarzini shakllantiradigan asoslarni tadqiq qilish birinchi galdagi vazifadir. Chunki, bugun yangi zamon shaxslari paydo bo'lmoqda. Ularning tafakkur tarzi qanday shakllanganligi, ijtimoiy muhitning ta'siri qay darajada bo'lgani, tafakkur tarzidagi asosiy mo'ljallar nimalar ekanligi kabi savollar javobga muhtoj.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo'lgan yo'nalish vakillarida o'ziga xos tafakkur xususiyatlari namoyon bo'ladi. Xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarining tafakkur tarzi, uning xususiyatlari ham bundan mustasno emas. Ma'lumki, inson tomonidan bajariladigan har qanday faoliyat bu tafakkurning mahsulidir. Inson kundalik faoliyatida bajarib kelingan turli jismoniy mashqlar takomillashishi natijasida uning tafakkur tarzi ham rivojlanib boradi. Bu jarayonda aqliy va jismoniy sifatlar bir-birini to'ldiradi. O'z-o'zidan jismoniy mashqlar ma'lum qonuniyatlar asosida bajarilishini inobatga olsak, bu jarayonda jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining aql-tafakkuri ham namoyon bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari bu "tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug'ullanadigan, doimo o'zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs"dir. Bu mutaxassislarning tafakkur tarzini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va echim sifatida ularga yangicha zamonaviy yondashuvlarni taklif qilish hamda shu asosda ushbu mutaxassislarning tafakkur tarzini rivojlantirish usullarini yanada takomillashtirish dolzarb masaladir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarorida "jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni kasbiy, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, sport ta'lim tizimini ilmiy-metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish" masalasi ko'rsatib o'tilgan.

Fan-texnika taraqqiy etib borayotgan hozirgi davrda barcha soha mutaxassislarining tafakkur tarzida o'zgarishlar yuz bermoqda. Buni jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning tafakkur tarzini rivojlantirish muammosiga atroflicha munosabat bildirgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasining buyuk vakili P.F.Lesgaftning fikricha "Kishining aqliy rivojlanishi bilan jismoniy rivojlanishi o'rtasida mustahkam aloqa mavjud". Aslida ham inson tafakkuri rivoji uchun jismoniy kamolot kerak. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning quyidagi fikri yuqoridagi fikrning tasdig'idir: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar". Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tafakkur va jismoniy faoliyat qushning ikki qanoti kabidir. Ularni bir-biridan ayro ko'rishimiz yoki birini ikkinchisidan ustun tutushimiz mumkin emas.

J.K.Xolodov, B.S.Kuznetsovlar bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida jismoniy sifatlar va tafakkur rivojlanishining aloqadorligini, jismoniy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, uning mazmuni va jarayonli asoslaridan kelib chiqib asoslaydi. Ya'ni, "aqliy va jismoniy tarbiya o'rtasida ikki tomonlama munosabatlar mavjud. Bir tomondan, jismoniy tarbiya tafakkur rivoji uchun yaxshi sharoit yaratadi va uning rivojlanishga yordam beradi; boshqa tomondan, tafakkur rivoji jismoniy tarbiya samaradorligini oshirib, sportchilarning hal qilinayotgan vazifalar mohiyatini tushunishlari va ularning echimini ijodiy izlashlari uchun imkoniyatni shakllantiradi". Demak, tafakkur tarzi - aqliy va jismoniy rivojlanish natijasida takomillashib faoliyatni tashkil qiladi.

Yu.D.Jeleznyak jismoniy va tafakkur faoliyatini takomillashtirishni jismoniy tarbiyaning muhim elementi deb hisoblaydi. Bizningcha, jismoniy tarbiya inson tafakkur tarzining amaliyligini ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining amaliy harakatlarini asosi hisoblanadi.

L.P.Matveevning fikriga ko'ra, "jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda ularning aqliy tayyorgarligi" muhim rol o'ynaydi. Chunki, sport faoliyatining mohiyatini, bevosita u bilan bog'liq hodisa va jarayonlarni tafakkur rivojisiz tushunib qiyin. Oqibatda esa, yuqori sport natijalariga erishish mumkin emas.

Sport mutaxassislarining tafakkur tarzini Yu.F.Kuramshina mustaqil, ijodiy va unumli fikrlash qobiliyati orqali yuzaga chiqadigan faoliyat deb tushuntiradi. Bu erda shuni anglaymizki, ijodiy tafakkurga tayanib, kuchli fikrlash operatsiyalarini o'tkazib xosil qilingan jismoniy faoliyat sport mutaxassisining haqiqiy tafakkur tarzini tashkil etadi.

Tafakkur tarzi va uning xususiyatlarini o'rgangan ingliz olimi R.Sterenberga o'zining ilmiy izlanishlarida tafakkur tarziga "inson tomonidan o'zini ruhiy boshqarish jarayoni" sifatida baho bergan. Bizningcha, tafakkur tarzi insonning umumiy faoliyatini tashkil qilish va uni boshqarish jarayonidir. Bu jihatdan tafakkur tarzi individuallik xususiyatlarini namoyon qiladi. Mana shu jihatiga ko'ra sport mutaxassisining o'zigagina tegishli bo'lgan yashash tarzi va o'zini regulativ boshqarishi tafakkur tarzining tashqi aspekti hisoblanadi.

Tafakkur tarzini ba'zi mutaxassislar "ijtimoiy hamda madaniy hodisa" deb tushuntiradi. Ijtimoiy hodisa sifatida tafakkur tarzi isbotlanishi shart emas. Chunki, tafakkur tarzi ijtimoiy ongning ta'siri natijasida shakllanib yuksaladi. Shu o'rinda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur tarziga oila, atrof-muhit, sotsial guruhlar ijtimoiy ta'sir ob'ektlari bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlarining izlanishlarida ham sport mutaxassislarining fikrlash xususiyatlari, faoliyatni tashqil qilish uslubiyatlari, jismoniy rivojlanishning aqliy, tafakkuriy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatish ishlari amalga oshirilgan. Ya'ni, ular tafakkur tarzini aynan shunday tahlil qilmagan, biroq ilmiy tadqiqotlarida ushbu jihatga e'tibor qaratishgan.

R.S.Salomov bugungi kunda sportchining ham jismoniy, ham aqlan rivojlanishida texnik, taktik, aqliy, funksional jihatdan tayyorlangan bo'lishni talab qiladi deb ta'kidlaydi. Bunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari o'zlarining sport faoliyatlarini texnik, taktik, aqliy qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qiladi. Bu xususiyatlar o'z navbatida ularning tafakkur tarzini qanday shakllanganligini aks ettiradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur tarzi egallangan bilimlarni amaliyotda sinashda ham namoyon bo'ladi. Olingan bilimlarni amaliyotda sinash jarayonida sport mutaxassislarida o'ziga xos individuallik xususiyatlari ham namoyon bo'ladi. Mana shu jihat ham ularning tafakkur tarzini aks ettiradi. Ya'ni, har bir jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi o'zining uslubiga ega. Bu bir qancha tafakkur uslublarining jamlanmasidan iborat bo'lgan amaliy yondashuv yoki tafakkur tarzi demakdir.

A.Abdullaev, Sh.X.Xonkeldievlar fikriga ko'ra, shug'ullanuvchilar jismoniy mashqlarni ongli ravishda tushunib bajarsalar yoki ular sport mashg'ulotlariga qiziqib, tashabbus ko'rsatib ijodiy yondashsalar, organizmda harakat malakalarini to'g'ri shakllanishi, funksional qobiliyatlarini rivojlanishi uchun umumiy maxsus bilimlarga tayanishlari lozim bo'lishini aytib o'tadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining egallagan bilimi mustahkamlanib ko'nikmaga aylanishi va malaka darajasiga chiqib borishi bilan uning tafakkur tarzi ham o'sib, rivojlanib boradi.

F.A.Kerimovning tahliliga ko'ra, bellashuvlar va musobaqalarda yuzaga kelgan muayyan vaziyatlarda raqib xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik iroda va jismoniy imkoniyatlardan mohirona foydalanishni – sport kurashi taktikasi deb hisoblaydi. Ushbu muallifning fikrida sportchining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini amalda kompleks qo'llashga e'tibor qaratilgan bo'lib, bunda sport mutaxassisining tafakkur tarzini qanday bo'lishi kerakligini anglaymiz. Barchamizga ma'lumki, inson harakatining majmui bosh miya orqali fikr qilinadi. Sport mashg'ulotlarida bajariladigan eng oddiy harakatlardan boshlab, to o'ta murakkab mashqlargacha bajariladigan faoliyatlarni har bir sportchi ongli ravishda his qiladi, ya'ni barcha harakatlarni ongida, tafakkurida avval bajaradi. Bevosita mashg'ulotlar yoki musobaqalarda o'rgangan va o'zlashtirgan barcha mashqlar majmuini takrorlaydi. Demak, mashg'ulotlardagi barcha harakatlar, faoliyatlarni nazariy jixatdan bilish, tushunish sportchilar uchun eng zarur jarayon hisoblanadi. Bu ushbu mutaxassislarning tafakkur tarzida muhim o'rin egallaydi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur tarzida barcha sport turlarida muhim bo'lgan va shu bilan birga sportdagi ixtisoslashuvining o'ziga xos jihatlariga qarab turli darajada namoyon bo'ladigan ayrim komponentlar mavjud.

Bular:

- sport mashg'ulotlari paytida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qonunlarini bilish;
- mashg'ulotlar jarayonida kuzatishlar va tegishli harakatlarni amalga oshirish natijasida olingan maxsus bilimlarni tezkor qayta ishlash;
- musobaqa paytida turli axborotlarni eslab qolish, yodda saqlash va kerakli holatda ishlata olish;
- qiyin vaziyatlarda tafakkur jarayonlari oqimining tezligi va moslashuvchanligi, tafakkurning mustaqilligi, aqlning kengligi hamda chuqurligi, fikrning izchilligiga tayanib faoliyatni tashkil etish;

- kutilayotgan hodisalarni oldindan sezish bilan harakat qilish va tezkor qaror qabul qilish.

Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur tarzining mazmunini yanada yaxshiroq tushunishda "mo'ljal"ga murojaat qilishimiz kerak. "Mo'ljal" o'ziga xos psixofiziologik holat bo'lib, u jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining muayyan vaziyatdagi ma'lum ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyatni bajarishga tayyorligini ifodalaydi. Demak, jo'ljal - ma'lum vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligi va uning natijasida qondiriladigan ehtiyoj uchun sport mutaxassisining start holatidir. "Mo'ljal" faoliyat tarzidan oldin keladi va uning dastlabki bosqichi bo'lgan harakatga turtki beradi. Shuningdek, mo'ljal o'z ichiga maqsadni oladi. Aslida har bir inson o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'yishi va unga boradigan rejalarni yaratishi muhim jarayondir. Maqsad individual va ijtimoiy ko'rinish kasb etadi. G'alabaga erishish, ma'lum rekordni yangilash, moddiy mablag'ni qo'lga kiritish kabilar jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining individual maqsadini tashkil qiladi. Ijtimoiy maqsadi esa, o'z jamoasini birinchilikka olib chiqish, mamlakati bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish hisoblanadi. Demak, maqsaddan kelib chiqqan holda belgilangan mo'ljal jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi tafakkur tarzining ichki aspektini tashkil qiladi. Zero, yuzaga kelgan jismoniy faoliyat zahirida o'ziga xos bo'lgan fikrlash tarzi hamda tafakkur uslublarining majmui mujassam. Shu o'rnida tafakkur tarzining amaliyligini ta'minlashda tafakkur uslubi va uning mazmunini bilishimiz lozim. Tafakkur uslubi bu - fikrlash jarayonidagi o'ziga xos yo'nalishdir. Ya'ni, muayyan muammoni hal qilish uchun fikr yuritish, oldingi xulosalar bilan qiyoslash va yangi bir qarorga kelish jarayonidir.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi ko'p qirrali mutaxassisdir. Uning bajaradigan vazifalari ko'p. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi "mashg'ulotlarni rejalashtirish, uni tashkil qilish hamda o'tkazish, o'quvchilar jismoniy tayyorgarliklarini tekshirish, ularni sport va sog'lomlashtiruvchi ishlarga jalb qilish" kabi vazifalarni bajarish protsessida o'zining imkoniyatlarini namoyish etadi. Mana shu vazifalarni oqilona bajarish paytida bir vaqtning o'zida kuzatuvchilarning tafakkur tarziga ham ta'sir o'tkazadi.

Endi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning tafakkur tarzidagi tamoyillarni keltirib o'tamiz:

- vorisiylik;
- ijodkorlik;

- taktik va texnikaviylik;
- maqsadga yo‘nalganlik;
- moslashuvchanlik;
- namunaviylik.

Sport mutaxassisining shaxsiy namuna ko‘rsatishi orqali tafakkur tarzining vorisiylik tamoyili paydo bo‘ladi. Shu orqali “Ustoz-shogird” an‘anasiga asoslangan tafakkur tarzi xosil bo‘ladi. Murabbiy deb yozadi R.S.Salomov “...sportchining harakat a‘zolari faoliyatini shakllantirishga jismoniy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan mashq jarayonini amalga oshiradi, mashg‘ulot usuli yordamida sportchini tartibli ravishda musobaqalarga tayyorlash masalasini va sportchi faoliyatining rivojlanishini boshqarishda pedagogik jarayonini ifodalovchi moslovchi masalalarni hal qiladi”. Ushbu fikrdan anglashiladiki, jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur tarzi ustoz yoki murabbiy tomonidan shakllantirilib boriladi.

“Ustoz-shogird” an‘anasi davomiyligida bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida qadriyatlarga asoslangan tafakkur tarzi shakllanib, takomillashadi. Bugungi globallashuv davrida bunday tafakkur tarzini saqlab qolish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, globallashuv jarayonining tezlashishi natijasida insoniyat ongi va tafakkurida keskin o‘zgarishlar yuz berib, milliy chegaralar yuvilib, millatlar va xalqlar orasida yangicha munosabatlar avj olayotgan davrda milliy o‘zlikni saqlab qolish va milliy tafakkur tarzimizni har tomonlama rivojlantirish dolzarb masaladir.

Biz tafakkur tarzi va uning mazmun-mohiyatini ko‘rib chiqish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

- jismoniy tarbiya tafakkur rivoji uchun sharoit yaratadi va uning rivojlanishga yordam beradi, boshqa tomondan, tafakkur rivoji jismoniy tarbiya samaradorligini oshirib, bo‘lajak sportchilarning hal qilinayotgan vazifalar mohiyatini tushunishlari hamda ularning echimini ijodiy izlashlari uchun imkoniyatni shakllantiradi;

- sport mutaxassislarining tafakkur tarzi mustaqil, ijodiy va unumli fikrlash qobiliyati orqali yuzaga chiqadigan faoliyatdir. Bu shuni anglatadiki, ijodiy tafakkurga tayanib, kuchli fikrlash operatsiyalarini o‘tkazib xosil qilingan jismoniy faoliyat sport mutaxassisining haqiqiy tafakkur tarzini tashkil etadi;

- bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzi sport faoliyatida egallagan bilimlarini amaliyotda sinashida namoyon

bo'ladi. Bunda sport mutaxassislarida o'ziga xos individual tafakkur uslublari shakllanib, tafakkur tarzi rivojlanib boradi.

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining egallagan bilimi mustahkamlanib ko'nikmaga aylanishi va malaka darajasiga chiqib borishi bilan uning tafakkur tarzi ham o'sib, rivojlanib boradi.

6. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini rivojlantirish zaruriyati. Ayni islohotlar davrida xalqimizning har tomonlama kamol topishi va uning farovonligini, manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan ko'zlangan yagona maqsad, odamlarimizda dogmatik tafakkur va uning asoslarini o'zgartirishdir. Zero, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish uchun faqatgina iqtisodiy omillarning o'zi etarli bo'lmaydi. Chunki, jamiyatda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishda kishilarning ruhiyatini o'zgartirish, ularda islohotlarning talabiga mos keladigan tafakkur tarzini shakllantirish nihoyatda muhim. Chunki, dunyoda globallashuv jarayonida kishilarning manfaatlari va maqsadlarida ham umumiy tendensiyalar kuchaya bormoqda. Globallashuvning o'ziga yarasha ijobiy va salbiy jihatlari bor. Ijobiy xususiyati – integrallashuvda namoyon bo'lsa, salbiy jihati biryoqlama fikrlash, tor dunyoqarashga asoslangan faoliyat, tafakkur dogmatizmining o'sib borishi kabilarda ko'rinadi. Aynan shu nuqtada tafakkur tarzini rivojlantirish dolzarb masala va vazifa bo'lib maydonga chiqadi. Bu yerda maqsad – mamlakatni umumjahon sivilizatsiyasidan uzib olmagan holda, uning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishga hizmat qiladigan tafakkur tarzini rivojlantirishdir. Tafakkur tarzi davr va amal qilish miqiyosi jihatidan ancha keng bo'lgan jarayon bo'lib, u uslub yoki uslublarni tizimi o'zgargan sharoitda ham u o'zining barqarorligini saqlashi lozim.

Jamiyatning rivojlanishida, ijtimoiy hayotda bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tayotganda tafakkur tarzining o'zgarishi zaruriy shartdir. Jamiyat xodisalariga oqilona munosabatda bo'lgan har qanday kishi millatining, davlatining kelajagi yo'lida o'zining idroki, zehni, dunyoqarashi doirasida buyuk ishlar qilishga qodir bo'ladi. Tafakkur tarzining o'ziga xos xususiyati hisoblanmish - o'zgaruvchanlik yakka tarzda - bir insonning, umumiy tarzda - millatning taqdirini belgilaydigan birinchi qadam bo'ladi. Chunki, barcha hatti – harakatlarimiz, maqsad – muddaolarimiz dastlab fikr tarzida dunyoga keladi. Demak, ijtimoiy jarayonlarga mos tafakkur tarzini rivojlantirib borish hozirgi davrning muhim talabidir.

Hozirda “jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy institut sifatida rivojlanib borishi, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish zarur ekanligini ko‘rsatadi”. Chunki, jismoniy tarbiya va sport – ommabopdir. Zero, bugun bu sohadan biznes, tadbirkorlik, tibbiyot, ta’lim, siyosat, iqtisod, madaniyat kabi sohalar o‘z maqsadlari yo‘lida unumli foydalanishmoqda. Bu jarayonda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari “Asosiy vosita” vazifasini bajarmoqda. Ushbu holat bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur tarzini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Tafakkur tarzini rivojlantirishga bo‘lgan eng muhim zarurat shundaki, unda o‘zgaruvchanlik xususiyati mavjud. Xususan, “sportchining tafakkur tarzi doimiy o‘zgarib turuvchi vaziyatlar fonida kechadi va munosib xatti-harakatlar, qaror qabul qilishni taqozo etadi. Zero, bunda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish imkoniyati bo‘lmaydi”. Shuning uchun ham bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur tarzini doimiy takomillashtirib borish zarurdir.

Bugun yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarning kasbiy bilimlarini, amaliy ko‘nikmalarini, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar rivojlanib, o‘quv jarayonlarini takomillashtirish, mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish, jismoniy sifatlar va taktik-texnik qobiliyatlarni oshirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar ko‘paymoqda. Lekin, axborot tezligi shiddat bilan oshib borayotgan bir davrda bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur tarzida turli muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Bu esa muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bunda birinchi tahlil qilinishi kerak bo‘lgan jihat bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning dunyoqarashi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning dunyoqarashi – bu sport faoliyatidagi o‘zining o‘rniga, atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimidir. Shuningdek, bu qarashlarga asoslangan e‘tiqodlari, ideallari, va faoliyat tamoyillaridir. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur tarzi birinchi navbatda uning yoshi, sport faoliyatidagi tajribasi, bilimi bilan bog‘liq. Dunyoqarash - sportchining o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Hozirda dunyo miqiyosida zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari dunyoqarashida

o'zgaruvchanlikka sabab bo'lmoqda. Ya'ni, bugun axborotlarning xaddan ziyod oshib ketishi, uni tarqatuvchi manbalarning turli xilligi buning asosiy sababidir. Kengroq ma'noda aytadigan bo'lsak, sport faoliyatiga oid axborotlarni qabul qilish darajasi kengaydi. Natijada, jismoniy imkoniyatlarni oshirish, bu yo'lda har xil vositalardan foydalanishni targ'ib qiluvchilar faoliyati jadallashdi. Oqibatda, tafakkur tarzida turg'unlik va elastiklik shakllandi. Bu degani bir tomondan tafakkur dogmatizmi paydo bo'ldi, ikkinchi tomondan tafakkurning og'ish nuqtalari oshdi.

Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzida jismoniy kuchga dominant sifatida qarash (Boks, Kurash, Og'ir atletika) kuchaymoqda. Albatta, jismoniy kuchsiz sportni tasavvur qilib bo'lmasligini inkor qilmaymiz. Shuni unutmash kerakki, kuch – bu qobiliyat yoki sifat. Uni boshqarish, faoliyatga yo'naltirish tafakkurning mahsulidir. Biz ayni shu jihatdan kelib chiqqan holda, jismoniy kuchni rivojlantirish bilan birga uni maqsad sari to'g'ri yo'naltirishda, tafakkurga tayanish muhimligini ta'kidlamochimiz.

Jismoniy tarbiya va sportda motivatsiyaning o'ziga xos shakli bo'lgan "sport motivatsiyasi" mavjud. Sport motivatsiyasi bu – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari xatti-harakatlarining barcha jihatlarini belgilaydigan ichki energiya kuchidir.

Sport motivatsiyasi ikki qismdan iborat: qisqa muddatli va uzoq muddatli. Qisqa muddatli motivatsiya - muayyan vaqt ichida ma'lum maqsadga erishish uchun to'siqni engib o'tish qarori. Uzoq muddatli motivatsiya esa - kichikroq yutuqlardan iborat bo'lgan katta maqsadga erishishdir. Agar sport motivatsiyasi etarlicha yaxshi bo'lmasa, unda katta yutuqlarga erishish ehtimoli kam bo'ladi.

Sport motivatsiyasi – bo'lajak jismoniy tarbiyai va sport mutaxassislarining ruhiy-fiziologik holatlarida harakatini boshqarish, maqsad sari etaklash, faollik va bardoshlilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Biz bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini rivojlantirishda tafakkur uslublarini asosiy motiv sifatida oldik. Chunki, tafakkur uslubi biror-bir muammoni hal qilishda va shu asosda yuzaga keladigan faoliyatda yaqqol namoyon qiladi. Shuning uchun ham tafakkur uslubining strukturasini, funksiyalarini bilish inson uchun eng dolzarb masaladir. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining sport faoliyatidagi harakat malakalari mexanik ravishda bajarilayotgan komponentlar bo'lmasdan, balki, ongli ravishda bajarayotgan yaxlit xatti-harakatlaridir. Ushbu harakat faoliyatida uning hissiy va mantiqiy sohalari

o'ziga xos ravishda birlashib ketadi. Masalan, sportning boks turi sportchidan agressivlikni va tajovuzkor harakatlarni talab qilishi bilan bir qatorda, musobaqa jarayonida sodir bo'ladigan tig'iz vaqt mobaynida o'zining intellektual salohiyatini, tajriba va ko'nikmalarini ishga solgan holda yangi uslub va taktikalarni amalga oshirishning tezligi va omilkorligi talab qilinadi. Qo'shimcha tariqasida shuni ta'kidlash kerakki, sportning boks turida – fikrlash va harakat reaksiyasi, chidamlilik, dovyuraklik, har bir qilinayotgan harakatlarning o'zaro muvofiqlashuviga erishish, g'alabaga ishonch tuyg'usi, irodali bo'lish kabi bir qator mas'uliyatli va mashaqqatli irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Sport faoliyati jarayonida harakat analizatorlarining ishlashi ham takomillashib, bajarilayotgan harakatlarni aniqlash va tasavvur qilishga olib keladi. Ma'lumki, bir maqsadli anglangan natijaga erishish uchun qilinayotgan jismoniy mashqlarni anglash, faqat uni bir butun xolda emas, uning ayrim bajarilayotgan qismlariga ham taalluqli bo'ladi. Jismoniy harakatlarni bajarishga yuqori malaka xosil qilgan sportchi mashqlarni bajarish davomida yo'l qo'ygan eng kichik texnik xatolarni ham anglashi va keyingi mashqlarda uni tuzatishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Bu ham tafakkur uslublarida namoyon bo'ladi.

Tafakkur uslubi muayyan fikrlash tarzi bo'lib, unda sezgi va aql ko'rsatkichlariga asoslangan holda voqelik tasavvur etiladi. Masalan, sportning suzish turi sportchidan talab etadigan xususiyatlar tezlik va jadallik bilan harakatlanish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birga, ruhiy tushkun holatida o'zini to'g'ri boshqara olish, ko'tarinki kayfiyat, chiniqqanlik darajasining yuqoriligi bilan bir qatorda irodaviy barqarorlik kabi muhim sifatlarni talab qiladi. Shuningdek, sportning suzish turi bilan shug'ullanuvchilarda, markaziy nerv tizimining yaxshilanish holatlari kuzatiladi. Kuchlilik va chidamlilik darajasi ortib boradi. Mazkur sport turi bilan shulg'ullanish tayanch harakatlarning to'g'irlanishiga ta'sir qilib, suyak-mushak tizimining o'sishiga imkon yaratadi. Organizmni chiniqtirib, bronx-o'pka kasalliklarini profilaktika qilishda xizmat qiladi. Energiya quvvati tejalib sarflanganda o'pkaning hayotiy sig'imi, maksimal o'pka ventilyatsiyasi kislaroddan foydalanish darajasining ortishiga olib keladi bu esa o'z o'rnida insonning uzoq umr ko'rish darajasini oshiradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi o'z tafakkur tarzida voqelikdagi narsa va hodisalarni hamda ularning rivojlanish taraqqiyotini o'zining mantiqiy tushunchalari, tushunish qobiliyati orqali anglaydi. Muayyan tushunchalar, belgilar, jarayonlar, nazariyalar yordamida erishilgan bilimlarni mantiqan anglab olish natijasida tafakkur uslubi

shakllanadi. Masalan, shaxmat-shashka sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarda fikrlash qobiliyati hamisha aniq maqsadga qaratilgan, ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi. Maxoratli shaxmatchi o'yin paytida o'ta murakkab, qiyin usullarni raqibidan aniqroq, tezroq anglaydi. Bu esa sportchidan yuqori intensivlikdagi intellektual salohiyatni talab qiladi. Sportchi ongida, hal etilishi talab qilinadigan mulohazali, hayoliy masalalar va ularning echimi tez-tez paydo bo'ladi. Sportchi o'yin jarayonida raqibining fikrini oldindan sezadi va uni vahimaga solish bilan bir qatorda og'ir vaziyatlarni vujudga keltirib, tez-tez o'yin taktikasini o'zgartirib turadi. Bu sport turi bilan muntazam ravishda shug'ullanib borish, mantiqiy fikrlash jarayoni tezligining ortishiga, aqlni charxlash va mashg'ulotlar ta'siri ostida asab tizimi faoliyati jarayonlarining harakatchanligiga va muvozanatlashuviga olib keladi.

Tafakkur uslubi evolyutsion xarakterga ega, vaqtning o'tishi, jamiyat mafkurasining o'zgarishi bilan u ham o'zgarib boraveradi. Oqibatda jamiyat taraqqiyoti qonun va normalarning yangi g'oyalarga va me'yorlarga mos kelmasligi bilan yangi tafakkur uslublari shakllanadi.

Vaqt va makonga nisbatan tafakkur uslubining ko'plab turlari mavjud. Ular shaxsning (yoki biror-bir ijtimoiy guruhning) fikrlash tarziga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, taktik, ilmiy, ijodiy, dialektik, analitik, mantiqiy va boshqa tafakkur uslublarini farqlash mumkin. Ta'kidlash joizki, tafakkur uslubining shakllanishi va namoyon bo'lishi ijtimoiy-tarixiy vaziyat bilan bir qatorda geografik, etnik xususiyatlarga ham chambarchas bog'liq. Masalan, o'zbek sportchilarining tafakkur uslubi, ya'ni fikr yuritish san'ati nemis yoki ingliz sportchilarining tafakkur uslubidan tubdan farq qiladi. Bunda milliy mentalitet ham o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzida taktik tafakkur uslubi muhim o'rin egallaydi. Taktik tafakkur uslubi – bu raqobatli vaziyatlarni hal qilish jarayonida bevosita namoyon bo'ladigan tafakkur uslubidir. Qoida tariqasida, u o'ta og'ir sharoitlarda o'zini namoyon qiladi va aniq taktik muammolarni echishga qaratiladi. Taktik tafakkur uslubi natijasida taktik harakatlar yuzaga keladi. Bunda "kuzatuvchanlik, diqqatlilik, oldindan ko'ra bilish, tafakkur va xayol, jangovar ruh va g'alabaga ishonch, uzoq muddatli va operativ xotira" taktik harakatlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Taktik tafakkur uslubi sportchining harakatidan ajralmagan holatda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda sportchi vaziyatni tahlil qiladi va to'g'ridan-to'g'ri harakat

qiladi. Bunda taktik tafakkur uslubi vaqt chegarasi tufayli qisqa davomiylik bilan tavsiflanadi.

Ijodiy tafakkur uslubi – bu vaziyatni eski usul, yondashuv bilan echish imkoniyati bo‘lmagan holda, oldin qo‘llanilmagan, innovatsion vositalardan foydalanib natijaga erishishdir. Demak, ijodiy tafakkur uslubi bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining qobiliyati, maqsadi, intilishlari, u yashayotgan ijtimoiy-psixologik muhit kabi omillar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bu uslub har bir sport yo‘nalishi bilan shug‘ullanayotgan sportchining tafakkurida mavjud bo‘ladi. Faqat buni rivojlantirilsa natija yanada samarali bo‘lishiga olib keladi. Ijodiy tafakkur uslubi o‘z navbatida dogmatik kayfiyat va xatti-harakatdan voz kechishga undaydi.

Vizual tafakkur uslubi – bu yaqin kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealarni ko‘z oldiga keltirish yoki tasavvur qilishdir. Bunda bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari musobaqadan oldin diqqatini jamlashi va o‘zining asosiy maqsadiga tayanib, g‘oliblikka erishgandagi holatini tasavvur qilishi hamda bu jarayonda o‘zidan kechadigan ichki kechinmalarni xis qilishi kerak bo‘ladi. Vizual tafakkur uslubi samaradorligi shundaki, unda sportchi o‘zining tana va ruhini erishmoqchi bo‘lgan maqsadiga tayyorlaydi. Bu ideomotor uslub deb ham ataladi. Texnik mahoratni takomillashtirishda “ideomotor mashq qilishga a‘amiyat berish lozim. O‘rganishda harakatlarni xayoliy ijro etish shu harakat to‘g‘risidagi tasavvur obrazini yaxshilaydi. Ideomotorni xususiyati trenirovka qildirish bo‘lib, harakatlarni qayta o‘zgartirish, xatolarni tuzatish va malakalarni takomillashtirishga yordam beradi.

Intuitiv tafakkur uslubi – bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining egallagan mahorati va boy tajribasidan kelib chiqib, musobaqa davomida taktik vazifalarni hal qilishda hamda aniq xabardor bo‘lmasdan tezkor va to‘g‘ri harakatlarni bajarishda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda sportchi taktik-texnologiyani mukammal bilishi, raqib hamda sheriklarning harakatlarini kuzatib borish qobiliyati, ehtimoliy bashorat qilish va oldindan ko‘ra bilish qobiliyatining yaxshi rivojlanganligiga tayanadi.

Mantiqiy tafakkur uslubi – mantiq qonun-qoidalari asosida hosil qilinadigan bilim, ya‘ni mantiqiy tafakkur mohiyat-e‘tibori bilan sub‘ektiv, noto‘g‘ri talqinni istisno etadigan, ob‘ektiv aloqadorlik asosida bir fikrdan ikkinchi fikrga o‘tishda, to‘g‘ri fikrlarga asoslangan tafakkurga asoslanadi. Demak, mantiqiy tafakkur uslubi – bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining fikrlash jarayonida mantiqiy qonunlarga amal qilgan

holda faoliyatni shakllantiradi. Bizningcha mantiqiy tafakkur uslubining asosiy funksiyasi o'qituvchi-murabbiy tomonidan o'rgatilayotgan mashg'ulot yoki jismoniy mashqning umumiy mazmunini aniqlashdan iborat. Mantiqiy tafakkur uslubi jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining faoliyatida birinchidan, mavjud vaziyatning mohiyatini anglab etishga; ikkinchidan, tajribadan kelib chiqib to'g'ri xulosa chiqarishga; uchinchidan, qiyosiy tahlil qilishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda,

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzi doimiy o'zgarib turuvchi vaziyatlarda munosib xatti-harakatlar va tezkor qarorlar qabul qilishni taqozo etadi. Bu esa tafakkur tarzini doimiy takomillashtirib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi;

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur tarzi uning yoshi, sport faoliyatidagi tajribasi hamda egallagan bilim, ko'nikma, malakasi bilan bog'liq;

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzida taktik, ijodiy, vizual, intuitiv, mantiqiy, ilmiy tafakkur uslublari o'zaro aloqadorlikda va bir-birini to'ldirgan holda namoyon bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Sportning sotsiologik muammolarini izohlab bering.
2. Sportning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Sportchi karerasi tushunchasiga ta'rif bering.
4. Sportchining sotsial qiyofasiga ta'sir qiluvchi omillar?
5. Yoshlar tarbiyasida sportning roli va ahamiyati tahlil qiling.

3-MODUL. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOTSIOLOGIYASIDA SHAXS MUAMMOSI

Mavzu: Sport faoliyatining sotsiologik muammolari

Reja:

- 1. Yuqori natijalar sporti va olimpiya harakatining sotsiologik muammolari.**
- 2. Olimpiya harakati rivoji, yuqori natijalar sportida insonparvarlik muammolari.**
- 3. XXI asr yuqori natijalar sporti rivojining sotsiologik tahlili.**

Sport – jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarning turli majmualari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish tizimidir. Zamonaviy olimpiadaning asoschisi Per de Kuberten mashhur "Sport madhiyasi" yozgan va u oliy mukofot – Oltin medalga sazovor bo'lgan. Madhiyada aytilishicha, sport – bu hayotimizning doimiy yo'ldoshi, chinakam va ishonchli do'st. Sport bilan muntazam shug'ullanish ruh va tanaga quvonch baxsh etadi. Bu so'zlar va ta'riflar zahirida juda ko'p falsafiy mushohada boy ma'no-mazmun yotibdi. "Ayni paytda sport harakati orasidan ikkita asosiy yo'nalish ajralib turadi: ommaviy sport va yuqori natijalar sporti"¹. Ommaviy sport – unchalik yuqori bo'lmagan natijalar va ommaviylik bilan ajralib turadi. Ko'rsatkichlarni bu bosqichida sportchilarning tayyorgarligi ularning asosiy faoliyatlaridan bo'sh vaqtlarida, turli toifadagi murabbiylar, shu bilan birgalikda ommaviy joylarda ishlovchi, ko'rsatma beruvchi murabbiylar rahbarligida amalga oshiriladi. Mashg'ulot tarkibi va tarkibiy qismi ko'pincha sport inshootining imkoniyatlariga bog'liqdir. Ommaviy sportda natijalarning nisbatan o'sishi bilan birgalikda sog'lomlashtirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Yuqori natijalar sporti – eng baland va yuqori natijalarga erishishga bo'lgan intilish bilan bog'liqdir. Jahon rekordlari, Olimpia o'yinlaridagi, jahon, Osiyo va O'zbekiston chempionatlaridagi g'alabalar bunga misol bo'ladi. Biroq, sportdagi muvaffaqiyatlar qanchalik yuqori bo'lsa, shu darajaga chiqadigan sportchilarning soni shunchalik kam bo'ladi. Oliy mahorat sporti – sportchi hayotining ma'lum bir davrida

¹ Назаров Н. Спорт философия. Монография. Т.:2014 48-49 бетлар

etakchi o‘rin tutadi. Tayyorgarlik oliy toifadagi mahoratli murabbiylar rahbarligida o‘tadi. Unda ilmu fan texnikaning yangi yutuqlari ishlatilishi bilan birga musobaqa va mashg‘ulot yuklamalari katta hajmda olib boriladi, sportchilar esa ko‘p bosqichli saralashdan o‘tadilar. Bularning barchasi yuqori natijalar sporti bo‘lgan Olimpiya harakatida namoyon bo‘ladi. Yuqori natijalar sporti va Olimpiya harakatining vujudga kelishi XIX asrning oxirgi yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda tarix sahnasida nisbatan osoyishtalik hukm surayotgan bir payt edi. Yuqori natijalar sporti va Olimpiya harakatining vujudga kelish sabablari ko‘pgina rasmiy manbalarda izohlangan. Ularni quyidagicha sharhlash mumkin:

Yuqori natijalar sportining vujudga kelish sabablaridan biri, jahondagi mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning rivojlanishida, deb bilish zarur bo‘ladi. XIX asrning oxirlarida Germaniya, Angliya, Frantsiya, AQSh, Rossiya, Italiya¹ kabi taraqqiy etgan davlatlar iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha yuqori darajaga ko‘tarildi. Bu davrda ishlab chiqarish, fan, ta’lim tez rivojlandi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish, xalqaro uyushmalar, trestlar, sindikatlarni va bir qator boshqa yangi tarmoqlarni tashkil etish bilan birgalikda davom etdi. Evropa mamlakatlari va Amerikada ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonining mahsuli sifatida aloqa va kommunikatsiya vositalari yuzaga keldi. Chegaralangan kichik doiradagi milliy jarayonlar jamoat taraqqiyotiga putur etkaza boshladi. Bunday sharoitda turli sohalar bo‘yicha xalqaro munosabatlarni kuchaytirish, ya’ni iqtisodiy, ilmiy, madaniy va sportdagi aloqalarni bog‘lash qonuniyat darajasiga etdi. XIX asrning oxiri nisbatan tinchlik-osoyishtalik bilan o‘tdi. Frantsiya-Yaponiya urushidan (1870-1871) va Parij Kommunasidan (1871) boshlab, rus-yapon urushigacha (1904-1905) va Rossiyadagi birinchi inqilobgacha (1905-1907) jahonda hech qanday yirik urushlar bo‘lmagan edi. Bunday holat mamlakatlararo aloqalar va sportni rivojlantirishga qulaylik yaratdi.

Yuqori natijalar sporti va Olimpiya harakatining vujudga kelish sabablaridan yana eng muhim voqealaridan biri sportni rivojlantirish va xalqaro sport uyushmalarini (XSU) tuzish harakati bo‘ldi. Hozirgi davr sporti XVIII-XIX asrlardagi yirik ijtimoiy o‘zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonidagi inqiloblar, harbiy ishlar, fan, madaniyat va san’atdagi taraqqiyot mahsulidir. XIX asrning ikkinchi yarmida juda ko‘p hozirgi zamon sport turlari va o‘yinlari vujudga keldi. Turli mamlakatlarda sport klublari tashkil etildi, musobaqalar o‘tkaziladigan bo‘ldi, sport inshootlari

¹ Лубышева Л. И. Развитие ценностного потенциала физической культуры и спорта на рубеже XXI в. // Олимпийское движение и социальные процессы. — Краснодар, 1996

(tomosha joylari) qurildi. Angliyadagi Temza daryolarida va Rossiyaning Niva daryosida eshkak eshish hamda elkan sportini rivojlantirish uchun boy tajribalar to'plangan edi. XIX asrning boshidan buyon maxsus sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazib borilgan. 1829 yil Angliyada Kembridj va Oksford universitetlari o'rtasida eshkak eshish bo'yicha musobaqa uyushtirildi. 1838 yildan boshlab esa Xenleyn parus va eshkak eshish regatasi o'tkazila boshladi. Rossiyada 1847 yilda Peterburgda elkan sporti birinchi rasmiy musobaqa o'tkazildi. AQShda 1852 yilda (Vinnipeg ko'li) eshkak eshish bo'yicha musobaqa tashkil etishdi. Vengriya, Yunoniston, Amerika, Avstraliya va boshqa bir qator mamlakatlarda suzish bo'yicha musobaqalar tashkil etila boshlanadi. 1845 yilda Itonda (Angliya), birinchi engil atletika musobaqalari o'tkaziladi. 1860 yilda Angliyada 15 ta klub mavjud bo'lib, ular o'rtasida, ayniqsa, universitetlar orasida musobaqalar o'tkazish an'anaga aylandi. 1876 yilda Vengriyada va bir yildan keyin Nyu-Yorkda birinchi engil atletika musobaqalari uyushtiriladi. Bu sport turi Germaniya, Frantsiya va Yunonistonda ham rivoj topdi. Boshqa mamlakatlarda esa u o'z rivojini birmuncha qiyinroq boshlaydi. Rossiya, Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya xalqlari orasida chang'i va konkida uchish sporti keng tarqalgan edi. 1769 yilda Oslo shahri yaqinida jahonda birinchi marotaba chang'ida yugurish musobaqasi o'tkazilgan edi. XIX asrning 60-yillarida bu sport turlari bo'yicha muntazam ravishda musobaqalar o'tkaziladi. Chang'ida sakrash uchun birinchi tramplinlar vujudga keldi. Bu davrlarda ko'pgina sport o'yinlari ham rivojlanadi. Futbol texnikasi va taktikasi ancha takomillashtiriladi. Bunda puflab to'ldiriladigan rezinali kameraning yaratilishi (50- yillar) muhim ahamiyatga ega bo'ladi. 1863 yilda Angliyada futbol ligasi tashkil etiladi. Bu hozirgi davr futbolining yaratilish asosini tashkil etgan edi. Kegli o'yini, laun-tennis va kriket ham rivoj topadi hamda ular uchun maxsus o'yin maydonlari quriladi. 1883 yil Regbi shahrida (Angliya) charm to'p o'yini boshlanadi. Bu davrlarda rivoj topgan sport turlaridan yana biri boks edi. Angliyada bu sport turi keng tarqalib, XIX asrda professional turga aylanib ketadi. Frantsiya, Italiya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Angliya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda shpaga va rapirada qilichbozlik xalq tarixiga chuqur singib ketgan tur hisoblanar edi. Taniqli kishilar orasida ot sporti, miltiq, to'pponcha va kamondan o'q otish ham rivojlangan edi. Otchoparlar, otish tirlari qurila boshlanadi va poyga, o'q otish musobaqalari uyushtiriladi. XIX asrning 60-yillarida ba'zi bir mamlakatlarda velosport bilan shug'ullanishi vujudga keldi. Rossiya, Germaniya Yunoniston, Vengriya kabi asosan kurash mashur edi. XIX

asrning birinchi va ikkinchi yarmida ayrim mamlakatlarda Olimpiya o'yinlarini amaliy jihatdan tiklashga harakat qilindi. 1834-1836-yillarda Shvetsiyaning Ramiyoz shahrida ikki marotaba Skandinaviya Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Uning dasturidan qisqa va o'rta masofalarga yugurish, balandlikka va langar cho'p bilan (shest) sakrash, kurash kabi turlar joy olgan. Bu o'yinning tashabbuskori Lind universitetining professori Gustav Iogann Shartau bo'lgan. Uning taklifi bilan qadimgi olimpiadalar haqida ma'ruzalar o'qilgan.

«Sport hamma uchun». So'nggi 20-30 yil mobaynida ba'zi bir G'arb mamlakatlarida «Sport hamma uchun» harakati avj ola boshladi. «Sport hamma uchun» harakatining umumahamiyatga ega bo'lgan dasturida yugurish, yurish, aerobika, atletik gimnastika, oddiy musobaqalar uyushtirish, turli xil o'yinlar, shahardan tashqariga sayohat va sayrlar asosiy mashg'ulot bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonlar yangi davrda vujudga kelgan rekreatsion harakatning davomi desa bo'ladi. Bu harakat turli mamlakatlarda har xil nom bilan yuritila boshladi. Masalan, Norvegiya va Germaniya Federativ Respublikasida «Trimm», Italiyada — «Biz sizlarga taqlid qilamiz», AQShda «Jismoniy faollik» kabi. «Sport hamma uchun» harakati rekreatsion jismoniy mashqlar shaklidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotidir. Bu o'z navbatida, mehnatkashlar ommaviy-jismoniy madaniyatining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bu harakatni keng targ'ibot qilishga ommaviy axborot vositalari jalb qilindi.

Sport va cherkov. Cherkovlar sportdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qildi. Urushdan keyingi davrlarda cherkov xodimlari davlat yordamida yoshlarni cherkovga jalb qilishda sport imkoniyatlarini keng qo'lladilar. AQShda xristian yoshlarining birlashgan harakati, talaba-katolik milliy tashkilotlari jismoniy tarbiya va sport ishlari bilan shug'ullandi. Germaniyada 40-yillarda «Doyche Yugendkrift» («Germaniyaning yosh kuchlari») va «Eyxenkroys» («Dub xoch») tashkilotlari Vatikan bilan kelishilgan holda tuzilgan edi. Italiyada katolik spotchilari uyushmasi faoliyat ko'rsatdi. Sportdan keng foydalanuvchi eng yirik cherkovlardan biri, xristianlarning Xalqaro assotsiatsiyasi (IMKA) hisoblanadi. Cherkovlar, ayniqsa, Vatikan yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash vositasi sifatida sportni tan oldi. 1952 yilda papa Piy II Xalqaro sport ilmiy Kongressiga yo'llagan xatida «Cherkov sportining texnika, gigiena, fiziologiya tomonlari bilan qiziqmaydi. Katolik cherkov xodimlari sportning tana va ruhni tarbiyalaydigan vositalarini tan oladi», - deydi. 1968 yil papa Pavel VI Vatikanda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi qatnashchilarini qabul qildi. U o'z nutqida «Cherkov sportining

rivojlanishiga sidqidillik bilan qiziqadi, chunki din va Olimpiya o'yinlari orasida ziddiyatlar ko'rinmaydi», - degan edi. Shunday qilib, cherkov hozirgi zamon dunyosiga qo'shilishiga majbur bo'ldi, deyish mumkin.

Sport va biznes. Urushdan keyingi yillarda jahonda jismoniy tarbiya va sportga monopoliyalar, trestlar, matbuot homiylari, kino va televideniya rahbarlarining qiziqishi ortib bordi. Katta tijorat (biznes) uchun tadbirkorlar professional sportdan keng foydalandilar. Ular boks, futbol, xokkey, beysbol, avtosport va boshqa turlarni daromad manbaiga aylantirib yuborishdi. Professional sportchilarni mol (tovar) kabi sotib olish va sotish kuchaydi. Professional sport ham, havaskorlik sporti ham siyosat bilan uzviy bog'lanib qoldi. AQShda professional sportchilardan prezident va senatorlarni saylashda keng foydalandilar. Turnirlarda siyosiy arboblarni professional sportchilar bilan birga chiqadilar. Bu siyosiy partiyalarda, turli kompaniyalarda o'z mavqelarini yaxshilash yo'lida ularga manfaat keltiradi. Urushdan keyingi davrlarda G'arb mamlakatlari sport-gimnastika harakatining nazariy-amaliy faoliyatida sportdagi asosiy tamoyillardan yuz o'girish holatlari yuzaga keldi. Sportda kamsitish, chegaralanishga yo'l qo'yilmaslik g'oyalari rivojlandi. Lekin kamsitish o'rniga siyosiy jihatdan b'azi mamlakatlarni o'z yo'lidan qaytarishga kirishildi. Bu xalqaro sport maydonlaridagi ba'zi davlatlarni siqish, xalqaro ahvolning keskinlashuviga sabab bo'ldi. Bunday holatlar sportdagi gumanizm tamoyillariga ham ta'sir o'tkazdi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda insonparvarlik g'oyalaridan uzoqlashishning asosiy sabablaridan biri sportchilarning yuqori natijalarni ko'rsatishi uchun doping ishlatilishi (giyohvandlik), sportga aloqador bo'lmagan turli xil musobaqalarning uyushtirilishi (xotin-qizlar, odamlarning itlar bilan olishuvi va h.k.) sabab bo'ldi.

Sotsiologlar hisoblashicha, yuqori natijalar sportining eng muhim tub o'zgarishlari bu uning asta-sekin va uzluksiz tovarga (mahsulotga) aylanishidir, ya'ni sportning ijtimoiy, psixologik, jismoniy va madaniy jihatlari monopolistik kapitalning kommertsiya (tijorat) talablari bilan birlashadigan jarayon.

Bunday xulosa chiqarishga asoslar quyidagilar:

- «tovar» sport sanoatining shakllagan yoki shakllanayotgan yo'nalishlari: professional sport; havaskor sportning kommertsiyasiga (tijoratga) aylanishi; sport tovarlari sanoati; ommaviy axborot vositalarida sport bo'limlarining mavjudligi; reklama sport biznesi; sport totalizatori (ot poygasida);
- zamonaviy sportning utilitarligi (manfaatparastligi) instrumentalligi

(ongli muhitga moslashadigan bir vosita deb hisoblaydigan ta'limot), ya'ni amal uchun moda bo'lgan, foydali narsa, o'yin etikasi ish etikasi bilan almashtirish (eng muhimi-natija).

- zamonaviy sportning ratsionalligi (oqilona tashkil etilishi) va byurokratlashuvi;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining sportga misli ko'rilmagan ta'siri.

Sportchi o'zi bilmagan holda tarkibida taqiqlangan moddalar mavjud dori-darmon, ovqat qo'shimchalarini iste'mol qilishi ham doping masalasini qabul qilishga tenglashtiriladi. "Sportda dopingga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiyani (Parij, 2005-yil 19 oktyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtiradi. Har bir sportchi faoliyati davomida yuksak cho'qqilarni zabt etishni orzu qiladi. Qit'a va jahon chempionatlari, Olimpiya o'yinlari shohsupasiga intiladi. Lekin o'z maqsadiga erishish yo'lida nopok usullar, xususan, jismoniy imkoniyatlarini sun'iy tarzda oshiruvchi doping turlaridan foydalanish holatlari ham tez-tez uchrab turadi. Bu jahon sportidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Lug'atlarda yozilishicha, "doping" – inglizcha "doping" so'zidan olingan bo'lib, "narkotiklar bermoq" degan ma'noni anglatadi. Doping zamonaviy sportda inson organizmining ruhiy va jismoniy faoliyatini sun'iy ravishda ma'lum muddat kuchaytiradigan, sport natijalarini yaxshilash maqsadida qo'llaniladigan moddalar turkumidir.

Doping yordamida jismoniy va ruhiy quvvatni oshirish Olimpiya harakati va sportning ma'naviy tamoyillariga mutlaqo ziddir.

1999-yili xalqaro Olimpiya qo'mitasi Shveytsariyaning Lozanna shahrida dopingga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konferentsiya o'tkazilib, butun jahon dopingga qarshi kurash agentligi (WADA) tomonidan 2003-yil 5-martda "Butun jahon dopingga qarshi kurash kodeksi" qabul qilindi.

2. Olimpiya harakati rivoji, yuqori natijalar sportida insonparvarlik muammolari. XIX asrda Yunoniston tomonidan qadimgi olimpiya o'yinlarini qayta tiklash haqidagi takliflar ko'p takrorlangan. Mamlakat mustaqilligi tarafdori bo'lgan evangelis Sappas har to'rt yilda o'yinlarni o'tkazish va unda sport, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'igazmalarini tashkil etishni taklif qilgan edi. U olimpiya o'yinlari jarayonida ko'rgazmalar asosida savdo, iqtisod va madaniy aloqalarning o'zaro kuchayishini ko'ra bilgan. Mamlakatlardagi sport klublari asta-sekin milliy uyushmalar va ligalarga birlasha boshladi. 1868 yilda Germaniyada barcha gimnastika uyushmalari Nemis gimnastika

uyushmasiga birlashdi. 1888 yil AQShda havaskor atletik uyushma, 1903 yil Shvetsiyada - umumshved sport uyushmasi tashkil etildi. Umummilliy sport tashkilotlari boshqa mamlakatlarda ham yuzaga kela boshladi. Bu uyushmalarning boshida asosan yirik kapital egalari turar edi. Ular ko'pincha metsenat (homiy) sifatida klublar, ligalar, uyushmalarning faoliyatini taqdirlash bo'yicha ishtirok etishgan. XIX asr oxirida mamlakatlardagi sport tashkilotlarining o'zaro tajriba almashish faoliyatlari yuzaga kelib, keyinchalik ular Xalqaro sport uyushmalariga asos solganlar. 1881 yilda jahonda birinchi marotaba Evropa gimnastika uyushmasi tashkil etilgan. Shu yilning o'zida esa Xalqaro gimnastika federatsiyasi (DIJ) tashkil topgan. 1882 yilda Konkida uchish Xalqaro uyushmasi (ICU) va Xalqaro eshkak eshish federatsiyasi (FICA), 1900 yilda Xalqaro velosport uyushmasi (UCI), 1904 yilda Xalqaro futbol federatsiya-assotsiatsiyasi (FIFA), 1908 yilda Xalqaro havaskorlik suzish federatsiyasi (FINA), va Xalqaro muz ustida xokkey Ugas, 1912 yilda Xalqaro engil atletika havaskorlik federatsiyasi (IAAF), 1913 yilda Xalqaro nayzabozlik federatsiyasi (FIB) tashkil etilgan. 1885 yilda Xalqaro Xristian yonlar uyushmasi (UMCA) sport departamenti bilan birgalikda tashkil etildi. 1902 yilda esa «Makkabi» uyushmasi, ya'ni yahudiylar tashkiloti tuzildi. Shu tariqa xalqaro sport uyushmalari va olimpiya qo'mitasini tashkil etishiga sharoitlar yaratiladi.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi to'xtatilganidan keyin (394 y.) roppa-rosa bir yarim ming yildan oshiq vaqt o'tdi. "1894-yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining tashkil etilishi va 1896 yil I Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi bilan sport olamining yangi tarixiy davri boshlandi"¹. Bu ikki katta sohaning tashkil etilishi fransuz jamoat arbobi, pedagog va ma'rifatchi Per de Kuberten (1863-1937) faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Per de Kuberten olimpiya o'yinlariga (1912) bag'ishlab o'tkazilgan san'at tanlovida «Sport madhiyasi» poemasi uchun oltin medal bilan taqdirlangan edi. 1894 yil 23 iyunda Kongressda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tuzilganligi haqida qaror qabul qilindi. Uning tarkibiga Yunoniston, Frantsiya, Rossiya, Angliya, AQSh, Shvetsiya, Vengriya, Chexiya, Belgiya, Argentina, Yangi Zelandiya vakillari kiritildi. Olimpiya qo'mitasining birinchi Prezidenti etib yunonistonlik Demetrius Vikelas (1894-1896) saylandi. Keyinchalik uning o'rnini Per de Kuberten egalladi va to 1925-yilgacha XOQ Prezidenti sifatida faoliyat ko'rsatdi. V Kongress Xalqaro Olimpiya harakatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

¹ Родиченко В. С. Олимпийское движение в канун III тысячелетия: Гармонизация интересов // Олимпийское движение и социальные процессы. — Краснодар, 1996.

Uning mohiyati keyingi Olimpiya harakatini rivojlantirishda asosiy o'rinda turadi. Kongress kun tartibidagi barcha masalalarni ko'rib chiqib, tegishli qarorlarni qabul qildi. Olimpiya Kongressida I Olimpiya o'yini Afinada o'tkazish haqida qaror qabul qilingan edi. Antik Olimpiya o'yinlari vatani Yunoniston bo'lganligi va D.Vikelasning XOQ Prezidenti qilib saylanishi buning asosiy sababi edi. 1896 yil 6 aprelda Afinada I yozgi Olimpiya o'yinlari ochildi. O'yinlarga 14 mamlakatdan 245 nafar sportchi keldi. Ular Avstraliya, Avstriya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Yunoniston, Daniya, Italiya, AQSh, Frantsiya, Chili, Shveysariya, Shvetsiya mamlakatlarining vakillari edi. O'yinlar dasturiga ko'ra 9 tur: engil atletika, gimnastika, suzish, yuk (tosh) ko'tarish, kurash, o'q otish, qilichbozlik, velosiped poygasi va tennis bo'yicha kurashlar olib borildi.

1920 yilda birinchi jahon urushdan keyingi davrdagi birinchi olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Bu o'yinlar Belgiya poytaxti Antverpen shaxrida o'tkazildi. Dunyoning oltidan bir qismi jahonda birinchi ishchi-dehqonlar davlati vujudga keldi. Birinchi marta VII olimpiada o'yinlarida besh qit'a sportchilarining birligi va do'stligining simvoli - beshta xalqaro olimpiada bayrog'i hirpiradi. Ammo, bunga qaramasdan, Germaniya va uning 1914-1918 yillar jahon urushidagi ittifoqchilarining sportchilari olimpiada o'yinlariga qo'yilmadi. VII olimpiada o'yinlarida 29 mamlakatdan 2606 sportchi qatnashdi. Urushda qatnashmagan yoki undan kam zarar ko'rgan mamlakatlarning sportchilari yaxshigina muvaffaqiyatlarga erishdilar. O'yinda 13 ta yangi rekordlar o'rnatildi, shundan 6 tasi jahon rekordidan yuqori edi. Qo'lga kiritilgan medallarning g'ayri rasmiy hisobi va hisoblab chiqilgan ochkolar (bu 1912 yildagi olimpiada o'yinlardan boshlab yuritilgan) bo'yicha birinchi o'rinni AQSh, ikkinchi o'rinni Shvetsiya, uchinchi o'rinni Angliya, to'rtinchi o'rinni Finlyanda sportchilari egalladilar. VIII olimpiada o'yinlari 1924 yili Parij (Frantsiya) da o'tkazildi. Bunda 44 mamlakatdan 3092 sportchi qatnashdi. AQSh sportchilari Evropaga engilgina g'alabaga to'la erishish ishonchi bilan keldilar. Futbol o'yinlari ayniqsa qiziqarli o'tdi. Sportning bu turida Urugvay komandasi g'olib chiqqan edi. IX Olimpiada o'yinlarida 46 mamlakatdan 3015 sportchi qatnashadi, jumladan Germaniya sportchilari ham qatnashdilar. X Olimpiada o'yinlari 1932 yilda Los-Anjeles (AQSh)da o'tkazildi. Amerikaning hukmron doiralari Amsterdamda ancha putur etgan AQShning sport sohasidagi obrosini tiklashni ko'zlab, X olimpia o'yinlarini katta dabdaba bilan o'tkazishga qaror qildilar. Los-Anjeles sport inshootlarining yirik kompleksi – olimpiada stadioni, suzish

xavzasi, mashq qilish maydonchalari maydonlar va olimpiada qishlog'i qurildi. Olimpia o'yinlarida 38 mamlakatdan 1408 sportchi qatnashdi. Yaponiya vakillari suzishda g'olib chiqdilar. Ular 6 ta imkoniyatdan 5 ta oltin medal oldilar. Xalqaro olimpiada komiteti (XOK) 1936 yilda bo'ladigan XI olimpiada o'yinlarini fashistlar Germaniyada o'tkazishga qaror qildi. Bu jahonning ilg'or kayfiyatdagi barcha sportchilarining qat'iy noroziligiga sabab bo'ldi. Jahonning ilg'or jamoatchilik fikri Berlin o'yinlariga baykot e'lon qilishdi. IX olimpiada o'yinlarini fashistlar Germaniyadan birorta demokratik mamlakatga ko'chirishini talab qildi. Ammo shunga qaramasdan, o'yinlar Berlinda o'tkazildi. XOK jahon sport jamoatchiligining ovozigacha quloq solmadi. XI olimpiada o'yinlarida 49 mamlakatdan 4069 sportchi qatnashdi.

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida Olimpiya harakati muhim o'rinni egallaydi. Per de Kubert, bu harakatning boshidanoq ishtirok etgan do'stlari bilan birgalikda universal qadriyatlar va hamkorlikka asoslangan inson faoliyatining muayyan doirasini yaratmoqchi edi. Olimpizm butun sport harakatining ma'naviy negizi hisoblanadi. U quyidagi gumanistik qadriyatlarni o'z ichiga oladi:

- tinchlikka intilish;
- hamkorlikka intilish;
- insonlarning irodasini mustahkamlash;
- o'zaro tushunishni yo'lga qo'yish.

“Olimpiya harakati jamiyatga va insonga xizmat qilishi uning insonparvarlik tabiati bilan belgilanadi. Afsuski, bugungi kunga kelib, uning mazmuniga ko'ra, Olimpiya harakati qayta tiklangan g'oyalarga mos kelmaydi”¹. Zamonaviy olimpiya sporti professionalizm yo'nalishida jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Shunday qilib, qiymat yo'nalishlari pragmatik va iste'molchi yo'nalishlari bo'yicha o'zgardi. Sportchilarning samarasini oshirish, ayni paytda Olimpiya sportining boshqa turlariga muxolifat olib keladi, uni ommaviy sportlardan ajratib turadi. Olimpiya harakatining tijoratlashuvi salbiy taraqqiyotni davom ettirmoqda.

Olimpiya sportida ko'plab gumanistik muammolar o'sib bormoqda, bular²:

- dushmanlik;

¹ Сараф М.Я. Спорт в культуре XX в.: (Становление и тенденции развития) // Теория и практика физической культуры. — 1997. — № 7.

² Малов, В. И. Сто великих спортивных достижений / Владимир Игоревич Малов; гл. ред. С.Н. Дмитриев. — М.: Вече, 2007 г.

- qattiq raqobat;
- doping.

Agar bu davom etsa, vaziyat yomonlashadi, jamoatchilik fikri Olimpiya o'yinlarida o'zlarini his qilishni to'xtatadi va Olimpizmning "yangi ideallari" rad etiladi. Ayni paytda, zamonaviy madaniyat inqirozga yuz tutayotganday. Ammo inqiroz sport holati uning yo'q bo'lishini anglatmaydi. "Mutaxassislar bunga echim izlash, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, innovatsion g'oyalarni taklif qilish, ustuvor yo'nalishlarni o'zgartirish, umuman, zamonaviy dunyoda sportni rivojlantirish uchun yangi paradigmni ishlab chiqishga kirishishi kerak"¹.

Bugungi kunda yoshlarni sport faoliyatiga nafaqat jalb qilish, balki shug'ullanuvchilarni sportning insonparvar g'oyalarini, qadriyatlarini egallashga yo'naltirish lozim. Bunda, birinchi navbatda, sportchi o'zida, o'z Vatani sharafiga himoya qila oladigan, halol kurasha oladigan, qo'polliq ochko'zlik kuch ishlatish, yovuzlik ya'ni ham sportni, ham shaxsni, ham jamiyatni emiruvchi hodisalarga qarshilik ko'rsata oladigan shaxsni, fuqaroni tarbiyalashi lozim. "Olimpizm — sport harakatining ma'naviy asosi bo'lib, unda gumanistik (insonparvar) g'oyalar yotadi (kishilarning yaxshi niyatlari, tinchlik hamkorlikka intilish). Olimpizmning mazmun-mohiyati insonga, shaxsga, jamiyatga xizmat qilishdan iborat. Shu nuqtai nazardan olimpizmning asosiy g'oyalari va mafkuralariga quyidagilar kiradi:

- sport va sport faoliyatlaridan tinchlik va tinchlikning barqarorligini ta'minlashda foydalanish;

- barcha mamlakatlar va mintaqalardagi sportchilarning do'stligi va ongli munosabatlarini ta'minlash;

- irqchilik, millatchilik, siyosiy qarashlar, ijtimoiy sharoitlar va yashash joylari bo'yicha insonlarni kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

- sportda millatchilik, siyosatchilik va giyohvandlikka (doping) qarshi kurash;

- hozirgi davrda sport insonlarni o'zaro xayrihohlikka (gumanizm) intilishlarni doimiy ravishda mustahkamlash"². Olimpiya harakati — bu jamiyat taraqqiyoti bo'lib, u olimpiya g'oyalari va mafkurasi tamoyillariga tayanadi, shu asosda insonlar va tashkilotlarni ularning millati, irqi va yashash joylaridan qat'i nazar o'ziga birlashtiradi. Olimpiya harakatining asosiy vazifalari quyidagicha:

¹ Столяров В. И. Спорт и современная культура // Теория и практика физической культуры. — 1997. — № 7.

² Олимпизм ва олимпия таълими – соғлом болани тарбиялашнинг омили. Республика илмий-амалий анжумани. ЎзДЖТИ, Тошкент, 2016, 40-бет.

- Olimpiya g'oyalarining tamoyillarini jahonga yoyish;
- Olimpiya sport turlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;
- Sportni targ'ibot qilish, imkoniyat doirasida ulardan jismoniy, ma'naviy va estetik tarbiyada foydalanishni ifodalash;
- «Olimpiya birdamligi» dasturini tarqatish yo'lida sharoitlar yaratish;
- Har to'rt yilda bir marotaba Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik va uni o'tkazish.

Olimpiya madaniyatining ijtimoiy qadriyatlari jamiyat tomonidan tarixiy bitimlar, ijtimoiy-ruxiy me'yorlar, sport harakatlari, olimpizm, olimpiya xarakati, Olimpiya o'yinlari ko'rinishida yaratilgan.

3. XXI asr yuqori natijalar sporti rivojining sotsiologik tahlili. Bugungi kunda yuqori natijalar sportining rivojlanish tendensiyasi asosiy xususiyatlari quyidagilardir¹:

- demokratlashtirish va xalqarolashtirish, sportning geografiyasini kengaytirish;
- yangi sportning paydo bo'lishi;
- ommaviy va professional sportni jadal rivojlantirish;
- sport va texnik yutuqlarning jadal o'sishi;
- sport harakatida yangi yo'nalish - yuksak yutuqlar sporti paydo bo'lishi;
- ayollar sportini jadal rivojlantirish;
- bolalar va o'smirlar sportini jadal rivojlantirish;
- Milliy va xalqaro miqyosda sport musobaqalari taqvimining muntazam ravishda kengaytirilishi;
- sport fanining tug'ilishi va jadal rivojlanishi;
- Sportga ixtisoslashtirilgan ixtisoslashtirilgan media tizimini jadal rivojlantirish;
- sport inshootlarining kuchli ixtisoslashtirilgan tizimini yaratish;
- yangi xalqaro sport tashkilotlarini yaratish,
- xalqaro va olimpiya harakatining jadal rivojlanishi.

Yuqoridagi xususiyatlarda Sportni ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sport fanining turli yo'nalishlarini, ayniqsa, tibbiy-biologik jihatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr ko'p olimlarning fikricha, xotin-qizlar sportini rivojlantirish asri bo'lishi mumkin. XXI asrda sotsialistlarning prognozlariga ko'ra, Afrika sportchilari sport

¹ Суник А. Б. Спорт XXI века: (Взгляд историка) // Олимпийское движение и социальные процессы. — Краснодар, 1996.

rekordlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Afrika davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jahon sport harakatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. "Sport millatlarni birlashtiradigan, xalqlarni jipslashtiradigan va ular o'rtasida o'zaro do'stlik, birodarlik rishtalarini bog'laydigan vositadir"¹. Har bir jamiyatda fuqarolarning yana bir guruhi – nogironlar mavjud bo'ladi, afsuski, olimlarning qayd etishlaricha, ular har doim mavjud bo'lishadi. Nogironlarning ijtimoiylashuvi ularning o'zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham juda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya va sport nogironlarni ijtimoiylashtirishning juda muhim uslublaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hozirgi kunda ular hatto Olimpiada o'yinlarida ham ishtirok etishmoqda. Ammo, A.Kuleshov tashvish bilan yozganidek, nogiron sportchilarning Saraevoda bo'lib o'tgan musobaqasi atrofida shunchalik katta shov-shuv ko'tarilgan ediki, "Ularning qanchasi chin insoniy tuyg'ular, qanchasi esa tijorat va reklama maqsadlaridagi shov-shuv ekanini aniqlash mushkul".² Ma'lumki, Per de Kuberten zamonaviy olimpizm nazariyasini ishlab chiqar ekan, uni "Hayot falsafasi" deb atagan edi. "Olimpizm, – deb yozgan edi u, – bir tutam quyosh nurlaridagi kabi insonni kamolotga erishtiruvchi barcha tamoyillar mujassam bo'lgan"³.

Nazorat savollari:

1. Sport faoliyatining sotsiologik muammolari qanday?
2. Yuqori natijalar sporti va olimpiya harakatining sotsiologik muammolari nimalardan iborat?
3. Yuqori natijalar sportida insonparvarlik muammolari qanday?
4. XXI asr yuqori natijalar sporti rivojining sotsiologik tahlili qanday?

¹ Nazarov N. Sport falsafasi. Toshkent – 2014, 42-43 betlar

² Кулешов А. Страницы Олимпийского дневника. ст. 218

³ Nazarov N. Sport falsafasi. Toshkent – 2014, 39-bet

Mavzu: Sportchi karyerasi va sportchi kasbining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni

REJA:

- 1. Sport karerasining asosiy tushunchalari.**
- 2. Kasbiy martaba tushunchasi.**
- 3. Sport karyerasini tugatish.**
- 4. Sportchi talabalarning fikrlash texnikasini takomillashtirishda “Sport tafakkuri”dan foydalanish**

Sport karyerasining asosiy tushunchalari. Sport adabiyotlarida sport faoliyatining yakunlanish bosqichiga ozgina e’tibor qaratiladi. Sportchining sport bilan shug’ullanganidan so‘ng unga e’tibor berishning alohida sabablari yo‘qligiga ishonishadi. Biroq, "sportdan chiqish"ni e’tibordan chetda qoldirish eng qiyin, ba’zan fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ko‘pincha bunday odamlar o‘zlari uchun munosib tadbirlarni topa olmaydilar.

Sportdan keyingi rehabilitatsiya (qayta tiklanish) - professional sport tadbirlaridan bosqichma-bosqich chiqib ketish bilan bog‘liq bo‘lgan tizimli jarayon. Bir tomondan, bu fiziologik rehabilitatsiya va boshqa tomondan, ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiyadir.

Birinchi holda, biz sportchining tanasi sport bilan shug’ullangan yillarda katta yuklarga moslashtirilganligi haqida gapiramiz. Treninglar natijasida tanada jismoniy o‘zgarishlar yuz beradi: yurak hajmi oshadi, metabolik jarayonlarga jismoniy stress bilan ta’sirlanadi. Yuklarning keskin tugashi bilan organizmning tartibga solish tizimlarining ishlarini tartibsizlashtiriladi, shuning uchun barcha funksional tizimlarning ishlashi buziladi. Bu "kasallik" yomon oqibatlarga olib kelish mumkin va yillab davom etishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiya qilishning mohiyati shundaki, sport faoliyati davomida odamlar rejimni, ijtimoiy mavqeini va hokazolarni aniq tarzda hayotga tadbiq etadilar. Sport faoliyatining to‘xtatilishi odatiy turmush tarzini o‘zgartiradi. Sport bilan shug’ullanishning keskin to‘xtatilishi bilan, ijtimoiy bezovtalik ruhiy bezovtalikka olib keladi. Bu muammoni echishda muhim qadam - sportchilar sport muammolaridan to‘liq xabardor psixologiya mutaxassislarini jalb etish kerak. Buning oqibatlari juda boshqacha bo‘lishi mumkin. Ular sodir bo‘lgan jarayonlarning muntazamligini tushunadigan odamga bog‘liqdir. Sport

faoliyatining to'xtagandan so'ng sportchi kasb-hunarni davom ettirishi uchun (sportchi murabbiy, sport murabbiyi, advokat, sport hakami va hokazo sifatida) sportda qolishni istaydi, ammo kerakli ma'lumotsiz sportchi sportni umuman tark etadi va ehtimol, unga qaytmaydi.

Mamlakatda tarqalgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, murakkabligi va xilma-xilligi professional sport bilan bog'liq muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas. Ular mashhur sportchilarning taqdiriga, shuningdek, sport ustalari keng qatlamini tashkil etuvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Sport fanlari uchun "martaba" atamasi nisbatan yangi. Sovet davridagi sovet madaniyatida u burjua jamiyatining ijtimoiy hodisasiga taaluqli edi. Shu sababli "karera" degan tushunchaning salbiy ma'nosi paydo bo'ldi: mansabga erishish sizning maqsadlaringizga erishish yo'lida karerachi bo'lishni anglatadi, ya'ni behuda, demakdir. Lekin tanlagan faoliyatingizda muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin, bu esa sizning istagingizni, o'zingizni tasdiqlash va o'zini o'zi anglashni istagingizni qondirish orqali qattiq mehnat va doimiy o'zini o'stirish orqali amalga oshiriladi.

Karera (Italiyancha *sarriera* - Lotincha *sarrus* so'zlaridan olingan bo'lib, hayot, ishlayotgan mansab yo'lini - rasmiy, ijtimoiy, ilmiy va boshqa faoliyat sohasida muvaffaqiyatli (lekin har doim emas); mansab pillapoyalaridan yuqoriga harakat degan ma'nolarni anglatadi.

Har qanday martabani uch muhim xususiyatini ajratib turadi:

- a) inson tanlagan uzoq muddatli faoliyat yoki martaba;
- b) yuqori yutuqlar;
- s) ushbu faoliyatda sub'ektning o'zini takomillashtirish.

Shu sababli sport karerasi yuqori sport yutuqlariga yo'naltirilgan va bir yoki bir nechta sport turida shaxsni doimiy ravishda o'zini o'zi yaxshilashga qaratilgan uzoq muddatli sport faoliyatiga aylanishi mumkin.

Har qanday inqiroz ikkita muhim xususiyatga ega:

- burilish nuqtasi, biror narsani rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi;
- katta xavf yoki qiyinchilik bilan tavsiflangan vaqt.

Ko'rsatilgan yo'nalishlar tahlil qilishning inqirozli o'tish davrlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi:

1. Sportning ixtisoslashuvi bilan boshlangan inqiroz.
2. Chuqur sportga ixtisoslashishga o'tishning inqirozi.
3. Ommaviy sportlardan o'tishning inqirozi.
4. Yoshlar sportidan kattalar sportiga o'tishning inqirozi.

5. Havaskorlikdan professional sportga o'tishning inqirozi.

Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, sport insonning ijtimoiylashuviga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat sportchilar o'zlarining sport bilan shug'ullanish darajasini yuqori ko'rsatkich bilan yakunlashadi. Sport fanlari uchun "martaba" atamasi nisbatan yangi. Sovet davridagi sovet madaniyatida bu, burjua jamiyatining ijtimoiy hodisasiga taalluqli edi. Kontseptsiyada "Sareer" ga salbiy ma'no berilgan. Ishga qabul qilishni anglatadi. Albatta, karerist bo'lish, ya'ni behuda, noaniq maqsadlariga erishish demakdir. Sport karerasini davriylashtirishda sportchi muvaffaqiyat qozonishi mumkin bo'lgan harakatlar va boshqa yo'llar bilan - qattiq mehnat va doimiylik orqali o'zini kamolga etkazishi, maqsadlarini qondirishi va o'z-o'zini anglashi zarur.

2. Kasbiy martaba tushunchasi. Sportchilarda irodalilik, g'alabaga intiluvchanlik, epchillik, o'zini tuta bilishlik, chidamlilik kabi sifatlarning shakllanishida sport mashg'ulotlarining ahamiyati katta. Shu ma'noda sportchiga xos xarakter, xislatlar sport faoliyatida asta – sekin vujudga kela borib, keyinchalik bu xislatlar uning doimiy xarakterga aylanadi.

Sportchi xarakterining rivojlanishi uning faol sport faoliyati jarayonida hamda sportchining jismoniy mashq harakatlariga bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Sport faoliyati jarayonida sportchilarga xos bo'lgan xarakter xislatlari nixoyatda xilma – xil bo'ladi va har bir xarakter xislati sportchi psixikasining hamma tomonlari bilan bog'liq bo'ladi.

Kasbiy moslashuv shaxsning kasbiy ko'nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallashida, unda ayrim kasbiy jihatdan zarur hislatlarning shakllanishida, xodimning o'z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo'lishining rivojlanishida ifodalanadi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv mehnat tashkiloti (jamoasi)ning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zlashtirishda, unda qaror topgan o'zaro munosabablar tizimiga kirishda, uning a'zolari bilan o'zaro ijobiy hamjihat bo'lishda o'z ifodasini topadi.

Sportchi ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonida jamiyatning real hayotiga kirib boradi, unda ishtirok etadi, xodimda hamkasblari, rahbarlar, ma'muriyat bilan o'zaro ijobiy munosabatlar qaror topadi.

Ijtimoiy-tashkiliy moslashuv korxona (jamoasi)ning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, xizmat ko'rsatish tizimi, mehnat va dam olish rejimini o'zlashtirishni bildiradi.

Madaniy-maishiy moslashuv–mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo' sh vaqtni o'tkazish an'analarini o'zlashtirishdir.

Psixofiziologik moslashuv bu xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur bo'ladigan shart-sharoitlarni o'zlashtirish jarayonidir. Zamonaviy ishlab chiqarishda faqat texnika va texnologiya emas, balki ishlab chiqarish sharoitidagi sanitariya-gigieni normalari ham ma'naviy jihatdan eskirib boradi. Hozirgi zamon xodimi sub'yektiv ravishda qabul qilinadigan sanitariya-gigiena shinamligidan, mehnat maromidan, ish o'rnidagi qulayliklar va hokazolar ozgina bo'lsa ham chetga chiqilishiga juda sezgirlik bilan qaraydi. Ko'pgina tadqiqotlar materiallarining ko'rsatishicha, ishchilar uchun sanitariya gigiena shinamligi shart-sharoitlari keskin bo'lib turadi va ular buni og'rinib qabul qiladilar.

Sportchi uchun sport karerasi tugagandan so'ng moslashuv jarayonida quyidagi bosqichlarni boshdan kechiradi:

Tanishish bosqichi, bunda sportchi umuman yangi vaziyat haqida, turli harakatlarga baho berish, etalonlar, muomala normalari to'g'risida axborot oladi.

Ko'nikish bosqichi, bu bosqichda xodim qadriyatlarning yangi tizimi asosida elementlarini bilib oladi, lekin o'zining ko'pgina qarashlarini saqlab qoladi.

Birxillashtirish (identifikatsiya) bosqichi, bunda xodimning shaxsiy maqsadlari mehnat tashkilotining, korxona va firmaning maqsadlari bilan o'xshab qoladi.

Birxillashtirish xususiyati bo'yicha xodimlarning uch toifasini farqlash mumkin: befarqlar, qisman bir xil va to'liq bir xil xodimlardan iborat bo'ladi.

Xodimlarning turli toifalari moslashuvning normal muddati bir yildan uch yilgacha bo'ladi.

Martaba-bu insonning butun ish bilan bog'liq yillari mobaynida mehnat tajribasi va faoliyati bilan bog'liq alohida anglab etilgan nuqtai nazar va xulq-atvoridir. Martabaning ikki turi: kasbiy va tashkilot ichidagi martaba mavjud.

Kasbiy martaba shu bilan ajralib turadiki, muayyan xodim o'zining kasb sohasidagi faoliyatida turli rivojlanish bosqichlarini o'taydi: ta'lim oladi, ishga kiradi, kasbiy jihatdan o'sadi, alohida kasbiy qobiliyatlari qo'llab-quvvatlanadi, pensiyaga chiqadi. Martabaning turli bosqichlarida xodim turli ehtiyojlarni qondiradi.

Dastlabki bosqich maktabda o'qish o'rta va oliy ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi va 25 yoshgacha davom etadi. Ana shu davr mobaynida inson faoliyat turini izlash maqsadida bir qancha ishlarni almashtirishi mumkin. Qaror topish bosqichi taxminan besh yil davom

etadi (25 yoshdan 30 yoshgacha). Xodim ana shu davrda tanlagan kasbini o'zgartiradi, zarur ko'nikmalarni egallaydi, uning malakasi yuzaga keladi, o'zini namoyon qilish sodir bo'ladi va mustaqillikka ega bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Odatda, bu yoshda oila tuziladi va shakllanadi, shuning uchun tirikchilik uchun zarur bo'ladigan «eng kam miqdordan» yuqoriroq ish haqi olish istagan paydo bo'ladi.

Xizmatda ko'tarilish bosqichi 30 yoshdan 40 yoshgacha davom etadi. Ana shu davrda malakaning ortishi, xizmatda ko'tarilish sodir bo'ladi. Amaliy tajriba to'plash, malaka orttirish, o'zini namoyon qilishga ehtiyoj tug'iladi, yanada yuqoriroq maqomga ega bo'li shva ko'proq mustaqillikka erishish istagi tug'iladi, shaxs sifatida o'zini namoyon qilish boshlanadi.

Saqlash bosqichi erishilgan natijalarni mustahkamlashga doir harakatlar bilan ajralib turadi va 40 yoshgacha davom etadi. Malakani takomillashtirish davri boshlanadi va faol ishlar natijasida va maxsus ta'lim olish tufayli malaka yanada ortadi, xodim o'z «maktabi»ni yaratishga o'z bilimlarini yoshlar bilan baham ko'rishga qiziqadi, ijod qilishga intiladi, bu davrda xizmat sohasida yangi bosqichga ko'tarilishi sodir bo'lishi mumkin. Garchi bu davrda xodimning ko'pgina ehtiyojlari qondirilgan bo'lsa ham, uni o'zi olayotgan ish haqi darajasi qiziqtiradi, boshqa daromad manbalarini topishga intilish (masalan, boshqa tashkilotlarning foydasiga, sarmoyasida, aktsiyalar, obligatsiyalarda qatnashish va hokazo) paydo bo'ladi.

Yakuniy bosqich 55 yoshdan 65 yoshgacha davom etadi. Bu davrda inson pensiya haqida jiddiy o'ylay boshlaydi, ishdan ketish tashvishda bo'ladi. Xuddi shu davrda o'ziga munosib o'rinbosar izlash, uni o'rnida qoldirishga tayyorlash harakatlari ko'zga tashlanadi. Xodim avvalgi ish haqi saqlanib qolsa-da, boshqa daromad manbalari ko'payishini istaydi, chunki bu dargohdan pensiyaga chiqib ketgandan keyin pensiyasi miqdoriga qo'shimcha bo'lib, kuniga yaraydi.

Pensiya bosqichida mazkur korxonadagi martabasi (faoliyati) yakun topadi. O'zini boshqa faoliyat sohalarida ko'rsatish imkoni paydo bo'ladi, holbuki mehnat jamoasidagi ish davrida uni ro'yobga chiqarishning iloji bo'lmagan yoki shunchaki qiziqish hisoblangan edi. O'ziga va o'zi singari pensionerlarga hurmat-e'tibor ortadi.

3. Sport karerasini tugatish.

Afsuski, sportchilarning barchasi sport karerasining yakuniy bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozni muvaffaqiyatli engishga qodir emas.

Ushbu inqirozning jiddiyligi quyidagi shartlarda ko'tariladi:

- chiqishning to'satdanligi;
- unga tayyorgarlikning yo'qligi;
- sportchining passiv pozitsiyasi;
- moddiy va psixologik yordamning etishmasligi.

Rus sotsiologi B.G. Ananiev quyidagilarni ta'kidlaydi:

Sport martaba bosqichlari:

- 1) tayyorlash;
- 2) boshlash;
- 3) yuksaklik;
- 4) tugatish.

Sport karerasini davriylashtirish uzoq muddatli sport mashg'ulotlari bosqichlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin jumladan:

- 1) oldindan sport mashg'ulotlari;
- 2) sportga ixtisoslashtirilganligi;
- 3) tanlangan sport turida chuqur bilim olish;
- 4) sportni takomillashtirish.

Bularga quyidagilar kiradi:

- a) birinchi katta yutuqlar zonasi;
- b) maqbul imkoniyatlar zonasi;
- s) sport natijalarini saqlab turish zonasi.

Sportga asoslangan martaba bosqichlarini tasniflash mumkin. Sportchi biladigan sport turlari:

- 1) ommaviy sport;
- 2) oliy yutuqlar sporti;
- 3) professional sport.

Tasniflash yosh guruhlariga asoslangan bo'lishi mumkin:

- 1) bolaning sport karerasi;
- 2) yoshlar sporti martaba;
- 3) kattalar sport karerasi.

Sport karerasini yakunlash va boshqa martabaga o'tishda har bir sportchi uchun o'tish inqirozi va muayyan qarama-qarshiliklar mavjud. Bu sportchining tanlovda turli strategiyalarni o'zlashtirishi bilan psixologik jihatdan bog'liqdir;

obro'-e'tibor qozonish zarurati - o'z jamoangizda, raqiblar, hakamlar, tomoshabinlar o'rtasida vakolat olish;

shon-shuhratni tekshirish va unga nisbatan munosib munosabatni rivojlantirish zaruriyati;

murabbiy-sportchi munosabatlarining inqirozi, shuningdek, sport jamoasi tarkibidagi munosabatlar.

Bunday inqirozlar sportchilar uchun uchraydigan eng ko'p va eng og'ir hol hisoblanadi. Bu yerda sportchilar "o'rta darajadagi" va "sport elita" ga bo'linishi mavjud. Ulardan chiqish sportchi uchun nafaqat sportni, balki shaxsiy kamolotni ham topish bilan bog'liq. Havaskorlikdagi yuksak yutuqlardan professional sportga o'tishning inqirozi hozirgi sportchilar uchun nisbatan yangi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shartnoma bo'yicha ishlaydigan 18 nafar professional sportchi o'z oldidagi quyidagi muammolarni aniqlashga muvaffaq bo'ldi:

professional shartnomaning shartlariga muvofiq sportchi yuqori o'zligini tashkil etishning yangi tartibi;

- mustaqil sport mashg'ulotlari va professional sport dunyosida umumiy orientatsiya uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarni (sport, huquqiy, iqtisodiy, xorijiy tillarni va hokazolarni) olish zarurati;

professional sportning tomoshabinlar uchun sportga aylanishini va spektakllarning o'yin-kulgi turlariga yuqori talablarni inobatga olganligini hisobga olgan holda, yangi ko'rgazma vositalarini qidirib topish, mahoratini oshirish;

sportchining professional sportda g'ayratini oshirishga imkon beradigan, dopingdan foydalanishga aloqador bo'lmagan, harakatlanadigan faoliyatni ta'minlashning samarali vositalarini qidirish;

mutaxassislar orasida obro'-e'tibor qozonish zarurati;

chet ellik klub bilan shartnoma imzolaganlar uchun ijtimoiy-madaniy moslashish zarurati.

Ushbu inqirozdan chiqish yo'lida professional turnirlarda yuqori natijalarga erishgan va yaxshi haq to'lanadigan sportchilarda ko'rsatkichlar yuqori. Sport sarguzashtining yakuniy bosqichiga o'tish davridagi inqirozda sportchi professional sportda bir necha yillar davomida qolib ketganidan so'ng, sport natijalarini muntazam ravishda barqarorlashtirish yoki kamaytirishi zarur. Biroq, sportchilarning aksariyati final bosqichini kengaytirishni va pensiya vaqtini sportdan chetga chiqarishni xohlashadi va buning uchun ular kamida ikkita muammolarni hal qilishlari kerak:

Sportchining yuqori natijalarini oshirishi yoki saqlab qolishi uchun yangi zaxiralarni izlash, odatda mashg'ulotning barcha jihatlarini shaxsiylashtirish va ularning kuchli tomonlaridan foydalanishni maksimal darajada oshirish;

Sportni tark etishga tayyorgarlik, yangi professional kasb tanlash, bu sportchiga kelajakka nisbatan tashvishlarni kamaytirishga va faqat sport bilan bog'liq vazifalarni hal qilishga odatlanishga imkon beradi.

Sport karerasini tugatish va boshqa ishga o'tishning inqirozi inson hayotidagi sport o'rnini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq bo'lib, "Men" ning imidjini qayta tiklash va sportchining ijtimoiy rolidan tashqari shaxsning qadr-qimmatini bilish zaruriyatini tug'diradi.

Sport karerasini tugatgandan so'ng odatiy holga kelganda, sportchi oldida quyidagi muammolar yuzaga keladi:

kasbiy tayyorgarlikka majbur qilish va yangi professional kasbni boshlash zaruriyati;

yangi turmush tarzini shakllantirish, shu jumladan, yangi kasb egallashni emas, balki sevimli mashg'ulotlarini, qiziqishlarini va muloqot doirasini yaratish;

Agar o'zingizning oilangizni yaratish yoki oilangizni qayta tashkil qilish, u sport bilan shug'ullanish vaqtida yaratilgan bo'lsa. Afsuski, barcha sportchilar sport karerasini yakunlash inqirozini muvaffaqiyat bilan bartaraf eta olmaydilar.

Ushbu inqirozning jiddiyligi odatda quyidagi sharoitlarda kuchayadi:

Sportchining sportdan ketishining to'satdanligi, unga tayyorgarlikning yo'qligi, sportchining passiv mavqei, moddiy va psixologik yordam yo'qligi.

Sportchining sportdagi mavqei va uning sportdan ketgandan keyingi mavqei o'rtasidagi farq ham muhim omil hisoblanadi. Boshqa narsa teng bo'lsa, bu inqiroz psixologik jihatdan qiyinroq.

Bugungi kunda O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat tizimiga tobora chuqur kirib, jahon hamjamiyati bilan pragmatik ruhdagi munosabatlarni mustahkamlab borayotganligi barcha soha mutaxassislarini tayyorlash tizimida raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Sababi, har qanday mamlakat taraqqiyoti avvalo uning kadrlari va ularning salohiyatiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning zamonaviy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'ldirish, bilimli yoshlarni strategik sohalarga jalb etish masalalariga bag'ishlangan "O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak" nomli ma'rusida "keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Albatta, bunday e'tibor yaqin kelajakda o'z samarasini beradi. Lekin, barcha sohalarda jadal islohotlar olib borilayotgan bir paytda shu sur'atga mos ilg'or kadrlar mamlakatimizga bugun kerak. Hozirgi tizimli o'zgarishlar jarayonida aksariyat mutaxassislarning bunga tayyor emasligi, ularning bilimi, malakasi va ko'nikmasi zamon talabiga javob bermasligi ayon bo'lib

qoldi”deb ta’kidlaganlarida ham kadrlar bilan bog’liq masala dolzarb ekanligini chuqur anglashimiz shart. Bu jarayonda avvalo mutaxassis kadrlarning tafakkurini rivojlantirish birinchi o’rindagi vazifa hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, tafakkurning mohiyati, xususiyatlari va uning inson hayotidagi naqadar muhim ekanligi haqida mulohazalar qadimdan to bugungacha ham to’xtagani yo’q. Tafakkursiz inson shunchaki inson qiyofasidagi odamning bir vakili bo’lib gavdalanadi. Tafakkur aniq bilimlar, dalillarga suyanadi, tahlil qiladi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi. Shunga ko’ra tafakkurning quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud:

- birinchidan, tafakkur - hissiy bilishdan farqli o’laroq, voqelikni o’z aniq tabiatidan mavhumlashtiradi, uning muhim belgilarini nomuhimlaridan ajratib, umumlashgan obrazlar shaklida aks ettiradi;

- ikkinchidan, tafakkur - voqelikni faqatgina sezgilar orqali emas, balki muayyan tajriba va bilimlar orqali chuqurroq bilishdir;

- uchinchidan, tafakkur - voqelikni ijodiy va faol aks ettiruvchi jarayondir. Demak, tafakkur – inson hayoti barhayotligi negizidir. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo’lgan yo’nalish vakillarida o’ziga xos tafakkur xususiyatlari namoyon bo’ladi. Xususan, bo’lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzi, uning xususiyatlari ham bundan mustasno emas. Avvalo “jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug’ullanadigan, doimo o’zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs” ekanligini tushunishimiz lozim. Shundan kelib chiqib, bo’lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini rivojlantirishda “Sport tafakkuri”dan foydalanish asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Sport faoliyatining har qanday turi kontsentratsiya va yuqori intellektual-ixtiyoriy kuchlanishni talab qiladi. Bu esa jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida o’ziga xos taktik va texnik harakatlariga muvofiq fikrlashni shakllantiradi va rivojlantiradi. “Bo’lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining fikrlashi o’ziga xos xususiyatlarga ega. Bu birinchi navbatda “Sport tafakkuri”da aks etadi”.

Sport tafakkuri - bu ma’lum bir sport faoliyati doirasida amalga oshiriladigan fikrlashdir. Masalan, sport o’yinlarida ma’lumotni ko’pincha og’zaki ravishda qayta ishlash etarli emas, ya’ni, juda qizg’in ichki dialog sportchining tezligini pasaytiradi. Yoki shaxmat kabi o’yinda hissiyotlar bilan o’ynash o’rinli emas, chunki shaxmatchilar uchun eng foydali narsa vizual xotira va ichki muloqotni rivojlantirishdir.

Sport tafakkurini tushunish uchun birinchi navbatda “Sportda fikrlash” haqida ma’lumotga ega bo’lishimiz kerak. “Sportda fikrlash - bu sportchining taktik faoliyatidagi etakchi aqliy jarayon yoki raqobatli vaziyatlarni hal qilish jarayonida bevosita namoyon bo’lgan fikrlashi deganidir”. Qoida tariqasida, u o’ta og’ir sharoitlarda o’zini namoyon qiladi va aniq taktik muammolarni echishga qaratilgan bo’ladi.

Sportda fikrlash texnikasining o’ziga xos umumiy xususiyatlari

T/r	Fikrlash texnikasining tarkibiy qismlari	Bo’lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari fikrlash texnikasining funkionalari
1	Taktika	sportchi vaziyatni tahlil qiladi va to’g’ridan-to’g’ri harakat qiladi.
2	Vizuallik	taktik vazifalarni hal qilishda fikrlash vizual sezgi tasvirlari va hodisalariga asoslanadi.
3	Situatsiya	sportchining tafakkuri o’zgaruvchan vaziyatlar fonida davom etayotganida namoyon bo’ladi.
4	Strukturalash	vaziyatning elementlarini bir-biri bilan bog’lash asosida harakatning katta qismlarini shakllantiradi.
5	Dinamika	bunda sportchi vaziyatni tan olib, yaqinlashib kelayotgan vaziyatga tashxis qo’yadi, ehtimoliy prognoz qiladi. Bu ishlarning barchasi sportchi tomonidan qisqa vaqt ichida amalga oshiriladi.
6	Ketma-ketlik	sportchi xatti-harakatlarini ma’lum bir tarzda, ikkinchisini oldindan ko’rish bilan ketma-ketlikda amalga oshiradi.
7	Xotiraga tayanish	sportchi taktik (operatsion) tafakkurini xotiraga, uning turlariga qarab, tezkor va qisqa muddatliga bo’ladi. Sportchi nima bo’lishini hisobga olib va shu asosda yangi harakatlarni amalga oshiradi.

8		Vaqt	fikrlash jarayonida vaqt chegarasi tufayli sportchi analitik harakatlarni bajaradi.
9		Oldindan sezish	taktik fikrlashda oldindan sezilgan ta'sirlar alohida o'rin tutadi. Bunga asoslanib, sportchi faol harakatlarni amalga oshiradi. Raqibning harakatlaridan, taktik birikmalarini oldindan sezadi.
10		Raqibning uslubidan foydalanish	sportchilarning har biri o'z ongida raqibning fikrlarini aks ettiradi va shu asosda o'z harakatlarini quradi.

Demak, sport tafakkuri - bu bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining faoliyatida foydalanadigan fikrlash tarzidir. Uning o'ziga xos bo'lgan individual tarkibiy qismlari ham mavjuddir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislaridagi "Sport tafakkuri"ning tarkibiy qismlari va funksiyalari

SPORT TAFAKKURI		
T/r	Sport tafakkurining tarkibiy qismlari	Sport tafakkuri tarkibiy qismlarining funksiyalari
1	Tafakkur tezligi	sportchi talabalarda tezlikda to'g'ri, ma'lumotli qarorlarni topish va vaqt etishmasligida ularni amalga oshirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.
2	Tafakkur mahsuldorligi	sportchi talabalarining muammoni mustaqil hal qilishi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lay olish qobiliyatidir.
3	Tafakkurning moslashuvchanligi	sportchi talabalarining muammoni hal qilish jarayonida topilgan shartlarga qoniqmasa, rejalashtirilgan harakat rejasini o'zgartirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.
4	Tafakkurning mustaqilligi	bu sportchi talabalarining yangi muammoni ko'rish va yangi savol berish,

		keyin muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi.
5	Tafakkurning chuqurligi	bu sportchi talabalarning biror hodisa, jarayon mohiyatiga kirish darajasini tavsiflaydi.
6	Tafakkurning kengligi	sportchi talabalarning voqea-hodisalar o'rtasidagi ko'plab bog'lanishlarni boshqarishga va muammoni hal qilish uchun turli xil fan bilimlaridan foydalanishi bilan tavsiflanadi.
7	Tafakkurning tanqidiyligi	sportchi talabalarning ham ob'ektiv sharoitlarni, ham o'z faoliyatini to'g'ri baholashi, zarur bo'lganda tanlangan yo'lidan voz kechishi va faoliyat shartlariga mos keladigan harakat usulini topishi bilan tavsiflanadi.
9	Tezkor qaror qabul qilish	sportchi talabalarning ma'lum maqsad yo'lidagi faoliyatni qisqa vaqt davomida tezkorlik bilan amalga oshirish startegiyasidir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash tizimida ularning jismoniy sifatleri bilan birga tafakkur xususiyatlarini, tafakkur tarzini ham rivojlantirish ayniqsa "Sport tafakkuri"dan foydalanish darajasini oshirish muhim masala hisoblanadi. Chunki, tafakkur orqali shaxs faoliyati ma'lum yo'nalishga qaratiladi va harakat sodir bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich asos sifatida tafakkurni olishimiz va uni rivojlantirishimiz muhimdir. Xulosa qilib aytganimizda:

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida "Sport tafakkuri"ni rivojlantirish orqali fikrlash texnikasini takomillashtirish mumkin;

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining amaliy mashg'ulot fanlari bilan tizimli ravishda tafakkur tarzini rivojlantirishga yo'naltirilgan Falsafa fani doirasida "Sport tafakkuri" mavzusini o'qitishni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi so'rovnoma tahlilidan ma'lum bo'ldiki, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash tizimida ularning jismoniy sifatleri bilan birga tafakkur xususiyatlarini, tafakkur tarzini ham rivojlantirish ayniqsa "Sport tafakkuri"dan

foydalanish darajasini oshirish muhim masala hisoblanadi. Chunki, tafakkur orqali shaxs faoliyati ma'lum yo'nalishga qaratiladi va harakat sodir bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich asos sifatida tafakkurni olishimiz va uni rivojlantirishimiz muhimdir. Xulosa qilib aytganimizda:

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida "Sport tafakkuri"ni rivojlantirish orqali fikrlash texnikasini takomillashtirish mumkin;

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining amaliy mashg'ulot fanlari bilan tizimli ravishda tafakkur tarzini rivojlantirishga yo'naltirilgan Falsafa fani doirasida "Sport tafakkuri" mavzusini o'qitishni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari:

1. Sportchi karyerasi va sportchi kasbining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni qanday?
2. Sport karerasining asosiy tushunchalari nimalar?
3. Kasbiy martaba tushunchasining mazmuni qanday?
4. Sportchi talabalarning fikrlash texnikasini takomillashtirishda "Sport tafakkuri"dan foydalanish yo'llari qanday?

Mavzu: Sport va shaxs ijtimoiylashuvi

Reja:

1. Shaxs va ijtimoiylashuv tushunchasi.
2. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs ijtimoiylashuvida sportning sotsial roli.
3. Sportchi ijtimoiylashuvi.
4. Sportchining ijtimoiy mas'uliyati.
5. Sportchi talabalarning tafakkur tarzini o'stirishda "Sport qadriyatlari"ning ijtimoiy ta'siridan foydalanish.

Ijtimoiy muhit va inson tanasini bog'lovchi unsur uning shaxsiyati bo'lib, u insonga xos xususiyatlar va hayotga munosabati jamlanmasidan iborat. Aynan shaxs orqali inson tanasi ijtimoiy omillar ta'sirini his qiladi. "Inson" tushunchasi o'z ichiga uning biologik xususiyatlarini tavsiflovchi "odam individi" tushunchasini oladi, "shaxs" tushunchasi esa uning ijtimoiy tomonlarini aks ettiradi. "Odam individi" xuddi "jism" yoki

“tana” tushunchalari singari hech qanday sotsial xususiyatga ega emas. Bu tushunchalar insonning tabiati, biologik kelib chiqishini ta’riflaydi. Shaxs tushunchasi esa biologik xususiyatlar bilan emas, ijtimoiy sifatlar bilan tavsiflanadi. Shaxs ma’lum bir sotsial funksiyalarni bajaradi, ularning tashuvchisi hisoblanadi. Ammo u o’z vazifalarini bajarish jarayonida o’zigagina mansub bo’lgan fazilatlar bilan boyitadi – irodasi, xarakteri, tafakkur kuchi, qiziqishlari va ehtiyojlari, bilimlari, qadriyatlarga munosabati va dunyoqarashi kabilar xosdir.

Insonning sotsial va shaxsiy xususiyatlari faqat ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi va ijtimoiy faoliyat jarayonida u jamiyatda ijro etayotgan roli orqali namoyon bo’ladi. Inson hayotiy faoliyatining biologik tomonlari shartli ravishda shaxsning ijtimoiy faolligini belgilab beradi. Insonning barcha faoliyati biologik xarakterga ega jarayonlar bilan bog’liq tarzda kechadi. Faqatgina tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarning yakdilligiga erishgan holda inson rivojlanib boradi. Ijtimoiy va biologik birlikning mohiyati haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, alohida inson yoki butun insoniyatning jismoniy madaniyatini shakllantirish muammosini o’rganish muhim hisoblanadi. Insonning jismoniy qobiliyatlari tadrijiy rivojlanishiga asos bo’ladigan tabiat qonunlarini anglash va shundan so’nggina uning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish yo’llarini ishlab chiqish mumkin. Ya’ni, mazkur qobiliyatlarni ro’yobga chiqarishning pedagogik va tashkiliy rag’batlantirish yo’llarini ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi. Bu jarayonda biologik jihatlarning ustunligi shundaki, u muntazamlik strategiyasini shakllantiradi, jismoniy mashqlar davomiyligi jismoniy qobiliyatlar rivojlanishini ta’minlaydi. Ijtimoiy sifatlar ustunligi shundaki, u bir tomondan tabiatni aql bilan anglashga yordam beradi. Ikkinchi tomondan – jamiyatdagi ustuvor axloq me’yorlariga muvofiq tarzda uning natijalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Afsuski, jismoniy madaniyat sohasidagi sotsial-biologik muammolar hali etarlicha o’rganilmagan. Jismoniy tarbiyaning o’ziga xosligi va boshqa sohalardan farqi shundaki, u insondagi ijtimoiy va biologik sifatlarni yagona tizimga uyg’unlashtira oladi. Istalgan insonning jismoniy rivojlanish jarayoni organizm shakli va funksiyalarining takomillashuvida, jismoniy qobiliyati namoyon bo’lishida o’z aksini topadi. Odamning jismoniy salohiyati rivojlanishiga tabiiy unsurlarning ta’sir o’tkazishi ob’ektiv xarakterga ega, u aqlan qonunlar va mohiyatni anglash orqali ob’ektiv jarayonlar yo’nalishiga o’z ta’sirini o’tkazishi mumkin. Yaqin o’tmishda insonning jismoniy takomillashuviga sotsial omillarning ta’sirini asoslashda ko’pincha ishlab chiqarish munosabatlari tushunilar

edi, ayniqsa, mehnat odamning tabiatga o'tkaza oladigan faol ta'sirining eng oliy cho'qqisi sifatida talqin etilgan. Mazkur tabiiy ta'sirlar inson irodasidan mustaqil tarzda kechadi, ammo, ular aynan jamiyatdagi taraqqiyot ta'sirida o'zgaradi. Odamga ta'sir o'tkazadigan boshqa sotsial omillar uning ongi va irodasi bilan bog'liq. Ulardan biri jismoniy madaniyatdir. Insonning jismoniy takomillashuviga maqsadli ta'sir o'tkazib, u odamga tegishli bo'lgan eng muhim jismoniy sifatlar va qobiliyatining yanada rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Uning ta'sir shakllaridan biri bu jismoniy tarbiyadir. Ko'pgina olimlarning fikrlariga ko'ra, jismoniy tarbiyaning farqlanadigan xususiyatlari asosan pedagogik tashkillashtirilgan jarayonda yanada oydinlashadi. Odamning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, harakatlanish haqidagi bilimlarini shakllantirish haqidagi bilimlar jamlanmasi pedagogik tarbiya jarayonida shakllanadi. Boshqacha aytganda, jismoniy tarbiya odam organizmining biologik rivojlanish jarayonlariga sotsial ta'sir o'tkazishning bir shaklidir.

Ammo, jismoniy madaniyatni jamiyat a'zosi bo'lgan insonning jismoniy qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida qarash – yuzaki qarash bo'lib qoladi. Jismoniy tarbiyaning ixtisoslashgan vazifasi – nafaqat shaxsning shakllanishiga ta'sir o'tkazish, balki uning bir jihatlaridan biri bo'lgan jismoniy madaniyatiga, yoshlarning salbiy xulq-atvoridan ogohlantirish ham kiradi. Shuning uchun ham, “jismoniy rivojlanish”, “jismoniy tarbiya” va “jismoniy madaniy tarbiya” tushunchalarini o'zaro aralashtirish kerak emas. Birinchi tushuncha ob'ektiv jarayon bo'lib, odam organizmida ro'y beradi. Ikkinchisi – bu jarayonga odamning faol ta'siri bo'lsa, uchinchi esa insonlarning jismoniy madaniyat qadriyatlariga nisbatan munosabatlarini shakllantirishni anglatadi. Shunday qilib, jismoniy madaniy tarbiya va uning tarkibiy qismlari – bu bosqichma bosqich pedagogik jarayondir. U maqsadli tarzda insonning doimiy o'zgarib turuvchi jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga, kamolotiga moslashib boradi. Uning asosiy vazifasi shundan iboratki, odamning tabiat tomonidan in'om etilgan jismoniy tana imkoniyatlarini to'g'ri aniqlash va rivojlantirishdan iborat.

Jismoniy madaniyatning zamonaviy nazariyasida jismoniy madaniyat hodisasini talqin qilishda falsafiy-madaniy yondashuvdan foydalanish amaliyoti va uning har bir shaxs tomonidan shakllantirish mexanizmlari juda aniq rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ham, insonning “jismoniy” tarbiyasi dolzarb emas, “jismoniy madaniy” tarbiyasi kun tartibiga qo'yiladi. Agar “jismoniy” so'zida odatda urg'u harakat tayanch tizimi tushunilsa, “jismoniy madaniy” atamasi esa madaniyat orqali tarbiyalashni

nazarda tutadi. Bu esa jismoniy madaniyatga xos qadriyatlarni o'zlashtirish orqali kechadi. Shunday qilib, biologik va sotsial tushunchalarining o'zaro munosabati bu falsafiy omillarning uyg'unligi va bir biriga bog'liqligi g'oyasini ifoda etadi. Inson jismoniy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtirishi orqali jismoniy jihatdan mukammal bo'lgan shaxs bo'lib shakllanib boradi.

Aslida "Shaxs" tushunchasi inson yoki individning notabiiy xususiyatlari mohiyatini ifodalab, uning ijtimoiy xususiyatiga asosiy urg'uni beradi. Umuman sotsiologiyada shaxs bu – jamoiy munosabatlarga, hamkorlikdagi faoliyatga va muloqotga qo'shilishini ta'riflovchi individning tizimli mazmuni bo'lib, ongli va ijtimoiy faoliyatning sub'ekti bo'lib hisoblanadi. Inson tug'ilgan davrida, ya'ni chaqaloqligi davrida shaxs bo'lmaydi. U individ hisoblanadi. Shaxs bo'lishi uchun inson ma'lum bir rivojlanish bosqichini bosib o'tishi kerak bo'ladi. Mazkur rivojlanish davrining zarur shartlari bo'lib, genetik va biologik tomondan berilgan dastlabki sharoit, choqaloqning o'zaro harakatga kirishishi uchun ijtimoiy muhitning, inson madaniy dunyosining mavjudligi hisoblanadi.

Shaxsning sotsiologik konsepsiyasi bir qancha turli nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ularning hammasi shaxsni u yoki bu sotsial omillarning ta'siri ostida shakllangan o'ziga xos tuzilma ekanligini tan olishadi. Muammoni bu kabi qo'yish shaxsni faqat sotsiologiya nuqtai nazaridan tahlil etishga olib boradi. Bu yondashuvning ildizlari sotsial falsafa ildizlariga borib taqaladi.

Shaxsning sotsiologik konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida rivojlana boshladi. Umumiy shaxsning sotsiologik nazariyasiga bo'lgan ehtiyoj doimiy o'zaro munosabatni, boshqacha aytganda, sotsial makrostrukturada sodir bo'layotgan jarayonlarni belgilaydigan doimiy o'lchamni topish kerakligini tushunishdan kelib chiqadi. Individlar va jamiyat o'zaro ta'siridagi bu jarayonlarni tushuntirayotib, biz har doim bu individning xususiyatlarining qandaydir tashkiliy butunligini topamiz, u jamoalardan kelib chiqadigan ta'sir va stimullarni "boshqacha tushunadi" va muhitga insonning reaksiyasini qat'iy ravishda aniqlaydi.

XIX asrning 30-yillarida sotsiologiyada ilmiy yo'nalish strukturaviy yo'nalish (yoki oddiy aytganda funksionalizm) paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning asoschilari bo'lib, E.Dyurkgeym, A.R.Redkliff-Braun (1881-1995) va boshqa tadqiqotchilar bo'lishgan. Bu ilmiy maktab turli holatlarda kishi o'zini qanday tutishi to'g'risidagi normalarni tadqiq

qilishni boshladi. Funktsionalizm rol deb ataladigan institutsional normalar muammosiga asosiy e'tiborni qaratdi. Funktsionalistlar fikricha, sotsiologiyada sotsial taxlilning birligi harakat qilayotgan individ emas, balki roldir. Turli guruhlardagi har bir kishi qandaydir ma'lum maqomga ega bo'ladi. Bu maqomlarda xatti-harakat namunalari ko'rsatilgan bo'ladi. Bunda individ a'zo bo'lgan guruh individidan ushbu namunalarga mos keladigan xatti-harakatni kutadi. Shu asosda biz otaning, onaning, do'stning roli to'g'risida gapirishimiz mumkin.

Shunday qilib, sotsial rolni guruh o'z a'zolaridan kutayotgan qat'iy ko'rsatilgan namunalarga muvofiq chiqadigan, xatti-harakatlarning nisbatan doimiy va ichki aloqali tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Shaxs konsepsiyasidan interaktsionistik yondoshuv metodologik printsiplarga asoslanadi. Bunga binoan na shaxs omillari, na tashqi muhit, agar ularni alohida qaraladigan bo'lsa, inson xatti-xarakatini to'la darajada tushuntirib bera oladi. Inson xatti-harakatining asosiy determinantlari (belgilovchilari) sifatida bu omillar o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir namoyon bo'ladi. O'zaro harakat jarayoni olimlar tomonidan har doim bir xil tushunilmaganligidan, interaktsionizm doirasida cheklangan qo'llash nazariyasi deb ataladigan bir nechta turli yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Nemis-amerika psixologi K.Levin (1890-1947) 1936 yilda shaxsning muhit bilan o'zaro harakati printsipga muvofiq u muhitni fizik (tabiiy) va psixik muhitlarga bo'ladi. Levin fikricha, xatti-harakat na o'tmishga, na kelajakka bog'liq, u hozirgi muhitga bog'liq bo'ladi. Levinning aytishicha, tabiiy va sotsial muhit sub'ekt uchun psixologik fenomenlar ko'rinishida real namoyon bo'ladi. Shuning uchun har xil individlar uchun ob'ektiv muhit uning shaxsiy muhimligidan qat'iy nazar turli tuman bo'ladi. Bu erda psixologik reallik shaxsning muhit bilan o'zaro harakatida ko'proq ahamiyatga ega.

Amerikalik sotsiolog E.Merreyning shaxs konsepsiyasida individning muhit bilan o'zaro ta'sir muammosi tahlil qilinadi

Merrey muhitning xossasini "bosim, tazyiq" tushunchasi bilan belgilaydi. Shaxsning muhit bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilishda asosiy birliklar bo'lib, ehtiyojlarning turli birikuvlari va sotsial muhitning ta'siri hisoblanadi.

Interaktsionalizm g'oyasi shaxsning bixeviorizm va psixoanalitik nazariyalarida har xil namoyon bo'ladi. Bixevioristik maktabda interaktsionizm g'oyalari amerikalik psixolog E.Tolmenning shaxs konsepsiyasida bayon qilingan. Bixeviorizmning ortodoksol tizimida "anglash (yoki pognetiv) kartalari" tushunchasi kiritilgan. Uning mohiyati

shunga asoslanadiki, har bir shaxs muhitdan kelib chiqadigan stimullarga nafaqat mexanik ravishda javob qaytaradi, hamda ularni “karta maydoni” tajriba asosidagi shakllangan ongda stereotiplar bilan solishtiradi. Shunga muvofiq, inson muhit bilan o‘zaro ta’sirda faollik va xatti-harakatning shaxsiy elementini yuzaga keltiradi.

Tolmenning fikrlari “haqiqiy” bixeviorizmning kognetiv psixologiya bilan ajralishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsning psixoanalitik konsepsiyasi Z.Freyd fikrlarida yaqqolroq ifodalangan. Z.Freyd individ va jamiyat o‘zaro ta’siri jarayonini sotsiopsixologik konflikt sifatida, shaxsni esa irratsional, g‘ayriixtiyoriy mayllarining ansambli (uyg‘un birlik) sifatida qaraydi. Freyd fikricha, tsivilizatsiya o‘zining taqiqlari va sanktsiyalari bilan, bir tomondan, katta manfaat va zaruriyatdir, aks holda insoniyat seksual (jinsiy) va letal (o‘limga olib boradigan) instinktlarga bo‘ysunib, yashay olmagan bo‘lardi. Ammo ikkinchi tomondan, sivilizatsiya inson uchun xavf va g‘am tashvisdir, chunki mayllarning yanada ko‘proq siqib chiqarilishi nevrozlarning rivojlanishiga, qoniqmaslik, xavotir, begonalashuv, anglanmagan munofiqlik va hokazolarning ko‘payishiga olib keladi. Jamiyatga dizintegratsiya xavf solar ekan sotsializatsiya va sotsial nazoratga ehtiyoj bo‘ladi.

Umuman shuni aytish mumkinki, shaxs konsepsiyasining zamonaviy interaksionizmi shakllanish pallasida turibdi, turli konsepsiya va nazariyalarning ta’sirini boshdan kechirmoqda.

Shaxs termini turli mualliflar tomonidan har xil tahlil etiladi. Shaxsga berilgan hamma ta’riflar 2 ta bir-biriga qarama-qarshi nuqtai nazarlar bilan u yoki bu darajada asoslanadi. Bir nuqtai nazar bo‘yicha, har bir shaxs o‘zining tug‘ma sifatlari va qobiliyatlariga muvofiq shakllanadi va rivojlanadi. Sotsial muhit bu holatda juda ham kam rol o‘ynaydi. Boshqa nuqtai nazar vakillari shaxsning ichki xususiyatlari va qobiliyatlarini to‘laligicha inkor etishadi. Ularning fikricha, shaxs bu sotsial tajriba davomida to‘laligicha shakllanadigan qandaydir mahsuldir. Ko‘rinib turibdiki, shaxsning shakllanish jarayonidagi bu fikrlar unchalik absolyut to‘g‘ri emas. Fikrimizcha, shaxsni tahlil qilishda, ham tug‘ma biologik xususiyatlarni, ham sotsial tajribani hisobga olish kerak. Shu bilan birga amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, shaxs shakllanishida sotsial omillar ko‘proq ahamiyatga ega. V.Yadov fikricha, “Shaxs - bu inson sotsial xususiyatlarining butunligi, ijtimoiy rivojlanish mahsuli va individni aktiv faoliyati va muloqoti vositasida sotsial munosabatlar tizimiga qo‘shilishidir”. Bu qarashga muvofiq, shaxs biologik organizmdan

faqatgina sotsial va madaniy tajriba tufayli rivojlanadi. Bunda shaxs xususiyatlarining shakllanish jarayoniga sezilarli ta'sir etadiki, shaxsdagi tug'ma qobiliyatlari, temperament va mayllar inkor etilmaydi.

Shaxs xususiyatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini tahlil etish uchun shaxsning shakllanishiga ta'sir etadigan omillarni quyidagi tiplarga bo'lamiz:

- 1) biologik irsiyat
- 2) tabiiy muhit
- 3) madaniyat
- 4) guruh tajribasi
- 5) ulkan individual tajriba

Bu omillarning shaxsga ta'sirini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Biologik irsiyat; g'ishtli uyni toshdan qurish mumkin emas, ammo ko'p g'ishtlardan uyni, buning ustiga turli ko'rinishda qurish mumkin. Har qanday kishining biologik irsiyati xom-ashyo materiallarini etkazib beradi, ular keyinchalik har xil usullar bilan inson zoti, individ, shaxsga aylanadilar.

Hayvonlarning ko'pgina turlaridan farqli ravishda inson mavjudoti yilning hamma vaqtida jinsiylikni namoyon etadi, bu esa ko'proq yoki ozroq darajada bolalar tug'ilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bola tug'ilganda yordamga muhtoj bo'ladi va hayotining dastlabki yillarid shunday holda qoladi. Bu kabi biologik faktlar insonlar sotsial hayotiga asos soladi. Bundan tashqari, inson monogam jinsiy hayot instinktiga ega bo'lmaydi va har qanday jamiyatda bu belgi oila instituti shakllanishiga va bolalar tarbiyasiga ta'sir qilib, har xil namoyon bo'ladi. Biologik irsiyat xususiyatlari havo, suv, ovqat, uyqu, xavfsizlik singari ehtiyojlarni o'z ichiga oladigan insonning tug'ma ehtiyojlari bilan to'ldiriladi. Agar sotsial tajriba asosan inson ega bo'lgan o'xshash umumiy xususiyatlarni tushuntirib bersa, biologik irsiyat ko'pincha shaxsning individualligini, uning boshqa jamiyat a'zolaridan dastlabki farqini tushuntirib beradi. Shu bilan birga, guruhiiy farqlanishni endi biologik irsiyat tushuntirishi mumkin emas.

Shu asosda biologik irsiyat shaxsni to'laligicha yarata olmaydi, chunki na madaniyat, na sotsial tajriba genlar orqali o'tadi. Ammo biologik omilni hisobga olish lozim. Chunki u birinchidan, sotsial jamoalar uchun cheklashlar (yordamga muhtoj go'dak, suv ostida uzoq tura olmaslik, biologik ehtiyojlar majmui va hokazo) yaratadi, ikkinchidan, biologik omil yordamida temperament, xarakter, qobiliyatlarning cheksiz turli

ko‘rinishlari paydo bo‘ladi, ular har qanday kishi shaxsida individuallik, ya’ni takrorlanmas ulkan siymo vujudga keltiradi.

Tabiiy muhit; Ko‘pgina olimlar shaxsning rivojlanishida tabiiy muhitga asosiy e’tibor qaratadilar. Mashhur sotsiolog P.Sorokin 1928 yilda chop etilgan asarlarida ko‘pgina olimlarning – Konfutsiy, Aristotel, Gippokratdan tortib o‘ziga zamondosh bo‘lgan geograf Elmiot Xantingtonlarning nazariyalarini boyitdi. Bu olimlarning fikri bo‘yicha, shaxslar xulqidagi guruhiiy farqlar asosan iqlimdagi farqlar, jug‘rofiy xususiyatlar va tabiiy resurslar bilan belgilanadi. Bu toifa olimlar qatorida faylasuf Plexanov va tarixchi A.N.Gumelyovlarni kiritish mumkin. Bu tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariya etnomarkaziy, milliy ongni oqlash uchun yaxshi asos hisoblanadi. Lekin tabiiy omilning shaxs rivojlanishidagi asosiy ta’sirini oqlab ololmaydi. Haqiqatdan ham bir-biriga o‘xshash tabiiy va jug‘rofiy sharoitlarda shaxsning turli tiplari shakllanadi va aksincha ko‘p hollarda o‘xshash guruhiiy xususiyatga ega shaxslar turli tabiiy muhit sharoitlarida rivojlanadi.

Bunga bog‘liq ravishda tabiiy muhit sotsial guruhning madaniy xususiyatlariga ta’sir etishi mumkin, lekin uning alohida shaxs shakllanishdagi ta’siri unchalik emas va shaxsga guruh madaniyatining, guruhiiy yoki individual jarayonning ta’siri bilan solishtirib bo‘lmaydi.

Madaniyat; sotsial muhit; Insonni o‘rab turgan guruh, insonlar, madaniyat, urf-odat, din, iqtisodiy holat va b. nazarda tutiladi. Eng avvalo shuni aytish lozimki, ma’lum madaniy tajriba butun insoniyat uchun umumiy hisoblanadi va u yoki bu jamiyatning rivojlanishining qay darajasida turganligiga bog‘liq emas. Masalan, har bir bola yoshi bo‘yicha o‘zidan katta kishilardan ovqat oladi, til orqali muloqot qilishga o‘rganadi, jazo va mukofot qo‘llash tufayli tajribaga ega bo‘ladi va hamda bir qancha boshqa umumiyroq madaniyat namunalarini o‘zlashtiradi. Shu bilan birga har bir jamiyat amalda o‘zining hamma a’zolariga ma’lum o‘ziga xos tajriba, boshqa jamiyat bera olmaydigan muhim madaniyat namunalarini hadya etadi. Mazkur jamiyatning hamma a’zolari uchun bir xil sotsial tajribadan o‘sha jamiyatning ko‘p a’zolari uchun xos bo‘lgan shaxs qiyofasi paydo bo‘ladi. Masalan, musulmon madaniyati sharoitlarida shakllangan shaxs xristian davlatida tarbiyalangan shaxsga nisbatan boshqa xususiyatlarga ega bo‘ladi. Amerikalik tadqiqotchi K.Dyuboyshaxsni mavjud jamiyat uchun umumiy xususiyatga ega modallik deb atadi. Modal shaxs deganda Dyuboysh butun jamiyat madaniyatiga xos bir qancha fazilatlarga ega bo‘lgan ko‘p uchraydigan shaxs tipini tushunadi. Shunday qilib, har bir jamiyatda o‘rtacha rasm bo‘lib qolgan xususiyatga

ega shaxslarni topish mumkin. Modal shaxs o'zida madaniy tajriba davomida jamiyat o'zining a'zolariga singdirgan hamma umummadaniy qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Bu qadriyatlar ko'proq yoki ozroq darajada mazkur jamiyatning har bir shaxsida mavjud bo'ladi.

Guruhiy tajriba; Insonning biror guruh a'zosi sifatida oladigan tajribasi tushuniladi.

Individual tajriba deyilganda kishining o'z hoxish irodasi, intilishi qiziqishi orqali egallaydigan hayotiy tajribasi nazarda tutiladi.

Sotsializatsiya so'zi ijtimoiylashuv ma'nosini anglatadi. Sotsializatsiya jarayoni insonning jamiyatga qo'shilishi uchun jamiyatda mavjud bo'lgan va shakllangan hatti-xarakatlar, me'yorlar, qadriyatlar, madaniyat, din, tarbiya, bilim va malakalarni, urf-odatlarini o'ziga singdirib borishi va o'zlashtirishiga aytiladi. Sotsializatsiya murakkab jarayon hisoblanadi va insonning butun umri davomida sodir bo'ladi. Bu jarayon 2 davrga bo'linadi:

1. Adaptatsiya – shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan voqelikka ko'nikishi yoki moslashishi;

2. Interiorizatsiya – shaxsning o'z hoxishi, intilishi va irodasi orqali jamiyatga qo'shilishi.

Sotsiologiyada sotsializatsiya davrlariga yana 2 yondoshuv mavjud.

1-yondoshuv. Sotsializatsiya jarayoni 3 davrga bo'linadi:

1. Mehnatgacha bo'lgan davr

2. Mehnat davri

3. Mehnatdan keyingi davr.

2-yondoshuv. Sotsializatsiya jarayoni quyidagi davrlarga bo'linadi:

1-davr – go'daklik davri (1 yoshdan 4 yoshgacha)

2-davr – bolalik davri (4 yoshdan 10 yoshgacha)

3-davr – o'spirinlik davri (10 yoshdan 13 yoshgacha)

4-davr – o'smirlik davri (13 yoshdan 18 yoshgacha)

5-davr – mehnat davri

6-davr – mehnatdan keyingi-nafaqa davri

Sotsiologiyada shaxs haqida turli nazariyalar mavjud. Ulardan:

-Ch.Kulining "Ko'zgudagi "Men"" nazariyasi. Ushbu nazariya 3 tamoyilga asoslanadi:

1. Shaxs ma'lum xatti-harakatni amalga oshiradi.

2. O'sha xatti-harakatga kishilar reaksiya bildiradi.

3. Shaxs shu reaksiyaga ma'qul keladigan xatti-harakatlarni amalga oshiradi.

Ch.Kuli “ko‘zgu” deganda aynan atrofdagi insonlarni reaksiyasini nazarda tutgan.

-Amerika sotsiologi Djordj Midning “boshqalar tomonidan umumlashtirilgan” nazariyasi. Bu nazariyaga muvofiq kishi o‘z shaxsini, o‘z xatti-harakatini boshqalar nuqtai nazaridan, ya’ni o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘yib baholaydi.

“Boshqalar uchun ahamiyatli” nazariyasining asoschisi amerika sotsiologi Xaller bo‘lib, bu nazariyaga ko‘ra kishining shaxsi to‘g‘risida boshqa ahamiyatli, obro‘li kishilarning munosabati xulosa chiqarishga imkon beradi. Masalan, ayrim kishilar uchun ota-onasining bergan bahosi, ba’zilar uchun esa o‘qituvchining, boshqalar uchun esa mansabdor shaxslarning bergan bahosi yoki munosabati uning shaxsi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Har bir shaxs o‘zining strukturasini tashkil qiluvchi umumiy ichki sifatlarga ega bo‘ladi. Shaxs tasnifnomasi masalasiga ikki xil yo‘l bilan yondashish mumkin. Uning strukturasidan kelib chiqqan holda hamda uning atrofdagilari bilan munosabatga kirishishiga ko‘ra, ya’ni boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishi orqali uning ijtimoiy muhitga moslashganlik, ijtimoiylashganligini belgilash mumkin bo‘ladi.

Sportchi shaxsini sotsial tizimning elementi, sportchi shaxsini sotsial munosabatlar ob’ekti sifatida (sportchiga jamiyatning ta’siri, ya’ni uning ijtimoiylashuviga hamda tarbiyasiga), sportchi shaxsini jamoaviy munosabatlarning sub’ekti hamda uning sotsial faoliyati va faolligini ko‘rib chiqish zarur hisoblanadi.

Shuning uchun shaxsni shakllanishga xizmat qiluvchi omillarni, mezonlarni, qadriyatlarning ta’sirini o‘rganishi bilan birga sportchini shaxs sifatida jamiyatda tutgan o‘rnini ham ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Sportchi shaxs sifatida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sportchiga qarab boshqa insonlar o‘z xulq-atvorini shakllantirishga, undan ibrat olishga intiladi. Qolaversa, jamiyatda ilm-ma’rifatning rivojlanishida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi, ya’ni sog‘lom insonning faoliyati ham muhim o‘rin tutadi. Bizga ma’lumki insonlarni shaxs bo‘lib shakllanib borishida ilm-ma’rifatning o‘rni beqiyosdir. Bunda yoshlarning ilmga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda ularning salomatligi muhim ahamiyat kasb etishini “Sog‘lom tanda, sog‘lom fikr” naqlining ahamiyatidan ham bilish mumkin.

Jamiyat hayotiga ta’sir etuvchi omillar bir nechta. Jamiyatda bu omillarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida, birinchi navbatda,

odamlarning o'z talablarini qondirishga bo'lgan intilishi tushuniladi. Qondirilgan ehtiyoj va ehtiyojni qondirish jarayonining o'zida yangi talablar yuzaga keladi. Shunday qilib, inson va jamiyat hayotiy faoliyati yanada o'zgarib va takomillashib boradi.

Ammo, yangi ehtiyojlar, talablar, qaerdan, qanday qilib paydo bo'ladi, ularning rivojlanish mexanizmlari qanday?

Zamonaviy psixologiyada qayd etilishicha, yangi ehtiyojlar insonning o'z o'zini rivojlantirish natijasida yuzaga keladi. Uning mexanizmi u yoki bu predmetga ta'sir o'tkazish orqali bo'ladi. O'sha predmetni o'zgartirar ekan, inson avvalo, o'ziga ta'sir o'tkazadi, ichidagi mudroq kuchlarni uyg'otadi. Umuman olganda, hayot o'zining barcha shakllarida istiqbolni namoyon etadi. Bu haqiqat inson ehtiyojlari xarakterida ham tiriklikning zamirida ham mavjud. Talab qandaydir mohiyatiga ko'ra, uchrashi kutilayotgan mavhum ob'ektni taklif etadi. Talabgorlik holati o'z o'rniga qoniqish hissi bilan almashadi. Inson takomilining muhim ko'rsatkichlaridan biri – uning talab qilish sohasidir. Bir paytning o'zida, insonning o'z-o'zidan, qilayotgan ishlaridan qoniqmasligi o'z ustida yanada ishlashga turtki beradi, faoliyati, atrofdagilarni yanada ijobiy tarafga o'zgarishga boshlaydi. Vaziyatni yaxshilash, kamchiliklari ustida ishlash, yangi sifat darajasiga intilish kuchi inson va jamiyatni boshqaradi.

Ehtiyojlarni qondirish mexanizmini shakllantirish asosida har bir insonga xos bo'lgan individual harakatlantiruvchi kuchlar, ular asosida esa jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchlar yotadi. Bu xildagi individual kuchlar asosini inson uchun qadrlil qadriyatlar, motivatsiya, ehtiyojlar va o'z faoliyatidan qoniqish natijalari tashkil etadi.

Insonlarning ijtimoiy hayoti jamiyat ehtiyojlarini rivojlantiradi, ular shaxsiy ehtiyojlardan yuqori turadi. Shaxsiy ehtiyojlarni boshqaradi, rivojlanishini ta'minlaydi va yangilarini shakllantiradi. Jamiyat ehtiyojlarini qondirish – yangi sotsial tuzilmalarni tashkil etishni talab qiladi.

Jamiyatning ijtimoiy sohasini harakatlantiruvchi kuchlar odamlarni birgalikdagi ijtimoiy hayotga tayyorlashga ehtiyojlarda, o'sib kelayotgan avlodni jamiyat hayotiga moslashtirish ehtiyojlarida, u yoki bu sohada hamkorlikdagi faoliyat uchun odamlarning guruhlariga birlashish ehtiyojlarida, hayotning muntazam ravishda o'zgarib turishiga keng ommani moslashtirish ehtiyojlarida, jamiyat hayotini boshqarish va uning ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirish jarayonlarida aks etadi.

Jismoniy madaniyat ham jamiyatning ijtimoiy sohasiga taalluqli tushuncha. Uning asosida odamlarning jismoniy etuklikka erishishdagi sotsial talablari yotadi. Ularga harakatlanish bilimlari va qobiliyatini tarbiyalash, sog'lomlashtirish, jismoniy moslashish, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish va boshqalar kiradi. Aynan shu talablar o'ziga xos sotsial institut – jismoniy madaniyat tushunchasining paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Chunki, "jismoniy tarbiya har-bir tarixiy bosqichda ijtimoiy formatsiyadan kelib chiqqan holda o'zgarib boradi va insoniyat tomonidan oldingi bosqichda yaratilgan madaniy qadriyatlarni meros qilib oladi". Jismoniy madaniy faoliyatda insonlarning o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga intilishi va zaruriyati jismoniy madaniyatning rivojlanshida muhim omil bo'ldi.

Jamiyat hayoti unga oid barcha sohalarining birdek taraqqiyotini talab qiluvchi yagona sotsial organizmdir. Bu o'rinda jamiyat hayotiga oid yagona bir sohani tanlab, faqat u ustun deb aytish mushkul. Ammo, shunday bo'lsada, iqtisodiyot, madaniyat, siyosat singari sotsial institutlar ko'pgina hollarda istalgan turdagi jamiyatning sotsial hayoti darajasini belgilab beradi. Jamiyat hayotining bu etakchi sohalarini harakatga keltiruvchi kuchlar boshqalariga sezilarli ta'sir o'tkazadi, ba'zan ularning rivojlanishini sekinlashtirsa, ayrim hollarda aksincha jadallashtiradi. Shunday qilib, natijada integral ijtimoiy omillar yuzaga keladi: ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy kabi omillar shartli ravishda butun bir jamiyat va uning turli sohalarini rivojiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Jismoniy madaniyatda iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy omillarning ta'siri yaqqol seziladi. Jismoniy madaniy faoliyatning predmeti – insonning jismoniy holati, tanasi, jismoniy sog'ligi bo'lib, usiz jamiyat faoliyatining hech qaysi sohasi rivojlana olmaydi. Qaysi soha egasi bo'lishidan qat'iy nazar har bir insonga eng avvalo, yaxshi, mustahkam sog'liq kerak. Jismoniy madaniyat jismoniy takomillashuv, sog'lomlashtirish ta'siri orqali jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchlar mavjudligi va faoliyat mexanizmini, jumladan, jismoniy madaniyat mezonlarini ham umumiy tasavvur qilish qiyin. Etakchi omillarning o'rni va ahamiyatini sinchiklab tahlil qilish ularning ta'sirini baholashga, jumladan, jismoniy madaniyatning sotsiomadaniy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi.

Har bir inson, umuman, jamiyat hayotida iqtisodiyotning ahamiyatini va o'rnini aniq belgilashi va chegaralashi mushkul. Chunki insonlar avvalo, o'z hayotini biologik ta'minlashga majbur – ovqatlanish, eyish,

ichish, kiyinish, uy-joyga ega bo'lish. Bularning barchasiga ega bo'lish uchun mehnat qilish, moddiy farovonlikka erishish, pullarini to'g'ri taqsimlash, ya'ni, o'z atrofini aql bilan hayoti uchun muhim va foydali ob'ektlarga aylantirishi lozim. Shunisi ma'lumki, mehnat qilish jarayonida insonning o'zi ham shakllanib boradi, uning qobiliyati yaxshilanib, bilimlari ortib boradi. Shu bilan birga talab va ehtiyojlari ham yuzaga keladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini istalgan jamiyatdagi odamlar hayotining asosiy fundamentiga aylantiradi.

Iqtisodiyot jamiyatning barcha sohalari rivojiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu jumladan, ijtimoiy sohaga ham. Sotsiumning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy madaniyat ham uning mavjudligi va rivojini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ega. Jismoniy madaniyat davlat va jamiyat hayotining iqtisodiy sohasiga muntazam ta'sir o'tkazadi – ish kuchining sifati, talab va ehtiyojning tuzilishi, iste'molchilarning talabi shular jumlasidandir. Jamiyat farovonligini oshirish uchun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash lozim, bu esa ko'pgina omillarga borib taqaladi. Eng avvalo, ishchi kuchining yuqori sifati va samarasi yuqori bo'lgan mehnat. Jismoniy mashqlar bilan tizimli ravishda shug'ullanish odamning jismoniy mehnat qobiliyatini sezilarli darajada oshirib, uning aqliy faoliyatiga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ko'pgina hollarda bu jismoniy faoliyatning odam organizmiga ijobiy ta'siri bilan bog'liq. U chidamlilikni oshiradi, irodasini mustahkamlaydi, ma'naviy fazilatlarini tarbiyalaydi, mehnat faoliyatining yanada samarali va muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi. Ko'pgina tadqiqotlarda isbotlanganidek, tizimli ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish insonning mehnat qobiliyatini oshiradi, uning umrini uzaytiradi. Jismoniy madaniy mashqlarning millat sog'ligiga ijobiy ta'siri umum tomonidan tan olingan haqiqatdir. Yangidan yangi sport inshootlari, sifatli sport mahsulotlarining ishlab chiqarilishi bunga isbot bo'la oladi. Shunday qilib, aynan iqtisodiyot jismoniy madaniy faoliyat samaradorligi uchun sharoitlarni yarata oladi. Faol mustaqil jismoniy madaniy faoliyat olib borishning eng muhim sharti odamlarning iqtisodiy farovonligi hisoblanadi. Iqtisodiyot inson farovonligining muhim darajasini belgilab beradi, bo'sh vaqtini va undan to'g'ri foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Siyosat – bu davlat va uning siyosiy institutlari yordamida jamiyatni boshqarish deganidir. Siyosiy faoliyat hokimiyatni qo'lga kiritish, saqlash va foydalanish bilan bog'liq. Uning mohiyati hokimiyatdan foydalanish, odamlarga ta'sir o'tkaza olishidadir. Shundan kelib chiqadiki, ijtimoiy-iqtisodiy omil – siyosatning ijtimoiy jarayonlarga, u yoki bu sotsial

faktlarga, odamlarning hayot tarziga ta'sir o'tkazishi demakdir. Siyosat tizimida jamiyat va uning tarkibiy qismlari bo'lgan ijtimoiy institutlar mavjud. Jismoniy madaniyat ham bundan mustasno emas.

Jismoniy madaniyatda siyosatning roli shundan iboratki, jismoniy madaniy harakatning huquqiy va g'oyaviy yo'nalishlarini belgilab beradi. Jamiyatda sportning nufuzini aniqlashtiradi. Shunday qilib, jamiyatning siyosiy sohasi odamlarning jismoniy madaniyat faoliyatini olib borishi uchun sharoitlar yaratib beradi. Aholining o'z talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, sport bilan shug'ullanish huquqini ta'minlaydi. Davlat siyosati bir paytning o'zida jismoniy madaniyatning o'zi uchun manfaatli bo'lgan sotsial turlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash orqali rag'batlantiruvchi rol ham o'ynashi mumkin.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga ta'sir o'tkazish ijtimoiy-madaniy omillar orqali kechadi. Bu kabi omillarga jamiyat ongi, axloq me'yorlari, badiiy qarashlar va tanlovlar, diniy e'tiqod, fan va san'at kiradi. Jamiyatning ma'naviy sohasi – dunyoqarash, bilimlar, g'oyalar va qarashlar, axloq me'yorlari, e'tiqodni shakllantirish, ularni ta'lim, tarbiya, ommaviy axborot vositalari, ommaviy tadbirlar va boshqa sotsial vaziflarni bajarish orqali amalga oshiradi.

Sportga nisbatan yaxshi munosabatni shakllantirish mexanizmi ko'pgina hollarda jismoniy madaniyat va sportning qanchalik foydaligi haqida jamiyatning fikrini uyg'otish bilan bog'liq. Bu jarayon targ'ibot, reklama, jismoniy ta'lim va tarbiya sifati, jismoniy mashqlarga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda siyosiy g'oya ham muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, millatni sog'lomlashtirish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol o'sishini ta'minlash orqali milliy xavfsizlikka xizmat qilish hozirda jamiyatda sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari jismoniy mashqlarning shug'ullanuvchilar sog'ligi, jismoniy faolligi uchun foydali ekanini isbotladi. Ijtimoiy-madaniy omillar jismoniy madaniyatni rivojlantirishning yo'nalishlarini belgilab beradi, g'oyaviy to'yintiradi, maqsadlar va vazifalar bilan boyitadi.

Bir paytning o'zida jismoniy madaniyat jamiyatning ma'naviy hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Buning uchun badiiy asarlar va ertaklardagi qahramonlarni yodga olish kifoya. Ular faqat iroda kuchi bilan emas, tezligi, chidamliligi, baquvvat tanasi bilan ham ajralib turadi. Jismoniy go'zallik hamma zamonda estetik qadriyat sifatida yuksak baholangan. Istalgan go'zallik tanlovida jismoniy go'zallik asosiy omil

sifatida baholanadi. Chiroyli va sog'lom insonlar jamiyatda farovonlik muhitini yaratadilar va uni rivojlantirish kafolati hisoblanadi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqadigan xulosalar quyidagilardan iborat:

- inson shaxs bo'lib ijtimoiylashuvi jarayonida jismoniy tarbiya va sportdan oqilona va samarali foydalanishi jamiyat farovonligida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jismoniy tarbiya va sportning inson salomatligini ta'minlashdagi o'rni jamiyatda sog'lom insonni shakllantirish bilan belgilanadi. Sog'lom inson esa jamiyat taraqqiyoti va farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish bilan birga, xalq manfaati yo'lida o'z imkoniyatlarini safarbar etib boradi;

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi insonning jismoniy imkoniyatlari ortib borishi yoshlarning unga taqlid qilishini ham shakllanishiga olib keladi. Bu esa sportchi shaxsining xatti-harakatlari yoshlarga ta'sirini, ularning sportchiga taqlidini ko'rsatadi. Shuning uchun ham sportchining shaxs sifatidagi faoliyati jamiyatning ma'naviy qadriyatlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi;

- jamiyatda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi sog'lom insonni shakllanishiga olib kelishi orqali sog'lom oilalarning vujudga kelishiga zamin yaratib beradi;

- milliy iqtisodiyotimiz zamonaviy rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti darajasiga etishi uchun ham iqtisodiyotga ta'sir etadigan qadriyatlarimizni o'rganib borishni taqozo etadi. Xususan, bunda jismoniy tarbiya va sportning iqtisodiy taraqqiyotga quyidagi ta'sirini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish lozim:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'naviy qadriyatlarni rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi jismoniy tarbiya va sportning xususiyatlarini ochib berish va rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya va sport ta'sirida rivojlanuvchi ma'naviy qadriyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini belgilash;

- jismoniy tarbiya va sport asosida rivojlanuvchi qadriyatlarning namoyon bo'lishi va ko'rinishlarini oydinlashtirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga olib keluvchi qadriyatlarni belgilab, bu qadriyatlarni jismoniy tarbiya va sport yordamida rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Hozirgi kunda mamlakatimiz hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarish va islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida mustahkam bilimga ega, O'zbekistonning bugungi tashqi va ichki siyosati yo'nalishlarini tushunadigan, tahlil eta oladigan

yosh va tashabbuskor kadrlarga bog'liq. Bu borada jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalash hamda ularning tafakkur tarzini rivojlantirish dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadidan kelib chiqilgan qarorda "jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning barcha bosqichlarida sport mahoratidan saboq berishning innovatsion metodikalarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish" muhim amaliy ishlardan deb ko'rsatilgan.

Shu yo'nalishdan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini "Sport qadriyatlari"dan foydalangan holda rivojlantirish o'ziga xos pedagogik yondashuv bo'lib xizmat qiladi. Zero, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning o'z sohasini bilishini rivojlantirish, tafakkur tarzini takomillashtirish uchun zamonaviy usullar, metodik materiallarning samarali shakllarini ishlab chiqish, sinab ko'rish va o'quv-mashg'ulot jarayoniga joriy etish albatta o'z natijasini beradi.

Barchamizga ma'lumki, "sport bu – jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarning turli majmualari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish tizimidir". Ushbu tizimda ishtirok etuvchilar o'z faoliyatlarida ma'lum qoida va printsiplarni yaratib borish mobaynida jismoniy, ruhiy, aqliy, ahloqiy, ma'naviy, madaniy tarbiya jarayoniga kirib boradilar. Shundan kelib chiqib "qadriyatning o'ziga xos bo'lgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar kesishish nuqtasida "Sport qadriyatlari" paydo bo'ladi. Ayni shu xususiyatidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, "Sport qadriyatlari" bu "Universal hamda umuminsoniy qadriyatdir". Sport qadriyatlarining mazmun-mohiyatini tushunish uchun birinchi navbatda sport mutaxassislari faoliyatida qadriyatlarning o'rnini anglashimiz muhim. Chunki, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzida qadriyatlarning xususan, sport qadriyatlarining roli ahamiyatlidir. Ushbu mutaxassislar jamiyatda mavjud bo'lgan biror qadriyatni qabul qilish uchun avvalo uning ijtimoiy ahamiyatini tushunishi lozim. Shundagina mazkur qadriyat sport mutaxassisining qadriyatlar tizimiga kirishi mumkin. Bunda birinchi navbatda sport qadriyatlarini o'zlashtirish yuzaga chiqadi. Sport qadriyatlarini o'zlashtirish bu – sport

mutaxassisining jismoniy barkamollik sohasidagi bilimlari, harakat ko'nikmalari, o'z sog'lom turmush tarzini tashkil etishga bo'lgan qobiliyati, ijtimoiy-psixologik ko'rsatmalar, jismoniy tarbiya va sport faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan yo'nalganlik bilan ifodalanadi. "Qadriyatlarga yo'naltirilganlik sportchi shaxsi tizimida eng yuqori mavqelardan birini egallaydi". Bu qadriyatlar sportchining xulq-atvori va faoliyatini tartibga solishda boshqa ehtiyojlarni o'ziga bo'ysundiradi. Sport qadriyatlari ushbu sohadagi ayrim hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini aks ettiradi, hayot jarayonida ideal va ko'rsatmalar bo'lib xizmat qiladi. Sport sohasidagi qadriyatlarning rivojlanish darajasi sportchi talabalar madaniyatining ko'rsatkichi, jismoniy tarbiya va sport faoliyati natijasida ularning ideal qiymatini amalga oshirish darajasi va bilim, vosita mahorati va ko'nikmalari, motivatsiyasi bilan belgilanadi. Qadriyatlar inson ma'naviyatida markaziy o'rinni egallar ekan, bu sport mutaxassislarining iroda, emotsional sohalarini o'ziga bo'ysundiradi, barcha to'siqlarni engib o'tishga undaydi va asosiy maqsadga aylanadi. Sportchining maqsadini shakllantirishda esa manfaat muhim o'rin tutadi. Manfaat bu jarayonda ijtimoiy qadriyat tizimidan kelib chiqadi. U moddiy va ma'naviy ko'rinishlarda bo'ladi. Inson hayotida intellekt, tafakkur, maqsad singari yuksak ma'naviy elementlarning paydo bo'lishi aslida ehtiyojlarni qondirish, manfaatlarni ro'yobga chiqarishga intilish tufayli yuzaga kelgan. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisleri faoliyatida ham ularning yuksak marralarga intilishida moddiy va ma'naviy manfaatlar o'z o'rniga ega. Moddiy manfaatlar pul mukofotlari olish, kubokni qo'lga kiritish kabi shakllarda namoyon bo'lsa, ma'naviy manfaatlar obro'ga ega bo'lish, Vatan sharafiga hissa qo'shish, jamoaning obro'sini oshirishga intilish kabilarda namoyon bo'ladi. "Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining faoliyatidagi qadriyatlar mohiyatiga ko'ra moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan, kasbiy faoliyati uchun boshlovchi vazifasini bajaradigan, xulq-atvori hamda hatti-harakatlarini ijtimoiy muhim maqsadga qaratadigan motivatsiya bo'lib hisoblanadi".

Sportda motivatsiya – sportchining harakatini uyg'otadi, uning harakatini boshqaradi, maqsad sari etaklovchi vosita bo'ladi, sport faoliyatini tashkillashtiradi hamda faollik va bardoshlilikka undaydi. Buni o'zbek milliy kurashi misolida ko'rib chiqamiz. Barchamizga ma'lumki, o'zbek milliy kurashi qadimdan ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan va biz uchun muqaddas sport turi hisoblanadi. Ushbu sport turini to'y, sayl va bayram tadbirlarida o'tishini kuzatgan bo'lsangiz,

davrani olib boradigan bakovul kurash tomoshabinlar uchun qizg'in va mazmunli o'tishi uchun polvonlarning kelib chiqishi va ularning polvonlar oilasidan ekanligini ommaga baland ovozda tanishtirib boradi. Qaysi bir polvon zaifroq harakat qilayotgan bo'lsa, uning quvvatini yanada oshirishni ko'zlab u haqda maqtovli so'zlarni gapira boshlaydi. Natijada musobaqa qizg'in kurash ostida o'tadi va uzoq davom etadi. Bakovulning polvonlar haqida ketma-ket yog'dirayotgan maqtovli so'zlari motivatsiya deyiladi. Yuqoridagi misoldan kelib chiqib, sport motivatsiyasi sportchining boshqalar tomonidan kuchini oshiruvchi omil hamda kuchli emotsional manbaadir. Demak, sportda motivatsiya – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining muvaffaqiyatlari uchun eng asosiy turki hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, sport motivatsiyasi o'z-o'zidan sport qadriyatlarining mazmunini yanada boyitadi. Jismoniy mashqlarni ongli ravishda muntazam bajarish, mashqlar yuklamasining asosiy nazariy, uslubiy, texnologik va madaniy qiymati bilan bog'liq. Jismoniy tarbiya va sportdagi mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirishga zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish sportchi talabalarning jismoniy hamda ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini jismoniy tarbiya va sport qadriyatlari bilan tanishtirishga qaratilgan jismoniy tarbiya jarayonining modelini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining faoliyatida qadriyatlarni uch turga bo'lish mumkin:

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari faoliyatidagi qadriyatlar tizimi

Sport mutaxassislarining faoliyatida qadriyatlar:		
Motiv qadriyatlar	Maqsad qadriyatlar	Qadriyatga aylangan shart-sharoitlar
sportning ma'lum turiga kirib kelishi va faoliyatini boshlash jarayonida shakllanadi.	sport mutaxassisi o'zining butun faoliyatini bosh maqsadidan kelib chiqib belgilaydi va shu asosida o'zining harakatlarini baholab boradi.	mashq yoki musobaqa o'tkazilayotgan muhit, musobaqa qoidalari, nazorat shakllari.

Ijtimoiy taraqqiyot natijasida insoniyat o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan, o'zining manfaat va maqsadlari yo'lida xizmat qiladigan barcha

moddiy-ma'naviy boyliklarni qadrlab kelmoqda. Bu jarayonda u o'zgarib, takomillashmoqda. "Sport qadriyatlari" ham ana shunday ijtimoiy xarakterdagi qadriyatlarning sohaviy turi hisoblanadi.

A.N.Shopulatov o'zining "Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish yo'llari" nomli monografiyasida sportni umuminsoniy qadriyat sifatida talqin qilib "Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari insonni jismonan baquvvat qilish bilan birga, uning ruhini mustahkamlaydi, aqlini ravshan qiladi. Shu tariqa odamda nafsiga erk bermaslik fazilatini tarbiyalab, foydali ishlarga chorlaydi, noto'g'ri fikrlashdan saqlaydi, salbiy ta'sirga berilmaslik uchun mustahkam ruhiy zamin yaratadi, ya'ni g'oyaviy jihatdan ham tarbiyalashda salmoqli o'rinni egallaydi" deb ta'kidlaydi. Bizningcha esa, "Sport qadriyatlari"da insoniyat uchun umumiy qabul qilingan haqiqat, o'zaro hurmat, jamoada ishlash, jasorat, do'stlik, qat'iyat, adolat, mukammallikka intilish, tolerantlik, ezgulik kabi asosiy tushunchalar hamda tinchlikparvarlik, vatanparvarlik, birdamlik, insonparvarlik kabi printsiplar mavjud.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda "Sport qadriyatlari"ni tushuntirish hamda ularning ijtimoiy ta'siridan foydalanish uchun quyidagi yondashuvni taklif etamiz. Buning natijasida ushbu mutaxassislarining tafakkur tarzida quyidagicha progressiv o'zgarishlar yuzaga chiqadi .

"Sport qadriyatlari"ning asosiy tushunchalari va tamoyillari

№	Sport qadriyatining asosiy tushunchalari va tamoyillari	Sport qadriyati tushunchalari va tamoyillarning sportdagi mazmuni	Sport qadriyati tushunchalari va tamoyillarning bo'lajak sport mutaxassislarining tafakkur tarziga ta'siri
1	Haqiqat	G'alabaning asosiy sharti	Ahloqiy tafakkur uslubini paydo qiladi
2	Jasorat	Sportchining bor kuch imkoniyatini namoyishi	Pragmatik tafakkurni rivojlantiradi
3	Tolerantlik	Raqibga nisbatan bag'rikenglik	Insoniylik qiyofasini saqlab turadi
4	Jamoada ishlash	Interfaol harakat	Egoizmga qarshi

			immunitetni shakllantiradi
5	Insonparvarlik	Sport etikasining asosi	Dunyoqarashni kengaytiradi
6	Solidarizm	Birdamlik	Turli vaziyatlarda o‘zaro hamkorlikni shakllantiradi
7	Vatanparvarlik	Sportchining fuqarolik pozitsiyasi asosi	Dahldorlik va mas’uliyatni uyg‘otadi

Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga “Sport qadriyatlari”ning ijtimoiy ta’sirini aniqlash hamda shu asosda ularning tafakkur tarzida progressiyaga erishish uchun quyidagi eksperiment tajriba o‘tkazish xaritasidan foydalanish mumkin.

“Sport qadriyatlari”ning mazmunini tushuntirish xaritasi

№	So‘rovnoma	Kategoriyalar									
		Ishtirok etish		Zavq		Halol o‘yin		Hurmat		Majburiyat	
		Baholash jadvali									
1	Menga natija muhim emas, muhimi ishtirok etish										
2	Sportda muhim narsa raqobat emas, balki ishtirok etishdir										
3	Agar men zavqlansam, yutqazishga qarshi emasman										
4	Menga yakuniy hisob muhim emas										
5	Sport bilan shug‘ullanaman, chunki bu menga yoqadi										

6	Sport bilan shug'ullanganimda o'zimdanda zavqlanaman										
7	Do'stlarim bilan sport musobaqalarida ishtirok etish yoqadi										
8	Men o'zimni yaxshi his qilish uchun o'ynayman										
9	Raqib menga qarshi chiqsa, men unga o'zining usulida qarshilik ko'rsataman										
10	Men muammoli vaziyatlarga munosabat bildiraman										
11	Hakamning qarori adolatli bo'ldimi, deb savol beraman										
12	Raqib jamoa kuchli o'ynasa, men ham shunday qilaman										
13	Men raqiblarga hurmat ko'rsataman										
14	Men hakamlarga hurmat ko'rsataman										
15	Mag'lub bo'lganimda kim bo'lishidan qat'iy nazar raqibimlarimni tabriklayman										
16	Hayotda raqiblarim bilan yaxshi munosabatda										

	bo'laman										
17	Barcha musobaqalarda bir xil kuch sarflashga harakat qilaman										
18	Jamoaning manfaati uchun qo'limdan kelganini qilaman										
19	Men zaif tomonlarimni yaxshilash yo'llarini izlayman										
20	Men o'yin qoidalarini hurmat qilaman										

Sportchi talabalarning tafakkur tarzini o'zgaritishda "Sport qadriyatlari"ning ijtimoiy ta'siridan foydalanish bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik:

- bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining faoliyatidagi qadriyatlar mohiyatiga ko'ra moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan, kasbiy faoliyati uchun boshlovchi vazifasini bajaradigan, xulq-atvori hamda hatti-harakatlarini ijtimoiy muhim maqsadga qaratadigan motivatsiya bo'lib hisoblanadi;

- sport qadriyatlari sportchining ijtimoiy xulq-atvori va faoliyatini tartibga solish hamda uni boshqaruvchi vazifasini bajaradi;

- sport qadriyatlari umuminsoniy qadriyat hisoblanib, o'zida tinchlikparvarlik, vatanparvarlik, birdamlik, insonparvarlik tamoyillarini jamlaydi.

Nazorat savollari:

1. Sport va shaxs ijtimoiylashuvi qanday mazmunga ega?
2. Shaxs va ijtimoiylashuv tushunchasining mazmuni qanday?
3. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs ijtimoiylashuvida sportning sotsial roli qanday?
4. Sportchining ijtimoiy mas'uliyati deganda nima tushuniladi?
5. Sportchi talabalarning tafakkur tarzini o'zgaritishda "Sport qadriyatlari"ning ijtimoiy ta'siridan foydalanish yo'llari qanday?

Mavzu: Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida va uning jamiyatdagi o'rni

REJA:

1. Yoshlar ijtimoiy guruh sifatida.
2. Yoshlarning zamonaviy sotsiologik konsepsiyalari.
3. Yoshlar hayotida jismoniy tarbiya va sportning o'rni.

Yoshlar sotsiologiyasi XX asrning 20-yillarida Olmoniyada, AQShda va Fransiya shakllandi. 1928 yilda K.Mangeymning «Avlod muammosi» asari bosilib chiqdi. Bu asar yoshlarning sotsiologik muammolari ilmiy asosda o'rganilgan dastlabki asarlardan edi.

XX asrning 60-yillaridan yoshlar muammolarini tahlil qilishga va yechishga qaratilgan asarlar ko'plab chop etila boshlandi. Olmoniyada yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha G.Shelskiyning «Skeptik avlod» (1957), F.Tenbrukning «Yoshlar va jamiyat» (1962); Venadagi sotsiologik institut direktori L.Rozenmayrning «Empirik sotsial tadqiqot bo'yicha qo'llanma» (1969), Amerika sotsiologi D.Kempbellning «Sotsializasiya bo'yicha spravochnik» (1969), Amerika sotsiologi S.Eyzenshtadtning «Avloddan avlodga» (1966) asarlari yoshlar sotsiologiyasining keng rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hozirga davr yoshlar sotsiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sotsiologik o'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar, muammosini o'rganishda tarixiy yondoshish lozimligi. Yoshlarning ijtimoiy qarashlariga, hulqiga, qiziqishiga va boshqa jihatlarini tadqiq etishda muayyan tarixiy davr, shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baho berish talab qilinadi. Masalan, hozirda, shakllanib kelayotgan bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy qarashlari, qiziqishlari va yuzaga kelayotgan muammolar avvalgi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagiga nisbatan o'zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatlarga ega bo'lmoqda.

2. Yoshlarning o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o'rganish. Bunda yoshlarning ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish.

3. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning, muhitning o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasida doimo muayyan rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli, keksa avlod bilan yoshlar o'rtasida o'zaro ziddiyat vujudga keladi.

Ko'pincha, yoshlarning manfaat va qiziqishlari, faoliyati, tashqi ko'rinishi (moda) kekxa avlodda norozilik, e'tiroz tug'diradi.

4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashib. Bu metodologik tamoyil yoshlarni turli tabaqalardan iborat guruhlariga ajratib o'rganishni bildiradi. Bozor munosabatlarining tarkib topa borishi bilan yoshlar o'rtasida ham tabaqalanish yanada kuchayishi tabiiydir. Hozirdanoq ularning turli ijtimoiy tabaqalarga ajralish jarayoni ro'y bermoqda. Bir tomondan, jamiyat ijtimoiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi yoshlar guruhlar: talabalar, yosh olimlar, ishchilar, fermerlar, ishbilarmon yoshlar, san'atkorlar, savdogar yoshlar kabi guruhlar salmog'i ortib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa yoshlar, bekorchi-sayok, giyoxvand, jinoyatchi kabi yoshlar jamiyat xayotida salbiy, disfunktsional ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, hozirda O'zbekiston miqyosida jinoyatchilikning 85 foizga yaqini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir qilinayotganligini e'tiborga olsak, yoshlar sotsiologiyasining jamiyat hayotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin bo'ladi.

Sotsiologiyada yoshlik bolalik davridan so'ng ulg'ayish davrigacha bir necha bosqichlarga ajratilib ko'rsatiladi. Masalan, yoshlikning dastlabki, quyi chegarasi 14-16, yuqori chegarasi esa 25-30 yoshlarni o'z ichiga oladi. 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarda asosiy muammo, ularning kasb tanlashi, ma'lumot olishi va hayotga mustaqil qadam qo'yishi bilan bog'liq vazifalarni o'z ichiga oladi.

Sotsiologiyaning bu maxsus nazariyasi jamiyatniig barcha ijtimoiy sohalaridagi yoshlar bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti va yoshlar muammosi; xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning yosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji; ta'lim tizimi va yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash; demografik jarayonlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash; yoshlarning ma'lumot olishi va kasb tanlashi muammosi; yoshlarning kasb tanlashi va sotsial mobillik; yoshlarni kasb tanlashida milliy, hududiy va mintaqaviy xususiyatlar; yoshlarning ma'lumot olish imkoniyatlarini oldindan prognoz berish; yoshlarda mehnat malakasini shakllantirish masalalari; shahar va qishloq yoshlari hayoti; yoshlarning turmush darajasi kabi masalalar shular jumlasidandir. Ushbu ma'lumotlar bo'yicha empirik va nazariy jihatdan sotsiologik tadqiqot olib borish. ularning statik va dinamik xususiyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi.

Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos qiyin, murakkabligi ham, uning ko'p qirraligidadir. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb masalalardan

biridir. Bu muammoni hal etib borilishi yoshlar bilan bog'lik bo'lgan ko'plab masalalarning yechimini topishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada, viloyatlarda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida «Usta va shogird» tizimi asosida ko'plab ishlar qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad, yoshlarni milliy hunarmadchilikka, qadriyatlarga, an'analarga hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash hamda ularni moddiy jihatdan ta'minlashni yaxshilashdan iboratdir.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy qarashlarida jiddiy o'zgarishlar yasamoqda. Shuning uchun yoshlarning kelajak hayoti rejalarini, ularning qiziqishlarini aniqlash maqsadida empirik-sotsiologii tadqiqotlar o'tkazish va nazariy xulosalar chiqarish yoshlar sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozim, yoshlarning kelajak hayotini rejalashtirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Bu jihatdan yoshlar oila sotsiologiyasi bilan uzviy bog'lik bo'ladi.

Yoshlarning kasb tanlashi, ish joylariga ega bo'lishi ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va yuksak texnologik takomillashuv jarayonida ko'p jihatdan ta'lim tizimining sifatiga ham bog'liq. Bu jihatdan esa yoshlar sotsiologiyasi ta'lim, ilm-fan sotsiologiyasi bilan yaqin aloqadadir.

O'zbekiston yoshlar mamlakati. Bugungi kunda mamlakatimizda o'ttiz yoshgacha bo'lganlar 17 million sakson ming nafarni yoki aholining 64 foizini tashkil etadi. Demograflarning tadqiqotlariga qaraganda, mamlakatimiz aholisining yuqori suratlarda o'sishi yaqin chorak asrda ham davom etadi. 2015 yilga kelib O'zbekiston aholisi 1,5 barobarga ortib, jami 36 million 330 ming kishidan ortishi kutilmoqda. Shu davr mobaynida mehnatga yaroqli aholi soni ham ikki barobarga oshadi va 2015 yilda qariyb 20 million nafar kishini tashkil etadi.

Milliy mafkuramizning muxtasar shoriga aylangan ushbu so'zlar nafaqat ruhlantiruvchi da'vat, balki amaliy natijaga aylanish uchun davlat jamiyatning eng faol qatlami bo'lgan yoshlarga asosiy e'tiborni qaratmokda. «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, «Umid», «Mirzo Ulugbek» jamg'armalarining tuzilishi, yoshlar muammolari instituti faoliyatining yo'lga qo'yilishi, «O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni», «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Yoshlar yili» Davlat dasturining qabul qilinishi va hayotga jadal joriy etilayotganligi yuqoridagi fikrlarning amaliy isbotidir.

Ta'kidlash joizki, «Yoshlar yili» Davlat dasturining eng muhim xususiyati, u nafaqat bir yilga mo'ljallangan maqsad va vazifalarni emas balki, davlatimizning yoshlar siyosatiga doir dolzarb vazifalarni bajarish bilan bog'liq butun bir davrning mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etadi.

Yoshlarning milliy o'zligini anglash sharoitida ular ijtimoiy manfaatlarini o'rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq etish muxim ahamiyatga ega bo'lib, bular quyidagilardir:

fikrlar xilma-xilligi nuqtai nazaridan mustaqillik sharoitida ijtimoiy manfaatlar mavjud konsepsiyalar orqali tahlil etiladi va zamonaviy sharoitlarga xos bo'lgan qarashlar tarzida ifodalab beriladi;

ijtimoiy manfaatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, ahamiyati zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan o'zaro uyg'un tarzda o'rganiladi;

ijtimoiy manfaatlar mohiyati, mazmuni hamda jamiyat rivojidagi o'rnini masalalarini sotsiologik jihatdan tahlil etadi;

jamiyatda etnosiyosiy jarayonlarni tahlil etib, ularning millatlararo munosabatlarga ta'sirini hamda milliy manfaatlardagi o'rnini ko'rsatadi;

etnik masalalarning ijtimoiy taraqqiyot va jamiyat rivojidagi voqea-xodisalarga o'zaro alokadorlik dialektikasini o'rganib, ushbu jarayonning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq xususiyatlarini tahlil etadi;

jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarning ijtimoiy manfaatlariga ta'sirini o'tkazadi;

hozirgi davrda ijtimoiy taraqqiyotga xos jarayonlar rivojida etnik manfaatlarning uslubi, milliy va umuminsoniy mazmun kasb etish xususiyatlarini nazariy tadkit etadi.

Sotsiologiya fani yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy va ruhiy o'ziga xos holatga ega bo'lgan yirik ijtimoiy gurux sifatida o'rganadi. Bu ijtimoiy va ruxiy xolatda ularning nafaqat yoshdagi tafovutlari, balki ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy mavqei ham o'z ifodasini topadi. Yoshlar deganda, ma'naviy dunyosi shakllanish jarayonida bo'lgan, asosan 16-30 yoshlardagi insonlar tushuniladi. Biroq, yoshlarning ijtimoiy jihatdan bir-biridan farqlanishi ayrim mutaxassislarni yoshining yuqori chegarasini turli guruxlarning ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy sifatlari shakllanishi davomiyligiga qarab aniqlashga undamokda. Jumladan, yosh ishchining bir kasb boshini qat'iy tutishi asosan 25 yoshlarda amalga oshsa, yosh olim 35 yoshida shakllanib ulg'ayadi. Yosh chegaralari u yoki bu mamlakatdagi mavjud tarixiy sharoit hamda ijtimoiy tuzumga bevosita bog'liqdir. Masalan, bolalar va o'smirlar mehnatini keng qo'llash yoshlar deb ataladigan qatlamning pastki chegarasini ancha quyi yoshdan

aniqlashni taqozo etadi. Ko'pgina mamlakatlarda yoshlikning quyi chegarasi tegishli xuquqiy-me'yoriy xujjatlarda yozib qo'yilgan. Mustaqil kasb faoliyati bilan shug'ullanish xuquqi va imkoniyatlari, ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashish xuquqi, o'z xatti-xarakatlari uchun fuqaro sifatida javob berish qobiliyati, nikohga kirish huquqi mana shu quyi chegarani aniqlashni taqozo etadi. Hozircha bu jaxon tajribasida 14-16 yoshni tashkil etadi. Yoshlar tarkibiga kiruvchi o'quvchilar, talabalar, yosh ishchilar va boshqalar ijtimoiy-ruhiy yaqinligi, qiziqishlarining umumiyligi nafaqat bir mamlakat xududida, balki butun jaxon uzra ularning ommaviy chiqishlari, birgalikda harakatiga sabab bo'ladi. Yetimlarning mustaqil hayotga qadam qo'yish jarayonidagi murakkabliklar va qarama-qarshiliklar gohida ularning turli shakldagi, jumladan, aksil ijtimoiy (jinoyatchilik, giyoxvandlik kabi) noroziliklarini, shuningdek, o'ziga xos yoshlar «madaniyati»ni keltirib chiqaradi. Jamiyatni sinflarga bo'lishni odat qilgan sho'rolar zamonida ayrim mutaxassislar yoshlarni aloxida sinf deb qarashga moyil bo'lgan paytlar ham bo'lgan. Biroq kommunistik mafkura mutaxassislari ham yoshlarni jamiyatdagi bir qatlam ekanini e'tirof etishga majbur bo'ldilar.

Yoshlik-bu ilohiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozisiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati ijtimoiy foydali bo'lishgina emas, balki bu faoliyat shaxsiy maqsadlariga, intilishlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkin qadar to'laroq ko'maklashishi ham g'oyat muhimdir.

Jamiyat o'z oldiga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Bu o'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash deganidir. Shundagina ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Prezident I. Karimov aytganidek, «Shuncha odam olomon bo'lib, har laxzada serqirra ehtiyoj sezib emas, aksincha aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z ma'suliyati bilan ongli tarzda ozod va hur fikrli bo'lib yashaydi. Bunda odamlar uyushgan jamiyatini, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, xavoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalg'itib bo'lmaydi. Xorijdagi ayrim siyosiy kuchlar jamiyatimizning istiqboli bo'lgan yoshlarimizni o'z ta'siriga olishga urinayotgan ayni zamonda ta'lim-tarbiya tizimimizni, jumladan, sotsiologiya fani nazariyasini yoshlarga qaratishimiz, ular muammolari, uy-tashvishlarini bilib, yoshlar

siyosatini ilmiy asosga ko‘chirishimiz asosida yuqorida ta’kidlangan ijobiy natijalarni qo‘lga kiritishimiz mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizda yoshlarning o‘z kelajagini qurishi uchun keng imkoniyatlar ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlarning mehnat qilish, kasb tanlash va ma’lumot olish xuquqi kafolatlangan. O‘zbekiston hukumati yoshlarga alohida e’tibor qaratmoqda. Yosh mutaxassislar davlat boshqaruvining ma’suliyatli ishlariga ko‘proq jalb etilmoqda. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarga alohida e’tibor berilib, ularning faoliyati mavjud iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Inson salomatligida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri bu jismoniy tarbiya va sportdir. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirishda trenerlarning o‘rni, ularning malakasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bo‘ljak trenerlarni tayyorlashning sifatini oshirib borish zarurdir. Bizga ma’lumki malakali mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha bir qancha qarorlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori hamda jismoniy tarbiya va sport sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli, 2018 yil 12 dekabrda “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiruvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4061-soni hamda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 maydagi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 331-sonli, 2019 yil 7 yanvardagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6-sonli qarorlari yaqqol misol bo‘la oladi. Sohada malakali mutaxassislarni tayyorlashda faqatgina sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi yoki tibbiy-biologik fanlar bo‘yicha bilimlari etarli hisoblanmaydi. Bugungi kunda ularda ijtimoiy masalalar bo‘yicha bilimlarini rivojlantirib borish

ham zarurdir. Ayniqsa, malakali trenerlarni tayyorlashda ularning ma'naviy qadriyatlar haqida bilim va malakaga ega bo'lishlari yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jismoniy tarbiyaning rivojlanishi bilan turli fan tarmoqlari vujudga kelmoqda. Bu esa jamiyatimizda aholining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabatini o'rganishda hamda ularni jalb qilishda faqatgina jismoniy tarbiya va sportning o'quv-mashq jarayonini takomillashtirish orqali yoki sport inshootlarini barpo etish orqali erishib bo'lmasligi ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda barcha omillarni o'rni, ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi. Xususan, ma'naviy qadriyatlarni o'rganish aholining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabati, qiziqishi shakllanishida hamda ijtimoiy omillarning o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar qatorida aholining jismoniy tarbiya va sport bo'yicha salohiyatini o'rganish, oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish tobora ushbu sohani rivojlantirishda zaruriyat bo'lib bormoqda. Biz mazkur fikrimizni isbotlash maqsadida kichik bir sotsiologik tadqiqot o'tkazdik.

Nazorat savollari

1. Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida va uning jamiyatdagi o'rni qanday?
2. Yoshlar ijtimoiy guruh sifatida mazmuni qanday?
3. Yoshlarning zamonaviy sotsiologik konsepsiyasi mazmuni qanday?
4. Yoshlar hayotida jismoniy tarbiya va sportning o'rni qanday?

Mavzu: Sport submadaniyati.

REJA:

1. Submadaniyat tushunchasi. Yoshlar submadaniyatida sport yo'nalishlari.
2. Yoshlarning sport faoliyatida deviant xulq-atvor.
3. Sport fanatizmi hodisasi. Sport fanatizmining sotsiologik va ijtimoiy-psixologik determinantlari.
4. Sport va doping. Doping zamonaviy sportning individual va tizimli muammosi sifatida. Doping muammosining asosiy jihatlari: tibbiy-biologik, huquqiy, etik-estetik va ijtimoiy.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunida sportda shafqatsizlik va zulmni, inson qadr-qimmatini kamsitishni, inson sog'lig'iga zarar etkazadigan dori-darmonlarni qo'llashni targ'ib qilishga, sport bilan shug'ullanishda man etilgan vositalarni qo'llashga yo'l qo'ymasligi belgilab qo'yilgan. Shu ma'noda sportda dopingga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konventsianing ratifikatsiya qilinishi yurtimizda sportni xalqaro me'yorlar asosida rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning mantiqiy davomidir.

Sportchi o'zi bilmagan holda tarkibida taqiqlangan moddalar mavjud dori-darmon, ovqat qo'shimchalarini iste'mol qilishi ham doping masalasini qabul qilishga tenglashtiriladi.

Internetdagi ma'lumotlarga qaraganda, WADA ijro qo'mitasi Rossiya sportchilarini o'z bayrog'i va madhiyasi ostida to'rt yil muddatga yirik xalqaro musobaqalarda ishtirok etish huquqidan mahrum qildi. Bunga Rossiya sportchilari tomonidan navbatdagi doping qoidabuzarliklariga yo'l qo'yilishi sabab bo'ldi. Mamlakatimizning etakchi sportchilaridan Erkin kurashchilar Artur Taymazov, Soslan Tigiev, Hasanboy Rahimov -125 kg 2020 yil, og'ir atletikachi, jahon chempionati sovrindori Rustam Jangaboevning (20 fevr. 2020) shuningdek, antidoping qoidalarini buzganligi sababli Tokioda bo'lib o'tadigan musobaqalardan O'zbekistonlik 4 paralimpiyachi 4 yilga chetlatildi. Ular orasida 3 pauerlifter va bir engil atletikachi bor. Sanktsiyalar pauerlifterlar - Ismira Islomova, Shahzoda Mamadalieva va Muslima Nuriddinova hamda engil atletikachi Kamolaxon Abdullaevaga nisbatan joriy qilingan. Bunday noxushliklarning oldini olish uchun sportchilar, murabbiylar, tibbiyot xodimlari, dietologlarga doping vositalari, ularning turlari xususiyatlari, salbiy oqibatlarini kengroq tushuntirish lozim. "Sportda dopingga qarshi

kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiyani (Parij, 2005-yil 19 oktyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtiradi. Har bir sportchi faoliyati davomida yuksak cho'qqilarni zabt etishni orzu qiladi. Qit'a va jahon chempionatlari, Olimpiya o'yinlari shohsupasiga intiladi. Lekin o'z maqsadiga erishish yo'lida nopok usullar, xususan, jismoniy imkoniyatlarini sun'iy tarzda oshiruvchi doping turlaridan foydalanish holatlari ham tez-tez uchrab turadi. Bu jahon sportidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Lug'atlarda yozilishicha, "doping" – inglizcha "doping" so'zidan olingan bo'lib, "narkotiklar bermoq" degan ma'noni anglatadi. Doping zamonaviy sportda inson organizmining ruhiy va jismoniy faoliyatini sun'iy ravishda ma'lum muddat kuchaytiradigan, sport natijalarini yaxshilash maqsadida qo'llaniladigan moddalar turkumidir.

Doping yordamida jismoniy va ruhiy quvvatni oshirish Olimpiya harakati va sportning ma'naviy tamoyillariga mutlaqo ziddir. U inson salomatligi va hayoti uchun xavfli vosita bo'lib, jahon sportida mazkur moddalarni iste'mol qilish orqali sportchilarni nogiron bo'lib qolishi yoki hayotdan ko'z yumish holatlari ham uchraydi. Jumladan, sport olamining eng nufuzli musobaqasi – Olimpiya o'yinlari doirasida ilk marotaba doping mojarosi 1960-yilda kuzatilgan. O'shanda Italiyaning Rim shahrida o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarida daniyalik sportchi Kurt Ensen sun'iy kuchlantiruvchi fenamin moddasini haddan ziyod ko'p iste'mol qilganligi oqibatida hayotdan ko'z yumgan. Ushbu noxush voqea tufayli Xalqaro Olimpiya qo'mitasi dopingga qarshi kurashishga bel bog'ladi. Olimpiyachilar maxsus tekshiruvdan o'tkaziladigan, ta'qiqlanadigan moddalardan foydalangan sportchilarga jiddiy jazo choralari qo'llaniladigan bo'ldi.

1999-yili xalqaro Olimpiya qo'mitasi Shveytsariyaning Lozanna shahrida dopingga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konferentsiya o'tkazilib, butun jahon dopingga qarshi kurash agentligi (WADA) tomonidan 2003-yil 5-martda "Butun jahon dopingga qarshi kurash kodeksi" qabul qilindi. Bugun mazkur kodeks tamoyillaridan kelib chiqqan holda doping sifatida e'tirof etilgan moddalar ro'yxatini tuzish va e'lon qilish, taqiqlangan moddalarni bartaraf etish, doping tekshiruvlari bilan shug'ullanadigan tibbiy laboratoriyani akkreditatsiyadan o'tkazish, qator sport turlari bo'yicha nufuzli musobaqalar va mashg'ulotlar jarayonida sportchilarni doping nazoratidan o'tkazish, qoida buzilishi aniqlangan holatlarda zarur

choralarni ko'rish, sportchilarni huquqlarini himoyalash, ularning jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlash kabi masalalar izchil olib borilayotir.

Dunyoda o'z sport turini targ'ib qilayotgan har bir sport tashkiloti sportchi tayyorlash va musobaqalar o'tkazish jarayonida dopingga qarshi kurash masalalarini ham ijobiy hal etmog'i lozim. Xalqimizning milliy qadriyatlaridan biri kurash bo'yicha qit'a va jahon miqyosidagi musobaqalarida doping nazoratini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Kurash xalqaro assotsiatsiyasi 2010-yilda Butun jahon dopingga qarshi kurash agentligi (WADA) a'zoliciga qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 yanvar PQ-3457-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi milliy antidoping agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori qabul qilindi. YuNESKOning Sportda dopingga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konventsiasini qo'llash tadbirlarini amalga oshirish maqsadida, agentlik faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat etib belgilandi:

- sportda doping qo'llanishining oldini olish va dopingga qarshi kurashish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, Butunjahon antidoping kodeksi, xalqaro antidoping standartlariga asoslangan milliy antidoping qoidalarini hamda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilish, shuningdek, ularga rioya etilishini ta'minlash;

- antidoping nazoratining samarali tizimini, sportda farmakologik ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalari va boshqa moddalar qo'llanishini nazorat qilish dasturlari va uslublari, shuningdek, sportchilar va sport tashkilotlari uchun intizomiy reglamentni ishlab chiqish va joriy etish;

- tadqiqotlar (doping-testlar) va doping nazoratining boshqa elementlarini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasida Butunjahon dopingga qarshi agentligining respublika sportchilari haqida ma'lumotlarni to'plash va saqlash uchun mo'ljallangan antidoping ma'muriyatchiligi va menejment (ADAMS tizimi) bo'yicha onlayn tizimini qo'llash;

- antidoping nazorati sohasida ilg'or uslublari va texnologiyalar bilan almashish hamda ularni mamlakatimizda joriy qilish uchun etakchi xorijiy tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash;

- sport federatsiyalari, klublari va jamoalari tibbiyot xodimlarining malakasini oshirishga ko'maklashish, ularga sportda doping qo'llanishining oldini olish va antidoping nazoratini amalga oshirish borasida uslubiy yordam ko'rsatish, ta'lim dasturlarini amalga oshirish, sog'lom va halol sportni targ'ib qilish;

- davlat hokimiyati organlari, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning antidoping nazorati sohasida o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish.

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo‘mitasi huzuridagi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazining “Milliy antidoping xizmati”ni tugatish hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo‘mitasi huzuridagi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi tizimida “Sport psixologiyasi bo‘limi” tashkil etish masalalari hal etildi.

Doping qabul qilish shaxs manfaatlarini millat sha‘ni, Vatan obro‘si singari yuksak tuyg‘ulardan ustun qo‘yadigan, yuqori natijalarga o‘z mehnati bilan emas, nopok yo‘llar bilan erishishni istaydigan sohta sportchilarga xos illatdir.

Mamlakatimizda sportni ommalashtirish jarayonida yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda, ularni halollik, o‘zaro hurmat-ehtirom, bag‘rikenglik, maqsad sari intiluvchanlik kabi yuksak ma‘naviy me‘yorlar asosida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilayotgani ana shunday illatlarni oldini olishga xizmat qilmoqda. Azaldan otabobolarimiz faol kurashib kelgan, g‘irromlik uyat hisoblangan, sportchi muvaffaqiyatga o‘z kuchi-irodasi va mehnati tufayli erishsa, g‘alaba tatiydi, boshini baland ko‘tarib yuradi. “Sportda dopingga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konventsiyani (Parij, 2005-yil 19-oktabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizda sportda dopingga qarshi nazoratni olib borish, inson manfaatlarini, salomatligi, sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, yosh avlodni jismonan va ma‘nan sog‘lom insonlar qilib tarbiyalashning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlaydi. Sportda doping qabul qilib natijalarga erishish kelajak avlodlar uchun nopoklikni, g‘irromlikni salbiy oqibatlarni tarbifiyalaydi. Shuning uchun ham eng muhimi, yosh sportchilarni milliy qadriyatlarimiz va xalqaro me‘yorlar asosida mard va tinmasdan halol ishlab yutuqlarga erishadigan qilib tarbiyalash barchamizning vazifamizdir.

Bugungi kunda globallashtirish jarayoni natijasida barcha sohalarning modernizatsiyalashuvi boshlandi. Xususan, jismoniy tarbiya va sport ham zamonaviylashib, yangi shart-sharoitlar paydo bo‘lmoqda. Albatta, bu jarayonda bir qancha muammolar ham shakllanib, tobora rivojlanib bormoqda. Zamonaviy sportning ko‘plab muammolari orasida “doping” muammosi dolzarbliigi jihatidan birinchi o‘rinni egalladi.

Har bir sportchi faoliyati davomida yuksak cho‘qqilarni zabt etishni orzu qiladi. Qit‘a va jahon chempionatlari, Olimpiya o‘yinlari

shohsupasiga intiladi. Lekin o'z maqsadiga erishish yo'lida nopok usullar, xususan, jismoniy imkoniyatlarini sun'iy tarzda oshiruvchi doping turlaridan foydalanish holatlari ham tez-tez uchrab turadi. Bu jahon sportidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunida "sportda shafqatsizlik va zulmni, inson qadr-qimmatini kamsitishni, inson sog'lig'iga zarar etkazadigan stimulyatorlarni qo'llashni targ'ib qilishga, sport bilan shug'ullanishda man etilgan vositalarni qo'llashga yo'l qo'ymasligi" belgilab qo'yilgan. Shu ma'noda sportda dopingga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konventsianing ratifikatsiya qilinishi yurtimizda sportni xalqaro me'yorlar asosida rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning mantiqiy davomidir.

Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining 27-moddasida Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish dopingga qarshi xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan dopingga qarshi qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Xususan, quyidagi qoidabuzarlik dopingga qarshi xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan dopingga qarshi qoidalarining buzilishi deb e'tirof etiladi:

- sportchining taqiqlangan substantsiyadan va (yoki) taqiqlangan usuldan foydalanganligi yoki foydalanishga uringanligi;

- musobaqa paytida yoki musobaqadan tashqari paytda sportchi organizmidan, shuningdek sport musobaqasida ishtirok etayotgan jonivor organizmidan olingan namunada taqiqlangan substantsiyalarning yoxud ular metabolitlarining yoki markerlarining mavjud bo'lishi;

- sportchining namuna olinishi uchun kelishdan bosh tortganligi, sportchining dopingga qarshi qoidalarga muvofiq xabardor qilingandan keyin namuna olinishiga uzrli sabablarsiz kelmaganligi yoki sportchining namuna olinishidan boshqacha tarzda bo'yin tovlaganligi;

- sportchidan musobaqadan tashqari paytda namuna olinishi imkoniyatiga taalluqli dopingga qarshi talablarning buzilganligi, shu jumladan o'zining turgan joyi haqidagi axborotni taqdim etmaganligi hamda uning testlashda ishtirok etish uchun kelmaganligi;

- doping nazorati elementini soxtalashtirish yoki soxtalashtirishga urinish;

- Jahon dopingga qarshi agentligining taqiqlangan substantsiyalardan terapevtik foydalanish uchun xalqaro standartga muvofiq beriladigan ruxsatnomasiz terapevtik foydalanish uchun taqiqlangan substantsiyalarga va (yoki) taqiqlangan usullarga ega bo'lish;

“Sportda dopingga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konventsiyani ratifikatsiya qilish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizda sportda dopingga qarshi nazoratni olib borish, inson manfaatlari, salomatligi, sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, yosh avlodni jismonan va ma‘nan sog‘lom insonlar qilib tarbiyalashning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlaydi. Eng muhimi yosh sportchilarni milliy qadriyatlarimiz va xalqaro me‘yorlar asosida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport adabiyotlarida “Doping” – inglizcha “doping”¹ so‘zidan olingan bo‘lib, “narkotiklar bermoq” degan ma‘noni anglatishi ko‘rsatib o‘tilgan. Doping zamonaviy sportda inson organizmining ruhiy va jismoniy faoliyatini sun‘iy ravishda ma‘lum muddat kuchaytiradigan, sport natijalarini yaxshilash maqsadida qo‘llaniladigan moddalar turkumidir. Doping yordamida jismoniy va ruhiy quvvatni oshirish Olimpiya harakati va sportning ma‘naviy tamoyillariga mutlaqo ziddir. U inson salomatligi va hayoti uchun xavfli vosita bo‘lib, jahon sportida mazkur moddalarni iste‘mol qilish orqali sportchilarni nogiron bo‘lib qolishi yoki hayotdan ko‘z yumish holatlari ham uchraydi. Jumladan, sport olamining eng nufuzli musobaqasi – Olimpiya o‘yinlari doirasida ilk marotaba doping mojarosi 1960-yilda kuzatilgan. O‘sha paytda Italiyaning Rim shahrida o‘tkazilgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida daniyalik sportchi Kurt Ensen sun‘iy kuchlantiruvchi fenamin moddasini haddan ziyod ko‘p iste‘mol qilganligi oqibatida hayotdan ko‘z yumgan. Ushbu noxush voqea tufayli Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi dopingga qarshi kurashishga bel bog‘ladi. Olimpiyachilar maxsus tekshiruvdan o‘tkaziladigan, ta‘qiqlanadigan moddalardan foydalangan sportchilarga jiddiy jazo choralari qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Jismoniy tarbiya va sportda “Doping” muammosini hal qilish uchun quyidagi jihatlarni hisobga olish muhim hisoblanadi:

- Tibbiy jihatlar shundaki, sportchilar tomonidan dopingdan foydalanish salbiy, ba‘zi hollarda ularning sog‘lig‘i uchun ayanchli oqibatlarga olib keladi. Ulardan foydalanish natijasida bir qator nogironlik va hatto o‘lim holatlari qayd etilgan. Shu munosabat bilan xalqaro sport va tibbiyot tashkilotlari bir necha o‘n yillar davomida dopingga qarshi kurash olib borishmoqda. Biroq bu kurash kerakli natijalarni bermadi. Sportchilar tomonidan dopingdan foydalanish davom etmoqda.

¹ Морозов В.И., Косолапов В.А., Федорович С.В. Допинг в спорте: Методическая разработка.- Мн., 1989 г

- Ushbu muammo yuridik nuqtai nazardan to'liq hal qilinmagan, chunki xalqaro sport harakatida ham, ayrim mamlakatlarda ham doping giyohvand moddalarini iste'mol qilganlik uchun qonuniylashtirilgan jazo tizimi etarli darajada samarali emas yoki umuman mavjud emas (bir qator davlatlarning qonunchiligida dopingdan foydalanganlik uchun jazo taqdim etilmagan).

- Foyda uchun reklama qilingan yangi farmatsevtik vositalarning chiqarilishi ko'pincha ma'lum bir dorining haqiqiy potentsiali haddan tashqari oshirib yuborilishiga olib keladi va bu sportchilarni va ayrim sport rahbarlarini musobaqalarda g'alaba qozonish uchun ushbu dorilarni ishlatishga majbur qiladi. Gap shundaki, xalqaro musobaqalardagi yuqori natijalar muhim ijtimoiy va iqtisodiy foyda keltiradi hamda bir qator hollarda muayyan siyosiy-mafkuraviy muammolarni hal qiladi.

- Doping muammosi axloqiy jihatni ham o'z ichiga oladi. Doping preparatlarini qo'llash sportning mohiyatiga zid keladi, sport natijalariga erishishda tengsiz sharoitlar yaratadi, mamlakat va jamoaning obro'siga hamda umuman xalqaro sportga zarar etkazadi.

- Sportda dopingga qarshi kurash samaradorligi ko'p jihatdan uni tashkil etish tizimiga bog'liq. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, dopingga qarshi kurashning tashkiliy asoslari olimlarning qarashlari sohasida deyarli mavjud emas edi. Sport va tibbiyot fanlarining asosiy sa'y-harakatlari dopingning sportchi organizmiga ta'sirini o'rganishga, uni aniqlash usullarini, biokimyoviy tarkibiy qismlarni topishga, shuningdek, doping nazorat protseduralari narxini pasaytirishga va eng sodda samarali protseduralarni topishga qaratilgan edi. Shu munosabat bilan dopingga qarshi kurashning tashkiliy asoslarini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Sportda dopingga qarshi kurashning muhim jihatini pedagogik yondashuvdir. Uzoq vaqt davomida unga tegishli e'tibor berilmadi. Ayni paytda xalqaro sport harakati hujjatlariga binoan antidoping ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish asosiy ishlardan biri etib belgilangan. Pedagogik aspektning muhim jihatini bu tarbiyaviy ishdur.

Ushbu jihatlarning barchasi dopingga qarshi kurash muammosini zamonaviy sport harakati uchun muhim va ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb muammo sifatida tashkil qiladi.

Xalqaro dopingga qarshi kurash agentligi "WADA" ning statistik ma'lumotlariga ko'ra dunyo mamlakatlari bo'yicha ohirgi 5 yillikda o'tkazilgan sport musobaqalarida doping bilan bog'liq ko'rsatkichlar dinamikasi (kuchli 5 talik) quyidagicha:

1	Eng ko‘p doping moddasi aniqlangan sport yo‘nalishlari	1-Yengil atletika; 2-Og‘ir atletika 3-Kurash; 4-Velosport 5-Suv sporti
2.	Eng ko‘p doping moddasi qabul qilgan sportchilar mamlakatlari	1-Rossiya; 2- AQSh 3-Germaniya; 4-Fransiya 5- Ispaniya
3	Eng ommaviy doping moddalari	1-Stanozolol; 2-Metandienon 3-Nandrolon; 4-Klenbuterol 5-Furosemid
4	Eng ko‘p doping qabul qilgan millatlar	1-Rus; 2-Ingliz 3-Xind; 4-Nemis 5-Xitoy

Dunyo sporti va sport dunyosida dopingdan foydalanishning ko‘rsatkichlari va asoratlari quyidagicha:

Sport turlarida dopingdan foydalanish			
№	Sport turlari	Doping moddalari	Asoratlar
1	Tezlik va kuchga asoslangan sport turlari: og‘ir atlektika, disk uloqtirish, tezlikka yugurish, engil atletika, suzish.	Anabolik steroidlar, somatotropin, gonadotropin, amfetaminlar, diuretiklar va b.	Erkak va ayol sportchilar organizmida keskin gormonal o‘zgarishlar, metobolik jarayonlar kuzatiladi.
2	Chidamlilik va tsiklik xususiyatlarga asoslanagn sport turlari: yugurish, suzish, velosport	Anabolik steroidlar, somatotropin, gonadotropin, psixomodulyatorlar.	Gormonal o‘zgarishlar, mo‘ljal va aqliy-ruhiy yo‘qotishlar kuzatiladi.
3	Sport o‘yinlari: futbol, basketbol, regbi, beysbol, xokkey, golf.	Alkogol, kokain, heroin, amfetaminlar, marixuana va b.	O‘lim, aqlni yo‘qotish, toksik natijalar yuz beradi.
4	Murakkab sport turlari: balandlikka sakrash,	Alkogol, narkotik analgetiklar,	Giyohvandlik, alkogolizm

	suvga sakrash, figurali uchish, gimnastika, qilichbozlik.	trankvilizatorlar, betablokatorlar va b.	shakllanadi.
5	Yakkakurash sport turlari: kurashning barcha turlari, boks, sharq yakkakurashi	Narkotik analgetiklar, marixuana, alkogol va b.	Giyohvandlikka qaramlik, narkomaniya boshlanadi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sportda “doping” muammosiga qarshi kurashish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni taqdim qilamiz:

- birinchidan, sportchilarning dopingdan foydalanganliklari uchun sport tashkilotchilarining javobgarlik tizimini ishlab chiqish va tasdiqlash, sportchilar, murabbiylar, sport tashkilotchilari, shifokorlarning sportchiga tibbiy aralashuvlardan foydalanishdagi huquq va majburiyatlarini aniq belgilash;

- ikkinchidan, bolalar va o‘smirlar sportiga doping nazorati tizimini kengaytirish mexanizmini majburiy kiritish;

- uchinchidan, doping uchun jazo tizimini xalqaro miqyosda birlashtirish;

- to‘rtinchidan, doping nazorati natijalarini keng jamoatchilikka etkazish va oshkoraligini kuchaytirish, barcha rasmiy xalqaro musobaqalarda sportchilarning antidoping tahlillari byulletenlarini nashr ettirish;

- beshinchidan, sport musobaqalaridan tashqari vaqtda ham doping nazorat tizimini yanada kengroq qo‘llash amaliyotini joriy etish;

- oltinchidan, antidoping laboratoriyalarining jihozlarini zamonaviylashtirish;

- yettinchidan, sportda dopingga qarshi kurashishda murabbiylar hamda sportchilarning bilimlarini oshirish. Buning uchun sport akademiyalari, institutlar, universitetlar, Olimpiya zaxiralari kollejlari, BO‘SMLar o‘quv dasturlariga sportdagi doping muammosi bo‘yicha maxsus fanlarni yaratish va amaliyotga kiritish;

- sakkizinchidan, dopingsiz yuqori natijalarga erishi vositalarini yaratish va dopingni nazorat qilish usullarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda o‘z sport turini targ‘ib qilayotgan har bir sport tashkiloti sportchi tayyorlash va musobaqalar o‘tkazish jarayonida dopingga qarshi kurash masalalarini ijobiy hal etmog‘i lozim.

Doping qabul qilish – shaxsiy manfaatlarini millat sha’ni, Vatan obro‘si singari yuksak tuyg‘ulardan ustun qo‘yadigan, yuqori natijalarga o‘z mehnati bilan emas, balki nopok yo‘llar bilan erishishni istaydigan soxta sportchilarga xos illatdir.

Nazorat savollari

1. Sport submadaniyati tushunchasining mazmuni qanday?
2. Sportda doping muammosi.
3. Doping zamonaviy sportning individual va tizimli muammosi sifatida.
4. Doping muammosining asosiy salbiy ta’sirlari qanday?

Mavzu: Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning bo‘sh vaqtini o‘tkazish shakli sifatida. Sportda gumanizm muammosi. Sportda ijtimoiy nizo turlari.

REJA:

1. Bo‘sh vaqt tushunchasi. Bo‘sh vaqt tushunchasining nazariy tahlili. Bo‘sh vaqtni tashkil etish shakllari.
2. Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etishning asosiy vositasi sifatida.
3. Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkillashtirishda zamonaviy tendensiyalar. Sport va dam olish sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari.
4. Zamonaviy sportni gumanizatsiyalashtirishning dolzarbligi.
5. Zamonaviy olimpiya harakati asoschisi Per de Kubertinning ijtimoiy-pedagogik konsepsiyasining asosiy qoidalari.
6. Sportdagi ijtimoiy nizolar. “Ijtimoiy nizo” konsepsiyasi haqida turli yondashuvlar.

Bo‘sh vaqt — kishining majburiy ijtimoiy mehnati va boshqa majburiy mashg‘ulotlardan tashqari vaqtining bir qismi; o‘z xohishiga ko‘ra ma’naviy va jismoniy rivojlanish, dam olish uchun sarflanadigan vaqt. Ijtimoiy hayotda kishilarning umumiy vaqtini 2 qismga — ish vaqti va ishdan tashqari vaqtga bo‘lish mumkin. Ishdan tashqari vaqt asosan uy ishlariga, o‘ziga qarash, uxlash va ovqatlanish uchun sarflanadigan vaqt hamda bo‘sh vaqtga bo‘linadi. Bo‘sh vaqt shaxsning har tomonlama kamoloti, qobiliyatlarini rivojlantirishi, bilim darajasi ni oshirishi, dam olishi va shu kabilar uchun kerak bo‘ladigan ishdan tashqari vaqtdir. Bo‘sh

vaqt shaxsning erkin faoliyati va kamoloti uchun zarur bo'lgan haqiqiy boyligi hisoblanadi. Bo'sh vaqt jamiyat ma'naviy kuchining, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning zarur sharti. U individual xarakterga ega bo'lib qolmay, ijtimoiy zaruriy vaqq hamdir. Chunki ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, ilmiy texnika ravnaqi uchun bo'sh vaqt juda zarur. O'z navbatida ular bo'sh vaqt me'yori va mazmuniga ta'sir qiladi. Jamiyatning tarixiy tarakxiyoti davomida bo'sh vaqtning mikdori va ahamiyati tobora ortib boradi. Bu, birinchidan, mehnat unumdorligining ortishi, ilmiy texnika ravnaqi va jamiyatning barcha a'zolari o'rtasida mehnatning teng taqsimlanishi hisobiga bo'lsa, ikkinchidan, ishga borib kelishdagi ortiqcha harakatlarni, uy mehnatiga ketadigan vaqtni qisqartirish hisobiga yuz beradi. Ijodiy mehnat qilish, o'z malakasini, ma'lumoti va ilmiy madaniy saviyasini oshirish, ijtimoiy siyosiy faoliyatini kengaytirish, san'at va sport bilan shug'ullanish va boshqalar Bo'sh vaqtning mazmundor o'tishini ta'minlaydi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek O'zbekistonda ham 2 kunlik dam olish va 5 kunlik ish haftasiga o'tish bo'sh vaqtni ko'paytirish yo'lidagi tadbirlardandir. Bo'sh vaqt miqdori ni ko'paytirish va undan unumli foydalanish uchun yetarli sharoit yaratish zarur. Bunga mamlakat i. ch. kuchlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyani joriy etish orqali mehnat samaradorligini oshirish va vaqtni tejash, ommaning umumiy madaniy saviyasini oshirish va boshqalar orqali erishiladi. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish turmushning mazmundor bo'lishiga yordam beradi.

O'zbekiston fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga strategik maqsad qilib qo'ygan ekan, ushbu maqsadga erishishning asosiy omillaridan biri – bu ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishdir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-madaniy hayotiga bog'liq muhim bo'lgan vazifalarni hal etishda faol va gumanistik printsiplari bilan ishtirok etadigan yoshlarning yangi ijtimoiy qiyofasini shakllantirish muhim masalalardan biridir. Ya'ni yoshlarning demokratik jamiyatdagi rolini oshirish, ijtimoiy faol va intellektual salohiyat imkoniyatlari yuqori bo'lgan, uni to'g'ri yo'naltira oladigan yoshlarga O'zbekistonni buyuk va qudratli davlat bo'lishiga sabab bo'ladilar.

Davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga o‘zgartirish kiritilishi mamlakatimizda yoshlarga bo‘lgan e‘tibordan dalolat beradi. Zero, “Yoshlarni, ayniqsa, ular uyushmagan qismining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga, ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga keng jalb etish”.

Keyingi yillarda yurtimiz yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. 2017 yil 30 iyunda tashkil etilgan O‘zbekiston yoshlar itfoqi yoshlarning talab va istaklarini birlashtirgan holda faoliyat olib boryapti. Bu jarayonda “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun dasturilamal bo‘lmoqda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishda sport bilan shug‘ullanish holatini va imkoniyatlarini aniqlash hamda turmush tarzida hordiq chiqarishning ahamiyatini belgilash. Shuningdek, mamlakatimizda yoshlar sport bilan shug‘ullanishlari uchun yaratilgan sharoitlardan foydalanish orqali bo‘sh vaqtlarini mazmuni o‘tkazishdan iborat.

Mamlakatimiz aholisining 30% 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Ularning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy yoshlarning turmush tarzi, ko‘pincha ularning bo‘sh vaqtlarida namoyon bo‘ladi. Bo‘sh vaqt yosh insonning ishtiyoq va qiziqishlarining ortishini ta‘minlaydi. Hozirgi kunda yoshlarning bo‘sh vaqtini o‘tkazishidagi ziddiyatlar kuchayib bormoqda. Bir tomondan, yoshlar madaniyatining o‘sishi sabab bo‘lsa, ikkinchidan, yangi avlodning bilim daraja sining yuqoriligi va urbanizatsiyalashganligidadir. Ko‘pchilik shaharlarda yashayotgan yoshlar ikkinchi avlodni tashkil etadilar. Ularning ota-onalari aksariyati qishloqlarda tug‘ilishgan. Shu sababli, madaniyatga bo‘lgan munosabatda turli xil qarashlar shakllanadi, ya‘ni bunda madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish shaxsiy xususiyatlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarida ko‘ngil ochishi, hayotdan zavq olishga bo‘lgan istagi etakchi ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z navbatida bu xohishlar o‘z-o‘zidan kuchayib boradi. Bo‘sh vaqt – kishining majburiy ijtimoiy mehnati va boshqa majburiy mashg‘ulotlardan tashqari vaqtining bir qismi; o‘z xohishiga ko‘ra ma‘naviy va jismoniy rivojlanish, dam olish uchun sarflanadigan vaqt. Yoshlar bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishi, vaqtlari besamar ketmasliklari uchun ham sport bilan shug‘ullanishlari

jamiyat uchun ijobiy holatdir. Mamlakatda yoshlarni jismoniy baquvvat qilib voyaga etkazish, sport bilan shug'ullanishni ommalashtirish maqsadida yoshlar uchun zamonaviy sport zallari, basseynlar qurilib foydalanish uchun topshirilgan. Ularning har tomonlama barkamol bo'lib etishishi uchun sharoitlar yaratilgan. Asosan yoshlar o'qishdan, ishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun sport majmualariga borib, shug'ullanib jismoniy baquvvat bo'lishlari uchun harakat qilmoqda. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respubdikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2017 yilgi berilgan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda 78 ta jismoniy tarbiya va sport markazlari o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Ulardan 49 tasi oliy o'quv yurtlarida, 11 mehnat jamoalarida va 18 tasi boshqa muassasalarda tashkil etilgan. Shuningdek 2017 yilda jismoniy tarbiya va sport jamoalari soni 12 234 ta bo'lib, bulardan maktablarda 9 658 ta, akademik litseylarda 123 ta, kasb-hunar kollejlarida 1424 ta, oliy o'quv yurtlarida 89 ta, mehnat jamoalarida 324 ta, boshqa muassasalarda esa 616 tani tashkil etgan. Jismoniy tarbiya va sport jamoalarining 59,7% qishloq joylarida joylashgan bo'lib, ularning soni 7303 tani tashkil etadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb qilingan bolalarning umumiy soni 6465030 nafarni, shulardan, 5179511 nafari maktablarda, 83566 nafari esa akademik litseyda, 1062531 nafar o'quvchilar kasb-hunar kollejlarida va 139422 nafari oliy o'quv yurtlari hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda ushbu qarorga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi"ning qabul qilingani bu boradagi echimini kutayotgan masalalarni ijobiy hal qilishga xizmat qiladi. 2017-2021 yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida jami 167 ta sport inshooti, jumladan 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash hamda jihozlash va qayta jihozlash nazarda tutilgan. Ushbu ishlar uchun 706,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish lozimki, yildan yilga mamlakatimizda yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni

targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Prezidentimizning beshta muhim tashabbusni mamlakatimizda yashayotgan barcha aholi, jumladan, yoshlarning ma'naviyatini boyitish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda dasturil amal hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning ahamiyati katta. Aynan ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Davlat tomonidan qabul qilingan bir qancha qarorlar aynan yoshlar orasida sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan. O'zbekistonda yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi. Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ana shu ezgu g'oya Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida boshlanib, qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi. Sirdaryo viloyatidagi tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Musika va san'at maktablari cholg'u asboblari, sport obyektlari jihozlar bilan ta'minlandi. Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirilib, "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktablariga atigi 130 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olingani, ushbu muassasalarning aksariyati o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani ko'rsatib o'tildi. Davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, ularning faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berdi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil qilish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Atoqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olinib, bu tajribani butun respublikaga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Musika va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarining muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi respublika bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos. Yig'ilishda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o'rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar manbasini aniqlash vazifasi qo'yildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich-panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga "O'zmilliybank" tomonidan "Yoshlar — kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar-o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarida Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish bo'yicha innovatsion ko'nikmalar beriladi, "startap" loyihalarga yordam ko'rsatiladi.

Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari bo'lishiga qaramasdan, internet xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o'yinlari markazlarini tashkil etish, ularda yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi. Lekin ko'plab qishloq va mahallalarda buning uchun zarur sharoit mavjud emas. Ilgarigi kutubxonalar o'rnida tashkil etilgan "Axborot-resurs markazlari" o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmadi. Shu holatlarni hisobga olib, yangi tashabbus doirasida yoshlar sonidan kelib chiqqan holda joylarga qo'shimcha kitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga "Kitob karvoni" loyihasi doirasida badiiy, ma'rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'lmagan miqdorda yetkazib berish bo'yicha topshiriq berdi. Yig'ilishda mahalliy hokimliklar har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etishi kerakligi ta'kidlandi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga barcha shahar va tumanlarda ko'chma kitob pavilyonlarini joylashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda "Bibliobus"larni yo'lga qo'yish orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi. Shu maqsadda 2019-2020 yillarda barcha tumanlarda sendvich-panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonalarini qurish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko'p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda bugungi kunda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida ularni sport sog'lomlashtirish to'garaklariga jalb etish, aholi o'rtasida sportni keng ko'lamda targ'ib etish, yoshlarni jismonan chiniqtirib, sog'lom shaxs sifatida tarbiyalash uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, yoshlar bo'sh vaqtlarida sport inshootlaridan foydalanish uchun har bir ta'lim muassasalari va tashkilotlar tomonidan to'liq sharoitlar yaratish.

Ikkinchidan, yoshlar sporti inshootlaridan samarali foydalanish maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik o'rnatish,

viloyat va Respublika miqyosidagi musobaqalarning saralash bosqichlarini o'tkazishda qishloqlardagi yoshlar sporti inshootlaridan keng foydalanish.

Uchinchi, mavjud sport inshootlarida tashkil etish imkoniyati bo'lgan sport turlari o'rganilib, sport murabbiylari, jismoniy tarbiya o'qituvchilariga va qo'shimcha sport anjom hamda jihozlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.

To'rtinchi, Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mas'ul bo'lgan idoralar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish.

Nazorat savollari

1. Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazish shakli sifatida o'rni izohlang.
2. Bo'sh vaqt tushunchasining nazariy tahlili qanday?
3. Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etishning asosiy vositasi sifatida o'rni qanday?
4. Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkillashtirishda zamonaviy tendensiyalar qanday namoyon bo'lmoqda?

Mavzu: Jismoniy tarbiya va sportda aniq sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish metodologiyasi

Reja:

1. Jismoniy tarbiya va sportda sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish.
2. Sotsiologik tadqiqot dasturini tuzish va natijalari tahlili.
3. Sotsiologik tadqiqot metodlari.
4. Sotsiologik anketani tuzish texnikasi.

1. Jismoniy tarbiya va sportda sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish. Bugungi kunda amaliy sotsiologik tadqiqotlar tushunchasi har bir mutaxassisga tanish bo'lgan hamda bir qator sohalarda keng qo'llanilib kelinayotgan tushunchalar qatoriga kiradi. Ayniqsa amaliy sotsiologik tadqiqotlardan boshqaruvchilar, siyosatchilar va jurnalistlar keng miqyosda foydalanib kelmoqdalar. Tobora sotsiologik tadqiqotlarning miqdori oshib bormoqda. Sotsiologlarning soni esa ko'payib bormoqda. Bunday holat uning sabablarini o'rganishga, bilishga undamoqda. Nima bu

mo‘dami yoki davrning talabi va taqazosimi? Hayotning o‘zi, ijtimoiy rivojlanish mohiyati ushbu savollarga javob berdi, sotsiologik tadqiqotlarning imkoniyatini ochib berdi. Imkoniyatlar esa haqiqatdan ham keng va ko‘p qirralidir.

Sotsiologik tadqiqotlar bir qator muhim ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini beradi, bular:

- Ijtimoiy jarayonlarning real holatini aks ettirish;
- Rejalalar va boshqaruv qarorlarini yangilash;
- Jamoatchilik munosabatlarini rivojlantirishning ilg‘or tendensiyalarini aniqlash;
- Malaka va ijtimoiy holatlarni prognozlashtirishni tahlil qilish hamda ommalashtirish;
- Qarama-qarshiliklarni o‘rganish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- Harakatdagi sotsiologik nazoratni ta‘minlash.

Sotsiologik nazariyalar ASTlarga, ya‘ni sotsiologik so‘rov, kuzatish, hujjatlar tahlilli natijalariga tayanadi. Shunday qilib, AST bu – tadqiq etilayotgan obyekt to‘g‘risida yangi bilimlar olishga, amaliy nazariy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan nazariy va amaliy jarayonlar tizimidir.

ASTlarda faqatgina obyekt to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish muhim bo‘lmasdan, balki ijtimoiy jarayonlarni samarali rivojlanishi uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo‘ladigan tahlilni o‘tkazish ham muhim hisoblanadi.

ASTlarning asosiy vazifasi – ijtimoiy voqelik, uning alohida qismlari, tomonlari to‘g‘risidagi dalillarni, boshqacha qilib aytganda ijtimoiy voqelikni tavsiflovchi, qayd qiluvchi dalillarni izlab topishdir.

Tajribalar ko‘rsatadiki, ilmiy tavsif va mustahkam qayd qilishga ijtimoiy voqelikning quyidagi holatlari duchor bo‘ladi:

- Individlarning xulq-atvor holatlari (insonlar nima qilishayapti);
- Insoniyat faoliyati natijalari (insonlar nima qilishdi);
- Insonlarning verbal harakatlari – fikr, qarashlari, muhokamalari (insonlar nimalar haqida gapirishayapti).

Ilmiy izlanish boshida tadqiqotchi ko‘pgina ijtimoiy dalillar oldida qoladi. Ularning orasidan tadqiqotchining savollarga aniq javob beradiganini qanday qilib tanlash mumkin?

Ijtimoiy dalillarni tanlash uchun sotsiologiya fani butun bir bajariladigan ish tartibi va tushunchalari tizimini ishlab chiqdi.

Quyida ASTlarning ko'p ishlatiladigan atamalari, tushunchalari va bajariladigan ish tartiblarini ko'rib chiqamiz.

Har qanday ilmiy tadqiqotda asosiy tushuncha "metodologiya" hisoblanadi. Unga ilmiy bilishning forma, metodlari va tamoyillarini tuzish hamda xuddi shunday voqelikni o'zgartirish ham kiradi. Mazkur yondoshuv ilmiy izlanishning umumiy strategiyasi bo'lib, o'zining tarkibiga ilmiy muammoni qo'yishni, gipotezani ishlab chiqishni, obyekt va predmetni aniqlashni, maqsad va vazifalarni asoslashni, tadqiqot metodlarini tanlashni qamrab oladi.

Metodologiya har qanday tadqiqotning asosiy tamal toshi hisoblanadi va mantiqiy tashkillashish strukturasini o'rganish omili sifatida yondoshiladi. Shuning uchun ham sotsiologik tahlilning metodologik asoslarini ko'rib chiqishga zaruriyat sifatida qaraladi.

Metodologiya har qanday fan tomonidan qo'llaniluvchi "umumiy" va ma'lum bir fanni, masalan sotsiologiyaning o'ziga xos xussiyatlarini ifoda etuvchi "xususiy" turlarga bo'linadi. Zamonaviy bosqichlarda ushbu holat o'zining diqqatini texnik jihatidan bajariladigan ish tartiblariga – empirik tadqiqot metodlariga qaratmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda o'zining maxsus sotsiologik tadqiqot dasturini va sotsiologik ma'lumotlar tahlilini tanlab olganlarni – metodolog sifatida atamoqdalar. Biroq e'tibor qilish maydonidan metodologlar shug'ullanishi lozim bo'lgan muammolarning katta qismi qolib ketmoqda. Ulardan asosiysi – nazariya va empirik tahlil obyekti predmetini asosiy mohiyatini tavsiflovchi omil o'rtasidagi mantiqiy aloqadorlik, tadqiq etilayotgan ijtimoiy reallikning oxirigisi bilan bog'liqlikdir. Ushbu muammo jihatidan metodolog tushunchalar qanday qilib loyihalashtirilishini va ularning inson faoliyatini o'rganish bilan qanday o'zaro aloqadorlikda ekanligini ko'rsatishi lozim.

Shunday ekan, sotsiolog olinayotgan ma'lumotlarning aniqlik darajasini oshirish, agar kerak bo'lsa nazariyani qaytadan tahrir qilish uchun tadqiqot dasturlarini loyihalashtirishda nazariy qarorlarga muvofiq ravishda nimani tanlash, kuzatish va qayta qurishni bilishi kerak.

Nazariya va metodologiyaning o'zaro uyg'unligini ikkita tushuncha bilan izohlash mumkin: nazariya nimani tadqiq etish kerak degan savolga javob berasa, metodologiya esa – qanday qilib tadqiqotni tashkil qilish kerak degan savolga javob beradi. Shuningdek, sotsiolog tomonidan umumiy jarayon vaziyatining mavhum namunasining majmuasini ishlab chiqilishi, tushuntirilishini ham metodologiya sifatida belgilash qabul qilingan. Ushbu mohiyat o'rganilayotgan muammoga ijtimoiy dunyoda nimaning dahli borligini va fan mazkur holatga izohni yoki nazariyani

ishlab chiqish jarayonida dunyoning bunday holatlarini qanday o'rganib chiqayotganligini bilish hamda qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi.

“Sotsiologik tadqiqotlar” an'anaviy tushuncha sifatida faqatgina amaliy sotsiologiya bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, turmush tarzi, oila, kundalik hayot, itimoiy struktura bilan bevosita bog'liqdir. Bunday yondashuv, birinchidan, sotsiologik bilish imkoniyatini cheklaydi, uning nazariy-metodologik yo'nalishlarini soyada qoldiradi; ikkinchidan, asossizlik sotsiologiyaning fan sifatidagi imkoniyatini chegaralaydi; uchinchidan, empirik bilishning eng muhim bo'lgan tomonlaridan birini – nazariy konsepsiyalarning amaliy tadqiqotlardagi rolini e'tiborga olmaydi. Shunday bo'lsada, oxirgi yondashuv ahamiyati jihatidan faqatgina sotsiologik tahlilning sifatini belgilamasdan, aniq – sotsiologik tadqiqotlarning natijalarini ham asoslab beradi. Sotsiologik bilish darajalarini nazariy va amaliy jihatdan farqlashga, ajratishga intilish, ta'kidlash mumkinki, aynan ushbu yondashuv sotsiologiyadagi amaliy tadqiqotlar va nazariya o'rtasidagi ajratishning asosiy sababi bo'lib hisoblanadi. Yuzaga kelgan mazkur holat nafaqat nazariy, balki nazariy qarashlardan o'zining miqdori bilan keskin ustunlik qiluvchi empirik tadqiqotlarning darajasini tushurib yubordi. O'zbek jamiyatidagi ijtimoiy realliklarni aks ettiruvchi, tushuntiruvchi yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqishga bo'lgan e'tiborning susayishi olinayotgan empirik ma'lumotlarning sifatiga jiddiy ta'sir qildi.

Shunday qilib sotsiologik tadqiqotlar shunday jarayonki undagi nazariy-metodologik va empirik bilim darajalari yaxlit bir butunlikda namoyon bo'ladi, ya'ni gap dialektik jarayonga borib taqaladi, bu esa tahlilining deduktiv va induktiv metodlari uyg'unlashishini, bilishning butunligini hamda reallik haqidagi tasavvurlarimizni butunligini ta'minlab beradi. Aynan tahlilning mazkur ikki metodi (nazariy-metodologik va amaliy tadqiqotlar uchun ham birdek xususiyatlarga egaligini tavsiflovchi) sotsiologik tadqiqotlarning deduktiv va induktiv bosqichlarga bo'lishini belgilab beradi.

Birinchisi – deduktiv – nazariy konsepsiyasini ishlab chiqishdan boshlanadi (yoki uning xulosalarini), chunki u tadqiqotninig obyekti va predmetini konsepsiyalashtirishda foydalanuvchi tushunchalarning asosi hisoblanadi. Misol bo'lib, turli paradigmalarda turlicha talqin qilinuvchi (funksionalchilar, markschilar, fenomenologlar va boshqalar) “shaxs” tushunchasi xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, empirik interpretatsiya tizimida shaxs strukturasi tahlili turlicha aniqlanadi. Shu tariqa sotsiolog

nazariy tanlovi bilan o'zining ilmiy izlanishini oldindan uning boshqa imkoniyatlarini inqor qilish orqali "chegaralaydi".

Konsepsiyani tanlash (yoki ularni ishlab chiqish) bir qator omillar asosida aniqlanadi:

Tadqiqotchining ilmiy bilimi va ilmiy mahorati darajasi bilan;

Olim tomonidan tadqiq etilayotgan sotsiologiya yo'nalishlarining ishlab chiqilganlik darajasiga ko'ra;

Tadqiqotchining maqsad va vazifalari ko'ra;

Tadqiqotching axloqiy pozitsiyasiga ko'ra.

Sotsiolog uchun tadqiqotni birinchi bosqichining asosiy vazifasi olimning obyekt haqidagi va sotsiologik tahlilning predmeti (jamiyat, guruh, shaxs, jarayon, hodisalar va boshqalar) to'g'risidagi nazariy-metodologik tasavvurlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Mazkur holatda sotsiolog o'zaro munosabatlar tizimida joylashgan iddellashtirilgan ba'zi bilish obyektini (maqsadli) tasavvur yoki tasvirlab beradi (masalan, ijtimoiy muhitda shaxs).

Aloqalar va o'zaro munosabatlar tizimida obyektни tasvirlash tadqiqotchi nafaqat diqqat markazidan asosiy belgilovchi dalillarni chiqarib yubormaganligini, balki tez-tez obyekt holatiga muhim ta'sir qiluvchi qo'shimcha dalillarni ko'zdan qochirmasligi uchun ham zarurdir. Misol tariqasida K.Marksning iqtisodiy determinizmi, ya'ni ongдagi subyektiv omillar va insonlarning xulq-atvori, ayniqsa ularning psixologiyasi hisobga olinmasligi xizmat qilishi mumkin. Aynan shu xatolar bilan leninnizm va uning sotsiol revolyutsiyasi aziyat chekkan edi.

Sotsiologik tadqiqotning obyektі modelini tuzish olim uchun uning tuzulishi va ijtimoiy aloqalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi, usiz bitta ham tadqiqotni (nafaqat nazariy, balki amaliyni ham) amalga oshirib bo'lmaydi. Sotsiolog tahlil predmetiga muvofiq ravishda (tadqiqotning maqsad va vazifalariga bog'liq ravishda) uning cheklangan xususiyatlarini tanlaydi. U o'zi tanlagan nazariy konsepsiya to'g'risida aniq tasavvurga ega ekanligi sharti asosida o'rganilayotgan obyektning yaxlitligini esdan chiqarmasligi kerak.

Shu tariqa sotsiologik tadqiqotlarda qattiq dioxotomiya: nazariya va empirikga ajratish mavjud emasligini ta'kidlash mumkin. Fanda kelib chiqqan formal ajratish faqatgina muammoni adashtirib yuborishi hamda tadqiqotchi-sotsiolog olgan ma'lumotlarini tahlil qilishga halaqit berishi mumkin. Bu esa nazariy yo'nalishda ishlayotganlarda ijtimoiy dunyodan ajralgan holda mavhumlikda faoliyatini olib borishiga olib keladi.

Albatta, agarda itimoiy o‘zaro harakatlar butun ijtimoiy dunyoni yaxlit tizimga – jamiyatga bog’lasa, unda biz ushbu yaxlit tizimning ma’lum bir qismini o‘rganish uning qolgan qismlarini ham bilish imkoniyatini bera oladi deb, hisoblashimiz mumkin. Biroq tadqiqot xususiyatlarini tanlash ehtimoliy bo‘lmasligi, balki ijtimoiy tizim yaxlitligi, uning tarkibiy komponentlari to‘g‘risida tasavvur bo‘lgandagina ushbu holatni amalga oshirsa bo‘ladi.

Shunday qilib, deduktiv tahlil sotsiologik tadqiqotning birinchi zarur bosqichi hisoblanadi.

Mazkur tahlilning maqsadi – nazariy konsepsiyalardan, g‘oyaviy-nazariy asoslangan obyektlardan tadqiqot predmetini asoslashga o‘tish va obyektning empirik holatini qayd qiluvchi sotsiologik ko‘rsatkichlar va indikatorlarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Mavhumlikdan aniqlikka o‘tish (nazariyalar asosida) tahlilning obyekti va predmetini hamda tabiiy xussiyatlarini tavsiflovchi yangi asosiy tushunchalarni yuzaga kelishini taqozo etadi. Ehtimol sotsiolog ushbu tushunchalarni kundalik tasavvurlardan (odatda tet-tez bo‘lib turadigan) olishi mumkin, biroq unda fan erishgan yutuqlarini nazariga olmagan bo‘lardi.

Turli-xil ijtimoiy gumanitar fanlar hamda hatto bir fan doirasidagi turli-xil nazariyalarda turli-xil tushunchalar ishlatilishini yodda tutmoq zarurdir. Agarda toza sotsiologik nazariy tahlil nazarda tutilayotgan bo‘lsa, qoida sifatida tushunchalarni tanlash qiyinchiliklarni yuzaga keltirmaydi. Biroq, ma’lum bir muammolarni empirik tadqiq etish ustida gap ketayotgan bo‘lsa unda sotsiolog nazariy modellarni real dunyodagi anologlari bilan taqqoslashni bilishi kerak. Ayniqsa fenomenologik yondoshuv alohida diqqatga sazovordir. Mazkur yondoshuvda nazariy tasavvurlar bilan inson real hayotiy dunyosi o‘rtasida aloqani o‘rnatish zaruriyat sifatida ta’kidlanadi. Bunday aloqa keyinchalik sotsiologga nazariyani tekshirishga, tuzatishga hamda lozim bo‘lganda insonlar turmush tarzi o‘zgarishlari talablari asosidagi yangisini ishlab chiqishga yordam beradi. Bunday holatda sotsiologik tadqiqotlar nazariyalarni tekshirish asosi bo‘lishi bilan birga, ba’zan esa uni tuzatishi ham mumkin.

Mavjud nazariyalarni ijtimoiy reallikdagi anologlari bilan taqqoslash (haqiqiyligini tekshirish) sotsiologiyada verifikatsiya jarayoni asosida aniqlanadi.

Biz har qanday ideal nazariyani ishlab chiqmaylik, shunga muvofiq har qanday tushunchalarni olmaylik ular hamisha ma’lum bir chegara doirasiga ega bo‘ladilar, ya’ni o‘zining ahamiyatlilikini mazkur fanning

manfaatlari bilan va aniq bilimga mavjud bo'lgan ehtiyojlar asosida shakllantiradilar. Tushunchalar orqali aks etgan ko'rsatkichlarning chegaralanishi sotsiologni doimo nazariyaga (konsepsiyaga) qaytishga, ya'ni tahlilning obyekt va predmeti xususiyatlarini aniqlashga majbur qiladi. Mazkur vazifalarni bajarmaslik obyektning bir qator xususiyatlarining bilish bo'sag'asida qolib ketishiga olib keladi. Bunday tahlil bazasida o'rta darajadagi sotsiologik nazariyalar va umumiy nazariyalar ishlab chiqiladi.

Sotsiologiya fani doirasida shakllantirilgan modellar empirik bilishda qo'llanilishi samarali hisoblanadi. Biroq, biz har doim amaliyot nazariyadan ko'ra boyroq ekanligini esimizdan chiqarmasligimiz kerak. Bunda esa bilishning chegaralanganligini, ya'ni xuddi shunday sotsiologik bilishning chegaralanganligi ayon bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotlarning vazifalaridan biri – sotsiologik tushunchalarni ishlab chiqish – ya'ni, tushunchalar va ijtimoiy voqelik o'rtasidagi aloqani, qayerdagi ular nazariy jihatdan asoslangan ko'rsatilgan bo'lsa hamda qayerdagi aloqa yo'qligini, ya'ni aloqani o'rnatish mumkin emasligini ko'rsatishdir.

Operatsionalizatsiyalash tushunchasi asosida ko'pincha tushunchalarni tadqiqot jihozlariga aylantirish jarayoni tushuniladi (so'rov anketasidagi savol, shkaladagi yondoshuv va boshqalar). Sotsiolog uchun bu holat ayniqsa qachonki sotsiologik tadqiqotning odingi bosqichlari inkor qilinganda muammoli hisoblanadi. Ko'rsatkichlar tizimi tushunchalardan iborat, ulardan hech birini barqaror yoki aniqlovchi deb hisoblash mumkin emas, shuning bilan birga tushunchalarni o'zini empirik halotda talqin qilish zaruriyatining mavjudligi operatsionalizatsiyalash jaryonining murakkabligini asoslaydi. Shu tariqa operatsiolizatsiyalash tushunchalar va ijtimoiy reallik hodisasi o'rtasida bevosita aloqani o'rnatuvchi vosita hisoblanadi.

Bu erda sotsiolog nazariya (ya'ni, qaysiki gipoteza ko'rinishida namoyon qilingan bo'ladi) va ijtimoiy voqelik o'rtasidagi aloqa xususiyatlarini namoyish qiladi. Operatsionalizatsiyalash bosqichi faqatgina aniq-sotsiologik tadqiqotlarga emas, balki nazariy sotsiologik tadqiqotlarga ham immanent (mos bo'lishi) kerak, chunki u bilish harakati jarayonini nazariyadan empirikga hamda empirikdan kelib chiqadigan yangi nazariya qarab bog'lab boradi.

Bir qator sotsiologlar operatsionalizatsiyalash jarayoni ostida sotsial reallik va mavhumlik o'rtasidagi o'zaro munosabatni mexanik tarzda ro'y beradi deb tushunishadi. Biroq bu bunday emas. Operatsionalizatsiyalash

jarayonida tadqiqotchi nazariy tushunchalarni o'zining tushunchalari va reallik haqidagi tasavvurlarini o'zaro bog'laydi, shuningdek bu holat olimlar tomonidan o'zining keng duyoqarishi yoki uzoqni ko'ra olishi bilan ham izohlanadi. Tabiiyki, ko'rsatkichlarning belgilari, ya'ni jihozlar kompleksida qo'llaniladigan vositalar uning tafakkuri "mahsuloti" bo'lib hisoblanadi.

Deduktiv tahlil bosqichi sotsiologik jihozlar kompleksining ishlab chiqilishi bilan yakunlanadi. Bu esa sotsiologga sotsiologik tahlilni keyingi jarayonlarini davom ettirish uchun empirik ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatini yaratadi.

Induksiya va deduksiya analiz va sintez kabi bir-biri bilan zaruruiy tarzda bog'langan¹. Ulardan birini ustunligini boshqasining hisobiga berishdan ko'ra ulardan har birini o'zining o'rnida qo'llash kerak. Mazkur qo'llashni esa ular o'rtasidagi bog'liqlikni, ularning bir-birini o'zaro to'ldirishini ko'zdan qochirmaslik orqali amalga oshirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda sotsiologik tadqiqotdagi deduktiv bosqichni butunning bo'laklarga bo'linishi, induktiv bosqichni esa yangi nazariyani tuzish uchun olingan empirik ma'lumotlarni ishlatish va birlashtirish sifatida ko'rib chiqish mumkin. Shundagina sotsiologik axborot faqatgina ilmiy hisobotlar orqali yakunlanmasdan, balki olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yangi nazariyalar ishlab chiqilishi bilan o'zining yakuniga ega bo'ladi. Empirik ma'lumotlarni sotsiologik nazariyalar darajasida umumlashtirish tadqiqotning induktiv bosqichi sifatida talqin etila boshlaydi.

Faqatgina induktiv va deduktiv metodlarning o'yg'unligini sotsiologiyani fan sifatidagi maqsad va vazifalariga javob beruvchi sotsiologik tadqiqotlarning sharti sifatida asoslash mumkin.

Zamonaviy sotsiologiyada ma'lumot to'plash va tahlil etishning o'nlab usullari va yo'llari mavjud. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi empirik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil etish bo'yicha turli maxsus usullar, vositalar va yo'llarni o'zida mujassamlashtiradi. Umumiy ko'rinishda sotsiologik tadqiqotlarni keyinchalik ijtimoiy boshqaruv amaliyotida qo'llash uchun o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon haqida ishonchli ma'lumotlar olishga qaratilgan yagona maqsad yo'lida o'zaro bog'langan metodologik, uslubiy va tashkiliy jarayonlarning mantiqan uzviy bog'liq tizimi deb qarash mumkin.

¹ Лубышева Л.И. Социология физической культуры и спорта. -М: Академия, 2001.-ст.165.

Sotsiologik tadqiqotlar bir qator uyg'un, bir-birini almashtiruvchi, shu bilan birga mazmunan bog'liq bosqichlarni o'zi ichiga oladi, ular:

- sotsiologik tadqiqotlar dasturini ishlab chiqish;
- tanlov turi va hajmini aniqlash;
- pilotaj tadqiqoti o'tkazish;
- ijtimoiy tadqiqotni o'tkazishni tashkil etish;
- birlamchi sotsiologik ma'lumot to'plash;
- yig'ilgan ma'lumotni qayta ishlash;
- sotsiologik ma'lumotni tahlil etish, tadqiqot natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash, xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etishning eng muhim bosqichlaridan biri tadqiqotning maqsad va vazifalari, farazlarini tayyorlash, tushunchalarini oydinlashtirish va ularni operatsionalizatsiyalashni o'zida aks ettiruvchi sotsiologik tadqiqotlar dasturlarini ishlab chiqishdir. Sotsiologik tadqiqotlar dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Tadqiqot muammosini shakllantirish, tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash.

Tadqiqot muammosi - bu ijtimoiy ziddiyatlarni hal etish va ularni tartibga solish uchun turmushning biron bir jabhasini o'rganishga bo'lgan ehtiyojdir.

Ijtimoiy tadqiqot obyekti bu anglash jarayoni qaratilgan hodisa. jarayon. Ijtimoiy ziddiyat mavjud bo'lgan har qanday ijtimoiy hodisa, jamoa munosabatlari ijtimoiy tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin.

Tadqiqot predmeti - obyektning bevosita o'rganishga loyiq eng muhim xususiyatlari, jihatlari va xossalari.

2. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlash.

Tadqiqotning maqsadi muammoni nazariy va amaliy yo'nalishlarda tahlil etishni ko'zda tutsa, vazifalar muammoni tahlil qilish bo'yicha asosiy va qo'shimcha talablarni shakllantiradi.

3. Asosiy tushunchalarni sharhlash.

U tushunchalarning nazariy va empirik ma'nolarini izlash, ularni aniqlash, shuningdek, tadqiqotning asosiy tushunchalarini oydinlashtirishni ko'zda tutadi.

4. Tadqiqot obyektni oldindan batafsil tahlil etish.

Tadqiqot predmeti to'g'risida yangi bilimlar izlash yo'lini asoslash uchun mavjud sotsiologik bilimlarni tizimga keltirish lozim.

5. Ish farazlarini (gipoteza) ilgari surish.

Faraz sotsiologik tadqiqotlarda bosh metodologik instrument hisoblanadi va o'rganilayotgan muammo hamda jarayonlar o'rtasida aloqalarning harakteri xususida asosli taxminlarni o'zida aks ettiradi.

Yozma va izohli farazlar mavjud.

Yozma farazlar quyidagi turlarga bo'linadi:

a) klassifikatsion - bu obyektning eng jiddiy xossalari to'g'risidagi taxminlar;

b) strukturaviy - o'rganilayotgan obyektning alohida elementlari orasidagi aloqalarning harakteri to'g'risidagi taxminlar;

v) funksional - o'zaro munosabatlar zichligi darajasi to'g'risidagi taxminlar.

Izohli farazlar - o'rganilayotgan ijtimoiy jarayonlar va hodisalardagi sabab-oqibat munosabatlari to'g'risidagi taxminlar.

6. Tadqiqotning prinsipial va strategik rejasini ishlab chiqish. Sotsiologik tadqiqotlar strategiyasining uchta varianti mavjud:

a) tadqiqot obyekti to'g'risida tasavvurlar yetarli bo'lmasa yoki farazlar yo'q bo'lsa, tekshirish rejasi qo'llaniladi. Ushbu rejaning maqsadi muammoni aniqlash va farazlar ishlab chiqishdan iborat;

b) yozma variant yozma farazlarni ilgari surish uchun obyekt to'g'risidagi bilimlar yetarli bo'lmagan taqdirda qo'llaniladi. Rejadan maqsad - ijtimoiy strukturalar va hodisalarni batafsil va to'la bayon qilish;

v) tajriba rejasidan faqat o'rganilayotgan jabhadagi bilimlar yuqori bo'lib, asosli gipotezalarni olg'a surishga imkoniyat mavjud sharoitlarda foydalaniladi. Rejaning maqsadi - vizual va sabab-oqibat aloqadorligini tadqiq etish.

7. Birlamchi ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish bo'yicha ish tartibini tanlash.

Ma'lumotlar tahlili sxemalari, ommaviy so'rovlar anketalari, intervyu rejaları, identifikatsion hisob varaqalari, ish vaqtini hisobga olish varaqasi, kontekstual tahlilga mansub hujjatlar va matnlarni o'rganish bo'yicha yo'riqnoma, kuzatish sxemalari - bularning barchasi ma'lumot to'plash vositasidir.

Muammolarni aniqlab, boshlang'ich tushunchalarni kiritish va tadqiqot farazlarini ishlab chiqishdan so'ng tanlov turi va hajmi aniqlanadi. Tanlovli tadqiqotning asosiy afzalligi shundaki, obyektning keng va murakkab dastur bo'yicha chuqur o'rganish va tadqiqotni qisqa muddatda o'tkazishga imkon tug'iladi. Tanlovli tadqiqot noyalpi kuzatuv turi bo'lib, umumiy majmuaga kiruvchi alohida birlikni maxsus kuzatishdan iborat.

Umumiy majmua umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan kuzatuv birliklarining yig'indisidan tuziladi, masalan ishchilar majmuasi. Tanlov majmuasi deganda umumiy majmuaning oldindan tayyorlangan dastur yoki uslubiyotga ko'ra bevosita tadqiq etish uchun tanlab olingan qismi tushuniladi.

Kuzatuv birligi - sotsiologik tadqiqotlarda bevosita ma'lumot manbasi, tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab inson, shaxslar guruhi, korxona yoki tashkilot kuzatuv birligi bo'lishi mumkin.

Tanlovli usulni qo'llashning bosh masalasi umumiy va tanlov majmuasining nisbati, ya'ni tanlov majmuasini tahlil etish orqali olingan xulosalarni umumiy majmuaga nisbatan qo'llashning qonuniyligini aniqlashdan iborat. Tanlov qoidalariga qat'iy amal qilinganda tanlovli tadqiqot reprezentativ bo'lib, tanlov majmuasi umumiysiga mos keladi.

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot, hodisa va jarayonlar to'g'risida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish tushuniladi. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt deb, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonining hozirgi bosqichida jamiyatda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida va unga rejali prognoz berish bilan uni ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish, empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Ushbu bo'limda amaliy sotsiologik tadqiqot ishlari olib borishning metodologiyasi, uslubiyati, asosiy usul va vositalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Amaliy sotsiologik tadqiqot jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib qo'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlarga ega. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bosqich. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:

1.1. Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash.

1.2. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha byurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzish.

1.3. Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendar reja, texnik vazifalarni va byudjet (sarf qilinadigan xarajatlar smetasini) tuzish.

1.4. Dastur ishlab chiqish.

1.5. Tadqiqot uslubiyati, texnikalari va vositalarini ishlab chiqish.

2. Bosqich asosiy bosqich bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:

2.1. Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish.

2.2. Pilotaj.

2.3. Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish.

2.4. Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

3. Bosqich. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:

3.1. Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlariga ajratish.

3.2. Taqsimiy jadval tuzish.

3.3. Empirik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va modellashtirish.

4. Bosqich yakunlovchi bosqich bo'lib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:

4.1. Tadqiqot ma'lumotlarining dastlabki tasnifi va nazariy jihatidan fahmlamoq.

4.2. Ilmiy-nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish.

4.3. Berilgan vazifa bo'yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.

Germaniyalik sotsiologlar amaliy sotsiologik tadqiqotlarni 3 bosqichdan iborat deb qo'rsatadilar:

1. Asosiy bosqich: amaliy tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish bosqichi. Bu bosqichda 4 ta vazifa bajariladi:

1.1. Empirik tadqiqot maqsadini aniqlash va belgilash.

1.2. Empirik tadqiqot g'oyasini ishlab chiqish.

1.3. Empirik tadqiqot jarayonini tashkil etish.

1.4. Analitik muolaja tayyorlash.

Ikkinchi bosqich: asosiy bosqich: empirik tadqiqot va eksperiment o'tkazish.

Uchinchi bosqich: Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Bu bosqichda 3 ta vazifa bajariladi:

3.1. Olingan empirik tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash.

3.2. Nazariy jihatdan qayta ishlash.

3.3. Olingan natijalarni amaliyotda qo'llash.

Har qanday tadqiqot biron muammoning qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o'zining ilmiy echimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilishning asosiy shakllari: davlat buyurtmasi asosida, xo'jalik shartnomasi asosida, jamoatchilik va aralash tartibda bo'lishi mumkin.

2.Sotsiologik tadqiqot dasturini tuzish va natijalari tahlili. Dastur sotsiologik tadqiqotning majburiy hujjati hisoblanadi. Sotsiologik tadqiqotning boshlang'ich shart-sharoitlari, maqsadlari va masalalari, metodik ta'minoti, tashkiliy tuzilmasi uning dasturida aniqlanadi. U model va gipotezalar bilan ifodalangan nazariy bilimlar darajasidan, obyektga va tadqiqot instrumentlariga o'tadigan mantiqiy asoslangan sxemani ko'rsatadigan ilmiy hujjatdir.

Fundamental akademik tadqiqotlar dasturlari maxsus izlanishlar natijasidir, ular alohida kitob va broshyura holida chop etiladi.

Operativ tadqiqotlar dasturi 5-7 betli mashina tekstiga sig'adi. Lekin ular tuzilmalarining asosiy elementlari o'zgarmasdan saqlanadi, chunki uning har biri o'zining funksiyasini amalga oshiradi: ya'ni, normativ, metodik, tashkiliy, informatsion yoki nazorat.

Empirik tadqiqot - tadqiqot dasturni ishlab chiqishni, kuzatuvni tashkil etishni, kuzatilayotgan va eksperimental ma'lumotlarni yozishni, boshlang'ich umumlashtirishni taqazo etadi. Empirik anglash uchun faktlarni fiksatsiya qilish faoliyati harakterli. Sotsiologik tadqiqot – keng ma'nodagi o'lchash kabi bu yangi faktlarni yig'ish va ularni qo'yilgan masalalarga bog'liq ravishda tanlangan yoki qurilgan nazariy modellarni terminlarda interpretatsiya qilishdir.

Demak, sotsiologik tadqiqot anketa tuzishdan emas, nazariy modelni tuzish, maqsadlar va gipotezalarni olg'a surish, muammoni ishlab chiqish bilan boshlanadi. Shundan keyin sotsiolog instrumentni (anketani) ishlab chiqishga, keyin boshlang'ich ma'mulotlarni yig'ish va uni ishlab chiqishga o'tadi. Oxirgi bosqichda yana nazariy tahlil. Faqat shundan keyin amaliy tavsiyalar qilinadi. Bugun empirik tadqiqot deb olim qo'liga

reprezentativ informatsiyani beradigan ilmiy xulosaning qoidasidan foydalanib, ma'lum dastur bo'yicha o'tkazilgan boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ishga aytiladi.

Sotsiologiyani rivojlantirishda tadqiqot dasturining roli katta, lekin bo'rttirish kerak emas. U yordamchi funksiyani bajaradi. Fan yangi bilimlar bilan o'sayapti, empirik tadqiqot bermasdan, ilmiy nazariya berayapti.

Sotsiologning barcha ishlari sotsiologik tadqiqotning dasturida aks ettirilgan. Dastur strategik hujjatlar turiga kiradi, uning maqsadi kelajak korxonaning rejasini ko'rish, barcha tadqiqotlarning konsepsiyasini ko'rsatish. U aniq hodisa va jarayonlarning o'rganishning metodologik yondoshishlari va metodik yo'llarini nazariy asoslashni o'z ichiga oladi. U sotsiologik tadqiqotning asosi hisoblanadi. Unda muammoni tanlash malakasi, obyekt va predmetni tanlanishi, bosqichlarini tashkil etish, yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil va interpretatsiyasini o'z ichiga oladi. Dastur bu bir bosqichning tamomlanishi ikkinchisining boshlanishidir. U har doim to'ldiriladi, aniqlanadi, qayta ishlanadi. Sotsiologik tadqiqot dasturi quyidagi asosiy lahzalarni batafsil, aniq va tugallangan ravishda kiritadi: nazariy-metodologik qismi - muammoni tatibga solish, maqsadni ko'rsatish, tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash, asosiy tushunchalarni mantiqiy tahlili tadqiqotning gipoteza va masalalarini tahrir qilish; metodik qismi – tadqiqot qilinayotgan to'plamni, boshlang'ich sotsiologik interpretatsiyani yig'ishda ishlatiladigan metodlarning harakteristikasini, bu interpretatsiyani yig'ish uchun instrumentlarning mantiqiy tuzilishini aniqlash, uni EHMda qayta ishlash sxemasini aniqlash. Adabiyotda tadqiqot dasturini tuzishning asosiy bosqichlari quyidagicha:

- Muammoni tahrir qilish (tartiblash-shakllantirish);
- Tadqiqotning maqsadi va masalalarini aniqlash;
- Asosiy tushunchalarni mantiqiy tahlil qilish;
- Gipotezani ilgari surish va tushunchalarni operatsionalizatsiya qilish;
- Tanlanadigan to'plamni aniqlash;
- Metodlarni tanlash va instrumentariya tuzish;
- Dala tadqiqoti;
- Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish;
- Xulosalar va ilmiy hisobotni tayyorlash.

Biz yana ikkita yangi pozitsiya qo'shish kerak deb hisoblaymiz: tadqiqot predmeti nazariy modelini tuzish va tadqiqot obyekti empirik sxemasini ishlab chiqish.

Sotsiologik tadqiqot tugallangandan keyin anketani to'g'riligini tekshirish boshlanadi. Agar bular noto'g'ri to'g'irlangan bo'lsa yoki 30 foiz to'ldirilmagan bo'lsa, bunday anketalar yaroqsizga chiqariladi va qayta ishlanmaydi. Ko'p bo'lmagan anketalarni qo'lda qayta ishlash mumkin. Qolganlari kompyuterda qilinadi. Tajribali sotsiologlar dasturni tuzish uchun vaqtning 1/3 ni yoki yarmini ketkazadilar. Sotsiologik tadqiqotni tashkil qilishdagi vaqtning taqsimlanishi quyidagicha:

- a) programmani ishlab chiqish 30-40%;
- b) informatsiya yig'ish 10-15%;
- v) kompyuterga ma'lumotni tayyorlash 15%;
- g) ma'lumotni qayta ishlash 5-10%;
- d) materiallarni tahlil qilish, hisobot yozish 30-40%.

Tadqiqotchi matematik hisoblarni natijasini olgandan keyin sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilishga o'tsa bo'ladi. Tahlilning chuqurligi, ilmiyligi, obyektivligi tadqiqotchining bilimiga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot dasturini nazariy metodologik qismi muammoni qo'yilish bilan boshlanadi. Muammoni to'g'ri shakllantirish harakatga turtki bo'ladi.

Agarda siz noto'g'ri shakllantirgan bo'lsangiz oldinga qarab ketish kerak emas. Chunki har bir harakatingiz bekor ketadi.

Tadqiqotning muammosi juda murakkab savol, bu mustaqil yoritishni talab etadi.

Sotsiologik amaliy ilmiy tadqiqot dasturini tuzish bu muammoli vaziyat va tadqiqotning muammosidir. Muammoli vaziyat – bu ijtimoiy obyektning rivojlanishidagi holat. Muammo – muammoli vaziyatning ilmiy aks ettirish shakli. U bir tomondan real obyektiv qarama-qarshilikni ifodalaydi, boshqa tomondan ma'lum amaliy harakatlarning va ularni amalga oshirishning yo'llarini bilmasliklari orasidagi qarama qarshilikni ko'rsatadi.

Tadqiqot muammosi – bu mavjud (kadrlarning yuqori darajadagi oqimi) va bo'lishi kerak bo'lgan holatning (yaxshi ishlaydigan kollektiv) orasidagi farqdir. Hal qilinmagan qarama-qarshilik, bilishning yo'qligi bu ilmiy tadqiqotning bosh nuqtasi. Hal qilingan qarama-qarshilik va to'la bilim oxirgi bosqichdir.

Muammoni vaziyatning aniq shakllantirishi pirovardida muvaffaqiyatni 60-70% aniqlaydi. Sotsiologik muammoni shakllantirayotgan bosqichda ilmiy va metodik adabiyotlarni o'rganishga harakat qiladi. Boshqa sotsiologik bo'limlarni ishlarini o'rganadi. Avvalgi sotsiologik tadqiqotlarni ko'rib chiqadi. Muammoning iqtisodiy, texnik va tashkiliy tahlilligini o'rganadi. Ekspert so'rovlarini ham ko'rib chiqadi.

Adabiyotda biz ikki xil o'xshash tushunchani uchratamiz. Bu tadqiqot muammosi va muammoli vaziyat. Ular nima bilan farq qiladilar. Sotsiologiyada muammoli vaziyat tushunchasi odam ehtiyojlari haqida va natijaga erishishning aniq yo'llarini bilmasliklari orasida qarama-qarshilik kabi tushuntiriladi.

Muammoli vaziyat hodisalar va obyektlarning qonunlarini bilmaslikdan kelib chiqadi. Qonunni bilmaslik aniq yo'lni bilmaslikni keltirib chiqaradi. Muammoli vaziyat asosida ijtimoiy qarama-qarshilik, hal qilinmagan savollar yotadi. Avval sotsiologik vositalar orqali o'rganiladi, amaliy tadbirlar ishlab chiqiladi va uni tadbiq etadi.

Muammoni shakllantirish jarayonida sotsiologik muammo vaziyatni aniq ifodalash kerak. Boshlang'ich muammo boshida abstrakt bo'ladi va borgan sari torayib borib, aniq ko'rinishga keladi. Agar muammo ma'lum o'lchamgacha kesilmagan bo'lsa, har doim xavf tug'ilib turadi. Bir necha muammolarni bitta tadqiqotda o'rganish maqsadga muvofiq emas. Amaliy tadqiqotda buyurtmachi tashabbusi bilan muammo vaziyatli ko'rinishda olib boriladi. Sotsiolog muammo vaziyatini muammoni shakllantirishga o'tishi kerak. U muammo vaziyatini tahlil qilishi, ya'ni quyidagi masalalarni yechadigan maxsus tahliliy ishni olib borish kerak.

3.Sotsiologik tadqiqot metodlari. Hujjatlarni tahlil qilish – birlamchi axborotlarni to'plashda keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Turli darajadagi ko'lamga ega bo'lgan hujjatlar jamiyat moddiy va ma'naviy hayotini aks ettirib, ijtimoiy voqelikning nafaqat hodisaviy, faktologik jihatlarini mujassamlashtiradi, balki jamiyatning barcha jonlanuvchi vositalari rivojini, eng avvalo lisoniy tuzilmani o'zida qayd etadi. Sotsiologlar tadqiqot jarayonida ulkan hajmdagi turli mazmun va daraja kasb etuvchi hujjatlarni o'rganishga mas'uldirlar.

Hujjatlarni tasniflash uchun qator asoslar mavjud. Hujjatlar o'z maqomiga muvofiq *rasmiy* va *norasmiy*, bayon etish shakliga ko'ra – *yozma* (ancha keng - og'zaki) va *statistikka* ajratiladi. Hujjatlar o'z vazifaviy xususiyatlariga ko'ra *informatsion*, *regulyativ*, *kommunikativ* va *madaniy-ma'rifiy*ga bo'linadi.

Norasmiy hujjatlarni o'rganish ulkan foyda keltirishi mumkin. Ular orasida shaxsiy hujjatlar ajralib turadi, ular jamoatchilik fikrini, ongini, maqsadlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Hujjatlarni tasniflash uchun yana bir asos – ularning maqsadli belgilanishi. Ajratiladi: tadqiqotchisi kimligidan qat'iy nazar, yaratilgan hujjatlar hamda "*maqsadli*" hujjatlar, ya'ni dasturga va ijtimoiy tadqiqotlar vazifalariga muvofiq aniq tayyorlangan hujjatlar.

Birinchi guruhga mansub bo'lgan barcha hujjatlarning mavjudligi na to'g'ridan-to'g'ri, na qisman ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish texnikasi bilan bog'lanmagan. Ikkinchi guruhga mansub hujjatlar esa: so'rovnomaning ochiq savollariga javoblar va intervyu matnlari hamda respondentlarning xulq-atvori va fikrini aks ettiruvchi kuzatuv yozuvlarini turli tashkilotlar ma'lumotnomalari va statistik axborotlarni o'z ichiga olgan.

Hujjatlarda ifodalangan axborotni birlamchi va ikkilamchiga ajratish qabul qilingan. Birinchi holatda aniq vaziyatlarga chizgi berish, ayrim shaxslar, organlar faoliyatini yoritish to'g'risida so'z yuritiladi. Ikkilamchi axborot esa ancha umumlashgan, analitik harakter kasb etadi, odatda unda ancha chuqur ijtimoiy aloqalar aks etadi.

Hujjatlar tahlilning mustaqil bosqichlari – axborot manbalarini tanlash va tahlil qilinishi kerak bo'lgan materiallarning saralangan yig'indisini tahlil qilish. Bunda tadqiqot dasturi tayanch vazifasini o'taydi.

Ish boshlashdan avval hujjat manbasining ishonchliligi va mazmunining to'g'riligi aniqlandi.

Hujjatlarni o'rganishda qo'llaniladigan tadqiqot usullari o'zining barcha turli-tumanligi bilan ikki xildagi asosiy ko'rinishga ajratiladi: *sifatli tahlil* – ba'zan uni an'anaviy deb ataydilar hamda kontent-tahlil nomiga ega bo'lgan *rasmiy tahlil*. Hujjatli axborotlarni o'rganishdagi bu ikki xil yondashuvlar garchi bir-biridan farq qilsada, biroq ular bir-birini to'ldirishi mumkin.

Sifatli tahlil ko'pincha hujjatlarning rasmiy o'rganilishiga mezon yaratadi. Mustaqil uslub singari u ham nodir hujjatlarni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi: ularning soni har doim ham ko'p emas va shu boisdan axborotni miqdoriy jihatdan qayta ishlashning zarurati yo'q. Shuning uchun an'anaviy yondashuvning mohiyati – hujjat mazmunini chuqur mantiqiy tadqiq etishdan iborat.

Matnni tahlil qilishda *faoliyatli (muammoli) yondashuv* ancha sermahsuldir. Bunday holatda matn to'laligicha yohud uning bir qismi aniq muammoli vaziyatga berilgan chizgi sifatida o'rganiladi.

Hujjatlar rasmiy tahlilining majburiy quroli – kodlovchi varaqadir. Mazkur varaqa operatsion tushunchalar tuzilmasiga muvofiq tuzilib, muammoli vaziyatning barcha belgilari va tahlil birliklariga ega, u hisoblash ishlari o'tkazilayotgan matn leksikasi va kodlari o'rtasida bir xil ma'noli mutanosiblikni o'rnatadi.

Hujjatlarni o'rganishni mustaqil tadqiq qilish vazifasini bajarish bilan bir qatorda obyekt tasnifi va predmet tahlili to'g'risidagi taxminiy

axborotlarni yig'ish uchun tayyorgarlik bosqichining borishida hamda turli vaqtda o'tkaziladigan tadqiqotlar natijalarini qiyoslashda keng qo'llaniladi.

Hujjatlar tahlili. Hujjatlarni tahlil qilish uslubi birlamchi axborotlarni yig'ish va tahlil qilishda ancha samarali va keng qo'llanilayotgan usullardan biri bo'lib, u mehnat sarfi va moliyaviy nuqtai nazardan ham ancha tejamlidir. Turli darajadagi ko'lamga ega hujjatlar jamiyat sotsiumini aks ettiradi. Unda inson faoliyatining natijalari va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud; shu tufayli hujjatli axborotlar sotsiologlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Hujjatlarning turlari. Tatbiqiy sotsiologiyada *hujjatlar* tushunchasiga birinchi navbatda, inson tomonidan maxsus yaratilgan, u yoki bu subyektlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy hodisalar, faktlar to'g'risidagi axborotlarni saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan materiallar kiradi. Hujjatlarni tasniflash uchun qator asoslar mavjud. Hujjatlar maqomiga ko'ra *rasmiy* va *norasmiy*, bayon etish shakliga ko'ra – *yozma* (ancha keng - og'zaki) va *statistikka* ajratiladi. Hujjatlar o'z vazifaviy xususiyatlariga ko'ra *informatsion*, *regulyativ*, *kommunikativ* va *madaniy-ma'rifiy*ga bo'linadi. *Rasmiy hujjatlar* tadqiqot uchun prinsipial ahamiyat kasb etadi, zero ular jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va jamoatchilik aloqalarini ifodalaydi. Bu barcha hujjatlar shakllantiriladi va davlat organlari yoki boshqa tashkilot yohud muassasalar tomonidan tasdiqlangach, huquqiy kuchga kiradi.

Norasmiy hujjatlarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orasida kundaliklar, esdaliklar, shaxsiy yozishmalar, kasbiy harakterdagi yozishmalar kabi shaxsiy hujjatlar ajralib turadi. Ular jamoatchilik fikrini, ongini, maqsadlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Hujjatlarni tasniflash uchun yana bir asos – ularning maqsadli belgilanishi. Tadqiqotchining kimligidan qat'iy nazar, yaratilgan hujjatlar va “*maqsadli*”, ya'ni dasturga va ijtimoiy tadqiqotlar vazifalariga muvofiq aniq tayyorlangan hujjatlar ajratiladi.

Birinchi guruhga mansub bo'lgan barcha hujjatlarning mavjudligi na to'g'ridan-to'g'ri, na qisman ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish texnikasi: tadqiqot mavzusi bilan bog'liq bo'lgan rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, matbuot materiallari, shaxsiy yozishmalar va h.k. bilan bog'lanmagan. Ikkinchi guruhga mansub hujjatlar esa: so'rovnomaning ochiq savollariga javoblar, intervyu matnlari hamda respondentlarning fikrlari va xulq-atvorini aks ettiruvchi kuzatuv yozuvlari; tadqiqotchilar buyurtmasi bo'yicha bajarilgan rasmiy va boshqa tashkilotlar

ma'lumotnomalari; ma'lum ijtimoiy tadqiqotlarga yo'naltirilib umumlashtirilgan va to'plangan statistik axborotlardan iborat.

O'rganiladigan hujjatlarni saralash mezonlari. Hujjatlarni tahlil qilishning mustaqil bosqichlari – axborot manbalarini saralash va tahlil qilishga tayyorlangan materiallar yig'indisining saralab taxlash. Buning uchun tadqiqot dasturi asos bo'lib xizmat qiladi. Axborotning ishonchliligi va to'g'riligini tekshirish vositasi sifatida va bir paytning o'zida ularning mazmunini tahlil qilish hujjatlarni “tashqi” va “ichki” jihatdan tadqiq qiladi. *Tashqi tahlil* - bu hujjatning vujudga kelishi, uning tarixiy va ijtimoiy konteksti holatlarini o'rganishdir. *Ichki tahlil* –hujjatning asl mazmunini, matn manbasi shohidlik qiluvchi barcha obyektiv jarayonlar va hodisalar to'g'risida hujjatlar bergan xabarni o'rganishdir.

Hujjatlarni tahlil qilish uslubi. Hujjatlarni o'rganishda qo'llaniladigan tadqiqot usullari o'zining barcha turli-tumanligi bilan ikki xildagi asosiy ko'rinishga ajratiladi: *sifatli tahlil* – (ba'zan uni an'anaviy deb ataydilar) hamda *kontent-tahlil* nomiga ega bo'lgan *rasmiy tahlil*. Hujjatli axborotlarni o'rganishdagi bu ikki xil yondashuvlar garchi ko'p narsadan farqlansada, biroq ular bir-birini yuqori darajada to'ldirib, bu ikki uslub muammoga har taraflama nigoz tashlash imkonini beradi. Sifatli tahlil ko'pincha hujjatlarning rasmiy o'rganilishiga zamin yaratadi. Mustaqil uslub singari u ham nodir hujjatlarni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi: ularning soni har doim ham o'ta kam va shuning uchun axborotni miqdoriy jihatdan qayta ishlashga zarurat yo'q. Shu sababli an'anaviy yondashuvning mohiyati – hujjat mazmunini chuqur mantiqiy tadqiq etishdan iborat. Subyektivizmdan maksimal darajada qochishga intilish ulkan hajmdagi axborotlarni birlashtirish va ularni ijtimoiy jihatdan o'rganish ehtiyoji hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash, hujjatlarni rasmiy tarzda shakllantirilishiga va ularni *sifat* va *miqdoriy* jihatdan (*kontent-tahlil*) o'rganilishiga olib keldi. Bunday uslubda matn mazmuni qandaydir yagona tamoyil, g'oya atrofida birlashgan va unda ma'lumotlar, baholar mavjud bo'lgan yaxlit majmua sifatida aniqlanadi. Hujjatlarni rasmiy tahlil qilish jarayoni tahlilning mazmunan (sifatli) va hisob birligi kabi ikki xil birlikka ajralishidan boshlanadi. Buning asosiy mazmuniy birligi operatsion tushunchalarda ifodalanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik mavzu hamda ijtimoiy g'oyadir. Matnda u turlicha ifodalanadi: so'z bilan, so'z birliklari bilan, chizgilar bilan. Tadqiqotchining maqsadi – tahlil uchun ahamiyatli bo'lgan, hujjat matnini ifodalovchi indikatorlarni izlab topish. Matnni tahlil qilishda muammoli yondashuv ancha sermahsuldir. Bunday holatda matn

toʻlaligicha yoxud uning bir qismi aniq muammoli vaziyatga berilgan chizgi sifatida oʻrganiladi. Hujjatlarni rasmiy tahlil qilishda faoliyatning oʻzi har tomonlama oʻrganiladi hamda ularning subyektlari va ular tomonidan amalga oshirilgan harakatlar sabablari va maqsadlari; biror faoliyat (faoliyatsizlik – bu ham faoliyatning bir turi) boʻyicha yuzaga kelgan holatlar, sabablar, ehtiyoj; ular yoʻnalishlarining obyekti aniqlanadi. Boshqa uslublarga nisbatan hujjatli axborot tahlili qator qulayliklarga ega:

1. Hujjatlar tahlili korxona va uning ishchi va xizmatchilari toʻgʻrisida tezkorlik bilan toʻliq faktografik maʼlumot olishga imkon yaratadi.

2. Mazkur axborot obyektiv harakter kasb etadi. Biroq, bunda mazkur tahlildagi axborot sifati bilan bogʻliq boʻlgan cheklovlar toʻgʻrisida ham unutmazlik joiz:

a) qaydnoma va hisobot axborotlari har doim ham toʻgʻri boʻlavermaydi va kuzatuv soʻrovnomalari nazorati yordamiga ehtiyoj sezadi;

b) mazkur axborotlarning bir qismi eskirib qoladi;

v) hujjatlarni yaratish maqsadi koʻpincha sotsiologlar oʻz tadqiqotlarida belgilagan vazifalariga toʻgʻri kelmaydi, shu sababli hujjatlarda aks etuvchi axborotlar sotsiologlar tomonidan qayta oʻrganilib, qayta ishlanmogʻi zarur; g) idoraviy hujjatlarning aksariyat koʻpchiligida xodimlar ongining holati toʻgʻrisida axborot bermaydi. Shuning uchun yetarli darajadagi faktografik axborotlar vazifalarini hal qilish zarur boʻlgan holatlarda hujjatlar tahlili kifoya qiladi.

Soʻrov metodi

Soʻzning keng maʼnosida soʻrov intervyuni ham, anketa oʻtkazishni ham qamrab oladi. Tor maʼnoda esa “soʻrov” atamasi faqat ogʻzaki suhbatni nazarda tutadi, shuning uchun intervyuning bir nechta turi bilan cheklanadi. Anketa oʻtkazish bunga kirmaydi.

Soʻrov – bu axborot olishning sotsiologik usuli boʻlib, unda odamlarga (ularni respondentlar deb atashadi) yozma yoki ogʻzaki shaklda maxsus tanlab olingan savollar beriladi va ularga javob berish soʻraladi. Bu sotsiologik tadqiqotning eng keng tarqalgan turi va shu bilan bir vaqtda, dastlabki axborotni toʻplashning eng keng qoʻllaniladigan usulidir. Ommaviy yoki xususiy tafakkur, ijtimoiy yoki shaxslararo munosabatlarning mazmun xususiyatlari oʻrganilayotgan soʻrovdan yaxshisi yoʻq, chunki ularni bevosita kuzatish juda qiyin yoki xattoki umuman mumkin emas. Tashqi kuzatuvdan yashiringan voqea-hodisalar

faqat muayyan sharoitlar va vaziyatlardagina o'zini namoyon qilishlari mumkin. So'rovda, birinchidan, tadqiqotchilar ma'lum bir sondagi kishilarga yozma yoki og'zaki savollar bilan murojaat qiladilar, bu savollar mazmuni ular o'rganayotgan muammoga empirik indikatorlar darajasida bog'liq. Ikkinchidan, olingan javoblar qayd etiladi va ularga statistik ishlov beriladi hamda nazariy talqin etiladi.

So'rovning maqsadi – odamlarga savollar berib, ularning fikri, maqsadlari va xulq-atvorini to'g'ri baholashdan iborat. Bu yerda tadqiqot muvaffaqiyati uning sifatiga ham bog'liq: yaxshi savollar (to'g'ri tuzilgan savollar) to'g'ri javoblarga sabab bo'ladi; noto'g'ri qo'yilgan savollar esa odamni chalg'itadi va natijada ishonchli bo'lmagan, noaniq javoblarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotchi savollarni tuzayotganda ikki xil ma'noli, noaniq yoki yo'naltiruvchi ta'riflarga yo'l qo'ymasligi va munosib lug'atdan foydalanishi darkor. Bu yerda e'tiborsizlik savollarning nomukammal tuzilishiga olib keladi, bu esa respondentlarning g'ashiga tegishi yoki ular uchun haqoratli bo'lishi, oxir-oqibat esa tadqiqotchini mazmun-mantiqdan yiroq ma'lumotlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, so'rov – bu axborotni *tizimli* tarzda yig'ish bo'lib, u respondentlarga beriladigan savollarga javoblardan olinadi. Biz "tizimli" so'zini ajratib ko'rsatganimiz bejiz emas: bu shuni anglatadiki, natijalarni imkon boricha faqatgina aniq emas, balki namunaviy shaklga keltirish, shuningdek ularning ishonchliligi va to'g'riligiga statistik baho berishni ularga nisbatan qo'llash imkoniga ega bo'lish uchun barcha choralar ko'riladi.

So'rov o'tkazish san'ati savollarni to'g'ri qo'yish va joylashtirishdan iborat. Sotsiologlar birinchi bo'lib sotsiologlar joriy etishmagan. Birinchi bo'lib savollarni ilmiy jihatdan qo'yish haqida qadimgi yunon faylasufi Suqrot bosh qotirgan. U Afina ko'chalarida sayr qilib, atrofida qilarga o'tkir savollarni berib ularni esankiratib qo'yar edi. Bugungi kunda so'rov usulidan, sotsiologlardan tashqari, jurnalistlar, shifokorlar, tergovchilar, o'qituvchilar ham foydalanadi. Ilmiy so'rovning birinchi o'ziga xos belgisi – so'ralganlarning soni. Yuqorida sanab o'tilgan mutaxassislar odatda, bir kishini so'rovdan o'tkazadi. Sotsiolog esa yuzlab va hattoki minglab odamlar bilan ishlaydi va shundan keyingina, olingan axborotni umumlashtirib, xulosalar chiqaradi. Sotsiologik so'rovning mazmun-mohiyati, bir necha yuz kishining fikrlari asosida minglab va millionlab odamlar haqida fikr yuritishdan iborat. Xo'sh, nima uchun u bunday qilyapti? Bitta odamga savol bilan murojaat etilganda, uning shaxsiy fikri olinadi. Estrada yulduzidan intervyu olayotgan jurnalist, bemor so'zlari asosida tashxis qo'yayotgan shifokor, odamning o'limi sabablarini

izlayotgan tergovchi uchun bundan ortig'ining keragi ham yo'q. Ularga aynan so'ralayotgan kishining fikri kerak, keyin u bu fikrni o'zi istagancha talqin qilaveradi. Sotsiolog esa ko'plab odamlarga savol bilan murojaat qilib, aksincha, jamoatchilik fikri bilan qiziqadi. Individual og'ishlar, subyektiv fikrlar, atayin buzib ko'rsatishlar, agar ular statistik ishlov berilsa, o'zaro bir-birini qoplab yuboradi. Natijada sotsiolog voqelik haqida o'rtacha olingan manzarani hosil qiladi. U 100ta muxandisni so'rovga jalb qilib, mazkur kasbning o'rtacha statistik vakili belgilarini aniqlaydi. Mana shuning uchun sotsiologik anketada familiya, ism, otasining ismi, manzil ko'rsatilmaydi. U anonim hisoblanadi. Shunday qilib, sotsiolog statistik axborotni qo'lga kiritib, shaxsning ijtimoiy turlarini aniqlaydi.

So'rov turlari. So'rov tadqiqot turi sifatida ikkita katta turga bo'linadi – anketa o'tkazish va intervyu. Anketa o'tkazish – testni tashkil qilishning savol-javob shakli. Intervyu — oldindan ishlab chiqilgan reja asosida suhbat o'tkazish bo'lib, intervyu oluvchi respondent bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'ladi va uning javoblarini qayd etadi.

O'z navbatida, so'rovning har ikkala turini ko'plab kichik turlarga ham bo'lish mumkin: 1) so'ralayotganlar soni bo'yicha (guruhli va individual); 2) o'tkazish joyi bo'yicha (uyda, ishda va maqsadli auditoriyalarda – klub tashrifchilari, poliklinikadagi bemorlar va h.k.).

Anketalarning so'ralayotganlar orasida tarqatilishi usuliga qarab: tarqatma (kurerlik) anketa; pochta orqali tarqatiladigan anketa; matbuotda bosib chiqiladigan anketa turlariga ajratish mumkin. Bundan tashqari, so'rov turlarini boshqa mezonlar bo'yicha ham tasniflash mumkin: a) miqdoriy (statistikani qo'llagan holda) va sifatli (chuqur intervyu, fokus-guruh); b) yozma (anketalar, testlar) va og'zaki (intervyu); v) yuzma-yuz va sirtqi; g) standartlashtirilgan, yarim standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan; d) klinik va fokuslantirilgan; e) yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan; j) namunali (pilotajli, ekspress-so'rov) va asosiy (dastlabki axborotni to'lashning asosiy usuli sifatida); z) ommaviy so'rov (mutaxassis bo'lmagan respondentlar uchun) va ekspert-so'rov (u yoki bu sohadagi mutaxassislar uchun).

So'rovning har bir turi bir qator omillarga bog'liq, bular: anketa yoki intervyuning mazmuni (ya'ni tadqiqot predmetini mujassam etgan savollar ro'yxati); anketalarning to'ldirilishini bevosita tashkil qiluvchi anketa oluvchi yoki intervyu oluvchi ishi sifati; so'rov o'tkazish vaziyatlari, uning shartlari (ular respondent hotirjam va diqqat bilan ishlashi uchun maksimal

darajada qulay bo'lishi kerak); respondentning so'rov o'tkazilayotgan paytdagi psixologik holati va h.k..

So'rovning barcha turlarini bir narsa – savolnoma birlashtiradi, u tadqiqot maqsadiga mos kelishi, savollarning mantiqiy ketma-ketligidan iborat bo'lishi kerak. Savollarning bunday tizimi respondentga savol, tasdiqlov, e'tiroz shakllaridagi nutqiy xabar va ularga ilova qilinadigan javoblar variantlaridan iborat. Savolnoma – anketaga qaraganda ancha keng atama. Uni anketa o'tkazishga ham, intervyuga ham qo'llash mumkin. O'z navbatida, anketa – bu so'rov hujjati (“Ishchi uchun anketa”) va so'rov usuli (ya'ni anketa o'tkazish) g'arbiy metodikalarda anketa deganda savolnoma (*questionnaire*) nazarda tutiladi va u ko'pincha intervyu oluvchilar yordamida to'ldiriladi, ba'zida esa pochta orqali tarqatiladi yoki respondentlarga mustaqil to'ldirish uchun beriladi. Guruhli anketa so'rovi ish va o'qish joyilari bo'yicha keng qo'llaniladi. Anketalar to'ldirish uchun auditoriyada tarqatiladi, tadqiqot uchun tanlab olingan respondentlar auditoriyaga taklif etiladi. Odatda bitta anketa oluvchi 15-20 kishidan iborat guruh bilan ishlaydi. Bunda anketalarning 100 foiz qaytarilishi ta'minlanadi, respondentlar anketani to'ldirish texnikasi bo'yicha maslahatlashishlari, qiyin va noaniq savollarni aniqlashtirishlari mumkin, anketa oluvchi esa, savolnomalarni yig'ayotganda, anketalarning to'ldirilishi sifatini nazorat qiladi. Guruhli anketalash psixologik muhitni yaxshilaydigan va javoblar sifatini oshiradigan ma'lum bir maxsus sharoitlarning ta'minlanishini taqozo etadi. So'rov o'tkaziladigan xona psixologik jihatdan neytral (dam olish xonasi), halal beruvchi omillardan (telefon qo'ng'iroqlari, begona suhbatlar, musiqa, televizor, begona odamlar va h.k.) holi bo'lishi lozim. So'rov ishtirokchilari anketani to'ldirish uchun qulay sharoitlar bilan ta'minlanadi: ular bir-biridan ma'lum bir uzoqlikda o'tiradilar, ya'ni atrofdagilar orqadan ularni kuzatayotgandek tuyulmasligi kerak; bunday sharoitda ular savollarga diqqatni jamlab, javoblarni chuqur o'ylab berishlari mumkin va bunda vaziyatni, savollarni va javoblar variantlarini boshqalar bilan maslahatlashmaydilar. Turli xil rahbarlarning aralashishlariga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi, anketalarni to'ldirish paytida ishtirokchilarning javoblarini bilan tanishish ham mumkin emas. Javoblarning mahfiyligi so'zsiz ta'minlanishi lozim. Zarur bo'lsa, to'ldirilgan anketalar raqamlanmasdan, maxsus qutiga tashlanadi. Mahalliy sotsiologiyada yakka tartibdagi (individual) anketa so'rovi keng tarqalgan. Undan 75—80 foiz hollarda foydalaniladi. Individual anketalashdan foydalanilganda tarqatma (kurerlik) anketasi yordamida anketa o'tkazuvchi anketani respondentga

berib, uni keyingi uchrashuvda qaytarish muddatini kelishib oladi, yoki uni to'ldirish qoidalarini va so'rov maqsadini tushuntirib, anketaning to'ldirilishini kutib turadi. Birinchi holda respondent anketani to'ldirish, javoblarni o'ylab olish uchun ko'proq vaqtga ega bo'ladi, ammo bunda anketani qaytarish muammosi va so'rov mavzusini begona odamlar bilan muhokama qilish, hattoki respondentni almashtirish imkoniyati tug'iladi. Tarqatma individual anketalash turar joy bo'yicha ham, ishlash joyi bo'yicha ham qo'llaniladi. Ijtimoiy psixologiya ko'proq testlar va sotsiometrik usullarga moyil. Ammo anketa protsedurasi ham odamlar xulq-atvorini, ular faoliyati motivatsiyalarini va qadriyatlarini o'rganadigan psixologiyada ham tez-tez uchrab turadi. Yakka tartibdagi anketalashda savolnomalar respondentlarning ish joylari yoki turar joyi (o'qish joyi) bo'yicha tarqatiladi, qaytarish vaqti esa oldindan kelishib olinadi. So'rovning bu shakli guruhli anketalashdagidek afzalliklarga ega.

Xorijda esa vaziyat boshqacha. AQSh, Germaniya, Fransiyadagi aksariyat tadqiqotlar shaxsiy intervyu orqali olib boriladi. Turli va yetarlicha asosli sabablarga ko'ra (odamlar o'qish yoki yozishni yomon ko'radilar yoki (va) buning ilojisi bo'lmaydi, uzundan-uzoq javoblarni xush ko'rmaydilar, juda ko'p xatoga yo'l qo'yadilar, javoblarni chala beradilar, javoblar o'rinli bo'lmaydi va h.k.) sotsiologlar anketalashdan foydalanmaslikka harakat qiladilar, ya'ni respondentlarning anketalarni o'zlari to'ldirishlariga yo'l qo'ymaydilar. Respondent, keyin intervyu oluvchi ham, ilmiy jarayonning uzun zanjirida eng zaif bo'g'inga aylanadi.

So'rovning texnik vositalari. Sotsiologik so'rovlar ancha qimmatga tushadigan tadbir, ayniqsa agar unda bir necha mingta kishi ishtirok etsa. Madaniy farqlarni tadqiq etishda bunday so'rovlar ba'zida bir vaqtda bir necha mamlakatlarda olib boriladi. Ularning qiymati yuqori, chunki respondent bilan bir marta muloqot qilish, olingan natijalarni ularni qayta ishlash markazlariga yuborish, xoh u shaharlararo telefon qo'ng'irog'i, pochta xabari, telefaks bo'lsin, juda qimmat turadi.

Bugungi kunda telefon va kompyuter — sotsiologning eng yaqin texnik yordamchilaridir. Birinchisi ofisdan minglab kilometr narida bo'lgan ancha ko'p respondentlarni qisqa muddatlarda so'rovdan o'tkazish imkonini beradi. Ikkinchisi onlayn-rejimda yana ham ko'proq odamlarni so'rovga jalb qilishi mumkin, bunda uning tannarxi minimal bo'ladi, ma'lumotlar esa maxsus dasturlar yordamida tez qayta ishlanadi.

Butun dunyo miqyosida Internetdan foydalanuvchilarning soni yil sayin o'sib bormoqda. Bu esa tadqiqotchi kompaniyalarga tadqiqotlarni o'tkazishda Internetdan keng foydalanish imkonini bermoqda. Shubhasiz,

yaqin kelajakdayoq hozir an'anaviy usulda olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati onlayn rejimiga o'tadi. Bu erda ikkita afzalik yaqqol ko'zga tashlanadi: tadqiqotni o'tkazish qiymati va muddatlari. *Web-intervyu* tushunchasi oddiy bo'lib qoladi. Internet bir martalik muloqot bahosini deyarli nolga tenglashtirdi.

Shunday qilib, bugungi kunda sotsiologlar yoppasiga o'tkaziladigan tadqiqotlardan voz kechib, tanlanma asosida ishlashga o'tdilar, bu esa nafaqat moliyaviy, balki ilmiy jihatdan ham manfaatlidir. Shuning uchun biz o'z-o'zimizga shunday deyishimiz lozim: butun populyatsiya (yoki umumiy yig'indi) haqida axborotni to'plashning nafaqat imkoni yo'q, balki ko'pincha keragi ham yo'q. Ammo agar sotsiologdan butun bir toifa kishilar, masalan, eruvchan kofe iste'molchilari haqida aniq axborot talab etilsa, ayniqsa marketing tadqiqotlarida, buyurtmachi o'z cho'ntagidan (o'z foydasining bir qismidan voz kechib) kattagina mablag' ajratadi va bu holda tadqiqot olib boruvchi firma o'z obro'sini himoya qilishi zarur. Bunda tanlanma so'rov o'tkazishda uning barcha qonun-qoidalariga rioya qilish, javobgarlikni chuqur xis etish, barcha uslubiy qoidalarga amal qilish darkor.

Kuzatish metodi.

Har qanday fan faktlarga asoslanadi. Obyektiv reallikning ushbu dalillarini to'plangan, taqqoslangan, guruhlagan va umumlashtirgan holda, bizning iroda va ongimizdan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan obyektiv qonuniyatlarini ochadi. Ushbu faktlarni ochish usullari ilmiy tadqiqot metodlari deb ataladi. Insonlar xulqini tadqiq etishda kuzatish metodi ayniqsa samaralidir. Bu metod orqali inson o'zi guvoh bo'lgan voqeani bevosita qayd etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kuzatish metodi barcha ijtimoiy fanlarda faol qo'llaniladi. Masalan Statistika va Demografiyada kuzatish: (so'rov, vizual kuzatuv, uylarni aylanib chiqish yo'li bilan yozma ma'lumotlarni yig'ish)dir. Psixologiya, Sotsiologiya va Antropologiyada esa kuzatish bevosita olimlarning ma'lumotlarini vizual yig'ishiga aytiladi.

Psixologiyada ilmiy-tadqiqotning asosiy metodlari— kuzatish va eksperimentdir. Sotsiologiyada esa so'rov va hujjatlarni tahlil qilish metodi hisoblanadi.

1.1. Kuzatish metodi sotsiologiyaga antropologiyadan kirib kelgan, degan fikr mavjud. Antropologlar kam sonli xalqlarning hayot tarzi, ijtimoiy aloqalari, odat va an'alarini kuzatadilar. Antropologiyadan kuzatish turlarini klassifikatsiyalash kirib kelgan. Uni psixologlar va iqtisodchilar, etnograflar, politologlar, madaniyatshunoslar, shuningdek biologlar ham juda yaxshi o'zlashtirganlar. Kuzatish tadqiqotchi

tomonidan dastlabki axborotni bevosita va to'g'ridan-to'g'ri yig'ish imkonini beruvchi metoddir. Asosiy og'irlik ko'zlarga tushadi. Kuzatish o'z tabiatiga ko'ra sodir bo'layotgan voqealarga diqqat bilan qarash, ularni to'g'ri idrok etish va mustahkamlashni anglatadi. Ilmiy jihatdan olganda obyektни har qanday vizual idrok etish ilmiy kuzatish deb atalmaydi. Ularni kundalik kuzatish deb atash mumkin, to'g'ri u ham fikrlash uchun ko'p ma'lumot berishi mumkin. Kuzatuvchi insonni doimo donishmandga tenglashtirishgan. Zamonaviy psixologlarning ta'kidlashlaricha, ilmiy kuzatish asosida diqqat qilish qobiliyati yotadi. Inson o'zini anglashni boshlashi bilanoq doimiy ravishda qushlar parvozi, jonivorlar xulqi, insonlarning o'zaro aloqalarini kuzatishga kirishgan. Kuzatgan voqealarini tahlil qilgan, xulosa chiqarib hatto kelajakni bashorat qilishga harakat qilgan. Shunday qilib kuzatish-bilimning qadimiy metodlaridandir. Kuzatish usuli hayratlanarli ravishda tabiiydir. Uning birinchi yutuqi yani afzalligi ham ana shundadir. Inson tabiatiga kuzatuvchi pozitsiyasi nisbatan yaqinroqdir.

Uning keyingi afzalligi - bevositaligidadir. Olim ham xuddi baxshi kabi nimani ko'rsa shu haqida kuylaydi. Bevositalik barcha davrlarda ham empirik bilishning muhim indikatori vazifasini o'tagan. Unga bevosita ya'ni ovoz, ko'rish, tuyish yordamida erishganlar.

Uchinchi afzalligi - mutaxassis bo'lish talab etilmasligidir. E'tiborli kuzatuvchi bo'lish uchun Garvard universitetini tugatish shart emas. "Xira tortmagan munnavar nigoh", ko'pincha donishmand ko'zidan yashirin bo'lgan narsalarni ko'ra oladi.

To'rtinchi afzalligi - tadqiqotchi kuzatish metodi orqali guruh a'zolarini istaklariga ko'ra ham ma'lumot yig'ish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksincha sotsiologik so'rovlarda ko'pincha respondentlarning qarshiligiga duch kelinadi, ular o'zlari uchun muhim bo'lgan ma'lumotni oshkor bo'lishidan qo'rqib, so'rovnomalarda ishtirok etishdan voz kechadilar. 2002 yil aholini ro'yxatdan o'tkazishda mutaxassislar shunga o'xshash holatni kuzatganlar, shuning uchun kuchli tashviqot kompaniyasi olib borilgan.

Beshinchi afzalligi - maxsus apparaturaning talab etilmasligi. Gap oddiy kuzatish haqida ketganda, unda hech qanday valtmetr, trenojer, anketalarni ko'paytirish uchun tipografiyalar kerak emas.

Ilmiy kuzatishning o'ziga xos qirralari. Ilmiy kuzatish aniq maqsad qo'yish va rejalashtirishni talab etadi. Oldindan aynan qanday ijtimoiy jarayonlar va ko'rinishlar kuzatuvchini qiziqtirishi aniqlab olinadi, ularni

qanday tashqi belgilari bo'yicha kuzatish mumkin, kuzatish qay sharoitlarda yuz beradi va natijalar qanday qayd etiladi belgilab olinadi.

Ijtimoiy fanlarda kuzatishning o'ziga xosligi shundaki, faqatgina tashqi xulqga tegishli bo'lgan (harakat, so'zlarni og'zaki bayon etish) faktlarinigina ko'rish va qayd etish mumkin. Bizning fikrlarimizni, hayollarimizni kuzatishning iloji yo'q. Kuzatish natijalarining to'g'riligi nafaqat faktlarni aniq qayd etishga bog'liq, balki ularning ta'biri bilan – psixologik ma'nosining aniqlanishi bilan ham bog'liqdir. Odatda kuzatish xulqning qandaydir tarafi xususida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun qo'llaniladi. Gipotezalarni kuzatish doirasida ham oldinga surish mumkin, biroq sotsiologlar ularni boshqa tadqiqot turlari yordamida tekshirib ko'rishni, masalan, matematik statistikaga asoslangan anketalashtirish orqali afzal ko'rishadi.

Kuzatishning afzallik va kamchiliklari.

Birlamchi yig'ish metodi sifatida kuzatishning spetsifikasi hodisalarni ularning umumiyligida tahlil qilish va amalga oshirish qobiliyatida o'z aksini topadi. Buning natijasida har tomonlama yetarli va to'liq ma'lumot olish mumkin. Kuzatish davomida boshqa metodlar yordamida qayd qilib bo'lmaydigan narsalarni, aynan xulq-atvor yo'nalishi, mimika, individlarning va to'liq guruhlarining harakatlarini qayd qilish mumkin.

Kuzatish axborot yig'ishning boshqa metodlari bilan birgalikda ishlatiladi. U anketalashga nisbatan chuqurroq material beradi. Kuzatishni axborot yig'ish metodi sifatidagi afzalligi bevosita bo'g'inlarning yo'qligidir, ya'ni bu yerda tadqiqotchi va tadqiq qilinayotgan obyekt o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bo'ladi. Biroq afzallik bir lahzada kamchilikka aylanib qoladi, negaki kuzatish davomida olimning hodisalarning tabiiy borishiga aralashuv xavfi balanddir. Kuzatishning ajoyib qirradi uni boshqa sotsiologik metod bilan birga olib borishdir. Uni anketalash, intervyu, hujjatlar tahlili va tajriba bilan birga qo'shimcha metod yoki asosiy metod sifatida ishlatish mumkin. Biroq har bir metod haqida buni aytib bo'lmaydi, ikkita metoddan birga foydalanish ko'pincha samarali natijalar beradi.

Metodning o'ziga xosligi shundan iboratki kuzatish vaziyati ko'p jihatdan ajoyibdir. Negaki u obyekt holatini “bu erda” va “hozir” kabi harakterlab beradi. Shuning uchun kuzatish natijalarini umumlashtirish yetarlicha ma'lum harakterga ega. Kuzatishlar respondentlarga, ma'lumotlarga ta'sir ko'rsatishdan saqlaydi. Lekin kuzatuvlarni ta'sir kuchini oshiradi va uni oldindan kutilgan ma'lumotlar harakterini

belgilaydi. Kuzatishning yana bir afzalligi shundaki, sotsiologiyaga kiritilgan sotsial bo'limlar kuzatuvchilar tomonidan qabul qilinadi va ularni har doim emotsional bo'yoqlarda yanada kuchli kuzatuv obyekti va kuzatishlarga nisbatan zichroq joylashgan. Boshqa kuzatishlar ichida mutaxassislar tezkorlik bilan ma'lumot olishni loyiq topadilar. Qisqasini aytganda bu metod o'ta subyektiv bo'lib, kuzatuvchini shaxsiy xususiyatlari uning xulosalarida namoyon bo'ladi. Kuzatishning kamchiliklariga: tadqiqotchi tomonidan barcha jamlangan ko'rinishlar o'rganilayotgan jarayonni qamrab ololmasligini, qiyinchiliklarini harakterlaydi (ayniqsa bu kiritilgan kuzatuvda bilinadi). Kuzatilayotgan ko'rinishlar ko'rsatmalar bilan bog'liq bo'ladi. Subyektivlikdan qochib bo'lmaslik ham o'rganilayotgan kuzatishlarda ko'riladi.

Ekspert baholash metodi.

Intervyu olish, so'rovnoma, pochta va matbuot so'rovlari, telefon orqali intervyu olish eng avvalo ommaviy izlanishlar uchun zarurdir. Ularni tashkil qiluvchilar respondentlarning bilimlari, fikrlari va ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi ma'lumotlarni yig'ishga harakat qilishadi va ularning dunyoda yuz berayotgan u yoki bu hodisalarga munosabatini va x.k bilishga intilishadi. Aynan mana shu obyekt vakillari tadqiqot obyektining u yoki bu taraflari haqida baho beruvchi ijtimoiy axborot manbasi sifatida ishtirok etadi.

Biroq amaliyotda shunaqa vaziyatlar paydo bo'lib qoladiki, bunda muammoni tashib yuruvchi obyektни ajratib olish va undan axborot manbasi sifatida foydalanish qiyinlashadi yoki buning umuman iloji bo'lmay qoladi. Ko'p hollarda bunday vaziyatlar u yoki bu ijtimoiy hodisa, jarayonni o'zgarishini oldindan bashorat qilishga urinishlar bilan; tadqiqotchini qiziqtiruvchi predmetni holatini bir, ikki, besh undan ko'proq yildan keyin tanishtirish zaruriyati yoki faoliyatning bu tomonlariga va odamlar sifatiga obyektiv baho berish bilan bog'liqdir.

4.Sotsiologik anketani tuzish texnikasi. Sotsiologik tadqiqotlar ichida o'zining samarali va ishonchliligi bilan muhim o'rin egallovchi metod, so'rov metodi bo'lganidek, so'rov metodining tadqiqot o'tkazish uchun qo'llaniladigan usullari ichida o'zining qulayligi, samaradorligi va tejamliligi bilan anketa usuli yetakchi o'rin tutadi.

Anketa – bu muammoni hal qilish uchun ilgari surilgan gipotezani tekshirishga yoki muammoni hal qilish yo'llarini topishga layoqatli savollar tizimidir. Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, so'rov metodi u intervyu bo'ladimi, anketa bo'ladimi, test bo'ladimi umuman bu metodning asosiy instrumenti savol hisoblanadi. Anketada ham savollar

asosiy unsur bo'lib, uning qay darajada tuzilishi sotsiologik ma'lumotlar to'planishida va sifatli javoblar olinishida muhim rol o'ynaydi.

Anketa savollar shakliga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri, ochiq, yopiq, yarim yopiq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, savollar muqobil bo'lishi mumkin. Masalan, Siz bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'ullanasiz?

Yana menyu savollar ham bo'lishi mumkin. Masalan: Siz qanaqa kitob o'qishni istaysiz?

Ochiq savol: Aytingchi, siz O'zbekiston kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

Bu savolga respondent o'z dunyoqarashi, ma'lumotidan kelib javob yozadi.

Yopiq savol: Siz chet tillaridan birontasini bilasizmi?

1. Ha
2. Qisman
3. Yo'q

Yarim yopiq savol: Sizningcha, O'zbekistondagi ekologik vaziyat qanday ahvolda?

1. Yaxshi
2. Yomon
3. O'rtacha
4. Fikringiz _____

Anketa usuli yordamida so'rov o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish boshqa so'rov metodlari kabi 3 bosqichga bo'linadi.

1. Adaptatsiya (ko'nikish)
2. Asosiy davr (ma'lumotlarni to'plash)
3. Yakun yasash

Endi anketaning tuzilishi va uning ketma-ketligini ko'rib chiqamiz. Anketa 4 qismdan iborat:

1. Titul varag'i
2. Kirish qismi
3. Asosiy qismi
4. Ijtimoiy – demografik qismi.

Titul varag'i – anketaning birinchi qismi bo'lib, respondentga murojaatdan boshlanadi va qaysi tashkilot so'rov o'tkazilayotganligi, tadqiqotning umumiy maqsadi, natijalari qanday qo'llanilishi, respondentning shaxsiy ahamiyati, javoblarning kafolatlanishi ko'rsatiladi.

Kirish qismi – anketaning ikkinchi qismi bo'lib, ko'pincha titul va kirish qismlar birgalikda kirish qismi deb yuritiladi. Bu qismda ham anketani to'ldirish qoidalari tushuntiriladi va respondentning ishtiroki

muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi, respondentning ishtiroki va bergan javoblari uchun minnatdorchilik bildiriladi.

Asosiy qismi – bir necha savollar blokini o'z ichiga oladi.

1-blok: haqiqiy ma'lumot olishga qaratiladi va uncha qiyin bo'lmagan kontakt savollar beriladi.

2-blok: savollar murakkablashib boradi.

3-blok: eng nozik nazariy savollar kiritiladi va ma'lumotni chuqurlashtirish hamda tekshirishga qaratiladi.

Shundan so'ng anketaning so'nggi qismi tuziladi.

Ijtimoiy – demografik qismi – bu qismda respondentning ijtimoiy ahvoli, karakteristikasi, lavozimi, kasbi, oilaviy ahvoli, ma'lumoti, yoshi, jinsi millati, mehnat staji, daromadi kabilarni aniqlash uchun savollar beriladi. Anketaning bu qismi pasport qismi deb ham yuritiladi. Bu qismdagi savollar aniq javoblarni talab qiladi, odatda, bu qismdagi javoblarning haqqoniylik darajasi yuqori bo'ladi. Bu qism eng muhim xususiyati bilan ajralib turadi, ya'ni ma'lumotlar olingandan so'ng tahlil qilishda bu qismga noto'g'ri berilgan javoblar mavjud anketa bekor qilinadi. Anketani tekshirish uchun shu qismdan boshlanadi.

Nazorat savollari:

1. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilish nimadan boshlanadi?
2. Sotsiologik tadqiqot metodlariga tavsif bering.
3. Sotsiologik tadqiqot dasturi bosqichlarini aytib bering.
4. Sotsiologik so'rov usuli afzalliklari va kamchiliklari haqida bayon qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrirdagi 2015 yil).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi "O'zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida"gi PQ-2821 sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3031-sonli qarori.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizda 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: O'zbekiston, 1992.
6. Aliqoriev N.S. va b.Umumiy sotsiologiya. – Toshkent, 1999.
7. Afanasev V. G. Chelovek v upravlenii obhestvom. - M., 1977.
8. Bekmurodov M., Sultonov T. Sotsiologiya asoslari "Ma'ruzalar matni".T.2000.
9. Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent: Sharq, 2002.
10. Gumilyov L.N. Qadimgi Turklar. T.: Fan. 2007.
11. Gonoshvili A.S. Metodologicheskie osnovo sotsiologii sporta. - Sank-Peterburg: Izdatelstvo "Lema", 2017.
12. Umarova R., Sarkisov B. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004.
13. Quronov M. Milliy tarbiya.-Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
14. Quronov M.O'zbek xarakteri va milliy g'oya.-T: "Ma'naviyat", 2005.
15. Kerimov F.A. Sport sohasida ilmiy tadqiqotlar.//Darslik.T:Zar qalam, 2018.
16. Kirilenko O.N. Mejdunaronaya assotsiatsiya sotsiologii sporta (International sociology of sport association — ISSA): istoriya i napravleniya deyatelnosti na sovremennom etape.-2009.

17. Koshbaxtiyev I.A. Valeologiya studencheskoy molodeji. Tashkent, 2000.
18. Kon I. S. Sotsiologiya lichnosti. - M., 1967.
19. Kravchenko A.I. Sotsiologiya: Obhiy kurs: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: PERSE; Logos, 2002.
20. Lubo'sheva L.I. Sotsiologiya fizicheskoy kulturo i sporta. – M: Akademiya, 2001.
21. Matveev L.P. Osnovo obshey teorii sporta i sistemo podgotovki sportsmenov. Kiev, 1999.
22. Matveev L.P., Melnikov S.B. Metodika fizicheskogo vospitaniya s osnovami teorii. Uchebnoe posobie. Moskva., «Prosvehenie», 1991.
23. Mahkamov U. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. - T.: "Fan", 1995.
24. Munavvarov A. K. Pedagogika. T.: "O'qituvchi", 1996.
25. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish.-T.: "Fan", 1993.
26. Nazarov Q., Ergashev I. va boshqalar. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati.-T:G'ofur G'ulom, 2007.
27. Nazarov N.N. Sog'lom hayot va gen injeneriyasi (monogafiya).-T: Tafakkur qanoti, 2011.
28. Nazarov N.N. Sport falsafasi (monogafiya)-T: O'zDJTI nashriyoti, 2014.
29. Nazarov N.N. Ijtimoiylashuv jarayonida jismoniy tarbiyaning ahamiyati.//O'zMU xabarleri, 2013 yil, 3-son.
30. Nasriddinov F.N., Shaternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport. –T.: 1999.
31. Otamuratov S. Globallashuv va millat.T.:Yangi asr avlodi, 2008.
32. Parsons T. Chelovek v sovremennom mire: Per. s angl. /Pod obh. red. .A.Kuvakina. - M., 1985.
33. Platonov V.N. Adaptatsiya v sporte. Kiev, 1988 yil.
34. Ponomarev I. I. Vozniknovenie i pervonachalnoe razvitie fizicheskogo vospitaniya. - M., 1970.
35. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati.//Darslik.T: ITA-PRESS, 2015.
36. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat.-T: Sharq, 2001.
37. Smirnova S.V. Sotsialno-psixologicheskaya profilaktika molodyojnoy kriminalnoy agressivnosti. Avtoreferat dissertatsii na

- soiskanie uchenoy stepeni kandidata psixologicheskix nauk. Moskva, 2007.
38. Tohenko J.T. Sotsiologiya. Obshiy kurs. – 2-e izd., dop. i pererab. – M.: Prometey: Yurayt-M, 2001.
 39. Sharafiddinov.O. Ma’naviy kamolot yo‘lida.-Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
 40. Shopulatov A., Ochilov O. Sport sotsiologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.-T: O‘zDJTI nashriyoti, 2014 .
 41. Shopulatov A. Jismoniy tarbiya va sportda sotsiologik tadqiqotlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.-T: O‘zDJTI nashriyoti, 2015.
 42. Shopulatov A.N. Insonning shaxs bo‘lib ijtimoiylashuvida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati.//Fan-sportga, 2017 yil, 3-son.
 43. Xolbekov A. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining sotsiologik ta’limoti. – Toshkent, 1996.
 44. Xarcheva V. Osnovo sotsiologii: Uchebnik dlya srednix spetsialnox zavedeniy.- M., 1997.
 45. XushvaqtoV Z.R. Yoshlar tarbiyasida jismoniy va ma’naviy tarbiya birligining ahamiyati.//Fan-sportga//O‘zDJTI, 2013 yil.
 46. Erkaev A. Ma’naviyat va taraqqiyot.-Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
 47. Erkaev A. Tafakkur erkinligi. –T: Ma’naviyat, 2007.
 48. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari.-Toshkent: Universitet, 1998.
 49. Yadov V.A. Strategiya sotsiologicheskogo issledovaniya. Opisanie, obyasnienie, M.; 1997.
 50. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. Darslik. – T.: Ibn Sino, 2002.
 51. Yarashev K.D. Ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va xalq milliy o‘yinlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash masalalari. Monog., -T.: O‘zDJTI nashr.1997.
 52. Yaqubov F.M. Sport qadriyatlari – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur tarzini rivojlantirish uslubi sifatida. // “Ilm sarchashmalari” ilmiy metodik jurnali. 2020 yil 5-son, 133-136-betlar.
 53. Yaqubov F.M. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari sport tafakkuri va uning uslublari yaratish orqali tafakkur tarzini takomillashtirish yo‘llari // “Fan-sportga” ilmiy-nazariy jurnali. 2019 yil 4-son, 23-28-betlar.
 54. Yaqubov F.M. “Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur xususiyatlari” Uslubiy qo‘llanma. 2020 y.

**SHOPULATOV ABDIMALIK NURULLAYEVICH
YAQUBOV FAZLIDDIN MUXITDINOVICH**

**JISMONIY TARBIYA VA
SPORT SOTSIOLOGIYASI**

O‘quv qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2021-yil 30-avgustdagi 375-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat
berilgan.
(Qayd etish raqami 375-9)

Bosishga ruxsat etildi 30.06.21. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.
Hajmi 19,3 fiz.b.t. 19-16 raqamli shartnoma. Adadi 100 nusxa.
141-son buyurtma.
O‘zDJTSU nashriyot-matbaa bo‘limi, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar,
111709,
Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.